



ZANGORI GILAM





ZANGORI GILAM

Gruzin, ozarbayjon, arman va osetin
xalqlari ertaklari



TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2016

UO'K 398.2(100)

KBK 84(0)

J 32

To'plab, nashrga tayyorlovchi *Barno Xudayarova*

Qo'lingizdagi ushbu kitobda gruzin, ozarbayjon, arman va osetin xalqlarining ibratli ertaklari jamlangan. Asrlar osha og'izdan og'izga ko'chib, bizgacha yetib kelgan mazkur janr namunalari barcha ertaklarda bo'lgani kabi vatanparvarlik, mardlik, halollik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Yolg'onchilik, hasad, dangasalik kabi illatlar qoralanadi.

To'plamdan o'rin olgan ertaklar Siz aziz o'quvchilarimizga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

J 32 Zangori gilam [Matn]: jahon xalqlari ertaklari/ —
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. — 256 b.

Adabiy-badiiy nashr

(O'smir yoshdagi bolalar uchun, III gr.)

ZANGORI GILAM

Gruzin, ozarbayjon, arman va osetin xalqlari ertaklari

Muharrirlar: *L. Igamova, B. Xudayarova*, rassom *G. Shoabdurahimova*,
rassom-dizayner *D. Mulla-Axunov*, texnik muharrir *B. Karimov*,
kichik muharrirlar: *D. Xolmatova, G. Yeraliyeva*, musahhih *S. Saloxutdinova*,
kompyuterda sahifalovchi *F. Tugusheva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

2016-yil 21-noyabrda bosishga ruxsat etildi.

Ofset qog'ozi. Bichimi 70×90^{1/16}.

«School Book» garniturasida ofset usulda bosildi.

Shartli bosma tabog'i 18,72. Nashr tabog'i 17,58.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 16-753.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz

UO'K 398.2(100)
KBK 84(0)

ISBN 978-9943-28-729-7



© B. Xudayarova (toplab, nashrga tayyorlovchi), 2016
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2016

Gruzin

xalq ertaklari



MEHNAT BILAN TOPILGAN TANGA

Bir kishining bitta-yu bitta o'g'li bo'lib, juda ham dangasa ekan. Otasi uni qo'lidan kelgancha, qartayib kasal bo'lib ishga yaramay qolguncha boqibdi. Ko'rpa-yostiqliq qilib o'rnidan turolmay qolgandan keyin, bir kuni xotinini chaqirib:

— Bor bisotimni o'g'limga qoldirgandan ko'ra, begonaga berganim yaxshi. U yalqovning qo'lidan hech ish kelmaydi, ishlab bir tanga ham topa olmaydi, — debdi.

Ona sho'rlik kuyib-pishib o'g'lining yonini olibdi:

— Bir tanga ham topa olmaydi deganing nimasi?!

Eri bo'lsa o'zinikini ma'qullab:

— Qani, qo'lidan kelsa, ishlab pul topib kelsin, bor bisotimni unga qoldiray, — debdi.

— Bo'pti, — deb javob beribdi ona.

Borib o'g'liga bir tanga beribdi-da, unga:

— Kechgacha aylanib yurgin-da, kechqurun kelgandingda otangga shu pulni berib, o'zim ishlab topdim degin, — deb o'rgatibdi.

O'g'li xuddi onasi aytganday qilibdi. Kechqurun otasining yoniga kelibdi-da, haligi tangani berib:

— Bu bir tangani deb rosa ishladim-da, o'zi ham o'lgudek charchadim, — debdi.

Otasi pulni olibdi-da, hidlab ko'rib, o'choqqa tashlab yuboribdi.

— Buni sen ishlab topmagansan, — debdi otasi o'g'liga.

O'g'li kulib chiqib ketibdi. Ona sho'rlik endi nima qilsin? U o'g'liga tag'in bir tanga beribdi-da:

— Kuni bilan bekor sanqib yursang ham mayli, faqat kechqurun ikki chaqirimcha yerdan chopib kelgin, biroz terlagin, keyin otangning yoniga kirganingda bu pulni peshana teri to'kib topdim degin, — deb uqtiribdi.

O'g'li xuddi shunday qilibdi. U kechqurun otasi-ning yoniga halloslab kiribdi-da:

— Ko'rdingizmi, ota, terga botib ketdim, pul topish oson emas ekan, — debdi.

Otasi pulni olibdi-da, hidlab ko'rib, yana o'choqqa tashlab yuboribdi.

— Meni aldayolmaysan, o'g'lim, — debdi ota, — bu pullarni sen ishlab topmagansan.

O'g'li pinagini buzmay, kulib uydan chiqib ketibdi.

Onasi bunday o'ylab qarasa, ish chatoq, shunda:

— Ko'rdingmi, o'g'lim, otangni aldab bo'lmas ekan. Endi ishlamasang bo'lmaydi. Boraqol, o'g'lim, peshona tering bilan pul topib otangga olib bormaguningcha baribir u ishonmaydi, — debdi.

O'g'li onasining gapiga kirib, bir hafta mehnat qilibdi. Birovlarning hojatini chiqarib, birovlarining narsasini ko'tarib, bir tanga topibdi-da, otasiga olib kelib beribdi.

Mo'ysafid bu pulni ham hidlab ko'rib, o'choqqa tashlab yuboribdi-da:

— Yo'q, o'g'lim, bu pulni ham mehnat qilib topmagansan, — debdi.

O'g'li bunga chidolmay, yonib turgan o'choqqa qo'lini tiqib pulni olibdi-da, otasiga qarab:

— Bu nima qilganingiz, ota, — debdi. — Axir shu pulni men bir hafta belim bukilib ishlab topdim-ku, siz bo'lsangiz bu pulni yondirib yubormoqchisiz-a!

— Bu tangani o'zing ishlab topganingga mana endi ishondim, — debdi otasi shunda. — Nega deganda, yuraging achidi. Ko'rdingmi, o'g'lim, mehnat qilib pul topish shunchalik qiyin. Ishlasang to'yasan, boy-u badavlat bo'lasan. Ishlamasang, ochingdan o'lasan.

Shunday qilib, ota mol-mulkini o'g'liga vasiyat qilib qoldirib, o'zi borsa kelmas joyga ravona bo'lgan ekan.

OVCHI

Bor ekan-da, yo'q ekan, dunyoda bir ovchi bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni u ov qilgani o'rmonga boribdi. U kechgacha tentirab yurib, na bir hayvon, na bironta qush uchratmay, uyga quruq qaytibdi. Bechora dam olay deb, bir yerda o'tirgan ekan, qarasa, yosh kiyik o'tlab yurganmish. Ovchi mo'ljallab kiyikni otib o'ldiribdi-da, uning terisini shilayotib, boshi ustidan sakrab o'tgan ekan, bir zumda chiroyli qizga aylanib qolibdi. Ovchi juda qo'rqib ketibdi-yu, lekin nachora? Qizbola holicha qolaveribdi.

Qiz miltig'ini olib, o'sha yerdagi daraxtga osib qo'yibdi-da, o'zi boshi oqqan tomonga qarab ketaveribdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Uch kun deganda bir shaharga yetib boribdi. Qiz notanish shaharda qayerga borib, ichidagi dard-u hasratini kimga aytishni bilmay, tentirab yuraveribdi.

O'sha shaharda bir kampir yashar ekan. Kechqurun u sigirlarini uyga olib ketayotsa, yo'lda haligi qizni ko'rib qolib:

— Hoy, kimsan, qayerdan kelyapsan? Ota-onang kim, ular nega qorong'ida seni ko'chaga chiqarib yuborishdi? — deb hayron bo'libdi.


Qiz yetim ekanini, hech qanaqa qarindosh-urug'i yo'qligini aytibdi.

— Meni uyingizga olib borib, bir savobli ish qilsangiz-chi, — deb iltimos qilibdi u. — Siz ona bo'ling, men sizga qiz bo'lay, kuch-quvvatim ham joyida, fahmim ham yo'q emas, aytgan ishlaringizni bekam-u ko'st bajaraman.

Kampir suyunib ketib, qizni olib ketibdi. U juda chaqqon va ishbilarmon, juda aqlli, chiroyini-ku, gapirmasa ham bo'ladigan qiz ekan. Ko'p o'tmay uning dovrug'i atrofga taralib ketibdi. Kuyov bo'laman deganlar ham ko'payib ketib, tinim bermay qo'yishibdi. Kunlarning birida shahzoda shu ko'chadan o'tib ketayotib, go'zal qizni ko'rib qolibdi-yu, uning ishqiyuragiga jo bo'libdi. U uyiga juda g'amgin qaytibdi. Qancha harakat qilishmasin, shahzodaning ko'nglini ovlasholmabdi. Podshoning jahli chiqib, undan so'rabdi:


— O'g'lim, senga nima bo'ldi, qanday qayg'u o'z og'ushiga oldi seni?

Shahzoda bir go'zalni sevib qolganiga iqror bo'lib, o'sha qizsiz yashay olmasligini aytibdi. Shoh o'sha ondayoq qizga odam yuboribdi. Ular kampirni izlab topishibdi-da, qizni saroyga keltirib shahzodaga nikohlab qo'yishibdi.



Bir yildan keyin ular o'g'il ko'rishibdi. Kunlardan bir kun go'zal qiz: «Bir borib ko'ray-chi, miltig'im o'sha yerda turganmikin yoki biron kimsa olib ketdimikin», degan qarorga kelibdi.

Qiz hech kimga sezdirmay saroydan chiqib ketibdi. Yura-yura oxiri o'sha joyni topib boribdi. Qarasa, kiyik ham o'sha joyda yotganmish, miltig'i ham daraxtga osib qo'yilgancha turganmish. Shunda u o'ziga-o'zi: «O'shanda kiyikning ustidan sakrab o'tib, qizga aylanib qolgan edim, endi yana sakrab ko'ray-chi, erkak bo'lib qolsam, zora», debdi. Kiyikning ko'kragidan sakrab o'tgan ekan, juda ajoyib saman otga aylanib qolibdi. Ot gijinglab chopgancha saroyga kirib boribdi. Ot xuddi odamday fikr yuritarmish-u, lekin gapira olmasmish. Otni tutib, otxonaga olib kirib, yem berishibdi. Podshoning kelinini qidira-qidira topisha olmabdi. Osmonga chiqib ketdimi, yer yutib yubordimi, bilisholmasmish.




Oradan bir qancha vaqt o'tib, ot qulunlabdi. U shunaqangi chiroyli toy emishki, qaragan kishining ko'zi qamasharmish. Bunaqangi toyni hali hech kim ko'rmagan ekan. Bir kuni shoh otboqarining o'g'li otga minib olibdi-da, unga qamchi uribdi. Ot qamchi yemagan emasmi, cho'chiganidan bolani ustidan irg'itib yuboribdi-da, oyog'i yerga tegmay uchib ketibdi. Shu chopishda to'g'ri o'rmonga borib, kiyikning oyog'i ustidan sakrab o'tgan ekan, bir zumda katta qopag'on itga aylanib qolibdi. It chopgancha saroyga qaytib boribdi. U yerdagilar otni axtara-axtara topisholmabdi. Shohning nabirasi itni yaxshi ko'rib, undan ajralmay qolibdi. Oradan vaqt o'tib, it bolalabdi.

Kunlardan bir kuni podsho nabirasi toyni minib, itni yoniga olib ovga chiqibdi. O'rmonda u bir quyonni ko'rib qolibdi. Quyon qochibdi, it uni quvibdi. Quyon qocharmish, it quvlarmish. Ular yugura-yugura oxiri o'lib yotgan kiyikning yoniga borib qolishibdi. Quyon o'lib yotgan kiyikning dumi ustidan sakrab o'tib ketgan ekan, it ham uning ketidan sakrabdi, shu zahotiy oq u qaytadan asli holiga — ovchiga aylanib qolibdi. Ovchi o'zida yo'q suyunib, daraxtdan miltig'ini olibdi-da, o'g'lini axtarib ketibdi. Shoh nabirasi esa kutakuta nihoyat toqati toq bo'lib, itini axtarib ketibdi, chunki u yaxshi ko'rgan itidan ayrilib qolgisi kelmadida-da.

Qidira-qidira bunday qarasa, o'rmonda bir qasr turganmish. Shahzoda, bu qasr kimniki ekani, unda kim yashashi va nihoyat qasrning nima sababdan kimsasiz o'rmonga qurilganini surishtiribdi.


— Bu qasrda oy desa yuzi, kun desa ko'zi bor bir go'zal qiz istiqomat qiladi, — deyishibdi yigitga. — Unga hali hech kim aytmagan va hech kim eshitmagan uchta yolg'on gap aytish lozim. Har uchala yolg'on ham haqiqat bo'lib chiqishi kerak. Qizning oltin qozoni bor, oltin qozonda esa oltin suv bilan oltin go'sht bor. Kimda-kim haligi aytilgan yolg'on gaplarini aytsa, oltin qozondagi suv qaynab, oltin go'sht pishadi. Qiz esa o'sha kishiga turmushga chiqadi. Bordi-yu, o'xshatib aytolmasa, u odamning boshi kesiladi.

Yigit, hali hech kim eshitmagan uchta yolg'onni aytolmasligini bilsa ham, saroy tomonga boraveribdi. O'sha oy desa yuzi, kun desa ko'zi bor go'zalni hech bo'lmasa ko'rib ketishga qaror qilibdi.



«Bo'lgancha bo'lar, unga bir nigoh tashlasam bo'lgani» deb o'ylabdi yigit. U yo'lda xayol surib ketayotgan ekan, ro'parasidan ovchi chiqib qolibdi. Qarasa, oti olg'a yurmay, tixirlik qilayotganmish. Itning bolalari esa, ovchining atrofida girdikapalak bo'lishayotganmish. Yigit unga qarab hayratda qolibdi, achchig'i chiqib, otni qamchilabdi, ot esa turgan yeridan qo'zg'almaabdi. Shahzoda g'azablanib, ovchini o'ldirishni buyuribdi. Ovchi esa unga:

— Yur, seni aql bovar qilmaydigan darajada go'zal bir qiz huzuriga olib boraman-da, shunday gaplar aytamanki, qozondagi suvgina emas, toshdagi suvlar ham qaynab ketadi. Oy desa yuzi, kun desa ko'zi bor go'zal esa seniki bo'ladi, — debdi.



Yigit suyunib, ovchi bilan yo'lga tushibdi. Ular yetib borishibdi, go'zal qizga odam yuborishibdi. Ovchi: «Falon mamlakatdan falon podshoning nabirasi senga uchta yolg'on aytib, oltin qozoningdagi oltin suvni qaynatish va oltin go'shtni pishirish uchun tashrif buyurdi», — debdi.

Ovchi o'g'liga (ayollik paytida bu yigitni u tug'gan ekan-da):

— Borganimizdan keyin sen bir chekkada tur, shunda men: «Mening xojam charchagan, dilidagini aytishni menga buyurdi», deyman, — debdi.

Yigit rozilik bildiribdi. Ular kutishibdi. Qiz mehmonlarni olib kelishni buyuribdi. Hammalarini dunyoda tengi yo'q chiroyli qiz kutib turgan qasrga olib kirishibdi. Ovchi hammaga ta'zim bajo keltirib:

— Mana bu yigit mening xojam bo'ladi. U nihoyatda charchaganidan kerak gaplarni aytishni menga topshirdi. Agar ijozat bersalar, men so'zlasam, — debdi.

— Aytaqol, aytaqol! — degan soʻzlar eshitilibdi atrofdan.

Ovchi yigitning qoʻlidan ushlab:

— Men mana shu yigitning onasiman, desam, nima deysizlar? — deb soʻrabdi.

Oltin qozonning tagida oʻt yonibdi. Ovchi davom etibdi:

— Yoki mana bu otni ham sen tugʻmagansan, deb koʻringlar-chi!

Oltin qozondagi oltin suv qaynab ketibdi. Ovchi davom etibdi:

— Mana bu kuchuklarni ham men tugʻganman desam, ishonasizlarmi?

Oltin qozondagi oltin goʻsht pisha boshlabdi. Yigitga oy desa yuzi, kun desa koʻzi bor goʻzal qizni nikohlab berishibdi, juda ajoyib toʻy boʻlibdi.

Ovchi esa gʻoyib boʻlibdi. Uni uzoq vaqtga qadar axtarishisa-da, topisha olmagan ekan.

UCH OPA-SINGIL

Bor ekan-da, yoʻq ekan, bir er-xotin boʻlgan ekan. Ularning uchta qizlari bor ekan. Davlatlari ham, mol-mulklari, yer-suvlari ham shu qizlari ekan. Kunlarning birida onalari tokchani tozalayotsa, uchta bugʻdoy doni yerga tushibdi. Shu uchta donni yerdan olib, dalaga ekishibdi. Shunday don oʻsib yetilibdiki, asti qoʻyavering. Koʻz koʻrib quvonarmish. Bugʻdoy boshloqlari mavj urib dengizdek tebranarmish. Er-u xotin hosilga tikilib, sevinchlari ichlariga sigʻmasmish.

Bug'doy yetilgach, hammalari dalaga chiqib, uni o'rib olishibdi-da, bog'lam-bog'lam qilib, bir yerga g'aram qilib uyushibdi. G'aramning kattaligidan olti tomonidan tirgovich qo'yishibdi. Keyin uyga dam olgani ketishibdi.

Ertasi kuni otasi katta qizini xirmondan xabar olgani yuboribdi.

Qiz borsa, bug'doyning atrofini bahaybat gveleshapi¹ o'rab olib, dumini og'zida tishlab turganmish. Katta qiz buni ko'rib, yuragi yorilay debdi. Chopgancha uyiga borib, ko'rganlarini batafsil gapirib beribdi.

Ota o'rtancha qizini yuboribdi:

— Borib so'rab ko'r-chi, unga nima kerak ekan, nega kelganiykin?

O'rtancha qiz borib, gveleshapini ko'ribdi-yu, qo'rqib ketib, hech narsa so'ramay, zing'illagancha uyiga ravona bo'libdi.

Endigi safar ota kenja qizini yuboribdi. Qiz borib gveleshapidan:

— Ayt-chi, senga nima kerak, nega kelding? — deb so'rabdi.

Shunda gveleshapi:

— Borib otangga ayt, qizlaridan birini menga xotinlikka bersin, — debdi.

Qiz borib otasiga shu gapni aytibdi.

Ota katta qizidan:

— Qizim, gveleshapiga tegasanmi? — deb so'rabdi.

— Nega endi? — debdi katta qizi, — gveleshapini boshimga uramanmi, o'laqolsam ham unga tegmayman.

¹ *Gveleshapi* — odamlarga dushman bo'lgan afsonaviy mavjudot.

O'rtancha qiz ham otasiga xuddi shu javobni beribdi. Navbat kenja qizga kelibdi. Kenja:

— Mayli, roziman, — debdi.

Gveleshapi uni olib, jo'nab ketibdi. Gveleshapi sudralib borar, qiz esa uning ketidan ildam qadam tashlarkan. Ular qishloqdan ancha uzoqlashishgach, gveleshapi ustidagi terisini yechib tashlab, shunaqangi qaddi-qomati kelishgan yigitga aylanibdiki, undan ortiqroq yigitni orzu qilish mushkul ekan. Kelin suyunib ketibdi. Yigit qizga:

— Bizning mamlakatimizda kadjet tilida gaplashiladi. Agar onam senga xumni sindir desa — xum olib kelib berish kerak; suvni to'kib tashla desa — suv olib borib berish lozim; pechni buzib tashla degudek bo'lsa — pechka yoqqin degani; dasturxonni yig' desa — dasturxon tuzash kerak; tarelkalarni sindir desa, tarelka olib borib bergin, — debdi.

Shu tariqa qizga hamma gaplarni uqtirib, uyiga olib boribdi.

Ular kadjetlar yurtiga yetib borishibdi. Qaynonasi keliniga:

— Bor, suvni to'kib kel! — debdi.

Kelin esa, darrov o'rnidan turib, borib suv keltiribdi. Hamma ishni xuddi eri o'rgatganday ado etaveribdi. Hamma hayron bo'lib: «Endigina kelganiga qaramay, barcha gapga tushunadi, butun urf-odatlarimizni biladi-ya», deyisharmish. Yangi kelin hammaga yoqib qolibdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, u homilador bo'libdi. Farzand ko'radigan kuni yaqinlashganda uni o'z uyiga olib borishibdi. Opalari uning yaxshi turmush ke-

chirayotganini bilib, hasadlari kelibdi. Kenja qiz o'g'il ko'rgach, uni olib ketgani eri kelibdi.

Ular uyga ketishayotganda katta opasi, meni ham birga olib ketinglar, deb turib olibdi.

Kenja qiz unga:

— Opajon, bormay qo'yaqoling, qaynonam jahldor-roq, chiqisha olmaysizlar, — debdi.

Opasi esa, yo'q, boraman, deb axiri birgalashib ketibdi. Ular yo'lda ketishayotganda opasi kuyoviga:

— Singlim bola ko'tarib charchab qoldi. Men bolasini ko'tarishaman, sen bizga qaramay tezroq ketaver, senga yetib olamiz, — debdi.

Yigit ilgarilab ketib, opa-singil orqada qolishibdi. Ular ketishayotsa, yo'lda juda baland o'sgan olma daraxti uchrabdi. Daraxtning tanasi butoqsiz, silliq, mevasi esa daraxtning uchida emish. Opasi singlisiga:

— Men seni ko'taraman, daraxtga chiqqin-da, olma terib tush: faqat ko'ylaging kir bo'lmasligi uchun mening ko'ylagimni kiyib ol, bolangni esa men ushlab turaman, — debdi.

Singlisi rozi bo'libdi — opasidan hadiksiramabdi-da. Bolasini opasiga berib, uning ko'ylagini kiyib, opasi-ning yordamida daraxtga chiqib, olma tera boshlabdi. Opasi bo'lsa bolani olibdi-da, kuyovning ketidan chopib ketibdi. Bola yig'larmish, ko'z yoshi shashqator oqarmish-u, lekin unga hech kim parvo qilmas-mish. Daraxtning ustida qolgan onasigina o'g'lining big'illab yig'layotganini eshitib, chidamay opasiga qichqiribdi:

Ey, it ko'krakli, aldamchi opa,
O'g'limni qiynama, ko'p chopa-chopa!..

Qaytar uni tezroq o'zimga,
Ko'krak suti berib bosay yuzimga.

Opasi esa chopib ketaveribdi. Kuyovini ko'rgach, unga qichqiribdi:

— To'xtab turing, sutim qurib qoldi, bola tinmay yig'layapti.

Kuyovi to'xtabdi. Uni tanimay, xotanim, deb o'ylabdi. Nega deganda, ko'ylagi ham, pardozi ham xuddi xotininikiga o'xsharkan. Bolani ko'tarib, uylariga tomon ketishaveribdi.

— Opang qani? — deb so'rabdi kuyovi.

— Qaynonam bilan chiqisholmaysan, deb uyga qaytarib yubordim.

Uylariga yetib borishgach, qaynonasi:


— Kelinjon, ko'zani sindir! — debdi.

U ko'zani olib, yerga shunaqangi uribdiki, sharaqlab, mayda-mayda bo'laklarga bo'linib ketibdi.

— Tarelkani sindir, — degan ekan, u aytganidan ham ziyoda qilib jaranglatibdi.

— Pechkani buz, — degan ekan, boltani olib, kuchining boricha sharaqlatib uraveribdi. Uyda nimaiki bo'lsa, hammasini sindiribdi. Unga biron gap bo'lganga o'xshaydi, deb hammalari xavfsirab qolishibdi. Ayolning ko'kragida suti yo'qligi uchun bitta sigir boqib, bolani uning suti bilan boqishibdi. Bola ulg'ayib, sigirni o'zi o'tlatgani olib boradigan bo'libdi.


Onasi esa daraxt ustida yolg'iz o'zi qolib, ko'zida yoshi quribdi. Ko'z yoshi to'kilgan yerdan qamishlar o'sib chiqibdi, atrofda ming xil rangdagi gullar va giyohlar unibdi.




Kunlarning birida bola sigirini boshlab, o'sha olma daraxti yoniga olib boribdi. Bola qamishdan sindirib olib, tirnog'i bilan uni teshibdi-da, chala boshlabdi. Nay shunday navo qilibdi:

Surnayim, nechun bu g'amgin navoying?
Ne ma'no anglatar mungli sadoying?
Bu onang ko'z yoshi sevimli farzand!
Ey, o'g'lim, dil qo'rim, aziz jigarband!

Surnay faqat bir xil navo qilarmish, xolos. Bola uni mahkam quchoqlab, ko'kragiga bosibdi. Uyiga kelib chalsa, surnay yana o'sha kuyni qaytaribdi. Bu navoni o'gay ona eshitib qolgan ekan, xuddi cho'g' bosib olganday bo'libdi. U surnayni olib sindirib, mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlabdi. Uning bir bo'lagi yerga tushib, yana kuylay boshlabdi:



Surnayim, nechun bu g'amgin navoying?
Ne ma'no anglatar mungli sadoying?
Bu onang ko'z yoshi sevimli farzand!
Ey, o'g'lim, dil qo'rim, aziz jigarband!



O'gay ona eshitib, bolaning qo'lidan nayning parchasini ham olib, pechkaga tashlabdi. Nayning bo'laklari kuyib kul bo'libdi-da, kul bir yerga yig'ilib bechora onaning rasmi yasilib, pechkaning devoriga o'rnashib qolibdi. Bola pechka yonida o'tirib olib yig'labdi. O'gay ona pechkaga qarab, rasmni ko'rib qolib, azbaroyi jahli chiqqanidan kulni titkilab tashlab, bitta qo'ymay sidirib olibdi-da, hovliga sepib tashlabdi. Hovlida chiroyli

terak o'sib chiqibdi. Uni ko'rgan gveleshapi suyunib, o'rin-ko'rpasini ko'taribdi-da, terak tagiga o'ziga joy solib olibdi; u kechasi uxlab yotgan paytda terak o'z novdalari bilan erini quchib, erkalarmish. O'gay ona nihoyatda jahli chiqqanidan o'zini qo'yarga joy topolmay qolibdi. U o'zini kasalga solib, eriga:


— Agar shu terakni kesib, undan menga yuvindigan tog'ora yasab bersangiz tuzalaman, bo'lmasa o'laman, — debdi.

— O'lsang o'laver, jin urgur, men ham sendan qutulay, — debdi eri.

Gveleshapi ovga ketgan ekan, xotini xizmatkorlarini chaqiribdi-da, terakni kesib, undan tog'ora yasashni buyuribdi. Lekin cho'milmabdi, u kasal emas-ku, cho'milib nima qilsin?

Eri ovdan kelib, jahli chiqib ketibdi-yu, lekin nachora, bo'lar ish bo'lib, bo'yog'i singan ekan...

O'sha terakdan bitta payraha uchib borib, bir kampirnikiga tushgan ekan. Kampir uni olib borib, xamir tog'orasiga yopqich qilib qo'yibdi. Kampir uyidan chiqib ketishi bilan payraha ayolga aylanib, barcha idish-tovoqlarni yuvarkan, supurib-sidirarkan, hammayoqni chinniday qilib yig'ishtirarkan-da, yana payrahaga aylanib tog'oraning ustida yopqich bo'lib turaverarkan. Kampir kelib bunday qarasa, hammayoq artilgan, yuvilgan, saranjom-sarishta emish. U hayron bo'lib, hali u, hali bu qo'shnisinikiga chiqib, ularga minnatdorchilik bildirib yuribdi. Hammalari ham kampirning uyiga oyoq bosmaganlarini aytisharmish. «Yaxshisi, poylagin, kim ekani oshkor bo'ladi», — deyishibdi. Kampir xuddi shunday qilibdi. U bir yoqqa ketayotgan



bo'lib, uydan chiqibdi-da, eshikning orqasiga yashirinib olib poylabdi. Payraha bo'lsa kampir chiqib ketdi, deb o'ylab, ayolga aylanibdi-da, darrov supurib-sidirib, tozalashga kirishibdi. Kampir yashirinib kelib, uni mahkam ushlab olibdi.

– Voydod, holim voy bo'ldi! – deb baqiribdi ayol.

– Qo'rqmagin, sen qizim bo'lasan, men senga ona bo'laman, – debdi kampir. – O'zim yolg'izman, farzandim yo'q, menga qiz bo'la qol, aylanay.


Ayol suyunib ketibdi. Ular birga totuv va baxtiyor yashay boshlashibdi.

Kunlarning birida ayol kampirdan iltimos qilibdi:

– Aziz onajonim, huv anavi yerda o'g'li va xotini bilan yashaydigan gveleshapini biznikiga mehmonga taklif qilsangiz.

Kampir rozi bo'libdi:

– Nega chaqirmaylik, qizalog'im, taklif qilaman, istagingni bajo keltiraman.



Ayol ovqat hozirlab, eri, o'g'li va opasini mehmonga chaqiribdi. Ovqat keltirilgach, mezbon ayol qadah ko'tarib:

– Hammanglar salomat bo'linglar, erjon, siz ham, o'g'lim, sen ham, opajon, siz ham! – debdi.

Eri o'zining qallig'i kim ekanini darrov fahmlab olibdi. Xotini eriga bo'lgan voqeani boshdan oyoq gapirib beribdi.

Yigit xoin ayolni otning dumiga bog'labdi. Otlar uni burda-burda qilib tashlashibdi. Yigit o'z xotiniga qayta uylanibdi. Ular avvalgidan ham a'lo hayot kechirib, yoshlarini yashab, oshlarini oshashgan ekan.

Qirg'inbarot uyoqda,
Bazmi jamshid buyoqda,
Ekin-tikin uyoqda-yu,
Yemish-ichmish buyoqda.

BAXT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir mamlakatda chorvador bo'lgan ekan. U judayam vijdonli, mehnatsevar, idrokli va hech kimni hech qachon xafa qilmas ekan. Uning poda va qo'ylari tog'larda va o'tloqlarda qarovsiz yuraverar ekan. Ularga hayvonlar ham, odamlar ham tegmas ekan. Chunki u odamning dushmani yo'q ekan.

O'sha mamlakatda yalqov va ishyoqmas bir odam yashar ekan. U hech narsa qilmas, qimirlashga ham erinar ekan. Boshqalar ishlashar, u esa yonboshlab yotar ekan. Qashshoqligi uchun taqdiridan noligani noligan ekan.

Kunlardan birida chorvador yalqovni uchratibdi. U bilan so'rashibdi-da:

— Do'stim, ahvoling qalay? — debdi.

— Qanday bo'lardi, — noliy boshlabdi u, — yeyishga hech vaqom yo'q.

— Yur men bilan, — debdi chorvador, — men bilan biror yil ishla, g'aramda va uzumni yig'ib olishda yordam bersang, ikkita semiz buqa beraman — yer haydab, g'alla ekib olasan. Shunda to'q yashaysan.

«Ikkita buqa deb uning uchun jonimni jabborga berib zaril kelibdimi? Undan ko'ra borib, podasidan o'zimga yoqqan ikkitasini tanlab olaman. Aytishlariga

qaraganda, shundoq ham ular qarovsiz ekan. Kim ham menga xalaqit berardi?» deb o'ylabdi yalqov.

Aytganini qilib tog'ga ko'tarilibdi, qarasa, mollar yaylovda yoyilib yurganmish, bironta ham podachi ko'rinmasmish. U bu boylikni ko'rib, hasaddan yuragi yorilayozibdi. Podaga yaqinlashgan ekan, to'satdan bir narsa jaranglab ketibdi. Mollar, ho'kizlar, qo'ylar yugurib mo'rab, bir joyga to'planishibdi. Yalqov ham kelibdi. Qarasa, podaning o'rtasida kichkinagina bir odam turgan emish. Mollar, qo'ylar uning pinjiga kirib erkalanishayotgan emish. Biri yuzini, biri qo'lini yalayotgan emish. U esa mol-qo'ylarni silarmish.

Yalqov hayron qolibdi-da:

— Kimsan, qayerda eding? Bu yerda qanday paydo bo'lib qolding? — deb so'rabdi.

— Men shu poda xo'jayinining baxtiman, — debdi mitti odam. — Uning chorvasini faqat men boqaman, hech kimni yaqin keltirmay qo'riqlayman.

— Mening baxtim qayerda? — deb so'rabdi yalqov.

— Sening baxting falon tog'da, falon butaning tagida, — debdi mitti odam.

— Agar o'sha yerga borsam, baxtimni topamanmi?

— Nimaga topmas ekansan, albatta topasan! — debdi mitti odam.

Yalqov yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, nihoyat shu tog'ga yetib kelibdi. U baxtini rosa izlabdi, lekin topolmabdi. Nihoyat, charchabdi, bir daraxtning tagiga yotibdi-da, uxlab qolibdi. Shu uxlagancha ancha vaqtgacha uxlabdi. Uyg'onib qarasa, quyosh bota boshlagan emish. To'satdan kimningdir xo'rsinayotganini eshitib qolibdi.

O'rnidan turibdi-da, kim ekan u xo'rsinayotgan, deb izlay boshlabdi. Qarasa, po'stlog'ini mollar kemirib tashlagan tog'olcha daraxti tagida eti borib ustuxoniga yopishgan bir mitti odam ingrab yotgan emish.

— Bu yerda nima qilib yotibsan? — deb so'rabdi yalqov.

— Men sening baxtingman, — deb javob qilibdi mitti odam.

— Voy ishyoqmas-ey! — Yalqovning jahli chiqibdi. — Oh-voy qilib yotibsan-u, qanaqasiga mening baxtim bo'lasan? Men ochimdan o'layotibman-u, sen bo'lsang hech narsani o'ylamay dangasalik qilasan.

— Saxiy odam ekansan, — debdi bu baxt, — sen yotib uxlayapsan, men ham yotib uxlayapman. Sen ishsiz o'tiribsan, menga-ku, maza. Lekin bu alpozda bi-ror-bir maqsadga erishib bo'lmaydi-da, sen o'rningdan tur, qo'llaringni qimirlat, mehnat qil, ishla, men ham senga yordam qilay — o'shandan keyin mo'l-ko'lchilik bo'ladi.

Yalqov uyiga qaytib borib ishlay boshlabdi. U o'zini ayamay mehnat qilibdi. Qashshoqlikdan qutulibdi, o'zini tutib olibdi. Keyin uylanibdi, baxtiyor hayot kechira boshlabdi.

G'AROYIB QALPOQ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kambag'al dehqon qari onasi bilan yashagan ekan. Ular judayam nochor kun kechirishar ekan.

Kunlardan bir kuni o'g'li onasiga:

— Ona, bunday yashash jonga tegdi! Dunyoni kezay, balki baxtimni toparman yoki boridan ham ayrilarman. Bu yerda o'tirgandan yaxshiroq bo'lar, — debdi.

— Mayli, bora qol, bolam! — debdi onasi.

Dehqon o'rnidan turibdi-da, yo'lga tushibdi. Qayoqqa ketayotganini o'zi ham bilmasmish.

U yurib-yurib charchabdi va yo'l yoqasida dam olgani o'tiribdi.

Qarasa, bir yo'lovchi kelayotgan emish.

— Salom! — debdi yo'lovchi.

— Salomat bo'l, — debdi dehqon.

— Nega xafasan? — deb so'rabdi dehqon.

— Axir nega xafa bo'lmay? — debdi dehqon. — O'tir, nimaga xafa ekanligimni aytib beraman.

Yo'lovchi o'tiribdi, kambag'al unga o'z hayotini, turmushi qandayligini va uyidan nima uchun chiqib ketganligini aytib beribdi:

— Qari onamdan boshqa hech kimim yo'q. Undan fotiha oldim, baxtimni izlab yuribman. Agarda bi-ror narsa uchrasa yaxshi, bordi-yu, uchramasa, uyga tiriklayin qaytmayman.

— Bo'pti, shunday ekan, senga bir narsani aytib beraman, faqat bilib qo'y, bu judayam qiyin ish, buni bajarish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi, — debdi yo'lovchi.

— Ayt, — debdi kambag'al.

Yo'lovchi aytib beribdi.

— Hech qayoqqa burilmay, to'g'ri borasan. Bir cha-qirimcha yurganingdan keyin baland qoyani ko'rasan. Bu qoya yetti yilda bir ochiladi. Sen qoya yoniga borib turgin, u yaqinda ochilishi kerak. Ochilishi bilan tezda

ichkariga kir. Osilib turgan qalpoqni olgin-da, zudlik bilan qaytib chiq. Faqat boshqa hech narsa olma, vaqt ketadi, qoya yana yopilib qoladi, yopilib qolsa, ichida yetti yil qolib ketasan.

Kambag'al yo'lovchiga rahmat debdi-da, qoyani qidirib ketibdi.

Bir chaqirimcha yurgan ekan, haqiqatan ham qoyani ko'rib qolibdi.

Kambag'al: «O'sha qoya xuddi shu» deb o'ylabdi.

Qoyaga yaqin boribdi-da, nima bo'lishini kutib turibdi. Qoya to'satdan ochilibdi. Kambag'al qoya ichkarisiga otilibdi, qarasa, devorda qalpoq osig'liq turgan emish. Qalpoqni apil-tapil devordan olibdi. Atrofiga qarasa, ajoyib narsalar bor emish. Kambag'alning ko'zlari o'ynab ketibdi. Oltinrang uzumlar ishkomlarda osilib turgan emish. Kambag'alning judayam qorni och ekan, axir u bir necha kundan beri hech narsa yemagan ekan-da. Uzumdan ko'zini uzolmay qolibdi. Kambag'al o'zini tutolmabdi.

— Eh, nima bo'lsa bo'lar, ochimdan o'lamanmi! — debdi-da, qo'lini cho'zib, bir bosh uzum olibdi. Uzumni uzib olgan zahoti qoya yopilib, qorong'ida bir o'zi qolibdi.

Qoya yetti yilgacha ochilmabdi. Kambag'al qorong'ida yetti yil bir o'zi o'tiribdi. Yetti yil deganda qoya yana ochilibdi. Kambag'al shoshilganicha yugurib chiqibdi, qoya shu zahoti yana yopilibdi. U qoya tagida dam olgani o'tiribdi. Nima qilishni bilmas emish. Qalpoqda qanday sir borligini ham bilmasmish. U salqinda yotibdi-da, qalpoqni boshiga qo'yib, o'ylay boshlabdi:

— Eh, qalpoq-ku, bor, boshim yumshoqqina qalpoq-da turibdi, agarda yana gilam ham bo'lgandami, maza qilib uxlagan bo'lardim.

Shunday deb o'ylashi bilanoq qayerdandir gilam paydo bo'libdi. Kambag'al gilamni yozib, ustiga yotibdi, keyin:

— Onamning ahvoli nima kechdiykin? U bechorani bir o'zini tashlab ketgan edim, qani endi hozir uning yonida, uyda bo'lib qolsam, — debdi o'ziga-o'zi.

Shunday deyishi bilan gilam yuqoriga ko'tarilibdi, uchib-uchib, to'g'ri kambag'alning uyi yonida pastlab, yerga tushibdi.

Qalpoq qanday kuchga ega ekanligini kambag'al endi tushunibdi.

— Zo'r qalpoq ekan, — debdi. — Qani, qalpog'im, agarda kuching yetsa, hovlimda shunday saroy qurginki, hatto u podshoda ham bo'lmasin.

U shunday deyishi bilan juda chiroyli, hashamatli bino paydo bo'libdi. Bunaqa chiroyli, bunaqa hashamatli bino hali dunyoda bo'lmagan ekan. Kambag'al binoga kiribdi-da, yotibdi. Shu yotgancha tonggacha yotibdi. Tong yorishibdi. Kambag'alning onasi kulbasidan qarasa, hovlisida hashamatli ulkan bino qad ko'tarib turganmish.

Kampir yig'lab yuboribdi:

— Kim hovlimga bino qurdi, kim hamma yerimni band qildi?

Bir kechada bunday hashamatli bino qanday qilib bitib qolganiga qo'shnilari hayron bo'libdi.

Kambag'al o'rnidan turibdi-da, onasining yoniga boribdi:

— Ona, nega yig‘layapsiz?

— Nimaga yig‘lamayman, o‘g‘lim, — debdi kampir, — kimdir hovlimizda uy qurib olibdi.

— Xafa bo‘lmang, ona, — debdi o‘g‘li, — bu bizning uyimiz.

Ular yangi uyda, hech narsaga zoriqmay yashay boshlabdilar.

Uchinchi kuni o‘g‘li onasiga:

— Ona, sizga bir gap aytaman, — debdi.

— Nima, o‘g‘lim? — deb so‘rabdi onasi.

— Podshohimizning go‘zal qizi bor. Podshoning oldiga borib, o‘g‘lim bor, deng. Meni ko‘p maqtamang ham, yomonlamang ham, faqat o‘g‘lim qizingga uylanmoqchi, deng.

— Bormayman, — debdi onasi. — U kalamni uzib tashlaydi.

O‘g‘li tinchlik bermabdi. Ikki gapning birida, boring, deyaveribdi.

«Kel borsam-bora qolay, nima bo‘lsa bo‘lar. Juda jahli chiqsa o‘ldiradi, boshqa nima ham qila olardi» deb o‘ylabdi onasi.

O‘g‘li bilan xayrlashib ketibdi.

Saroy darvozasi oldiga kelibdi. Podshoning posbonlari bundoq qarashsa, bir kampir hadeb u yoqdan bu yoqqa yurayotganmish. Posbonlar:

— Ona, nima qidirypsiz? — deb so‘rashibdi.

— Podshoni ko‘rmoqchiman, — debdi kampir.

Uni podshoning yoniga olib borishibdi.

— Nima kerak? Menda qanday ishing bor? — deb so‘rabdi podsho.

— O‘g‘lim qizingizga uylanmoqchi, — debdi kampir.

– Nima deyapsan o‘zi! O‘g‘ling kim bo‘ptiki, malika unga tegsa?

– Unday demang, o‘g‘lim mard, bahodir. Xo‘pdeng, qizingizni bizga bering! – deb turib olibdi kampir.

– Bo‘pti, borib o‘g‘lingga ayt, agar u shunday mard bo‘lsa, saroyimizdan to o‘zlaringning kulbangizgacha bo‘lgan yo‘lning ikki chekkasida bog‘ yaratsin!

– Bo‘pti, – debdi kampir.

U podsho huzuridan chiqibdi-da, o‘g‘lining yoniga kelibdi.

– Podsho nima dedi? – so‘rabdi o‘g‘li.

– Avvaliga judayam jahli chiqdi, keyin: agarda u shunday mard bo‘lsa, saroyimdan to o‘zlaringizning kulbangizgacha bo‘lgan yo‘lning ikki chekkasida bog‘ yaratsin, dedi! – debdi onasi.

– Bu hech gap emas, – debdi o‘g‘li. – Siz borib damingizni oling, buyog‘ini o‘zim to‘g‘rilayman.

U o‘rnidan turibdi-da, qalpog‘ini qo‘liga olib:

– Qani qalpog‘im, agarda qo‘lingdan kelsa, kulbandan podshoning saroyigacha bo‘lgan yo‘lning ikki chekkasida bog‘ barpo qil, tonggacha tayyor bo‘lsin! – debdi.

Tong otibdi.

Podsho derazadan qarasa, yo‘lning ikki tomonida daraxtlar yashnab turgan emish.

– Borib, podshoga: «Endi qizingizni o‘g‘limga berasizmi?» deb so‘rang, – debdi yana o‘g‘li onasiga.

Kampir podsho huzuriga ketibdi.

– Endi qizingizni o‘g‘limga berasizmi?

— O'g'lingga borib ayt, agarda u shunday mard bo'lsa, uyidan to mening saroyimgacha bo'lgan yo'lga marmartosh terib chiqsin, — debdi podsho.

Kampir o'g'lining yoniga boribdi.

— Nima dedi u? — deb so'rabdi o'g'li.

Onasi podshoning talabini aytibdi.

U qalpog'iga:

— Qani, qalpog'im, qo'lingdan kelsa, o'zimizning uydan to podshoning saroyigacha bo'lgan yo'lga marmartosh terilib qolsin, — debdi.

Podsho ertalab qarasa, yo'l marmartosh bilan qoplangan emish.

O'g'li javob olish uchun onasini yana podshoning yoniga yuboribdi.

U shohning yoniga borib:

— Endi qizingizni o'g'linga berarsiz? — debdi.

— Haqiqatan ham o'g'ling mard ekan. Unga borib ayt, agarda u uyingdan to mening saroyimgacha bo'lgan marmar yo'lga gilam to'shay olsa, kelib qizimni olib ketaversin, — debdi podsho.

Onasi uyiga qaytib kelib, o'g'liga podshoning buyrug'ini aytibdi.

— Yaxshi, — debdi o'g'li. — G'am yemang, borib uxlayvering. Bo'ladi.

Shunday deb o'rnidan turibdi-da, qalpog'ini qo'lga olib:

— Qani, qalpog'im, qo'lingdan kelsa, uyimizdan to saroygacha bo'lgan yo'lga gilam to'shalib qolsin, — debdi.

O'g'il ertalab turib qarasa, yo'lga gilam to'shalgan emish. O'rtoqlarini yig'ibdi-da, kelinni olib kelgani podshoning huzuriga borishibdi. Podsho katta to'y qilib, qizini unga beribdi. Ertasiga kuyovi:

— Hozir biznikiga boramiz, barcha odamlaringizni, butun askarlaringizni ham olib boring, — debdi podshoga.

«Hamma askarlarimga qayerdan ovqat topib beradi? Mayli, borib, ko'ray-chi» deb o'ylabdi podsho.

Podsho butun askarlarini ham olib ketibdi. Bundoq qarasa, qarshisida juda chiroyli uy turganmish. Xuddi qasrga o'xsharmish. Uyning ichiga kirishibdi. Stollar bo'm-bo'sh emish, yeydigan, ichadigan hech narsa yo'qmish.

Kuyov qalpog'ini qo'liga olibdi-da:

— Qani, qalpoqcham, agarda qo'lingdan kelsa, dasturxonning usti shohona noz-ne'matlar bilan to'lib qolsin, — debdi.

Kutilmaganda har xil noz-ne'matlar, turli xil sharoqlar paydo bo'libdi. Stollarning ustida istagan narsang muhayyo emish.

Podsho askarlari bilan uch kun mehmon bo'libdi, to'rtinchi kuni xayrlashib saroyga jo'nabdi.

Muhtasham qasrda er-xotin va qari onasi tinch yashay boshlashibdi. Hech narsadan kamchiliklari yo'q emish.

Kunlardan bir kuni er ovga chiqmoqchi bo'libdi va xotiniga:

— Men ovga ketyapman, onam ikkalalaring uyda o'tirib turinglar, tezda qaytaman, — debdi va miltig'ini olib chiqib ketibdi.

Kambag'alga qalpoqni topish yo'lini o'rgatgan yo'lovchi esa uning yaxshi hayot kechirayotganini eshitib, hasad qilibdi. Qanday qilib bo'lsa ham o'sha qalpoqni qo'lga kiritishni o'ylay boshlabdi.

Qalpoq do'koniga borib, yangi, chiroyli qalpoq sotib olibdi-da, qasrning yoniga borib:

— Yangi qalpoq sotaman, eskisini olaman, kim eski qalpog'ini yangi qalpoqqa almashtiradi? — deb baqiribdi.

Malika erining qalpog'ida qanday sir borligini bilmas ekan. «Erimning eski qalpog'ini yangisiga almashtirib olay, uni bir quvontiray» — deb o'ylabdi.

U yo'lovchini chaqirib:

— Ey, to'xta, to'xta, buyoqqa kel!

Yo'lovchi yaqinlashgach, u g'aroyib qalpoqni ko'rsatib:

— Yangisiga almashitirib bermaysanmi? — debdi.

— Nima ham derdim, — debdi u, — almashtirishga arzimasa ham, mayli, ola qoling.

Malika suyunib, yangi qalpoqni olib uyiga kirib ketibdi, yo'lovchi esa g'aroyib qalpoqni qo'lga kiritibdi-da:

— Qani, qalpoqcha, agarda qo'lingdan kelsa, meni, shu uyni go'zal malika bilan birga bu yerdan uzoqroqqa olib borib qo'y! — debdi.

Shunday deyishi bilan uy ko'tarilibdi-da, u aytgan joyga borib qolibdi.

Eski kulbada kampirning bir o'zi qolaveribdi. U kulbasida yana avvalgidek muhtojlikda yashayveribdi.

O'g'li ovdan qaytib qarasa, na uyi, na xotini bor emish!

Kambag'al yig'labdi, g'am chekib, ado bo'libdi. U miltig'ini olibdi-da, malikani qidirib ketibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi.

Malika ham yig'lab, erini o'ylar emish. Eri yurib-yurib bir qishloqqa kelib qolibdi, bunday qaragan ekan, o'zining uyini ko'rib qolibdi. U uyining oldiga kelib o'tiribdi-da, yig'lay boshlabdi.

Xotini derazadan qaragan ekan, erini ko'rib qolibdi va dodlab yig'lay boshlabdi.

— Eski qalpog'imni topib, menga otib yubor, — debdi shunda eri.

Malika qalpoqni topibdi-da, eriga otib yuboribdi. Eri qalpoqni olibdi va uyga kirib, shunday debdi:

— Qani, qalpog'im, senda qanday sehr borligini bilaman. Shu uyni ko'tarib, yana eski joyiga, mening hovlinga eltib qo'y!

Qalpoqqa buni bajarish qiyin emas ekan. Ikki daqiqa ichida uy o'z joyiga, yana o'sha hovliga — kampirning eski uyi oldiga borib qolibdi.

Er-xotin ikkalasi ham uyda o'tirgan emish. Ammo birovning baxtiga chang solmoqchi bo'lgan boyagi yovuz odam hech narsadan xabarsiz, qotib uxlab, g'aflatda qolibdi.

Kampir o'g'li va kelinini yana o'z hovlisida ko'rib, behad quvonibdi. Shu kundan boshlab ular baxtli hayot kechira boshlashibdi.

SHAYTON YUGANI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir mamlakatda juda-yam boy va o'ta xasis odam bo'lgan ekan.

Uning qoramoli va boyligi behisob ekan. U shunchalar xasis ekanki, ovqat ham yemas ekan. Xotini, bola-chaqasi ochlikdan qiynalisharkan.


Qo'y, molimni yeb qo'yadi, deb podachi ushlamas ekan. Mol, qo'ylarini o'zi boqar ekan. O'sha mamlakatda mollarga vabo tarqabdi. U esa shunda ham bironta qo'y, molini so'ymabdi, kamayib qoladi deb qizg'anibdi. Ko'p o'tmay mollarining hammasi harom o'lib qolibdi. Uyiga na qo'shni chiqar ekan, na mehmon kelar ekan.

Kunlardan bir kuni shu xasis qo'ylarini dalaga haydabdi. Yo'lda og'zida kichkinagina shaytonni olib ketayotgan bo'rini ko'rib qolibdi. Xasisning shaytonchaga rahmi kelibdi-da, yugurib borib bo'rining yo'lini to'sibdi, yelkasidan miltig'ini olib, bo'riga o'q uzibdi. Bo'ri shaytonchani tashlab qochib ketibdi, shaytoncha esa shunday debdi:

— Sen meni o'limdan qutqarding, endi yur otonamning oldiga. Ular seni xursand qilishadi.

Shaytoncha xasisni ko'ndirish maqsadida rosa xiralik qilibdi. Oxiri xasis qo'ylarini dastyor bolaga qoldirib, o'zi shaytoncha bilan birga ketibdi.

Shaytoncha yugurib ketayotgan emish, xasis unga zo'rg'a yetib borayotgan emish. Tikka-tikka qoyalardan tirishib-tirmashib, emaklab boraveribdi. Holdan toyib yiqilib qolganda shaytoncha uni o'z holiga qo'ymay orqasidan itararkan.




Xasis shaytonga ilakishib qolganiga xafa bo'libdi, ishqilib la'nati shayton biror yerga olib borib o'ldirib qo'ymasa edi, deb xavotirga tushibdi. Shaytoncha esa hamon yugurar emish, uni ham choptirar emish, o'zi esa:

— Ota-onamning boyligi judayam ko'p, ular senga haddan tashqari ko'p tilla va kumush berishadi, sen ularni olmagin. Menga faqat o'z boyligimni beringlar, degin, — deb o'rgatarmish.

Nihoyat ular shaytonchaning uyiga yetib kelishibdi.

Shaytoncha uni bo'ri olib qochib ketayotganida shu qo'ychivon qutqazgani va o'limdan saqlab qolganini aytib beribdi. Shaytonlar suyunishib, xasisni uyga taklif qilishibdi. Uni tilla va kumushlar, har turli qimmatbaho boyliklar turadigan xonaga olib kirishibdi-da:

— Mana, o'g'lim, xohlagan narsangni tanla. Ko'targaningcha olib ketaver, — deyishibdi.



Xasisning yuragi o'ynab ketibdi, u boylikka tashlanmoqchi, cho'ntaklarini to'ldirib olmoqchi bo'pti, shaytoncha esa unga, olma, o'zingning boyligingni so'ra, deb ko'z qisibdi.

— Olaver, — deyisharmish shaytonlar, — xohlagingcha olaver.

Xasisning boshi gangib qolibdi. U nima qilishini bilmay, indamasdan turganmish.

— Olsang-chi, nimani kutyapsan? — deyishibdi shaytonlar. Xasis indamay, hamon shaytonchaga qararmish.

— Nimani xohlaysan? Ayt, hammasini bajo keltiramiz, sen uchun hech narsani ayamaymiz.

— Menga o'z boyligimni beringlar, — debdi nihoyat xasis.

Uning bu gapi shaytonlarga yoqmabdi. Ular shov-qin-suron ko'tarishibdi, bir-birlari bilan nimalarnidir shivirlashibdi, lekin nachora, shayton xasisning oldiga boribdi-da, uning bo'ynidan itaribdi.

Xasis qoqilib ketgan ekan, og'zidan yugani tushib ketibdi, shayton esa bir xo'rsinib, yuganni olibdi-da, uni bekitib qo'yibdi.

Xasis kutilmaganda xuddi ko'zi ochilgandek bo'libdi. Atrofiga qarabdi, menga nima bo'ldi o'zi, qanday qilib bu yerga kelib qoldim debdi. Qarasa, sochlari o'sib ketgan emish, ustidagi kiyimlari juldurvoqi emish. Ust-boshini ko'rib, hatto shaytonlardan ham uyalib ketibdi. Qayrilibdi-da, uyiga yo'l olibdi. Keta-yotib, xotini, bola-chaqasini och qo'yganini, sovuqda qoldirganini eslab o'kinib, ezilibdi. U o'zini ham, qarindoshlarini ham bekorga qiynaganiga endi tushunibdi.

U o'zining podasi yoniga kelibdi. Cho'pon bolaga yaxshi bir semiz qo'yni so'ydiribdi-da, go'shtini uyiga jo'nattiribdi. Xotinimga, yaxshi ust-boshlarini berib yuborar ekansiz, deb aytgin, debdi. Uyidagilarga shunday kiyimda ko'rinishga uyalibdi. Oilasiga yaxshi kiyimlar olib kelish uchun bir odamni shaharga yuboribdi.

U uyiga boribdi va baxtiyor umr kechira boshlabdi.

Shunday qilib, uning mol-dunyosiga shaytonlar ega bo'lisha olmabdi, hammasi egasiga va uning farzandlariga nasib etibdi.

ZANGORI GILAM

Bir podsho bo'lgan ekan. Uning yolg'iz o'g'li bor ekan.

Shahzoda ulg'ayibdi. Podsho unga havas bilan qarab, o'ylanib qolibdi.

«Men qarib qoldim. Podsholikni endi o'g'limga topshirishim kerak. U ham uylanib, jajjigina merosxo'rlik bo'lganini ko'rsam, dunyodan bearmon ko'z yumardim».

Shundan keyin u shahzodani yoniga chaqirib:

— O'g'lim, balog'atga yetib, uylanadigan vaqting keldi. O'zingga qalliq tanlagin, — debdi-da, uni katta xonaga olib kiribdi. Bu xonaning hamma devoriga surat osib qo'yilgan ekan. Bu suratlarning hammasi biri-biridan go'zal, biri-biridan dilbar qizlarniki ekan.

— Mana, o'g'lim, — debdi podsho, — shular orasidan xohlaganingni tanla. Qaysinisi senga yoqsa, o'shanga uylantirib qo'yaman.

Shahzoda xonani aylanib, hamma rasmlarni birmabir ko'rib chiqqandan keyin otasiga:

— Bularning hech qaysisi qalbidan joy ololmadi. Ularning hammasi ham go'zal, yoqimli qizlar. Lekin, men birontasiga ham ko'ngil qo'yolmadim. Ijizat bersangiz, mamlakatimizni o'zim aylanib chiqsam. Biron-ta qizni dildan yoqtirib qolsam ajab emas, — debdi.

Podsho rozilik bildiribdi, shahzoda yo'lga ravona bo'libdi.

Shahzoda ona yurtini aylanib tog'larga chiqibdi, uzumzorlarni kezibdi, qadimiy shaharlarga kiribdi, qishloqlarda bo'libdi. Uning ona yurtida aqlli, go'zal,

yoqimtoy qizlar juda ko'p ekan. Ammo, negadir, ularning hech qaysisi shahzodaga yoqmabdi.

Kunlardan bir kuni u kambag'allar qishlog'ining bir chekkasida sarvqomat, shahloko'z, sochlari xuddi jigarrang ipakdek mayin bir qizni uchratib qolibdi. Shahzoda uni ko'rishi bilanoq shu qizni butun umrga sevishini tushunibdi.

Uning kulbasiga kirib, yoniga o'tiribdi va:

— Menga turmushga chiqaqol, ey, go'zal qiz, — debdi unga.

— O'zing kimsan? — deb so'rabdi qiz undan.

— Shahzodaman.

— Qo'lingdan biron ish keladimi? Qanday hunaring bor?

Yigit hayron bo'libdi:

— Hech qanday hunarim yo'q. Axir senga shahzodaman, deyaipman-ku.

Qiz xaxolab kulibdi:

— Shahzodalik hunar emas. Bugun shahzodasan, ertaga esa bundan mahrum bo'lishing mumkin. Unda oilangni qanday qilib boqasan? Borib biron hunar o'rgangin. Agar hunar o'rgansang, senga turmushga chiqaman, bo'lmasa, qaytib kelib ovora bo'lma.

Shahzoda boshini quyi solgancha uydan xafa bo'lib chiqib ketibdi. U qanday hunar o'rganishni bilmabdi.

Shahzoda saroyga qaytib borib, otasiga dardi hasratini aytibdi. Podsho esa kulibdi.

— Xafa bo'lma, o'g'lim. Bu ishni amalga oshirsa bo'ladi.

Shundan keyin podsho mamlakatdagi hunarmand ustalarni saroyga to'plashga farmon beribdi. Podsho-

ning buyrug'iga binoan saroyga temirchi-yu pechkachilar, bochkasoz-u tikuvchi, shuvoqchi-yu chilangarlar yig'ilishibdi. Ular devorlariga oltin hal yugurtirilgan katta xonaga to'planishibdi, podshoning nima sababdan chaqirganini bilmay, bir-birlari bilan shivirlashib, uni kutib turishibdi.

Bir payt podsho qarorgohidan shahzoda bilan birga chiqibdi.

Hunarmandlar unga egilib ta'zim bajo keltirishibdi.

— Salom, ustalar, — debdi podsho, — men sizlarni bu yerga bir sabab bilan to'pladim. O'g'lim hunar o'rganmoqchi. Qaysi biringiz unga o'z hunaringizni o'rgata olasiz?

Ustalar o'zaro shivirlashib, bosh tebratib qolishibdi. Podshoning o'g'lini oddiy hunarga o'rgatish oson ish emas-da, axir.

— Xo'sh, hech kim o'rgatishga qodir emasmi? — debdi podsho. Shundan keyin u saroydagi hamma qulflarni ishlagan chilangarni yoniga chaqiribdi.

— Men bilaman, sen yaxshi ustasan. Shahzodaga chilangarlik hunarini o'rgatasanmi?

Chilangar dovdirab qolibdi.

— Nega o'rgatmayin, janobi oliylari? — javob beribdi u. — Ammo, ma'qul bo'larmikan, bunisini bilmadim.

— Yaxshi chilangar usta bo'lish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi? — so'rabdi shahzoda.

Chilangar o'ylanib:

— Uch yilcha vaqt kerak bo'lar... — debdi.

— Bu menga to'g'ri kelmaydi, — debdi shahzoda, — qallig'im shuncha payt kutib turmaydi.

Podsho bochkasozni yoniga chaqirib so'rabdi:

— Sening hunaringni o'rgangani qancha vaqt kerak bo'ladi?

— Ikki yil, janobi oliylari.

— Yo'q, bu ham uzoq vaqt talab qilarkan, — debdi shahzoda.

Podsho hamma ustadan birma-bir so'rab chiqibdi. Navbat oxirgi ustaga kelibdi. U qarib qolgan, gilam to'qiydigan mohir usta ekan. Uning to'qigan gilamlari shunaqayam chiroyli ekanki, hatto, boshqa yurtlardan odamlar kelib, tomosha qilib ketisharkan.

— Qani, mo'ysafid, nahotki sen ham yordam berolmasang? — deb so'rabdi podsho.

Mo'ysafid usta o'ylanib turib, peshanasini ishqalab:

— Bo'pti, janobi oliylari, — debdi. — Shahzodaga hunarimni o'rgataman.

— Qancha vaqt kerak bo'ladi? — so'rabdi shahzoda.

— Uch kun, — javob beribdi mo'ysafid.

— Mana bunga men roziman, — debdi shahzoda suyunib. Uch kun — uzoq muhlat emas.

Shahzoda mo'ysafid usta bilan borib, uch kun unikida bo'libdi. U saroyga ustasinikidan qolishmaydigan gilam to'qiydigan bo'lib qaytibdi. Shahzoda juda ajoyib gilam to'qib, uni ko'rsatgani qallig'ining yoniga bo'ribdi.

U qishloqqa borib, qallig'ining kulbasiga kiribdi-da, unga gilamni yoyib ko'rsatibdi.

— Mana, qaragin, qanday hunar o'rgandim. Endi menga turmushga chiqasanmi?

— Mayli, endi roziman, — degan javobni beribdi qiz.

Shahzoda uni saroyga olib kelibdi. Qiz podshoga ham, uning xotiniga ham juda yoqibdi. Ular o'g'illariga oq

fotiha berishib, katta to'y-tantana qilishibdi. Shahzoda bilan qiz tinch-totuv hayot kechira boshlashibdi.

Oradan yillar o'tibdi. Podsho vafot etib, o'rniga shahzoda taxtga chiqibdi.

Kunlardan bir kuni u xotiniga shunday debdi:

— Mamlakatni bir aylanib chiqmoqchiman. Fuqarolarim men to'g'rimda nimalar deyishyaptiykin: biron-yarim odam xoinlik ko'chasiga kirmayotganmikan. Lekin bu ishni men hech kimga sezdirmay qilmoqchiman.

Podsho qalandar libosini kiyib, qo'liga tayoq olibdi-da, mamlakat bo'ylab sayohatga chiqibdi. O'zi yo'q paytida davlatni boshqarishni xotiniga topshiribdi.

Podsho shahar va qishloqlarni aylanib, uzoq yo'l bosibdi. Endi o'z dargohiga qaytmoqchi ham bo'libdi.

Xuddi shu kezda, bir kuni kechqurun tog'da adashib, notanish daraga kirib qolibdi. Uning nomi Ilon dara bo'lib, bu dara haqida har xil yomon gaplar tarqalgan ekan. Podsho yo'ldan adashib, qaroqchilar qo'liga tushib qolibdi.

Qaroqchilar uni o'z g'orlariga olib kirib ketishibdi. Podsho bo'lsa:

— Menga qo'l tekkizmanglar, men podshoman, — deb qichqiribdi.

Qaroqchilar kulishib:

— Uning o'ylab topgan gapini qaranglar. Podshomiz juldurvaqi kiyimlar kiyib, tog'ma-tog' daydib yurarmishmi, — deyishibdi.

— Agar podsho bo'lsang, pul to'lab qutulib ketaqol, — deb qichqirishibdi ular.

— Uni gumdon qilib qo‘ya qolaylik. Undan biron narsa unarmidi, — deyishibdi ba‘zilari.

Shunda podsho ularga javoban debdi:

— Yonimda pulim yo‘q. Lekin meni o‘ldirsanglar, o‘zinglarga jabr qilasizlar. Men shunaqa gilam to‘qishni bilamanki, bunaqa gilamni hech kim, hech qaysi yurt-da uchratmagan. Uni sotsanglar, juda ko‘p pul ishlab olasizlar.

Qaroqchilar o‘ylab qolishibdi:

— Qancha vaqtda to‘qiysan?

— Uch kunda to‘qib tugataman.

— Juda soz. Ha, mayli, — deyishibdi qaroqchilar. — Uch kun kutsa bo‘ladi, tezroq ishga kirishaver.


Ular podshoni yerosti yo‘liga qamab, unga jun va ipak berishibdi. Podsho gilam to‘qishga kirishibdi. Uchinchi kun oxirlamay turib gilam tayyor bo‘libdi.

Zarhal yuritilgan zangori gilamning to‘rttala tomonida ko‘zni qamashtiradigan anvoyi gullar, bu gullar orasida ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan qushlar qanot qoqib turganmish. Gilamni ko‘rib, qaroqchilarning og‘izlari ochilib qolibdi.

— Ha, bu gilam haqiqatan ham qimmatbaho. Uni shaharga olib borib sotamiz.

Ular gilamni ko‘tarib, shaharga yo‘l olishibdi. Kun bo‘yi bozordagi hali u, hali bu savdogarning yoniga borib, ularga gilamni ko‘rsatishibdi.

Gilamni oladigan xaridor topilmabdi. Hammalari ham ustaning mohirlik bilan to‘qiganiga qoyil qolishibdi: gilamni ming tillaga baholashibdi-yu, lekin uni sotib olgani hech kimning puli yetmabdi.





Shunday qilib qaroqchilar kechqurun gilamni sotolmay qaytib kelishibdi. Ularning jahli chiqib, podshoni olib chiqishib:

— Hech kim gilamingni sotib ololmadi. Savdogarlarning ham puli yetmadi. Gilamingni bizga keragi yo‘q. Ertaga seni o‘ldiramiz, — deyishibdi.

Podsho ularga shunday debdi:

— Biroz sabr qilinglar. Ertaga saroyga boringlar, to‘g‘ri malikaning yoniga kiritishlarini so‘ranglar. Men to‘qigan gilamni u albatta oladi.

Qaroqchilar o‘ylab, mulohaza qilib ko‘rishgandan keyin, bu taklifga rozi bo‘lishibdi.

Erta bilan ulardan ikkitasi podsho saroyiga yo‘l olishibdi. U yerga borib, malikaning yoniga kiritishni iltimos qilishibdi.

Saroybonlar ularni kiritishmabdi.

— Malika bandlar. Sizlardan ham boshqa ishi ko‘p. Shunda qaroqchilar gilamni yozib ko‘rsatishibdi.

— Biz u kishiga nima sotmoqchi ekanimizni bir ko‘rib qo‘yinglar.

Saroybonlar gilamga qarab, ko‘zlari tinib ketibdi.

— Bu ajoyib narsa tufayli, malikamizga kelganlaringizni aytamiz, — deyishibdi ular.

Shundan keyin qaroqchilarni saroyga kiritishibdi. Malika shu kunlarda kun bo‘yi yig‘lab, juda g‘amgin bo‘lib yurgan, podshoni sog‘inib, undan xavotir olib o‘tirgan ekan. Kelish muhlati allaqachon o‘tganiga qaramay, o‘zi hanuz yo‘q ekan.

Qaroqchilar malikaning yoniga kirib, unga ta‘zim qilishibdi.

— Buni qarang, malikam, qanday ajoyib gilam. Uni sotib olmaysizmi?

Malika gilamni koʻzdan kechirib, uni oʻlchab koʻribdi. Gilam atrofidagi anvoyi gullar bezak emas, juda oʻxshatib yozilgan harflar boʻlib, u harflarni qoʻshib oʻqiganda quyidagi gaplar yozilgan ekan:

«Men Ilondarada qaroqchilar qoʻlidaman. Yordam bermasang, ular meni oʻldirishadi».

Aqlli malika bu yozuvni oʻqib chiqqanini bildir-mabdi ham. Qaroqchilar bilan savdolashib oʻtirmay ular soʻragan pulni berib yuboribdi. Ular uydan chiqib ketishlari bilan malika lashkarboshini huzuriga chaqir-tirib, hoziroq daraga borib, podshoni qutqarishni buyu-ribdi.

Kechqurun qaroqchilar gʻorda oʻtirib olib, pullar-ni oʻzaro boʻlishishibdi. Xuddi shu paytda tashqarida shovqin-suron, qiyqiriq koʻtarilib, ot tuyoqlarining ovozi eshitilibdi. Butun bir lashkarlar toʻdasi daraga bostirib kelibdi.

Navkarlar daraga, gʻorga bostirib kirib, devorlarni paypaslab qolishibdi. Yer ostiga tushib podshoni olib chiqishibdi. U bechoraning rangi oppoq oqarib, kiyim-lari titilib ketganmish.

Qaroqchilarni tutib, qoʻllarini bogʻlashibdi-da, hukm chiqarib jazolash uchun shaharga olib ketishibdi.

Malika boʻlsa erini zinapoyada kutib olar ekan:

— Seni tirik koʻrishdan umidimni uzgan edim, — debdi.

Podsho biroz dam olib ovqatlanibdi, yuvinib, shohona libosini kiyibdi. Kechqurun malika bilan bogʻga chi-

qishib, barq urib ochilib turgan anvoyi gullar tagida gaplashib o'tirishibdi.

— Ana, ko'rdingmi, — debdi malika shunda. — Bor-di-yu, hunaring bo'lmaganda nima qilarding? Podsho-
liging zig'irdek ham yordam bermasdi. Qaroqchilar
seni qatl etgan bo'lishardi.

PODACHI BICHIA

Dunyoda bir podsho yashagan ekan. Uning husnda
tengi yo'q go'zal qizi bo'lgan ekan. Podsho qizini aql
bovar qilmaydigan uchta yolg'on topib kelgan odamga
bermoqchi bo'libdi.

Ko'plar o'sha go'zalga uylanmoqchi bo'lishibdi,
lekin hech kim podshoning ko'nglini topolmabdi. Pod-
sho javobidan ko'ngli to'lmagan oshiqqlarning kallasini
oldirib, qal'a minorasiga ildirib qo'yarkan.

Shu mamlakatda Bichia ismli podachi yashar ekan.
Bichia kunlardan bir kuni kechqurun podasini qishloq-
qa haydab kelibdi-da:

— Podsho qizini aql bovar qilmaydigan uchta
yolg'on aytgan odamga berar emish. Men ham borib
ko'ray-chi, peshonamga yozilgani bo'lar, balki ma-
likani sizga kelin qilib yetaklab kelarman, — debdi
onasiga.

— O'g'lim, senga nima bo'ldi? Senga malikani kim
beray deb turibdi?

— Nima, men odammasmanmi? Aqlim kammi?

— Qo'y, o'g'lim. Bari bir senga uni berishmaydi.

— Nima uchun?

— Bilasan-ku, qanchadan qancha ajoyib odamlar shohga yoqmagani uchun boshidan ajraldi. Shuncha badavlat va olim bo'lgan odamlar o'ylab topolmagan yolg'onni sen qayerdan ham o'ylab toparding?

— Eplaymanmi-yo'qmi, ko'ramiz. Menga savol beradiganlar ham menga o'xshagan odamdir, axir? Otamning aytgani esingizdami: odam hamma narsani sinab ko'rishi kerak. Men ham taqdirimni sinab ko'rmoqchiman — kim g'olib chiqishini ko'ramiz.

Onasi Bichiani yo'ldan qaytarmoqchi bo'lib ko'p urinibdi, lekin u quloq solmabdi. Podshoning saroyiga kelibdi-da, darvoza yonida turibdi. Minoraga ilib qo'yilgan, qurib-qovjirab qolgan kallalarni ko'ribdi, biroq yuragi mutlaqo seskanmabdi.

Saroy a'yonlari chiqib:

— Kimsan, nima kerak senga? — deb so'rashibdi.


— Men dehqon va podachiman, podshoga aql bovar qilmaydigan yolg'onni gapirmoqchiman.

Saroy a'yonlari podshoni bundan xabardor qilishibdi va uning buyrug'i bilan Bichiani saroyga taklif qilishibdi. Uni kursiga o'tqizibdilar.

Podsho jallodlarni chaqiribdi-da, Bichiaga:

— Qani, topib kelgan yolg'oningni ayt-chi, — debdi.

— Men kechqurun yaylovdan uyga qaytib keldim. Onamning kechqurungi ovqatga hech narsasi qolmabdi. Men shu zahotiyuq uydan chiqdim-da, anchadan beri ko'z ostimga olib yurgan oshqovoqni uzmoqchi bo'lib tomorqamizga sakrab tushdim. Kelib qarasam, oshqovoq yo'q. Men uning novdasi o'sib ketgan tomonga qarab ketaverdim. Novda juda uzoqqa o'sib ketgan ekan, uchi ko'rinmasdi. Novda o'sib dengizgacha borib




yetibdi. Bunday qarasam, u hatto dengizning ustidan ham o'sib ketyapti. Novdaning ustiga chiqib oldim-da, yo'l yurdim, yo'l yursam ham mo'l yurdim. Nihoyat dengizning u qirg'og'iga yetib oldim. Qarasam, oshqovog'im o'sha yerda ekan. Uni uzib olib, yana novdaning ustidan yurib, dengizning bu qirg'og'iga o'tib oldim. Oshqovoqni uyga olib kelib, onamga berdim. Onam ovqat pishirdi va biz maza qilib ovqatlandik.

Bu yolg'on podshoga ham, saroy ahliga ham yoqib tushibdi.

— Yaxshi, endi uyingga bor. Ikkinchi yolg'onni ertaga kelib aytib berasan.

Tong otibdi. Bichia yuvinib, qalpog'ini kiyibdi-da, saroyga ravona bo'libdi. Uni podsho huzuriga boshlab kirishibdi, u yerda esa allaqachon hamma — podsho ham, saroy a'yonlari ham, jallodlar ham to'planib bo'lishgan ekan. Podachini kursiga o'tqizishibdi va boshla, deb buyruq qilishibdi.



— Kecha onam kechki ovqat pishirgan edi, — deb boshlabdi Bichia, — lekin tuz solmabdi, tuz qolmagan ekan. Tuzga Gumbri tog'iga yugurib bordim. Tuzli qoyaning yoniga kelganimda poyteshami yoki cho'kichmi olmaganim esimga tushib qoldi. Nima qilish kerak edi? Tog'ga bir kalla qo'ygandim, katta bir tuz bo'lagi ko'chib tushdi. Orqalab uyga olib keldim. Ovqatga tuz soldik, kechqurungi ovqatni maza qilib yedik.

Bu yolg'on ham podshoga ma'qul tushibdi va u podachiga:

— Endi uyingga bor, uchinchisini ertaga aytib berasan, — debdi.

Bichia juda ham mamnun bo'libdi, lekin podsho o'yga tolibdi — bu la'nati podachini qanday qilib qo'lga tushirib, u dunyoga jo'natish yo'lini o'ylab o'yiga yetolmabdi. Podsho o'zining barcha a'yonlarini chaqiribdi. Ular uzoq gaplashishibdi. Keyin, ertaga podachi nimani aytib bersa ham, hamma bir ovozdan: «Bu to'g'ri, to'g'ri», deb qichqirishga qaror qilishibdi.

Saroyda hozir bo'lganlar ertaga hech qanday kuch podachini o'limdan qutqaza olmasligiga ishonib, xursand bo'lib tarqalishibdi.

Tong otibdi. Podachi Bichia qayerdandir kattakon tog'ora topib, o'rtoqlari yordamida uni podshoning saroyiga sudrab kelibdi. Saroy ahli bu tog'orani ko'rgan zamon podachiga baqirib berishibdi:

— Bu nimasi, nimaga uni sudrab kelding?

— Podshohimizning otasi mening otamdan shunaqa tog'orada ikki tog'ora qimmatbaho tosh va marvarid qarz olgan.

— To'g'ri, to'g'ri! — deb qichqirishibdi ular.

Shovqin-suronni eshitib, podsho chiqibdi va a'yonlariga baqira boshlabdi:

— Nimaga meni halok qilmoqchisizlar? Otam uning otasidan shuncha qimmatbaho toshlarni qachon qarz olgan? Axir, menda shuncha boylikning o'zi yo'q-ku?!

— Yolg'on, yolg'on! — deb baqira boshlabdi saroy ahli.

— Agarda yolg'on bo'lsa, malikani beringlar.

Podsho podachiga ikki tog'ora dur-marvarid bersammikin yoki qizimni bersammikin, deb o'ylanib qolibdi. Boyligi unchalik ko'p bo'lmagani uchun Bichiaga go'zal malikani berishga qaror qilishibdi. Ularni

nikohlab, yurtga to'y qilib berishibdi. Podsho o'zining yarim podsholigini ham beribdi. Podachi g'olib chiqibdi, xotinini olib, uyiga qaytibdi.

Shunday qilib ular baxtli va xushchaqchaq umr kechira boshlashibdi.

SHAYTONNI YENGGAN AYOL

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir yigit yashagan ekan. U chiroyli, kelishgan, aqlli bo'lsa ham kambag'al ekan. Yigit bir kuni cho'chqaboqarlikka yollanibdi.

Yigirma yetti yoshga to'lganda boshqa bir cho'chqaboqarning qiziga uylanibdi.

Xotini shunaqayam vaysaqi, johil ekanki, bunaqasini dushmaningga ham ravo ko'rging kelmas ekan!

Nuqul uning qashshoqligini ta'na qilaverar ekan.

— Otam kambag'al edi, sen undan ham qashshoq ekansan!

Eriga vaysayverib quloq-miyasini yebdi.

Bechora er azonda turib cho'chqalarni boqqani jo'narkan, kechqurun qaytayotganda: «Xotinim zora biror ovqat pishirib qo'ygan bo'lsa» deb o'ylarkan. Qayoqda deysiz! Xotin uni qarg'ish bilan kutib olarkan, ustiga-ustak kaltak bilan yelkasiga tushirib qolar ekan.

Qashshoq yigit o'zining sho'r peshonasi, zolim xotini haqida o'ylayverib boshi qotibdi.

Bir kuni odatdagidek cho'chqalarini o'tlashga qo'yib, o'zi tosh ustiga o'tiribdi.

Boshini qo'lga tirab o'tirib xayolga cho'mibdi.

— Salom do'stim, Xor o'rmoniga qay yo'l bilan borishni bilmaysanmi?

Cho'chqaboqar qarasa, ro'parasida yo'lovchi turgan-mish, ketida yuk ortilgan tuyalar bor emish.

Cho'chqaboqar o'rnidan turibdi-da, tayog'i bilan:

— Shu yerdan to'g'ri borsangiz, yo'l ikkiga bo'linadi, o'ng tomonga yursangiz to'ppa-to'g'ri Xor o'rmoniga yetib borasiz, — deb ko'rsatibdi.

Yo'lovchi unga rahmat aytib, bir dona tilla beribdi.

Kech bo'libdi. Cho'pon cho'chqalarni qishloqqa haydab kelibdi-yu, o'zi uyga yo'l olibdi.

Hali ostona hatlab uyga kirishga ulgurmay, xotini qarg'ashni boshlabdi.

— Sen ishyoqmasni deb, umr bo'yi och o'tirishim kerakmi? Uch kundan beri tuzukroq ovqat yemadim! Bitta xotinni boqishni uddalay olmasang, nima qilarding uylanib?

Cho'chqaboqar hamyonidan tillani olib:

— Sabr qil, bizga ham omad kulib boqyapti-yu, sen bo'lsang nuqul baqiraverasan! Mana bugun Xor o'rmonidan bo'g'zigacha tilla to'ldirilgan o'ra topib oldim. Ertaga borib tashib olamiz, — debdi.

— Nega ertaga? — baqirib yuboribdi xotini. — Hoziroq qanor qopni ol, sendaqa ishyoqmasni qara-ya? Birov ko'rib qolsa hammasini tashib ketadi. Xudo seni aqlsiz qilib yaratgan-da. Qani, tur o'rningdan, ketdik!

— Yo'q, charchadim, biroz dam olay! — yolvoribdi eri.

Shallaqi xotin quloq solishni ham o'ylamabdi. Erini qarg'ayveribdi. Er nima ham qilardi? O'rnidan turib qopni olibdi-da, xotiniga ergashibdi.

Yo'l yurib, yo'l yurganda ham mo'l yurib, nihoyat o'rmonga yetib kelishibdi. O'rmonda ustiga katta tosh bostirib qo'yilgan chuqur o'ra bor ekan.

Ikkovlashib zo'rg'a toshni surishibdi.

— O'raga men tusha qolay, — debdi eri, — qopni til-la-yu kumushga to'ldiraman, sen uni tortib olasan.

— Qopni to'ldirishga aqling yetarmidi?! — debdi xotini. — Sen boylikning yarmisini ham olmay, o'rada qoldirasan. Qopni menga ber, o'zim tushaman, sen bo'lsang tortib chiqarasan.

Shunday deb qopni olibdi-yu, o'raga sakrabdi!

Eri og'iz ochishga ulgurmay, xotini o'raga tushib ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Cho'chqaboqar biroz kutibdi, so'ng toshni surib, o'raning og'zini berkitibdi.

— Sening joying shu yer. Endi badavlat erni izlay-ver, — debdi va yo'lga tushibdi.

To'satdan kimningdir qichqirganini eshitib qolibdi. Er qiyo ham boqmay yo'lida davom etaveribdi.

Qichqirgan shayton ekan. Shu o'rada yashar ekan. Shallaqi xotin ustiga ag'darilib tushganda, qo'rqib ketib qichqirib yuboribdi. Cho'chqaboqar esa ketaveribdi. Uyiga kelib, uylanmasdan avval qanday bo'lsa, shunday tinch yashayveribdi.

O'rada esa rosa mashmasha bo'libdi: shallaqi xotin shaytonga ham tinchlik bermabdi. Baqiraverib, urishaverib joniga tegibdi.

Bezor bo'lgan shayton o'zini tepaga otgan ekan, chiqib ketolmabdi, toshga osilib olibdi. Hech bo'lmasa yovuz ayoldan sal narida bo'ladi-ku.

Oradan uch oy o'tibdi.

— Qani, xotinimning holini bir ko'rib kelay, — debdi bir kuni cho'chqaboqar o'ziga-o'zi.

O'rmonga kelib, o'ra tomon yuribdi. Shayton yuqorida kimningdir qadam tovushini eshitib yolvoribdi:

— Ey, odam, bir yaxshilik qilib yubor, toshni surib, meni shu alvastidan qutqazib ol, senga buyuk baxt ato etaman.

Cho'chqaboqarning rahmi kelib, toshni suribdi-da, shaytonni chiqarib olibdi.

— Men hozir Sharq podshosi huzuriga boraman, — debdi shayton. — Uning yakka-yu yagona qizi bor, uning ichiga kirib olsam, aqldan ozadi. Davolamoqchi bo'lishadi-yu, hech kim davosini topolmaydi. Shunda sen podshoning oldiga borib: «Qizingni men davolayman. Bunning evaziga uni menga berasan», deysan. Xonaga kirib borishing bilan men chiqib ketaman, sen bo'lsang unga uylanib, mamlakatga hukmdorlik qilasan.

Shunday deb ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Oradan ikki-uch hafta ham o'tmay, Sharq podshosining qizi aqldan ozganligi, qanchadan qancha tabiblar chaqirishsa ham, qancha dori-darmon berishsa ham davolashning iloji bo'lmayotgani haqida mish-mish gaplar tarqalibdi.

Buni bizning cho'chqaboqar ham eshitib, shaytonning gapini eslabdi-da, Sharq saltanati tomon yo'lga chiqibdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, Sharq saltanatiga yetib kelibdi. Saroyga kirib, oshxonadagilardan:

— Sizlarga nima bo'ldi, nega g'amgin yuribsizlar? — deb so'rabdi.

Malikaning xastaligini gapirib berishibdi.

— Uning huzuriga olib boringlar, ko‘ray-chi, balki yordamim tegib qolar, — debdi shunda cho‘chqaboqar.

Xizmatkorlar bir-birlariga qarab kulishibdi. U tixirlik qilavergach, podshoning huzuriga boshlab keli-shibdi:

— Xo‘sh, qizimni davolay olasanmi? — so‘rabdi podsho.

— Davolayman, — debdi cho‘chqaboqar, — faqat qizingizni menga xotinlikka berasiz.

— Agar davolay olmasang, boshing ketadi, — debdi podsho.

— Ma‘qul! — rozi bo‘libdi cho‘chqaboqar.

Uni bemor yotgan xonaga olib kirib, eshikni berki-tishlari bilan shayton paydo bo‘lib, unga:

— Mana, shartimni bajardim, qiz sog‘-salomat, unga uylanib, butun Sharqqa hukmdorlik qilasan. Endi men G‘arbdagi podshonikiga boraman. Uning yolg‘iz o‘g‘lini ham aqldan ozdiraman. Sen uyoqda ko‘zimga ko‘rinmagin, aks holda seni ham birpasda yo‘q qilib yuboraman, — debdi.

Shunday deb ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Podsho kelib qizining sog‘-salomat, aqli-hushi joyi-da ekanini ko‘rib quvonibdi. Katta to‘y qilibdi-da, o‘z saltanatini kuyoviga topshiribdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, G‘arb podshosining yolg‘iz o‘g‘li aqldan ozganligi, tabiblar qancha dori-darmon qilishsa-da, nafi bo‘lmayotgani haqida mish-mish gap-lar tarqalibdi.

G‘arb podshosi Sharq podshosiga elchi yo‘llabdi:

— Kuyovingni huzurimga jo‘nat, balki qizingni davolagandek, mening o‘g‘limni ham darddan xalos

qilar. Evaziga podsholigimning yarmini beraman. Kelmasa, sizlarga qarshi urush ochib, mamlakatingizni kunpayakun qilaman.

Yosh podsho o'ylanib qolibdi. Shahzodani davolamoqchi bo'libdi-yu, biroq shaytondan hayiqibdi.

O'ylab-o'ylab bir qarorga kelibdi: «Boraman. Butun mamlakatni halokatga duchor qilgandan ko'ra, o'zim halok bo'lganim ma'qul».

Qaynotasi uni qo'shin bilan borishga ko'ndirmoqchi bo'libdi. Kuyovi rad etib, bir o'zi yo'lga tushibdi.

Podsho uni zo'r izzat-hurmat bilan kutib olib, o'g'lining xastaligi haqida gapirib beribdi.

Cho'chqaboqar-podsho bemor yotgan xonaga kirib, eshikni berkitgan zahotiyuq, ro'parasida shayton paydo bo'lib, baqira boshlabdi:

— Senga nima degandim? Bu yerda qorangni ham ko'rsatma, demaganmidim? Endi o'zingdan ko'r, sening umring bitdi!

— Sabr qil, — debdi yosh podsho, — men uni davolashga emas, balki sening oldingga keldim. Bilib qo'y, xotinim o'radan chiqib, seni qidirib yurganmish.

— Nima?! — qo'rqib ketibdi shayton. — Jon do'stim, oz muddatga bo'lsa ham uni bir amallab alahsitib tur, ungacha biror yerga yashirib olaman!

Eshikdan otilib chiqibdi-yu, oyog'ini qo'lga olib yugurib ketibdi.

Shahzoda sog'ayibdi, cho'chqaboqar-podsho esa buning evaziga G'arb saltanatining yarmiga ega bo'libdi.

PULINI SAQLASH UCHUN BOYGA BERIB QO'YGAN KAMBAG'AL HAQIDA

Bir boy bo'lgan ekan. Kimda-kim pulini saqlamoqchi bo'lsa, shu boyga berib qo'yar ekan. Shu shaharda bir xizmatkor ham bo'lgan ekan. U o'n besh yil tirishib ishlabdi, bir tiyinlab yig'ib ikki yuz so'm to'plabdi. «Ishqilib, xotinim va bolalarimning oldiga borguncha yo'qotib yoki ishlatib qo'ymayin-da! Yaxshisi, shu pulimni o'sha boyga berib qo'yaman» deb o'ylabdi xizmatkor.

U ikki yuz so'm pulini boyga olib borib beribdi.

Vaqt kelib u uyiga, qarindoshlari yoniga qaytmoqchi bo'libdi. U boyning oldiga borib, bergan pulini qaytarishni so'rabdi.

— Qanaqa pul, qachon menga pul bergansan? — deb baqirib beribdi boy. — Yo'qol bu yerdan!

Xizmatkor juda ko'p yalinibdi:

— Meni va oilamni xarob qilmang! Menga rahm qiling, ochimizdan o'lib qolamiz, pullarimni qaytarib bering.

Yalinganlari bekor ketibdi, boy bir tiyin ham bermay, oldiga solib haydab yuboribdi. Kambag'al yig'lab, yo'liga ketibdi.

Shu shaharda dono, aqlli va rahmdil bir ayol bor ekan. Yig'lab kelayotgan bu kambag'alning ko'z yoshini ko'rib, uni chaqirib:

— Nega yig'layapsan? — deb so'rabdi.

— It azobida ishlab ikki yuz so'm pul to'plagan edim, uni saqlagani boyga berib qo'ygani edim, hozir borib so'rasam, pullarimni bermadi, hatto, urib, haydab yubordi.

— Saqlab bering, deb o'sha boyning oldiga hamma boyliklarimni olib boraman. Endi tugunimni yecha boshlaganimda sen kirib, pulingni so'raysan, — deb o'rgatibdi ayol. Keyin xizmatkoriga buyuribdi: — Boy pulni kambag'alga berishi bilan, yugurib kir-da: «Tezroq uyga boring, xo'jayin qaytib keldi», deb baqirgin.

Ayol qimmatbaho narsalarini yig'ibdi, boyning uyiga borib:

— Erim uyda yo'q, qaroqchilar uyimga bostirib kirib, boyligimning hammasini olib ketmasinlar, saqlab qo'ying deb sizga olib keldim, — debdi.

U tugunni endi ochib boyliklarini ko'rsatayotgan ekan, haligi xizmatkor kirib pulini so'rabdi:

— Saqlash uchun berib qo'ygan ikki yuz so'mimni qaytarib bering.

— Ma, o'g'lim, sening pulingni nima qilaman, — debdi boy; u kambag'alning pulini qaytarib beribdi.

«Agarda unga pulini qaytarib bermasam, bu ayol ham menga ishonmay qo'yadi, shuncha boylikni qaytarib olib ketadi» deb o'ylabdi boy.

Xizmatkor pulni olib sanayotgan ekan, ayolning xizmatkori yugurib kiribdi-da:

— Bekam, xo'jayin qaytib keldi, sizni kutyapti, boring tezroq uyga! — deb baqiribdi.

— Eh, — debdi ayol, — keyin olib kelaman, hozir uyga tezroq borishim kerak, — u shunday deb boyliklarini yana tugunga tugibdi.

Kambag'al suyunganidan qo'lini yozib o'yinga tushib ketibdi, ayol ham qo'llarini yozib davrada o'yinga tushib ketibdi, boy ham o'yinga tushib ketibdi.

— Nimaga hammangiz o'yinga tushyapsizlar? — deb so'rabdi ayolning xizmatkori.

— Kambag'al pulini qaytarib olgani uchun suyunib o'yinga tushyapti, men esa — ko'pdan beri ko'rmagan erim qaytganiga suyunib o'yinga tushyapman. Sen nima uchun o'yinga tushyapsan? — deb so'rabdi ayol boydan.

— Men esa senday sodda ayolga aldanganimdan! — deb javob qilibdi boy.

YOLG'ONNI QANDAY TUZATISH MUMKIN

Bir kosib yashagan ekan, uning o'g'li bo'lgan ekan. Otasi biror hunar o'rgansin degan niyatda o'g'lini kosibga shogirdlikka beribdi. O'g'li kosibchilik hunarini o'rganib, otasining yoniga qaytibdi.

Ota-bola ish qidirib boshqa yurtga yo'l olishibdi.

Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi; otasi o'g'lining bilimi va zehniini tekshirmoqchi bo'lib, undan so'rabdi:

— Men charchadim. Kel, bir-birimizni galma-galdan ko'tarib yuramiz.

— Bo'pti, — debdi o'g'li va otasiga ertak ayta boshlabdi.

O'g'li ertagini tugatgach, otasi ertak ayta boshlabdi; ikkalasi ham ertakka shunday berilib ketishibdiki, hatto, charchaganlarini unutib qo'yishibdi.

Yana ozgina yo'l bosishibdi. Otasi o'g'liga oltita tanga beribdi-da:

— Borib, shu pulga ot olib kel, minib olib, ketaveramiz, — debdi.

O'g'li borib bir ko'za musallas olib kelibdi, ular musallasni ichishib, xursand bo'lishib, yo'lda davom etishibdi.

Biroz yo'l bosgandan keyin otasi o'g'liga:

— Borib o'zing uchun bir o'rtoq, men uchun bir o'rtoq topib kel, — debdi.

O'g'li o'rmonga borib, o'zi uchun bir tayoq, otasi uchun bir tayoq sindirib kelibdi. Ular yana yo'lda davom etishibdi.

Ular yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi va bug'doyzorga duch kelishibdi.

— Oh, bug'doyzor qanday yaxshi, qanday yaxshi-yal! Boqib ko'zing quvonadi.

— Hammasi o'rib bo'lingan, o'rib bo'lingan! — debdi o'g'li.

— Qanday yaxshi!

— Yo'q, o'rib bo'lingan!

Ular hech ham kelisha olishmabdi.

— Yur, biladigan odamdan so'raymiz, — debdi otasi.

Ular biladigan odamni izlab ketishibdi. Ketayotib daryoga duch kelishibdi, suvda tuz yotganmish-u, mutlaqo erimaganmish.

— Suvda erimaydigan qanday tuz ekan? — deb so'rabdi otasi.

— Bilmayman, — deb javob qilibdi o'g'li. Ular biladigan odamni izlab ketishibdi. Ularga bir qizni ko'rsatishibdi. Ular qizning oldiga kelib to'xtashibdi.

Qiz esa shunday go'zal ekanki, dunyoda unga teng keladigan go'zal yo'q ekan. Faqat uning bir ko'zi salgina g'ilay ekan.

Qizning sal g'ilayligini otasi fahmlabdi, lekin har qalay qizni xafa qilgisi kelmabdi-da:

— Uyingiz juda ham yaxshi ekan, faqat tomi salpal qiyshiq ekan (o'zing yaxshi ekansan-u, faqat ozingina g'ilay ekansan), — debdi.

— Nima bo'пти, — debdi qiz, — qiyshiq bo'lsa nima qilibdi, tutuni to'g'riga chiqadi-ku. (Ko'zim salgina g'ilay bo'lsa ham, lekin hamma narsani to'g'ri ko'raman.)

Otaga bunday javob ma'qul tushibdi-da:

— Biz, ota-bolaning bahsini yechib ber. Men uni shogirdlikka berdim, u esa hech narsani o'rgana olmayapti: biz dalada ketayotib yo'lda bug'doyzorni ko'rib qoldik, u oltinday tovlanardi. Men: «Bug'doyzor yaxshi!» deb aytdim, u esa: «Yo'q, o'rib olingan!» dedi, — debdi.

— O'g'lingiz haq! — debdi qiz. — Bu bug'doyzor egasining qarzlari judayam ko'p, butun hosilni qarziga bosib olishadi, egasiga hech narsa qolmaydi.

Bu javob ham otaga ma'qul tushibdi-da:

— Yo'lda ketayotib daryoga uchradik, suvda tuz yotibdi, lekin erimas edi. Bu qanday tuz va qanday suv bo'ldi? — deb so'rabdi.

— Suv — bu xotin, tuz esa — bu er, — debdi qiz. — Yomon xotinning eri suvdagi tuz kabi eriydi, yaxshi xotinning eri esa suvdagi tuz kabi erimaydi.

Bu qiz otaga juda ma'qul bo'libdi, u o'g'lini unga uylantirishga qaror qilibdi. O'sha kechasi to'y ham bo'libdi.

Vaqt o'tibdi. Ota-bola ish izlab ketishibdi. Bir shaharga kelib, shohga saroy qurishga yollanishibdi. Shoh ularga:

— Agarda qurilgan saroy yoqib qolsa — mehnatlaringizga haq to'layman, yoqmasa — to'lamayman, — deb shart qo'yibdi.

Ota-bola judayam chiroyli saroy qurishibdi, saroy hammaga yoqibdi, lekin shoh bahona topib, ota-bolani zindonga tashlashni buyuribdi. Shunda otasi:

— Uyimda bir dastgohim bor, uni olib kelishsa, sizga yoqmagan yerini shu zahotiyuq tuzatib beradi. Uyda faqat kelinim bor, u dastgohni hech kimga bermaydi, balki o'g'lingga berarmikin.

Podsho o'g'li va sheriklarini kelinning yoniga jo'natibdi, ota-usta esa borayotgan odamlarga:

— Kelinimga borib: «Otang yolg'onni tuzatadigan narsani yuborsin», deb aytdilar, denglar, — debdi.

Mehmonlar kelishi bilan kelin shohning o'g'lini qamab qo'yibdi-da, sheriklariga:

— Borib shohga aytinglar: qaynotam va erimni zindondan ozod qilmasa, u ham o'g'lini ko'rmaydi, — debdi.

Podsho nima ham qila olardi?

U ota-bola ustalarning haqini to'lab, ularni ozod qilibdi.

IKKI SHAPALOQ

Bir kambag'al kishi bo'lgan ekan. Uning na yeyarga oshi, na kiyarga kiyimi yo'q ekan. G'aribona kulbasida bittagina mushugi bilan yasharkan. Oxir-oqibat ochlikdan o'layozibdi. «Podshoh huzuriga borib, holimni tushuntiray, marhamat qilib zora biror narsa bersa» — deb o'ylab, mushugini qopga solibdi va yo'lga tushibdi.

Aytishga oson, shoh huzuriga kirish esa qiyin. Darvozabon kambag'alni saroyga kirgizmabdi. Uzoq yalinib-yolvorgach, axiri ko'nibdi.

— Mayli, kirgizaman, faqat bir shartim bor: shoh nima bersa yarmini berasan! — debdi u qo'rslik bilan.

Kambag'alning rozi bo'lishdan boshqa iloji ham yo'q ekan. U shoh huzuriga kirib ta'zim qilibdi, so'ng qopdan mushukni chiqarib yuboribdi. Och mushuk to'rt tomonga yugurib, miyovlarmish.

— Arzingni so'yla, mushukni nimaga olib kelding, — so'rabdi shoh.

— Uymidan, hatto sichqonlar ham qochib ketishgan, mushugim o'lib qolmasligi uchun uni sizga olib keldim, shohim, — debdi kambag'al. — Evaziga ikkita tarsaki tushirsangiz yetadi.

Shoh ajablanibdi. Umri bino bo'lib mushukni tarsakiga alishganlarini ko'rmagan ekan, shunday bo'lsa-da, kambag'alning iltimosini bajaribdi: ketma-ketiga shapaloq tushiribdi.

Kambag'al rahmat aytib, shoh huzuridan chiqibdi. Darvozabon uning yo'lini to'sibdi.

— Shoh nima berdi? Yarmisini bermaysanmi! Bo'l tez chiqar!

Kambag'al darvozabonning ulushini beribdi: uni qulochkashlab bir tushirgan ekan, to'polon bo'lib ketibdi.

Shoh shovqinni eshitib, nima gapligini bilish uchun tashqariga chiqibdi.

— Shohdan oladigan tortiqning yarmisini va'da qilmagunimcha darvozabon meni kiritmadi, — tushuntiribdi kambag'al, — shuning uchun yarmisini unga berish uchun ikki tarsaki so'ragan edim.

Bu gapni eshitgan shoh kulib yuboribdi va hozirjavob kambag'alni in'omlar bilan siylabdi.

YO'LBARS – MUSHUK HOMIYSI

Qishloq chekkasida bir dehqon yer chopayotgan ekan. Uy hayvonlari hovlidan ko'chaga chiqqan paytda mushuk ham o'shalar bilan shataloq otib chiqibdi-da, avji yer chopiladigan vaqtda o'rmonga kirib, kapalak va ninachilarni quvib yuribdi.

Shu payt o'rmondan yo'lbars o'tib ketayotgan ekan. U mushukni ko'rib, juda hayratda qolibdi.

– Og'ayni, o'zing bizning avloddangga o'xshaysan-u, – debdi unga yo'lbars, – nega bunchaldik kichikinasan?

Mug'ambir mushuk o'zini azob-uqubat chekayotgan qilib ko'rsatibdi-da:

– Ey, ulug' xoqon, hayvonlar podshosi! – debdi u. – Odamlar qo'lida yashash qanchalik qiyinligini bilganingda edi.

– Senga azob bergani kim jur'at etdi? O'sha odamni menga ko'rsat, u bilan gaplashib qo'yay, – debdi yo'lbars.

Mushuk yo'lbarsni omoch haydayotgan dehqonning yoniga olib boribdi. Shunda yo'lbars odamga:

– Ey, odamzod, nega mening avlodimga azob berasan? U bechora siqilganidan hatto o'smay qolibdi. U senga nima gunoh qildi. Men u uchun sen bilan jang qilmoqchiman, – debdi.

– Marhamat! – debdi dehqon, – faqat men kuchimni uyga tashlab keluvdim, chopqillab borib olib kelay, keyin kurashaylik.

– Ha, mayli, – debdi yo'lbars, – borib olib kela qol, seni shu yerda kutib turaman.



— Bordi-yu, aldab qochib ketsang-chi, — debdi dehqon, — men bekorga ovora bo‘lib chopib yuramanmi? Bunday qilaylik: seni arqon bilan mana shu daraxtga bog‘lab qo‘yay, men qishloqqa borib kelgunimcha shu yerda tura turasan. Kuchimni olib kelganimdan so‘ng bellashib ko‘ramiz.

— Ha, mayli, — deb rozilik bildiribdi yo‘lbars.

Shunday qilib dehqon uni daraxtga bog‘lab qo‘yibdi-da, o‘zi o‘rmonga kirib, shumtoldan kattakon to‘qmoq yasab chiqibdi. Shunda u:

— Mana shu mening kuchim bo‘ladi, — debdi-da, yo‘lbarsni ura ketibdi.

Yo‘lbars na‘rasiga yer-u ko‘kning rahmi kelibdi. Lekin odamzod uning biqinidan darcha ochmaguncha uraveribdi. Yo‘lbarsni holdan toydirgach, arqonni yechibdi-da:

— Bundan keyin birovlarining ishiga burningni suqib yurmagin, — debdi unga. — Endi jo‘nab qol, biron yerda maqtanib qolgudek bo‘lsang, mening nomimni ham aytish yodingdan chiqmasin.

Yo‘lbars o‘lar holatda oyog‘ini zo‘r-bazo‘r sudrab yo‘lga tushibdi. Mushukni ko‘rgach chuqur xo‘rsinib, ingroq tovush bilan unga shunday debdi:

— Senga qoyilman, birodar. Bunaqangi maxluq qo‘lida o‘sib, shu darajaga yetganingga balli-ye!

ARSLON BILAN QUYON

Bir o‘rmonda hayvonlar tez-tez uchrashib turishar ekan. Har safar ham ular orasida arslon bo‘lar ekan: arslon hayvonlardan bittasini, albatta o‘g‘irlab ketar,

uni yeb, qornini to'yg'azar ekan. Bechora hayvonlar doim tahlikada yashar ekanlar.

Kunlarning birida ular yig'ilishib maslahat qilishibdi: nima qilish kerak, bu doimiy jonhalaklikdan qutulish uchun qanday chora ko'rish kerak? Ular uzoq o'ylashibdi, muhokama qilishibdi-da, nihoyat arslonga umrining oxiriga qadar o'lpon berib turishga qaror qilishibdi. O'lponni o'zlari vaqtida berib turadigan bo'lishibdi, buning evaziga arslondan, har kuni biz vahimada yashamaylik, bizni tinch qo'ying, deb so'rashadigan bo'lishibdi. Arslonning huzuriga borib shunday qarorga kelishganini aytishibdi.

Arslon rozi bo'libdi-yu, lekin o'lponni kechiktirmay, xuddi belgilangan vaqtda yetkazib turish lozimligini uqtiribdi.

— Aks holda, hammanglarni g'ajib tashlayman, — debdi u.

Shunday qilib ular arslonga har kuni oralaridan kimnidir olib borib berib turishibdi. Navbat quyonga kelibdi.

— Ha, mayli, — debdi quyon, — navbatim kelgan bo'lsa, ilojim qancha. Faqat uning huzuriga yolg'iz o'zimni yuboringlar, agar uddasidan chiqsam, uning surobini to'g'rilab, o'zimni ham, sizlarni ham bu og'ir qismatdan qutqarishga harakat qilaman.

Hayvonlar kulishibdi:

— Bu qush pir etsa, yuragi shir etadigan qo'rqqoq quyonning maqtanishini qaranglar!

Arslon juda och ekan, quyon ataylab kechga qolib boribdi.



Arslonning ko'zlari ola-kula bo'lib, tishlarini g'ijirlatib navbatdagi yemishni kuta-kuta, endi hamma hayvonlarning taka-pukasini chiqargani shaylanib turgan ekan, birdan quyon borib qolibdi. Arslon unga dahshat bilan qarab:

— Shuncha kechikishga qanday jur'at etding? — deb irillabdi.

— Ulug' xoqon, — debdi quyon. — Sizga quyon olib kelish menga topshirilgan edi, men uni olib kelayotuvdim ham. Lekin yo'lda bizga boshqa bir arslon hamla qilib, olib kelayotgan quyonimni tortib oldi va uni chuqurlikka olib tushib ketdi.

— Qani, uni menga ko'rsat-chi! — deb hayqiribdi arslon.

Quyon uni quduq yoniga boshlab borib:

— Mana, buyuk xoqon, u shu yerda, faqat o'zim yolg'iz u yerga qarashga qo'rqaman, meni qo'lingizga olib qarang, men sizga ko'rsataman, — debdi.

Arslon quyonni changaliga olib, quduqqa qarabdi. Quduq tagidagi suvda ularning aksi ko'rinibdi: arslon qo'lida quyonni ushlab, yuqoriga qarab turganmish.

Tutaqib ketgan arslon quyonni bir chekkaga otib yuborib, dushmanning ta'zirini berib, undan o'ljasini tortib olgani o'zini quduqqa tashlabdi. Ammo quduqning tagi juda chuqur ekan, bahaybat arslon cho'kib ketibdi.

Bu voqeani eshitgan hayvonlar yovuz dushmanlardan qutulganlari uchun o'zlarida yo'q xursand bo'lib ketishibdi. Quyonga esa chin yurakdan minnatdorlik bildirishibdi.

Özərbaycan

xalq ertakləri



SARIQ QOVUN

Bor ekan, yo‘q ekan, bir dehqon bo‘lgan ekan. Bu dehqonning bir parchagina yeri bo‘lib, unga qovun ekkan ekan. Qovunlar pishibdi. Ularning orasida bir sariq qovun boshqalaridan ajralib turar ekan. Uning hidi shunday o‘tkir ekanki, hatto uzoqdan kelayotgan kishi ham hidiga mast bo‘lib qolarkan.

Dehqon buning badaliga durustroq bir sovg‘a olish maqsadida qovunni xonga atab saqlamoqchi bo‘libdi.

Ammo ish dehqon o‘ylagandek bo‘lib chiqmabdi.

Kunlarning birida xon ovga chiqibdi. Dehqonning polizi yonidan o‘tib ketayotganida kishini mast qiladigan xushbo‘y hid dimog‘iga urilibdi. Xon otdan tushgan zahotiyiq haligi qovunni ko‘ribdi. U engashib, qovunni uzib olmoqchi bo‘libdi, bunday qarasa, rosa pishib yetilishiga hali ikki-uch kun bor emish. Shunda u dehqonni chaqiribdi-da:

— Bu qovunni uch kun saqlab, to‘rtinchi kuni men-ga olib borib berasan, — debdi.

Dehqon egilib ta‘zim qilibdi. Xon bo‘lsa otga minib, uni choptirganicha jo‘nab ketibdi.

Dehqon ma‘yus holda sekin-asta qadam tashlab, uyiga kelibdi-da, o‘g‘liga:

— Bolam, sariq qovunni sen kunduzi, men bo‘lsam kechasi qo‘riqlayman. Bu qovunni to xonga olib borib bergunimcha — uch kun shunday qilamiz, — debdi.

Hozircha dehqon qovunning tashvishida bo'lib tursin, men sizlarga uning o'g'li Aliyor haqida gapirib beraman.

Aliyor bu ajoyib qovunni o'zi yeb ko'rmoqchi ekan. Otasi bu qovunni xonga olib borib bermoqchi bo'lganini eshitgandan keyin juda xafa bo'libdi. Shunday bo'lsa ham, u polizga borib, oqshom paytigacha, otasi kelguncha qo'riqlabdi. Erta bilan bo'lsa, otasi uyga qaytib kelib, polizga yana o'g'lini yuboribdi. Shu yo'sinda ikki kun o'tib, Aliyorning oxirgi qo'riqchilik qiladigan kuni yetib kelibdi.

U qo'riqchilik qilib tursin, men sizlarga bir qoraquloq quyon to'g'risida so'zlab beraman.

Quyong juda ham och qolibdi. U chopgancha polizga kelib qovunlarning orasidan haligi sariq qovunni tanlabdi. Chunki u, boshqa qovunlar uning oldida uch pulga ham arzimasligini sezibdi-da! Shunday qilib quyon qovunni ishtaha bilan yeya boshlabdi. Bir mahal Aliyor qoraquloq quyoning maza qilib qovun yeyayotganini ko'rib qolibdi-yu, bitta tosh olib unga otibdi. Quyong qochib ketibdi. Aliyor qarasa, qovun bir necha joyidan o'yilgan emish.

«Endi qovun xonga ham, quyonga ham nasib bo'lmadi, — debdi u o'zicha. — Shunday bo'lgandan keyin uni o'zim yeb qo'yaqolay».

Aliyor qovunni yeb bo'lgandan keyin uyiga kelibdi-da, otasiga shunday debdi:

— Otajon, polizda o'tirib, ko'zim uyquga ketib qolgan ekan, qoraquloq quyon sariq qovunni yeb qo'yibdi.

Dehqon chopgancha polizga boribdi, qarasa, sariq qovundan asar ham qolmaganmish. Saroyga kelib xonning oyog'iga yiqilibdi-da:

— Ey, shafqatli xon, — debdi dehqon, — o'g'lim sariq qovunni yaxshi qo'riqlayolmabdi, uni qoraquloq quyon yeb qo'yibdi. Bir qoshiq qonimizdan kech!

Buni eshitib g'azablangan xon Aliyorning boshini olishga buyuribdi.

Dehqon xon xizmatkorlari quvib yubormaguncha, xondan o'g'lining gunohini kechirishni so'rab yolvoribdi. Xizmatkorlar uni rosa do'pposlab, saroydan haydab chiqarishibdi.

Kaltak zarbidan boshi yorilgan, aft-basharasi qonga belangan bechora chol uyiga qaytib kelibdi.

Qo'ni-qo'shnilar yig'ilishib, nima bo'lganini so'ray boshlashibdi. Dehqon bo'lgan voqealarni birma-bir gapirib beribdi. Xonning o'limga buyurganini eshitib, rangi oqarib ketgan Aliyor sekingina uydan chiqib, polizga boribdi. U sariq qovun unib yetilgan joyga borib o'tiribdi-da, uvvos solib yig'labdi.

Bolaning yoniga chopgancha qoraquloq quyon kelibdi. Aliyor uni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, u odamga o'xshab gapirib:

— Nega yig'layapsan, Aliyor? — deb so'rabdi.

— Yig'lamay bo'ladimi? — deb javob beribdi Aliyor. — Otam sariq qovunni xon uchun asrab qo'ygan edi. Sen kelib uni rasvo qilib ketding. Endi bo'lsa, xon meni o'ldirmoqchi bo'lyapti.

— Qo'rqma, xon seni o'ldirmaydi, — deb uni ovuta boshlabdi quyon. — Men shu bugunoq xonning tokzoriga kiranman-da, to'ygunimcha yeb, qolgan uzumlarni rasvo qilib tashlayman. Xon o'zining tokzori bilan ovora bo'lib, seni esidan ham chiqarib yuboradi. Keyin bir gap bo'lar.

Kechasi quyon xonning tokzoriga kiribdi-da, eng yaxshi uzumlarni yebdi, qolganlarini uzib yerga tashlabdi. Undan keyin tok novdasining po'stlog'ini shilib, qochib ketibdi.

Ertalab xonning bog'boni tokzorning xarob bo'lganini va u yerdan qoraquloq quyonning qochib ketayotganini ko'rib qolibdi. U shu zahotiyoq xon saroyiga chopibdi. Xonning o'zi tokzorga kelib qarasa, uzumlarning eng yaxshi boshlari yeyilgan, qolganlari yerda sochilib yotgan emish.

Xonning jahli chiqib ketibdi-da:

— Ovchilar it bilan izdan borishsin-da, yo'lda qanaqangi quyon uchrasa ham, hammasini otib o'ldirishaversin, — deb buyruq beribdi.

Ovchilar quyonning izidan borib, bir necha quyonni o'ldirib, qaytib kelishibdi:

— Tokzorni xarob qilgan o'sha qoraquloq quyonni topa olmadik, — deyishibdi.

Shunda xonning g'azabi qaynab:

— Uni o'zim topib otaman, — debdi.

U otiga minib dalaga chiqib ketibdi. Xon dalada quyonni qidirib ikki kun yuribdi-yu, lekin uni uchrata olmabdi. Oxiri juda charchabdi, bir daraxtning tagiga kelib otdan tushibdi-da, dam olib yotib, uxlab qolibdi.

U daraxt tagida uxlab yota tursin, hozir men sizlarga qoraquloq quyon haqida gapirib beraman.

Xonning uxlab yotganini ko'rib, quyon chopgancha Aliyorning yoniga boribdi-da:

— Bu yoqqa yurgin, men uxlab yotgan xonning ko'ziga mahkam yopishaman, sen bo'lsang bir siqim

qum olasan-da, sepib yuborasan. Keyin u ko‘r bo‘lib qoladi-yu, biz undan qutulamiz, – debdi.

Ular shunday qilishibdi-yu, qochib ketishibdi. Xonning ikkala ko‘zi ko‘r bo‘lib, kechasi dalada yolg‘iz o‘zi qolibdi.

Yarim kechada xonga yirtqich hayvon va qushlar yopishib, uni tilka-pora qilib tashlashibdi.

Shunday qilib Aliyor bilan quyon odamlarni xonning zulmidan qutqarib, murod-maqсадlariga yetishibdi.

UCH USTA

Qadim zamonda bir shaharda uchta mohir usta yashagan ekan. Ulardan biri g‘isht teruvchi, ikkinchisi dugardgor, uchinchisi esa zargar ekan. Ular bir-birlari bilan juda inoq ekanlar. Ular kunduz kuni ishlab, kechqurunlari birga sayr qilishar, gurunglashishar ekan.

Kunlarning birida ular, qaysi birimiz mohir-u, kim ishini zo‘r san‘at bilan bajaradi, deb tortishib qolishibdi. G‘isht teruvchi usta:

– Men shunday uy quramanki, uning har bir g‘ishti o‘zgacha tovlanadi. Bir kunda bu uy uch marta – erta bilan, tush paytida va kechqurun boshqa-boshqa rangda tuslanadi. Undan tashqari, uy shamol esgan tomonga buriladi ham, – debdi.

– Men yog‘ochdan shunday ot yasaymanki, u suvda ham, quruqlikda ham chopadi, hatto osmonda uchadi ham, – debdi duradgor.

– Men oltin bilan kumushdan xo‘roz yasayman, uning dumi xuddi tovonnikidek tovlanadi. Uygami,

hovligami, ko'chagami yoki shahargami begona kishi kirib qolgudek bo'lsa, xo'roz shu zahotiyuq qu-qulab hammani oyoqqa turg'izadi, — debdi zargar ham.

Ular uzoq bahslashishibdi. Har biri o'z hunarini ko'klarga ko'tarib maqtabdi. Ularning urishib ketishiga sal qolibdi.

Xuddi shu payt shoh bilan vazir darveshlar kiyimini kiyib, shahar aylanib yurishgan ekan. Tasodifan ular uchta usta yashaydigan uy yonidan o'tib qolishibdi. Ularning bahslarini eshitib, shu yerda to'xtashibdi. Shohning uyga kirib, ustalarni ko'rgisi kelibdi. Qanday bahona topib kiramiz, deb ancha o'ylanib qolishibdi, nihoyat vazir o'ylab topibdi. Shu zahotiyuq u qo'shiq ayta boshlabdi. Uning ovozi juda shirali ekan, bahslashayotgan ustalar beixtiyor unga quloq solib qolishibdi, keyin g'isht teruvchi usta:

— Bu ajoyib qo'shiq aytayotgan darveshni ichkari-ga chorlasak, u bahsimizni yechib bersa, — deb taklif qilibdi.

Ular darveshlarni uyga olib kirib, to'rga o'tqizishibdi, non-choy, qand-qurs bilan mehmon qilishgach, allama-haldan beri bahslashayotganlarini aytib, shu masalani hal qilib berishni so'rashibdi. Shoh ularning gaplarini qunt bilan eshitgach:

— Uchalangiz ham juda ajoyib ish qilishga va'da beryapsiz. Ertaga erta bilan shohimiz huzuriga boring-lar. U kishi chiroyli, ajoyib narsalarni yaxshi ko'radi. Bahslaringizni ham hal qiladi-qo'yadi, — debdi.

Ustalarga darveshning maslahati ma'qul tushibdi. Mehmonlarni kuzatishgach, saroyga borish hozirligini ko'rishibdi.

Tong otibdi. Shoh o'zining taxtiga chiqib o'tirgach, g'isht teruvchi, duradgor va zargarni huzuriga kiritishni buyuribdi. Ustalar kirib, uning qarshisida tiz cho'kishgach, shoh ularga o'rnilaridan turishni buyuribdi:

— Sizlarning nima sababdan kelganinglar menga ayon, muhtaram ustalar, mening fikrim shunday: har biringiz dunyoda topilmaydigan narsa yasang!

Shunda ustalar kechqurun ularning uyiga darvesh kiyimida kelgan kishi shoh ekanini bilishibdi. Ular birbirlariga ma'noli qarashibdi-yu, lekin bilishganini sezdirishmabdi.

G'isht teruvchi usta shoh oyog'iga yiqilibdi:

— Shohimizning umrlari uzun, baxtlari boqiy bo'lsin. Men shunday uy qurishga qodiramanki, u ming bir rangda tovlanadi. Bir kunda bu uy uch marta — erta bilan, tush paytida va kechqurun tusini o'zgartiradi. Yana u shamol esgan tomonga qayriladi ham, — debdi.

Keyin duradgor gap boshlabdi:

— Shohimizning umrlari uzun, baxtlari boqiy bo'lsin. Men shunday bir ot yasaymanki, u xuddi qushdek istagan mamlakatingizga uchirib boradi. Bu ot quruqlikda ham, suvda ham, havoda ham chopadi.

Duradgor shu so'zlarni aytib, o'zini chetga olgan ekan, uning o'rnini zargar egallabdi:

— Sizga tole yor bo'lsin, umringiz boqiy bo'lsin, olampanoh. Men oltin va kumushdan shunday xo'roz quyamanki, uning patlari xuddi tovonnikidek tovlanadi. Uydami, hovlidami, shahardami begona kimsa paydo bo'lsa, u jar soladi. Dushman lashkarlari shahar chegarasida paydo bo'lishi bilanoq qichqiradi.

Shoh ularning gaplarini tinglagach:

— Ey, dongdor ustalar, bu ishlarni amalga oshirish uchun sizlarga nimalar kerak bo'ladi? — deb so'rabdi.

— Shohimiz baxtiyor va sog' bo'lsinlar! Bu tomoni sizning iltifotingizga bog'liq, — baravariga javob berishibdi ular.

Shunda shoh farmoni oliy beribdi:

— Ularni xazinaga olib boringlar, nimaniki kerak deb bilishsa, shuni beringlar.

Xazinabon ularni xazinaga boshlab boribdi.

Ular cho'ntaklari va qo'yinlariga siqquncha oltinlardan solib olib, uylariga ravona bo'lishibdi.

Ertakda vaqt juda tez o'tadi. Uch oydan keyin uy ham, ot ham, xo'roz ham tayyor bo'libdi. Ustalar ot bilan xo'roznı uyga qo'yib, shohga xabar bergani keli-shibdi. Shoh vazirlari va qarindosh-urug'larini olib yangi uyni ko'rgani boribdi. Uy unga juda yoqibdi. Bunaqangi uy hali hech kimda, hech qachon bo'lmagan ekan. Bu uy kuniga uch marta turlanar ekan. Xo'roz ularni uzoqdan ko'rishi bilanoq, hovliga chiqib, mehmonlarni qarshi olibdi. Ot esa egarlog'liq turganmish.


Shoh ustalarni maqtabdi, so'ng duradgorni chaqiribdi-da:

— Qani, otga minib, yuganini tortib, uning chopqirligini ko'rsat-chi, — debdi.

Duradgor otga minib, yuganini tortibdi... Ot kishnab, havoga ko'tarilibdi. Bir soat mobaynida u oy va yulduzlarni aylanib, qaytib tushibdi.

Shoh ularga shu qadar ko'p sovg'a-salomlar beribdi-ki, ular bu narsalarning hammasini uylariga ko'tarib ketisholmabdi.





O'sha kuniyoq shoh yangi saroyga ko'chib o'tibdi. Bu yerga begona kishi oyoq bosib kelolmas, chunki xo'roz darrov qichqirar ekan.

Oradan oz vaqt o'tibdi. Kunlarning birida qo'shni mamlakat podshosi son-sanoqsiz askar to'plab ularga qarshi to'satdan urush boshlabdi. Tun bo'lib, hamma uyquda ekan. Faqat xo'rozgina sezib, qattiq qichqirib jar sola boshlabdi. Shoh uyg'onib, xo'rozning bemahal qichqirganidan g'azablanibdi-da, uni yerga urib sindiribdi. Shu payt vazir yugurib kelibdi:

— Ey, olampanoh, tezroq bo'ling. Dushman qo'shinlari bizni har tomondan qurshab, shaharga bostirib kirdi.

Shunda shoh xo'rozning qichqirgani bejiz emasligini sezib, uni urib sindirganiga pushaymon bo'libdi.

Shoh lashkarlarni to'plab, dushmanga qarshi olib chiqibdi. Bir bahodir bir qop to'la katta-katta toshlardan olib, yog'och otga minib, osmonga ko'tarilibdi. Otliqlar pastda dushmanga qilich sanchsa, yog'och ot-dagi bahodir tepadan turib ularni tosh bilan boplab toshbo'ron qilibdi.

Jang roppa-rosa to'qqiz kun-u to'qqiz tun davom etibdi. Nihoyat dushmanlarni bitta qo'ymay qirib tashlashibdi.

G'alabani qirq kun-u qirq tun nishonlashibdi. Faqat xo'roz yodiga tushgan paytlarda shohning ko'ngli g'ash bo'lar ekan. U bu paytgacha hech kim va hech narsaga shu qadar achinmagan ekan.

MARD BILAN NOMARD

Bor ekan-u, yo‘q ekan, qadim zamonda aka-uka yashab o‘tgan ekanlar. Birining ismi Mard, ikkinchisniki esa Nomard ekan.

Kunlarning birida Mard bilan Nomard birga yo‘lga otlanishibdi. Yo‘llari olis, ular o‘zlariga ish axtarib ketishayotgan ekan.

Har safar dam olgani o‘tirganda, Mard o‘z xaltasini ochib, ukasini chaqirar, ular birgalashib ovqatlani-shar ekan. Nomard esa xaltasini ochmas ekan. «Sening oziq-ovqating tugasin, — derkan u, — keyin menikiga o‘tamiz».

Ular uzoq yo‘l yurishibdi. Nihoyat, Mardning xaltasi bo‘shabdi. Akasini boqish navbati Nomardga kelibdi. Ular ko‘z yoshidek musaffo buloq bo‘yida o‘sgan daraxt soyasida to‘xtashibdi... Shunda Nomard dasturxonini yozib, o‘zi ovqatlana boshlabdi. Mard qarasaki, ukasi unga yegulik biror narsa berishni xayoliga ham keltirmayotganmish.

— Uka, axir mening ham qornim och-ku, — debdi u.

— Kel, o‘ng ko‘zingni o‘yib olaman-da, cho‘ntagingga solib qo‘yaman, shundagina senga ovqat beraman, — deb javob beribdi Nomard.

Oldiniga Mard, ukam hazillashyapti, deb o‘ylab, yana bir marta so‘ragan ekan, Nomard o‘sha gapni takrorlabdi.

Xullas, Mard qancha gapirmasin, Nomardga zig‘ircha ham ta’sir qilmabdi.

Mardning nihoyatda qorni och ekan. Agar uni bag‘ritosh ukasi tashlab ketsa, u ochlikdan o‘lib, yirt-

gich hayvonlarga yem bo'lishini tushunibdi. Shunda Mard: «Ochlikdan o'lganimdan ko'ra, bir ko'zimdan ayrilganim afzalroq» deb o'ylabdi-da, rozi bo'libdi.

Nomard akasining o'ng ko'zini o'yib olib, uning o'ng cho'ntagiga solib qo'yibdi-da, bir burda non beribdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay ular yana yo'lga tushishibdi. Aka-uka yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Mard qarasa, ukasi yana bir o'zi ovqat yeyayotganimish. Qancha yalinmasin, ukasidan bir burda ham non ololmabdi. Oxiri Nomard uning chap ko'zini o'yib olib, Mardning chap cho'ntagiga solibdi-da, bir burda ham non bermay ketib qolibdi. Shunday qilib, Mard yolg'iz o'zi qolib ketibdi.

Ozmi-ko'pmi vaqt o'tibdi, kun botib, kech kiribdi. Qo'li bilan yerni paypaslab, bir daraxt tagiga boribdi, shoxlaridan uzib, yerga solibdi, boshini balandroq qilib yotibdi. Bechora g'am-u anduhga botibdi. «Endi nima qilaman, qayoqqa boraman», deb xayol suribdi. Birdan qulog'iga allaqanday shitirlagan tovush eshitilibdi. Qo'rqqanidan bechoraning nafasi ichiga tushib ketibdi.

Yonginasida kimningdir pishillagani eshitilibdi. Ular sher, bo'ri va tulki ekan. Hayvonlar daraxt tagiga o'tirib olishibdi. Sher bo'riga qarab:

— Ahvoling qalay, bo'rivoy? — debdi.

— Umring uzoq bo'lsin, hokimi mutloq, — javob beribdi bo'ri, — ahvolim yomon! Uch kun bo'ldi, tuz totganim yo'q. Tog'ning u tarafida yaylov bor. Cho'pon har kuni u yerda qo'y boqadi. Mana necha yildirki, shu podadan bir qo'zichoqnimi, echkinimi tilka-porasini chiqarib, maza qilib, tashvishsiz yashardim. Lekin-chi,

bu tarashaday qotgur cho'pon qayerdandir bir it topib keldi. Endi podaga yaqin borgani qo'rqaman!

— Kecha men ham itni ko'rdim, — debdi sher. — Uning qoni foydali. Har qanday kasal uni ichsa, tuza-lib ketadi.

Keyin sher tulkidan so'rabdi:

— Sening ishlaring qalay, tulkivoy?

— Umringdan baraka top, ey podshohi olam, ishla-rim haqida nima desam bo'larkin. Tulki qopqonga terisi-ni baholatgani tushmaydi. Aldamasang, kun ko'rishing qiyin, men shunday deb o'ylayman. Huv anavi tog'ning orqasida bir g'or bor, — gapida davom etibdi tulki. — U yerda kalamush yashaydi. Unda oltin-u gavharlar-ga to'la bir necha xum bor. Buni bilganimdan keyin, uning oldiga borib, rosa qo'rqitdim. Ahmoq ekansan-ku, oltinni ham g'orda saqlaydimi, axir u buzilib qo-ladi-ku, dedim. «Nima qilay bo'lmasa?» — deb so'radi kalamush. Men esa unga: «Hech bo'lmasa, kuniga bir marta uni oftobga yoyish kerak», dedim. Oldiniga ka-lamush ishonmadi. Tulkilik qilib aldasang, ishontirish pista chaqqanday gap. Shu kundan boshlab kalamush bilan kelishib oldik. Har kuni u oltin-u gavhalarini oftobga yoyib qo'yadi, men esa qo'riqlayman. Keyin kalamush meni to'ydirib, yana kuzatayotganda kech-qurunga yetarli ovqat berib yuboradi.

Mard bu suhbatni diqqat bilan eshitibdi. Lekin, unga buning nima foydasi bor. Axir, u ko'r-ku. Cho'ponni ham topa olmaydi, g'orni ham. Shu xayollar bilan ux-lab qolibdi. Ozmi-ko'pmi uxlagandan keyin yana ala-qanday tovushlar eshutilibdi. Mard quloq solsa, shun-

doqqina tepasidagi shoxda ikki kaptar suhbatlashib o'tirganmish.

— Aylanay sendan, singlim...

— Nima deysan, opajon?

— Daraxt tagida yotgan odamni bilasanmi?

— Yo'q, bilmayman.

— Bu, oliyjanob odam.

— Nega bu yerda yotibdi?

— Ular ikki aka-uka. Buning ismi Mard, ukasiniki Nomard. Nomard akasining ko'zlarini o'yib, ko'r qilib tashlab ketdi.

— Opajonim, buning dardiga davo bormi?

— Nega bo'lmasin, bor. Ayt unga, uxlayotgan bo'lsa, uyg'onsin, uyg'oq bo'lsa quloq solsin. Men hozir uchib ketaman. Qanotimdan bir pat tushib qoladi. U shu patni olishi kerak. Keyin cho'ntagidan ko'zlarini olib joyiga o'rnatsin-da, ustidan patni surtib qo'ysin. Ko'zlari avval qanday ko'rgan bo'lsa, xuddi o'sha holiga qaytadi.

Shunday deb, qushlar qanotlarini qoqib uchib ketishibdi. Birdan Mardning ko'kragiga pat tushibdi. U ko'zlarini joyiga qo'yib, ustidan shu patni surtgan ekan, ko'zi ochilibdi!

Mard yorug' dunyoni ko'rgandan keyin o'zini onadan qayta tug'ilgandek sezibdi. U o'rnidan turib, yon-atrofga boqqan ekan, kechqurun hayvonlar aytgan tog' ko'rinibdi.

Mard shu tog' tomonga yo'l olibdi. Yura-yura, nihoyat unga yetib boribdi. Cho'qqini aylanib o'tgan ekan, g'orga ko'zi tushibdi. Sekingina uning ichiga kirgan ekan, yettita xum turganmish-u, hammasi ham to'la

emish. Oltin-kumush va qimmatbaho toshlar shunaqangi ko'p emishki, ularni sanagandan ko'ra osmondagi yulduzlarni sanash osonroqmish.

Mard boyliklardan ko'targanicha olib, qolganini yashirib qo'yibdi.

Shundan keyin u yo'lida davom etibdi. Tog'ni aylanib o'tgan ekan, yaylovda o'tlab yurgan podaga duch kelibdi. Mard cho'ponning yoniga borib, u bilan salomlashibdi. Cho'pon ham u bilan so'rashibdi. Mard cho'ponga yaqin yerdagi bir tosh ustiga o'tirib, u bilan suhbatlasha ketibdi. U yoq-bu yoqdan gaplashib, so'ng cho'ponga:

— Cho'pon aka, nima istasang, so'rgain-u, lekin menga shu itingni sot, — debdi.

Cho'pon rozi bo'lmabdi. Mard qancha gapirmasin, cho'pon uning so'zini eshitishni ham istamabdi. Nihoyat, Mard cho'ntagidan bir siqim oltin chiqarib, cho'ponning tizzasiga to'kibdi.

Oltinni ko'rgan cho'ponning ko'ziga boshqa hech narsa ko'rinmabdi. Mard itni olib, bir jarlikka tushibdi-da, uning kallasini uzib, qonini bir idishga solib, yana yo'lida davom etibdi.

Mard yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir shaharga yetib boribdi. Shaharga endi kiray deb tursa, ikki soqchi yo'lini to'sibdi.

— Davolashni bilasanmi? — deb so'rashibdi.

— Nega so'rayapsiz? — savolga savol beribdi Mard.

— Yaqinda podshohimizning qizi aqldan ozib qoldi. Qanaqangi tabiblarni chaqirib, qanaqangi dori-darmon bermasin, baribir, tuzalmayapti. Shuning uchun podshohimiz bizni shu yerga qo'yib, shaharga kelgan har

bir kishidan davolashni biladimi, yo'qmi, so'rashni buyurdilar. Agar bilsa, to'ppa-to'g'ri huzurlariga olib borishimiz lozim.

— Ha, tabiblik qilaman, — debdi Mard.

— Bo'lmasa shu yerda turib tur-chi, — debdi soqchi xursand bo'lib, — men podshohimizga xabar beraman.

Soqchi saroyga yugurib ketibdi, qolganlar esa, Mardning atrofini o'rab hamdardlik bilan boshlarini chayqab turishibdi. Hamma unga qarab, achinib xo'rsinayotganini sezgan Mard:

— Nega menga bunchalik achinyapsizlar? — deb so'rabdi.

Soqchilardan biri javob beribdi:

— Ey, sho'rlik yigit, axir podshoning qizini tuzatib bo'lmaydi-ku. O'ttiz to'qqizta tabib qizni davolamoqchi bo'ldi, lekin uddasidan chiqmadi. Podshohimiz ularni qatl qilishga buyurdilar. Sening ham boshing tanangdan judo bo'lsa kerak. Shuning uchun senga rahmimiz kelyapti.

— Xavotir olmanglar, men uni tuzataman, — debdi Mard.

Ular suhbatlashguncha soqchi qaytib kelib, Mardni podsho huzuriga olib ketibdi.

— Quloq sol, tabib, — debdi unga podsho. — Mening yakka-yu yagona qizim bor. Yaqinda o'zidan o'zi aqldan ozib qoldi. Uni davolamoqchi ekansan, senga shunday shart qo'yaman. Qizim xasta bo'lmasdan oldin bironta ham erkak ko'ziga ko'ringan emas. Agar davolay olsang, to'y qilib, uni senga nikohlab beraman. Davolay olmasang o'zingdan ko'r, boshingni tanangdan judo qilishni buyuraman.

Mard rozi bo'libdi. Uni qizning xonasiga olib bori-shibdi. Mard odamlar ko'ziga qizning atrofida aylanib, ko'zlariga nazar tashlabdi. Bechora qiz hech kimga e'tibor bermay jimgina o'tirgan emish. Faqat tinmay qo'lini ko'ylagiga artarmish. Biroz o'ylanib turib, Mard hammani xonadan chiqarib yuboribdi.

Qiz bilan yolg'iz qolgach, eshikni yopibdi-da, pi-yolani it qoniga to'latib, qizga beribdi. Qiz hech nima demay ichib yuboribdi. Birozdan so'ng uyqusi kelib-di, keyin o'rniga yotibdi-yu, shu alfozda ertalabgacha uxlabdi. Ertalab uyg'onganda esa kasalidan asar ham qolmagan ekan. Butunlay sog'ayib ketibdi! Bu xabarni podshoga yetkazishibdi. Podsho xursand bo'lganidan yurtga to'y beribdi. Odamlar yetti kecha-yu yetti kun-duz malika bilan Mardning to'yida xursandchilik qili-shibdi.

To'ydan so'ng Mard kalamush g'origa borib, u yerdagi bor oltin-gavharlarni otlarga ortib uyiga olib kelibdi. Xullas, Mard tinch-xotirjam, boy-badavlat yashay boshlabdi.

Kunlarning birida, Mard deraza oldida o'tirgan ekan, birdan ko'chada ketayotgan ukasi Nomardni ko'rib qolibdi. Mard darrov xizmatkoriga Nomardni huzuriga keltirishni buyuribdi. Nomard uyga kirib, bu hashamat-u dabdabani ko'rgach, ko'zlari xuddi bo'kib qolgan echkinikiga o'xshab qisilib ketibdi. U Mard hozir meni o'ldiradi degan xayolga borib, juda qo'rqib ketibdi. Lekin Mard uni o'tirishga taklif qilibdi. Nomard o'tirishi bilan Mard xizmatkorlariga shirin-liklar, noz-u ne'mat keltirishni buyuribdi. Aka-ukalar yeb-ichib bo'lishgandan so'ng Mard:

— Sen xiyonat qilding, lekin men himmat qilaman. Sen qabihlik qilib, meni ko‘r qilding. Nimaga erishding? Mana men qanday yashayotganimni ko‘r, sening esa hech vaqoying yo‘q, — debdi.

Nomard boshini egib uzr so‘rabdi. Mardning ko‘ngli yumshab, uni kechiribdi. Lekin Nomard o‘sha-o‘sha yolg‘onchi va xiyonatkorligicha qolibdi. U ayyorlik bilan Mardning boshidan kechirgan sarguzashtlaridan xabar topibdi. Mardning qanday qilib oltin topishga muyassar bo‘lganini, qanday qilib podsho qizini davolaganini bilib olibdi.

Qisqasi, Nomard qulay payt poylab, akasini o‘zi tashlab ketgan yerga boribdi. Qorong‘i tushgach, daraxt ortiga yashirinib olibdi. Bu yerga sher, bo‘ri, tulki — uchovlon yig‘ilishibdi.

— Ishlaring qalay, bo‘rivoy, yaxshi yashayapsanmi? — deb so‘rabdi sher bo‘ridan.

— Umring ziyoda bo‘lsin, olampanoh, — debdi bo‘ri, — ishlarim joyida. O‘sha senga aytgan itim, qayergadir yo‘qolib, poda qarovsiz qoldi, men qo‘rqmay har kuni bir qo‘yni tinchitib ayshimni surib yuribman.

Shunda sher tulkiga qarab:

— Sen-chi, tulkinisa, nega qovoq-tumshug‘ingni osib olding? Ishlaring yaxshi emasmi? — deb so‘rabdi.

— Umring uzoq bo‘lsin, shoh, — javob qilibdi tulki, — ishlarim yomon. Kalamushning bor oltinini o‘g‘irlab ketishibdi. Shuning uchun ko‘nglim juda g‘ash.

Buni eshitgach sher o‘ylanib qolibdi.

— Bunda bir gap bor! Bu yerda kimdir yashirinib olib, suhbatimizni tinglayotgan bo‘lsa kerak. Qani, atrofni qarab ko‘ringlar-chi! — debdi nihoyat u.

Sher, bo'ri va tulki Nomardni topib, uni burda-burda qilib tashlashibdi.

Nomardning umri shu tariqa tugabdi.

O'RGATILGAN MUSHUK

Bir boy savdogar bo'lgan ekan. Kunlarning birida u boshqa mamlakatlarga borib savdo qilmoqchi bo'libdi. Juda ko'p har xil mollar sotib olibdi-da, xotini bilan xayrlashib, yo'lga ravona bo'libdi.

Savdogar juda ko'p yurtlarni kezibdi, nihoyat bir katta shaharga yetib kelib, karvonsaroydan joy olibdi.

U shaharda shunday bir odat bor ekan: boshqa yurtdan kelgan har bir savdogar shohga biror narsani tortiq qilishi lozim ekan. Undan keyin shoh o'sha savdogarni mehmonga chaqirib, u bilan narda o'ynar ekan. Savdogar ham qimmatbaho matolarni patnisga solib shoh saroyiga boribdi.

Shoh savdogarga kech kirgandan tortib tong otguncha dumida yetti sham tutib tura oladigan bir mushugi borligini aytibdi. Shundan keyin shoh unga narda o'ynashni taklif qilib, shunday shart qo'yibdi: agar kechqurundan ertalabga qadar mushuk dumida yetti sham tutib tura olsa, u vaqtda savdogarning olib kelgan barcha mollari bilan uning bor pullarini shoh oladi-yu, savdogarning o'zi zindonga tushadi. Mabodo mushuk shamlarni ushlab tura olmasa, podshoning butun xazinasini savdogar olib, uning o'zini zindonga tashlaydi. Savdogar bu shartga rozi bo'libdi. Shoh mushukni chaqirgan ekan, mushuk shu zahotiyuq kelibdi-da, ularning qarshilariga o'tirib dumini gajak qilibdi.

Shoh mushukning dumiga yettita sham qo'yishni buyurib, o'zi savdogar bilan narda o'ynay boshlabdi. Ular uch kecha-yu uch kunduz o'ynashibdi, mushuk bu vaqt orasida biron marta ham dumini qimirlatmabdi. Axiri savdogar o'rnidan turib, yutqizganiga iqror bo'libdi.

Shunda ochko'z shoh savdogarning qo'lini bog'lab zindonga tashlatibdi-da, uning hamma molini o'ziga olibdi.

Savdogarning boshiga tushgan bu musibatdan xabardor bo'lgan xizmatkori o'z yurtiga qaytib borib, bo'lgan voqeani savdogarning xotiniga aytib beribdi. Savdogarning xotini tezlikda allaqancha sichqon tutib sandiqqa joylashni buyuribdi. Keyin o'zi savdogarlar kiyimini kiyib, bir qancha xizmatkorlarini olibdi-da, karvon bilan yo'lga tushibdi. Eri zindonda yotgan shaharga yetib borgach, bir patnisga qimmatbaho sovg'alar solib, shoh huzuriga kirib boribdi. Sichqon solingan qutichani xizmatkorlariga berib, ular shoh bilan narda o'ynayotgan paytda xonaga uch-to'rttadan sichqon qo'yib yuborishni buyuribdi.

Shoh savdogarning xotinini izzat-ikrom bilan qabul qilib, unga ham xuddi eriga qo'yilgan shart bilan narda o'ynashni taklif qilibdi. Xotin rozilik bergandan keyin, shoh mushukni chaqiribdi. Mushuk ham chopib kelibdi-da, dumini gajak qilib ularning oldida o'tiribdi. Shundan keyin mushukning dumiga yettita sham qo'yishibdi. Shoh savdogarning xotini bilan narda o'ynay boshlabdi.

Biroz vaqt o'tgandan keyin xizmatkorlar xonaga bir necha sichqonni qo'yib yuboribdilar. Mushuk sichqonlarni ko'rish bilananoq ularni tutib olmoqchi bo'libdi.

Lekin shoh mushukka o'qrayib qaragan ekan, u o'tirgan joyidan qimirlamabdi.

Birozdan so'ng xizmatkorlar yana bir necha sichqonni qo'yib yuboribdilar. Mushuk sichqonlarni ko'rishi bilanoq ularni tutib olmoqchi bo'libdi, lekin shoh mushukka o'qrayib qaragan ekan, u o'tirgan joyidan qimirlamabdi.

Xizmatkorlar yana bir necha sichqonni qo'yib yuborishibdi. Bu safar mushuk chidab turolmay bir sapchib, dumidan shamlarni tushirib yuboribdi-da, birin ketin hamma sichqonlarni tutib olibdi.

Kelishilgan shartga binoan savdogar xotiniining xizmatkorlari saroyga kirib, shohning oyoq-qo'lini bog'lashibdi-da, uni zindonga tashlab, savdogarni qutqarishibdi. Shunday qilib savdogarning xotini erini halokatdan qutqargan ekan.

PODSHO BILAN BOG'BON

Bir bog'bonning juda ajoyib bog'i bo'lgan ekan. Bu bog'da butun dunyoda o'sadigan mevali daraxtlar va gullar mavjud ekan. Bog'ning dovrug'i uzoq-uzoqlarga taralibdi. Bu bog'ning ovozasini bog'bon yashab turgan mamlakat shohining qulog'iga ham yetibdi. U vazirini chaqirib:

— Bunday ajoyib bog' shohlargagina munosib, — debdi.

Shoh gapining ma'nosini anglagan vazir:

— Olampanoh haq gapni aytdilar, — debdi ta'zim bilan.

Shu kuniyoq shoh bog'bonni bog'dan haydab yuborishni buyuribdi.

— Axir mening tirikchiligim shu bog‘dan ediku, — debdi mo‘ysafid. — yetilgan mevalarni sotib, oila tebratardim. Endi nima qilaman?

Shoh navkarlari mo‘ysafidga shunday javob berishibdi:

— Endi nima qilishingni o‘zing bilasan. Shoh bog‘ing evaziga hech nima bermaydi.

G‘amga botgan mo‘ysafid uyiga kelibdi. Xotini qarasa, eri juda parishonxotir emish.

— Nimalarni o‘ylayapsiz? Nima gap o‘zi? — so‘rabdi xotini.

— Podshoh bog‘imizni tortib oldi, — deb javob beribdi mo‘ysafid.

— Nega tortib oladi? Yoki undan qarzingiz bormidi? — hayratlanibdi xotini.

— E, yo‘g‘-e, unga bog‘ yoqib qolgan ekan, tortib oldi-da, — debdi mo‘ysafid.

— Evaziga nima berdi? — erini so‘roq qilishda davom etibdi ayol.

— Nimalar deyapsan o‘zi, axir podshohimiz biron marotaba olgan narsasining haqini to‘laganmidi?

— Unda u shoh emas, qaroqchi ekan-da!..

O‘sha kundan boshlab bog‘bonni bog‘ yaqiniga ham yo‘latishmabdi. Bechora mo‘ysafid bola-chaqasini qanday boqishini o‘ylab boshi qotibdi.

Kunlarning birida mo‘ysafid xotiniga:

— Xotinjon, shoh insofsizlik qildi, endi men ham uni aldamoqchiman, — debdi.

— Nimalar deyapsiz, erjon, — debdi ayol, — boshingizga balo orttirib yurmang tag‘in. Podshoni aldab bo‘larkanmi?

— Xotin, — debdi bogʻbon, — podshoning aqlli odam emasligiga juda ishondim. U aqlli boʻlganda halol mehnat bilan bunyod qilgan bogʻimni tortib olmas, menga shuncha insofsizlik qilmasdi. Qolaversa, bari bir ochimizdan oʻlib ketamiz. Shuning uchun uni al-dab, ozgina oltin-kumushini olsam yomon boʻlmasdi.

— Shu yoshga yetganda aldamchilik qilasizmi? — deb uni shaxtidan qaytarishga urinibdi xotini.

— Sen nohaqsan, xotin, — deb javob beribdi moʻysafid, — inson degan yoshdir, qaridir, hech kimni aldamasligi kerak. Lekin ochdan oʻlmaslik uchun zolim qaroqchini, qonxoʻrni aldash gunoh emas.

Uzoq tortishuvdan keyin moʻysafid xurjuniga turli temir-tersak solib yoʻlga ravona boʻlibdi. U saroyga yetib boribdi...

— Bir hunarmand uni koʻrishga mushtoqligini podshohingizga aytsanglar, — debdi u xizmatkorlarga.

Xizmatkorlar podshohga xabar berishgan ekan, u hunarmandni huzurimga olib kiringlar, deb buyuribdi.

Moʻysafid shohga taʼzim qilib:

— Olampanohimizning umrlari ziyoda boʻlgʻay, men shunday bir toj yasaymanki, u faqat doʻstlarning koʻzigagina koʻrinadi, dushmanlarga esa koʻrinmaydi. Shu usulda siz doʻst kim, dushman kim ajratib olishingiz mumkin, — debdi.

— Ey, moʻysafid, — deb xitob qilibdi, podsho, — men koʻpdan beri xuddi shunga oʻxshash narsani orzu qilardim. Bordi-yu, shunday toj yasasang, tilagingni bajo keltiraman.

— Menga bir oʻlchov oltin bilan bir necha qimmat-baho tosh bersangiz, — debdi bogʻbon.

Podsho xazinabonni chaqirib, mo'ysafid nima so'rasa, shuni berishni buyuribdi. Xazinabon so'ralgan narsalarning hammasini beribdi.

— Mazkur tojni yasash uchun, umrlari ziyoda bo'lsin, qirq kun muhlat lozim, — debdi mo'ysafid.

Podsho rizolik bildirib:

— Ehtiyot bo'l, ey, hunarmand, va'dani bajo keltirmasang, boshingni tanangdan judo qilaman, — debdi.

Bog'bon podshoga ta'zim qilib, oltin bilan qimmatbaho toshlarni olibdi-da, uyiga ravona bo'libdi. Bir qancha oltinni maydalatib, oila uchun oziq-ovqat xarid qilibdi. Xotini bolalarining kiyim-kechagini butlab olibdi. Lekin bog'bonning xotini o'qtin-o'qtin xayolga tolib, erining taqdiridan xavotirga tushar ekan.

— O'zingni koyitib nima qilasan? Vahima qilma, o'zingni bos, — derkan bog'bon xotiniga.

— Xavotirlanmay bo'ladimi? — deb javob beribdi xotini, — axir qirq kunlik muhlatigiz oxirlayapti. Va'dangizni bajara olmadingiz. Yaqin kunlarda podsho saroyiga chaqirtirib, boshingizni kesishni buyuradi. Axir, o'ylamay bo'ladimi?

— Podshoni aldab, uning qo'lidan shuncha oltin olishni eplagan odam, buyog'ini ham eplaydi. Shuning uchun sen ko'p xavotirlanma, hammasi joyida bo'ladi, — deb xotinini yupatibdi bog'bon.

Bu suhbatdan keyin yana oradan bir necha kun o'tib, va'dalashilgan qirq kunlik muhlat ham tugabdi.

Podsho navkarlariga hunarmandni keltirishni buyuribdi.

— Shohga borib aytinglar, — debdi mo'ysafid, — maydonga odam to'plab, o'zlari ham o'sha yerga borsinlar, men yetib boraman.

Navkarlar podshoga hunarmandning gaplarini yetkazishibdi. Shohning farmoni bilan xalqni maydonga to'plashibdi. Podshoning o'zi ham amir-ulamolari bilan yetib boribdi. Tepalikka taxt o'rnatilibdi. Shoh taxtga o'tiribdi, atrofida vazirlar, amirlar, maslahatgo'ylar lashkarboshi va bo'lak mansabdorlar turishibdi.

Mo'ysafid xotini, bola-chaqasi bilan xayrlashib, xurjunni yelkasiga tashlabdi-da, maydonga yetib boribdi. U shohga ta'zim qilgach, xalqqa yuz o'girib xitob qilibdi:

— Xaloyiq, men sehrli toj yasadim: u shohning do'stlariga ko'rinadi, dushmanlari esa uni ko'rishmaydi. Shu alfozda shohimiz taxt dushmanlarini ajratib oladilar.

Mo'ysafid gapini tugatgach, qo'lini xurjunga tiqibdi-da, xuddi undan bir narsa olgandek bo'lib, shohning boshiga kiydiribdi. Aslida esa uning qo'lida hech vaqo bo'lmay, shahanshoh boshi ustida quruq qo'lini aylantirib:

— Toj muborak bo'lsin, ey, olampanoh! Ana endi tojning naqadar go'zalligini do'stlaringiz aytsin. Siz bundan quvoning-u, do'stlaringni mukofotlab, dushmanlarni mahv eting, — debdi.

Mo'ysafid o'zini bir chekkaga olib, «toj»ni tomosha qilgani saroy a'yonlariga imkoniyat yaratibdi. Shohning juda mug'ambir vaziri bor ekan. U birinchi bo'lib oldinga otilib chiqibdi-yu:

— Shohimizning umrlari ziyoda bo'lsin, — debdi qichqirib. — Muborak bo'lsin! O'zlariga juda yarashibdi!

Keyin shohning qarshisiga maslahatchi chiqib, toj turishi lozim bo'lgan yerga hayrat bilan tikilibdi-yu,

hech narsa ko'rmabdi. U turgan yerida hayratlanib, goh chap, goh o'n tomonga alanglabdi-da, hech nima ko'rmayotganini tan olmoqchi bo'lgan ekan, yana meni dushmanga chiqarib qo'yishmasin, degan xayolda xitob qilibdi:

— Bay-bay-bay! Bunaqa bebaho toj olamda yakka-yu yagona bo'lsa kerak. Xuddi olampanohning boshlarida quyosh nur taratib turgandek ko'rinyapti-ya.

Shu tarzda deyarli barcha saroy a'yonlari navbatma-navbat shoh qarshisidan hech narsa ko'rishmasa ham, hayratlanib o'tishibdi. Oxiri tojni maqtash navbatlashkarboshiga kelibdi. Lashkarboshi shohga ta'zim bajo keltirib:

— Umrlari boqiy bo'lsin, toki shu toj bor ekan, bizga quyoshning ham, oyning ham hojati yo'q. Tojingiz kecha-yu kunduz hammayoqni nurafshon qilib turadi, — debdi.

Uzoqdan tomosha qilib turgan xaloyiqqa hech qanaqangi toj ko'rinmabdi. Ba'zilar uzoqda turibmiz, shuning uchun bizga ko'rinmyapti, deb o'ylasa, boshqalari qo'rqanlaridan, yana ba'zilar esa boshqalar maqtayotgani uchun bir ovozdan shohni muborakbod qilishibdi.

Podsho qo'llarini boshi ustiga olib borgan ekan, hech nima payqamabdi. Oyna keltirishni buyuribdi-yu, baribir hech narsa ko'rmabdi. Hunarmandning firibgarligini fosh qilmoqchi bo'libdi-yu, yana o'zini taxt dushmaniga chiqarib yuborishmasin deb indamabdi.

— Kimki menga sodiq bo'lsa, hunarmandni sovg'alar bilan taqdirlasin! — deb xitob qilibdi.

Hamma birdaniga mo'ysafidga sovg'alar in'om qila boshlashibdi. Nihoyat maydon bo'shabdi. Podsho mo'ysafidni bir chekkaga chaqirib:

— Menga qara, chol, bu nima qilganing — meni ham, xalqni ham aldading-ku? — deb so'rabdi.

— Ey, podshohi olam! — deb javob beribdi mo'ysafid, — men, ho' o'sha, siz bog'ini olib qo'yib, bolalarini och qoldirgan bog'bonman. O'sha ishingiz uchun shunday javob qildim.

— Bordi-yu, seni osishga hukm etsam-chi?

— Unda sehrli toj yasab bergan hunarmandga insofsizlik qildi, deb xalq sizni qoralaydi.

Podsho mo'ysafidni o'linga hukm etsa, xalq oldida butunlay obro'sini yo'qotishini o'ylab, uni ozod etibdi. Bog'bon uyiga qaytib, xotin, bola-chaqasini xursand qilibdi. O'shandan beri ular yoshlarini yashab, oshlarini oshab, rohat va farog'atda kun kechirishar ekan.

DANGASA HAQIDA ERTAK

Bir zamonlarda bir odam yashagan ekan. Uning ismi Shaydulla bo'lib, dangasalikda unga teng keladigani yo'q ekan. Uning bolalari doimo yarim och, yarim yalang'och yashab, yangi ko'ylak kiyishni esa xayollariga ham keltirishmas ekan. Xotini Shaydullaning ishyoqmasligini ta'na qilgudek bo'lsa, u:

— Qo'yaver, kuyunma. Hozir kambag'al bo'lsak, yaqinda boyib ketamiz, — deb javob berar ekan.

— E, — derkan xotini, — kun bo'yi yalqovlik qilib yotaversangiz, qo'lingizni qo'lingizga urmasangiz, qayoqdan boy bo'lib ketar ekansiz?

Shaydulla bo'lsa o'zinikini ma'qullab:

— Hali shoshmay tur, vaqti-soati kelib, boy bo'lib ketamiz, — der ekan.

Xotini ham kutar, bolalari ham kutishar, lekin u yorug' kun kelmas ekan.

— Kutishning hojati yo'q, — debdi xotini, — ochdan o'lamiz endi.

Shaydulla nima qilsa kambag'allikdan qutulishni so'ragani bir dononing huzuriga borishga qaror qilibdida, hozirlik ko'rib, yo'lga tushibdi.

U uch kecha-yu uch kunduz yurib, yo'lda bir ozg'in bo'riga duch kelibdi.

— Qayoqqa ketyapsan, ey, yaxshi odam? — deb so'rabdi bo'ri.

— Nima qilsam boy bo'lishimni so'ragani dono chol huzuriga ketyapman.

Bu gapni eshitgan bo'ri Shaydulladan iltimos qilibdi:

— Baraka topgur, zap menga yo'liqding-da. Mana uch yildirki, qornim juda qattiq og'riydi. Kecha-yu kunduz tinchim yo'q. Dono choldan so'rab ko'rgin-chi, bu og'riqdan qutulishning iloji bormikin?

— Xo'p, yaxshi, — deb javob beribdi Shaydulla, — so'rab ko'raman.

Shaydulla yo'lda davom etibdi. U yana uch kecha-yu uch kunduz yo'l yurib, yo'l yoqasida olma daraxtiga ko'zi tushibdi.

— Yo'l bo'lsin, ey yaxshi odam? — deb so'rabdi undan olma daraxti.

— Dono chol huzuriga, mehnatsiz yashashning yo'lini so'ramoqchiman.

— Baraka top, donodan men to‘g‘rimda ham so‘rab ko‘rgin, — debdi olma daraxti. — Har yili bahorda qiyg‘os gullayman, gullarim ochilgan zahotiyuq hammasi duv to‘kilib ketadi. Hech qachon hosil qilmayman. So‘rab ko‘rgin-chi, nega bunday bo‘larkin?

— Xo‘p, yaxshi, so‘rab ko‘raman, — deb javob beribdi Shaydulla. U shunday deb yo‘lida davom etaveribdi. Shaydulla yana uch kecha-yu uch kunduz yo‘l bosib, moviy ko‘l labiga yetib boribdi. Bir baliq suvdan boshini chiqarib so‘rabdi:

— Yo‘l bo‘lsin, ey yaxshi odam?

— Maslahat va yordam so‘ragani dono chol huzuriga ketyapman.

— Baraka top, mening ham iltimosimni dono cholga yetkazsang. Mana yetti yildirki, tomog‘imga nimadir tiqiladi. Bu og‘riqdan qay tariqa qutulish lozimligini maslahat bersa.

— Xo‘p, yaxshi, so‘rab ko‘raman, — deb Shaydulla yo‘lda davom etibdi. U yana uch kecha-yu uch kunduz yo‘l yurib, serdaraxt o‘rmonga yetib boribdi. Bu o‘rmonda faqat pushtirang daraxtlar o‘sar ekan. Bunday qarasa, daraxtlardan birining tagida oppoq soqolli mo‘ysafid o‘tirgan emish. Mo‘ysafid Shaydullani ko‘rib, undan so‘rabdi:

— Shaydulla, senga nima kerak?

Shaydulla hayron bo‘libdi.

— Mening ismimni qayerdan bildingiz? — so‘rabdi u. — Men maslahat so‘ragani kelayotgan dono siz emas-misiz?



— Ha, — deb javob beribdi mo'ysafid. — Nima ishing bor edi menda? Tezroq gapiraqol.

Shaydulla shunday-shunday deb, iltimosini aytibdi. Dono chol uning gapini eshitgandan keyin so'rabdi:

— Menga aytadigan boshqa gaping yo'qmi?

— Bor, — deb javob beribdi Shaydulla.

Shundan keyin oriq bo'ri, olma daraxti va kattakon baliqning iltimoslarini aytibdi.

— Baliq tomog'iga, — debdi dono chol, — qimmatbaho tosh tiqilib qolgan. Shu toshni uning tomog'idan olib tashlangandan keyin baliq sog'ayib ketadi. Olma daraxti tagiga kumush to'la katta xum ko'mib qo'yilgan. Shu xum olingandan keyin daraxtning guli to'kilmay, mo'l hosil qiladigan bo'ladi. Bo'rining qorni og'rimasligi uchun esa, birinchi uchragan dangasani yeyishi kerak.

— Mening iltimosim-chi? — so'rabdi Shaydulla.

— Iltimosing bajo keltirildi. Yo'lga tushaver.

Shaydulla suyunib uyiga yo'l olibdi. U yura-yura ko'l bo'yiga yetib boribdi. Ko'lda uni baliq sabrsizlik bilan kutayotgan ekan. U Shaydullani ko'rgan zahoti-yoq so'rabdi.

— Xo'sh, dono menga nima maslahat berdi?

— Tomog'ingdagi qimmatbaho toshni olib tashlangandan keyingina og'rig'ing qolar ekan, — debdi Shaydulla unga javob berib. U yo'lda davom etmoqchi bo'lgan ekan, baliq undan yolvorib iltimos qilibdi:

— Ey, yaxshi odam, menga rahming kelsin. Shu toshni tomog'imdan olib tashlagin. Meni ham xalos etasan, o'zing ham boyib ketasan.

– E, yo‘q, bekorga mehnat qilgandan nima foyda. Men shundayam boyib ketaveraman, – deb javob berib, yo‘lda davom etibdi Shaydulla. Shunday qilib u olma daraxti yoniga yetib boribdi.

Uni ko‘rgan zamoniyoq daraxt o‘zining barcha shoxlari va barglari bilan titrab-shildirab ketibdi.

– Xo‘sh, qalay? Nima qilsam tashvishdan qutulishimni donodan so‘rab bildingmi?

– Bildim, – debdi Shaydulla, – ildizing tagida yotgan kumush to‘la xumni kovlab olish kerak ekan. Shunda gullaring tushib ketmas ekan.

Shaydulla shunday deb ketayotgan ekan, olma daraxti unga iltijo qilibdi.

– Tagimdan kumushli xumni qazib olgin. Bu senga ham foyda – birdaniga boyib ketasan.

– E, yo‘g‘-e, mehnat qilishni istamayman. Shundayam istagan narsam muhayyo bo‘ladi. – Shaydulla shunday deb yo‘lida davom etibdi.

U yura-yura oxiri oriqli bo‘rini uchratibdi, u Shaydullani ko‘rishi bilan toqatsizlikdan titrab-qaqshab ketibdi.

– Xo‘sh, – so‘rabdi u, – dono menga qanday maslahat berdi? Meni qiynamay, tezroq aytaqol.

– Birinchi uchragan yalqovni yesang, bir zumda-yoq tuzalib ketar ekansan.

Bo‘ri Shaydullaga minnatdorchilik izhor qilib, yo‘lda bo‘lib o‘tgan voqealarni batafsil so‘rabdi. Shaydulla bo‘riga baliq va olma daraxtlari bilan bo‘lgan suhbatlarini bir boshdan aytib beribdi. Uning hikoyasini eshitib, bo‘ri juda suyunib ketibdi.

«Endi, — o‘ylabdi u, — dangasani qidirib yurishning hojati ham yo‘q ekan: uning o‘zi yonimga o‘z oyog‘i bilan kelibdi. Mana shu Shaydulladan ahmoqroq, undan yalqovroq odam bu dunyoda bo‘lmasa kerak».

Bo‘ri Shaydullaga tashlanib, uni butunligicha yutib yuboribdi. Shunday qilib yalqov Shaydulla halok bo‘lgan ekan.

AQLLI BOLA

Bu voqea uzoq o‘tmishda sodir bo‘lgan ekan. Bir qahri qattiq va insofsiz xon yashab o‘tgan ekan. Har safar har turli bahona topib, tevarak-atrofdagi qishloq va shaharlardan birini bosib olar, aholisini esa azob-uqubatga duchor qilar ekan. Xon hokimlik qilib turgan shahar yaqinida bir qishloq bo‘lib, bu qishloqni hech bosib ololmas ekan. Chunki shu qishloqning aqlli qariyalari xonning hamma hiyla-nayranglaridan xabardor bo‘lib, qishloqni zabt etgani yo‘l qo‘yishmas ekan.

Kunlarning birida xon o‘zining vazir-u ulamolari-ni to‘plab, shu qishloqni qay yo‘l bilan qo‘lga kiritish haqida maslahatlashibdi.

— Bu qishloqda aqlli qariyalar yashar ekan, — debdi xonning bosh maslahatchisi. — Bu joyni bosib olgani bahona topish mushkul. Shu sababli, avvalo, bir yo‘l topib shu qariyalarni daf qilish kerak, shundan keyingina ish yurishib ketadi.

Bu maslahat xonga ma‘qul tushibdi. Shu kuniyoq u o‘z kishilarini shu qishloqqa yuboribdi-da, bir ilojini

topib, qariyalarni o'z huzuriga olib kelishni buyuribdi. Xon navkarlari qishloqqa borib, qariyalar yashaydigan uylarga tarqalib ketishibdi.

— Xonimiz juda mushkul ahvolga tushib qoldilar, — deyishibdi ular qariyalarga. — Sizlardangina najot kutyaptilar, loaqal bir kunga bo'lsa ham, maslahat bergani borib kelishinglar kerak ekan.

Qariyalarning oyoqlari tortmasa ham xon navkarlari bilan birga ketishibdi.

Xon qo'shni qishloqdan kelgan qariyalarning hammasini zindonga tashlatibdi. Keyin xon choparni huzuriga chaqirtiribdi-da, uning qo'liga uchta olma berib:

— Bu olmalardan biri shu yilning hosili, ikkinchisi o'tgan yilning, uchinchisi esa uzoq yilning hosilari, — debdi. — Bu olmalarni qo'shni qishloqqa olib borasan-da, xalqni maydonga to'plab, xon har bir olmaning qaysi yilgi hosildan ekanini aniqlashni buyurdilar, deysan. Uch kun muhlat beraman. Shu muddatda uni topishmasa, qishloqni bosib olaman. Bordi-yu, kimda-kim topgudek bo'lsa, o'sha odam men yaxshi ko'rgan hayvonni ola kelsin. Yana shuni aytki, u kelib, ro'paramda mendan yuqorida tursin, men uni pastdan ko'ray.

Chopar qo'shni qishloqqa ot choptirib ketibdi, qishloq aholisini maydonga to'plab, xonning shartini aytibdi-da, olmalarni ularga tashlab, o'zi kelgan yo'liga yana ot choptirib ketibdi. Qishloq aholisi esa qancha o'ylab, qancha bosh qotirishmasin, xon shartini yechisha olmasdi.

Shu qishloqda bir kampirning Ahmad degan nabirasi bor ekan. U juda aqlli va shaddod ekan. Ahmad o'sha

kuni tuni bilan uxlamay xonning shartini qanday bajarishni o'ylabdi-yu, lekin topolmabdi. Katta yoshdagilar bilan maslahatlashmoqchi bo'libdi. U buvisidan aqlli qariyalardan birortasi qolgan-qolmaganini so'rabdi.

— Qishloq chekkasida yuz yoshga kirgan bir chol bor. Nogironligi tufayli xon odamlari uni qishloqda qoldirib ketishdi, — debdi buvisi o'sha qariyani eslab.

Ahmad erta bilan barvaqt turib o'sha qariyanikiga yo'l olibdi. Bunday qarasa, yuzidan nur yog'ilib turgan bu qariyaning ko'zi ko'rmay, oyoqlari yurmay qolgan ekan. Shu sababli u o'tirgan yeridan turolmay qolgan ekan-u, lekin o'zi juda basavlat odam ekan. Ahmad qariyaga ta'zim qilib, undan maslahat so'rabdi:

— Qanday tashvish bilan kelding, bo'tam? — deb so'rabdi qariya.

Ahmad xon qo'ygan shartni unga aytib beribdi. Mo'ysafid qo'lini manglayiga qo'yib, o'yga tolibdi-da, birozdan keyin xon qo'ygan shartni qanday bajarishni Ahmadga aytib beribdi.

— Bitta shartiga aqlim yetmayapti, — debdi qariya so'zining oxirida. — Unisini o'zing o'ylab topishing kerak bo'ladi. Xon qaysi hayvonni yaxshi ko'rishidan bexabarman. Buning bitta yo'li bor, xolos: o'zing yashirincha shaharga kirib olib, kuzatishing lozim bo'ladi.

— Hoziroq boraman, — debdi bola.

Ahmad qariya bilan bo'lgan suhbatdan juda mamnun ekan. U chiqib ketayotsa, hovlida bir kampir olov yoqqani xas-cho'p terib yurganmish. U cholning singlisi ekan. Bu uyda ikkovlari yashashar ekan, xolos.

— Bu xas-cho'plarni nega terib yuribsiz, buvijon? — deb so'rabdi Ahmad.

— O‘tinimiz tugab qolibdi, bolajonim. O‘rmonga boradigan odam yo‘q, shuning uchun olov yoqqani xascho‘p terib yuribman, — deb javob beribdi kampir.

Ahmad kampirdan bolta bilan arqon so‘rabdi. U o‘rmonga borib, katta bog‘ o‘tin yig‘ibdi-da, yelkasiga ortib, qariyalarga olib kelib beribdi.

Ahmad shaharga ketayotib, yo‘l-yo‘lakay xonning sirini qanday qilib bilib olishni o‘ylabdi. Shaharga yaqin borganda esa, ichkariga kirib bo‘lmasligini bilibdi. Chunki har yuz qadamda soqchilar turib, shaharga hech kimni kiritishmayotganmish.

Shahar devori yonida xonning qo‘y-qo‘zilari o‘tlab yurganmish. Qo‘ylar hadeb soqchilar oldidan o‘ngga ham, chapga ham o‘tib ketishayotganmish. Buni ko‘rgan Ahmad qishloq cho‘ponlari huzuriga yo‘l olibdi. U ko‘rgan-kechirganlarini cho‘ponlarga gapirib beribdi-da, bitta qo‘y so‘yib, terisini butunligicha shilib berishlarini iltimos qilibdi.

Cho‘ponlar birpasda uning iltimosini bajo keltirishibdi. Ahmad terini ro‘molga tugib, xon qo‘ylari o‘tlab yurgan joyga jo‘nabdi. Eshik orqasiga o‘tib, u qo‘y terisi ichiga kirib olibdi-da, to‘rt oyoqlab yurib avvaliga poda orasiga aralashib, keyin shaharga kirib ketibdi. Soqchilardan nariroqqa borgandan keyin terini yechib, yana ro‘molga o‘rab olibdi.

Yo‘l yoqalab borayotib, xonning cho‘poniga ko‘zi tushib qolibdi. U o‘t ustida nay chalib yotganmish. Cho‘ponning yonida esa bir echki o‘tlab yurganmish. Echkining shoxi bilan junlari oftob nurida yaraqlarmish. Ahmad yaqinroq borib qarasa, echkining shoxiga oltin suvi yuritilganmish, bo‘ynida oltin qo‘ng‘iroqcha,

ustiga esa kashmir shol ro'moli yopilganmish. Bir so'z bilan aytganda, echki emas, ko'rgan odam hayratda qoladigan qo'g'irchoq emish. Ahmad echkiga mahliyo bo'lib qolibdi.

— Nega muncha tikilib qolding, ey bola? — deb so'rabdi cho'pon.

— Nega deganda, bunaqa echkini umrimda ko'rmagan edim, — javob beribdi Ahmad.

— Bu shaharlik emasmisan deyman? Shahrimizda bu echkini bilmaydigan odam yo'q, — debdi cho'pon.

Ahmad bunday o'ylab qarasa, cho'pon uning begonaligidan xabar topib, ishning pachavasini chiqarishi mumkin.

— Men shu yerlikman, — debdi Ahmad. — Lekin bugunga qadar buvim meni uydan ko'chaga chiqarmasdilar. Shuning uchun hanuz bu echkini ko'rmagan edim.

— Bo'lmasa, bilib qo'y, bolakay, bu xonimizning echkilari, — tushuntiribdi cho'pon. — Xonimiz yoshlikdan echkini yaxshi ko'radilar. Bu echkini yasantirishni o'sha kishi buyurganlar.

Ahmad suyunib ketibdi-yu, lekin cho'ponga sez-dirmabdi. U cho'ponning yonidan ketib, yana qo'y terisiga kiribdi-da, podaga qo'shilib to'rt oyoqlab yurgan-cha qishloqqa kirib boribdi. Qarasa, odamlar umidlari uzib, nima qilishlarini ham bilishmayotgan ekan. Xon qo'ygan shartning oxirgi kuni ekan.

— Ey, odamlar, — debdi Ahmad. — Menga bitta katta tuya bilan bitta echki topib beringlar. Xon huzuriga borib shartlarini bajaraman-da, qishloqni bosqinchidan qutqaraman...

Odamlar Ahmadni saroyga olib borishibdi. Ahmadni ko'rib xonning jahli chiqib ketibdi. Uni ham zindonga tashlashni buyurmoqchi bo'lgan ekan, lekin echkini ko'rib, bitta sharti bajarilganini sezgach, qani ko'raylik-chi, qolganlari qalay bo'larkin, deb o'ylanib qolibdi.

— Bolakay, mening huzurimga keladigan kishining bo'yi mendan baland bo'lsin, degan edim. Men u bilan yuqoriga qarab suhbatlashmog'im lozim edi. Nega mening buyrug'im bajarilmadi.

— Umringiz ziyoda bo'lsin, ey xon! — deb javob beribdi Ahmad. — Axir tuyaning ustida men sizdan ancha balandda turganimni ko'rmayapsizmi? Men bilan yuqoriga qarab gaplashyapsiz-ku, shartingiz bajarildi.

— Lekin tuyadan tushgudek bo'lsang, — e'tiroz bildiribdi xon, — mening tizzamdan kelasan, xolos.

— Tuyadan tushib nima qilaman sizdan past bo'lib?

Xon qarasaki, bu bolakay bo'sh kelmaydigan. Shunda u:

— Xay, mayli, qani, olmani ayt-chi, — debdi.

— Xonimizning umrlari uzoq bo'lsin, — debdi Ahmad. — Mening ham shartim bor. Xalqni shahar maydoniga to'plashni buyursangiz. Qolgan shartlar haqida o'sha yerda gapirsam.

Xon uni shu yerda javob berishga ko'ndirmoqchi bo'libdi, Ahmad ko'nmay, so'zida turib olibdi.

— Bunchalik qiyqlik qilarkansan, bilib qo'y, — deb uqtiribdi xon, — bordi-yu, shartlarni to'g'ri bajara olmasang, o'sha yerning o'zida boshingni shartta kesib tashlashni buyuraman.

— Men roziman, — deb javob beribdi Ahmad.

Xonning buyrug'i bilan maydonga minbar qurilib, uning atrofiga odam to'planbdi. Maydonga o'z a'yonlari bilan xon ham kelibdi.

— Xonimizning umrlari boqiy bo'lsin, — debdi Ahmad. — Agarda shartingiz to'g'ri bajarilsa, qishlog'imiz ozodligicha qolib, qariyalarimizni zindondan chiqarib yuborasiz. Bordi-yu to'g'ri javob berolmasam, ixtiyor sizda.

Xon bu shartga rozilik bildiribdi.

Ahmad bir idishda suv keltirishni so'rabdi. Suv keltirilibdi. Bola uchala olmani suvga solibdi. Olmalardan biri suv tagiga cho'kibdi, ikkinchisi o'rtada qolibdi, uchinchi esa suv betiga qalqib chiqibdi.

— Birinchi olma, — deb tushuntiribdi Ahmad, — yangi hosildan, uning sharbati joyida, og'ir-vazmin, shuning uchun ham u cho'kib ketdi. Ikkinchisi o'tgan yilgi hosildan, biroz qurigan, shuning uchun ham u o'rtada qoldi. Uchinchi olma esa, bundan ikki yil ilgarigi hosildan. U qurib qolgan, shu sababli yengillashgan va suv betida qalqib yuribdi.

Atrofdagilar Ahmadning xon shartlariga to'g'ri javob berganidan, hayratlanishibdi. Xon so'zidan qaytmoqchi ham bo'libdi-yu, lekin xaloyiq oldida obro'sining ketishidan cho'chibdi. Xon qariyalarni zindondan ozod qilishga majbur bo'libdi va qishloqni bosib olmaslik haqida qasamyod etibdi.

Ahmad qariyalar bilan jonajon qishlog'iga qaytib boribdi. Butun qishloq aholisi o'z xaloskorining oyoqlari ostiga gullar tashlashibdi.

Aqlli, idrokli va dovyurak Ahmad o'z qishlog'ini shu tariqa xon zulmidan ozod etgan ekan.

Osmondan uchta olma tushibdi. Biri ertakchiga, ikkinchisi maslahatgo'y qariyaga, uchinchisi Ahmad-boyga.

KAMBAG'AL YIGIT VA ILON

Bor ekan, yo'q ekan, bir kambag'al yigit bo'lgan ekan. U shunday kambag'al ekanki, muhtojlikda zo'rg'a kun kechirar ekan. Kunlarning birida u:

— Ey xudo, bundan ko'ra jonimni ola qolsang-chi, — deb nola qilibdi. Keyin anchagacha xayol surib o'tirib, qorni ochibdi-da, xayr so'ragani bozor tomonga yo'l olibdi. Yo'lda u kichkinagina quticha topib olibdi, — oh-u zorlarim xudoga yetib, menga pul yuboribdi, — deb suyunib ketibdi.

Yigit qutini ochib, uning ichidan pul o'rniga ilon chiqib qolganini ko'rib, juda hayron bo'libdi. Ilon vishillab, qutichaning ichidan sirg'alib chiqibdi-da, uni chaqmoqchi bo'lib, bir zumda tomog'iga o'ralib olibdi.

Kambag'al yigit xudoga nola qila boshlabdi.

— Ey rahimdil Tangri! Men pul so'raganimda-ku, bermagan eding, o'lishni xohlasam, juda tez yuboribsan-a!

Ilon esa jag'ini ochib, chaqib olishga tayyor bo'lib turgan emish.

Kambag'al yigit qanday qilib bo'lmasin ilondan qutulishga umid bog'lab, unga shunday debdi:

— Menga qara, ey ilon, men-ku, seni hozirgina qutidan chiqarib oldim, sen bo'lsang meni chaqmoqchisan-a! Axir, yaxshilikka yaxshilik qilish kerak-ku!

— Yo‘q, — deb javob beribdi ilon. — Yaxshilikka yomonlik bilan javob berish kerak. Shuning uchun ham hozir men seni chaqaman.

— Bo‘lmasa, — debdi kambag‘al yigit, yo‘lda birinchi uchragan odamdan so‘raylik: yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish kerakmi yoki yomonlik bilanmi? Ilon rozilik bildiribdi.

Bo‘yniga ilon o‘ralib olgan kambag‘al yigit yo‘lda davom etibdi. Ammo, ularning qarshisidan hech kim chiqmabdi.

Ular juda ko‘p yo‘l yurib, oxiri chopib ketayotgan bir tulkini ko‘rib qolishibdi, tulkinining qorni juda ham och ekan. Shu tobda u qorin to‘yg‘azgani tovuq o‘marish uchun borib, qishloqqa kirolmasdan qaytib kelayotgan ekan. Dehqonlar unga itlarni gigijlatishgan ekan, bechora ulardan zo‘rg‘a qochib qolibdi.

Kambag‘al yigit tulkini to‘xtatib:

— Singlim tulkijon, ayt-chi, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakmi yoki yomonlik bilanmi? — deb so‘rabdi.

Tulki shu zahotiyoq yaxshilikka yomonlik bilan javob berish kerak, debdi.

Kambag‘al yigit umidsizlanib, o‘linga tayyorlanibdi.

Birdan uning xayoliga tulkini o‘zimga og‘dirib olishim kerak degan fikr kelibdi, sekingina imo-ishora bilan unga ikkita tovuq va‘da qilibdi. Shunda tulki ilon bilan mana shunday suhbat boshlabdi:

— Ilonjon, ayt-chi, sen qayerdan o‘rmalab chiqding?

— Manavi yigit meni hozirgina mana bu qutichadan qutqarib oldi, — deb javob beribdi ilon.

— Bunday bo'lishi mumkin emas, — debdi tulki, — sen shunday uzun bo'lsang, quticha bo'lsa tor, sen unga qanday qilib sig'asan?

Ilon qutichadan chiqqanligiga tulkini ishontirmoqchi bo'lib ancha urinibdi, lekin u o'zini ishonmaganlikka olib turaveribdi. Oxiri, ilonning toqati-toq bo'lib, qaytib yana qutichaning ichiga kiribdi-da, kulcha bo'lib olib shunday debdi:

— Mana qutichaga qanday qilib sig'ganman!

U gapini tamomlagan ham ekanki, tulki qutichaning qopqog'ini yopib, ilonni qamab qo'yibdi.

Kambag'al yigit ilondan qutulgandan keyin uni qutichasi bilan daryoga tashlab yubormoqchi bo'libdi. Biroq ilon undan qutqarishni o'tinib so'rabdi, buning evaziga uni shahanshoh qilishga so'z beribdi.

Kambag'al yigit ancha vaqtgacha ilonning ohi zoriga quloq solmasa ham, oxiri uni qutichadan chiqarib yuborishga qaror qilibdi: axir, har kuni to'yguncha ovqat yegisi kelibdi-da.

Ilon qutichadan yana o'rmalab chiqibdi-da, kambag'al yigitga kichkinagina tosh berib shunday debdi:

— Bugun kechqurun shohning saroyiga o'rmalab kirib, uning oyog'ini chaqib olaman, erta bilan butun o'lkadan shohni o'limdan qutqarib qoladigan tabib axtarishadi. Sen shohning oldiga hamma dong'i ketgan tabiblardan keyin borasan-da, mana shu toshni shohning yarasiga qo'yan. Shunda shoh bir zumda tuzalib ketadi. Faqat oldin shohdan uni tuzatganing uchun qizini berishini so'ra.

Yigit bir amallab tong ottirib, erta bilan uyg'onib qarasa, shaharda shu vaqtgacha ko'rilmagan to'polon,

qiy-chuv. Hammaning og'zida shohning baxtsizlikka uchragani, qancha-qancha tabiblar kelib uni tuzata olmaganliklari haqidagi gap emish.

Yigit tezda kiyinib, bozorga chiqibdi-da, jarchilarga shohni tuzata olishini aytibdi. Yigitni saroyga olib borishibdi. U, ilonning maslahati bo'yicha, oldin shohdan qizini berishga rozilik olib, keyin toshni yara-ga qo'yibdi. Haqiqatan ham shoh hammani hayratda qoldirib, bir zumda tuzalibdi.

Shundan keyin shoh kambag'al yigitni hammomga olib borib, qimmatbaho kiyimlar kiydirishni va to'yga tayyorlik ko'rishni buyuribdi.

Yigit hammomga ketayotganda vazir uchrab qolibdi-da, shohning qizini olishdan voz kechishini so'rab, unga yuz tilla bermoqchi bo'libdi. Yigit rozi bo'lmabdi. Shunda vazir uni rosa savalab, hammomning o'rniga zindonga tashlashni buyuribdi.

Yigit zindonda o'tirib, aldangani uchun ilondan qattiq xafa bo'libdi. Birdaniga devorning yoriq joyidan ilon o'rmalab chiqib qolibdi.

— Xafa bo'lma, — debdi u, — men shohni yana bir marta chaqib olaman, keyin ishning boshqa tomonga aylanib ketishini o'zing ko'rarsan. Agar shunda ham shohning qiziga uylana olmasang, unda o'zingni chaqaman.

Ertasiga erta bilan ilon chaqqan shoh yana dodlab uvvos sola boshlabdi. U o'zining bo'lg'usi kuyovini chaqirtirgan ekan, vazir uning qayoqqadir qochib ketganini aytibdi. Shohning juda ham jahli chiqib, yigitni qayerdan bo'lsa ham topib kelishni buyuribdi.

— Agar qidirib topolmasang, kallangni olaman, — debdi shoh.

Hech iloj qolmagandan keyin vazir noiloj yigitni zindondan chiqaribdi. Ammo, yigit shohning yoniga borishga unamabdi. Vazir bu to'g'rida shohni xabar-dor qilibdi. Shoh shu topdayoq bo'lg'usi kuyovi nima uchun kelmayotganini aniqlashga buyruq berib, uning yoniga maslahatchisini yuboribdi.

Maslahatchi zindonga kelib, yigitdan hamma bo'lib o'tgan voqealarni eshitibdi. U shohning yoniga qaytib kelib, vazir qilgan hiyla-nayranglarni gapirib beribdi. Shunda shoh maslahatchiga vazirning jazolanishini yigitga aytib, uni zindondan olib kelishni buyuribdi. Yigit shohning gapiga quloq solib, uni tuzatadigan bo'libdi, maslahatchiga oyog'i qattiq og'riyotgani sa-babli piyoda borolmasligini aytibdi.

Maslahatchi ot olib kelishni buyuribdi. Ammo yigit oyoqni yuqori ko'tarish kerak bo'ladi deb, otga min-mabdi. Eshak olib kelishibdi. Lekin, yigit unga ham minishni istamabdi. Shunda maslahatchi undan:

— Nimaning ustiga minib borishni xohlaysan? — deb so'rabdi.

— Meni mayib qilgan vazirni bu yoqqa olib keling-lar, — deb javob beribdi yigit. — Men shohning oldiga o'shani minib borishni istayman.

Vazirni olib kelishibdi. Kambag'al yigit uni egar-jabduqlashni buyuribdi.

— Hammasi joyida, — debdi yigit, vazirni egarlab, og'ziga so'liq solishgandan keyin, — endi unga taqa qoqish kerak.

Uning bu xohishini ham bajarishibdi. Shunda yigit vazirning ustiga chiqib o'tiribdi-da:

— Endi menga bitta yog'och beringlar. Bo'lmasa uni haydaydigan narsa yo'q, — debdi.

Yog'och ham berishibdi.

— Endi ketdik, — deb yigit vazirni yog'och bilan niqtalabdi.

Yigit shohning yoniga kelib, ilon bergan tosh bilan uni tuzatibdi. Shundan keyin shohning qiziga uylanib, taxtga merosxo'r bo'lib qolibdi. Nega desangiz, shohning o'g'li yo'q ekan.

SICHQON BILAN MUSHUK

Bor ekan-da, yo'q ekan, sichqonboy bilan mushuk bo'lgan ekan.

Kunlarning birida sichqonboy inidan mo'ralab, mushukka:

— Kel, aka-uka tutinaylik, — debdi.

— Sendan uka chiqmaydi, — javob beribdi mushuk.

— Nega endi? — hayron bo'libdi sichqonboy.

Mushuk unga sichqonlarning qo'rqqoqligi, o'g'riligi va zararkunandaligini tushuntirib, shuning uchun aka-uka tutinolmasligini aytibdi.

— Gaplaring to'g'ri, men biroz qo'rqqoqroqman, lekin o'g'ri ham, zararkunanda ham emasman, — deb javob beribdi sichqonboy.

Shunda mushuk iljayib so'rabdi:

— Qoplarni teshib, un va donlarni o'g'irlaydigan sen emasmisan?

Unga javoban sichqonboy ham so'rabdi:

— O‘zing-chi, mushuk akajon, hech narsa yemay, havo bilan yashaysanmi?

— Men avval miyovlab, ovqat berishlarini so‘rayman, shunda xo‘jayinim menga go‘sht bilan non beradi. Sen bo‘lsang hech kimdan so‘rab o‘tirmay, bor narsani o‘maraverasan.

Mushuk anchagacha tixirlik qilib, nihoyat rozi bo‘libdi:

— Yaxshi, kel, do‘stlasha qolaylik. Lekin aldagudek bo‘lsang, o‘zingdan ko‘r, seni yeb qo‘yaman.

Sichqonboy suyunib ketibdi, ular birga yashay boshlashibdi. Kunlarning birida sichqonboy mushukka:

— Mushukjon, kuz keldi, hozircha havo yaxshi, tevarak-atrof to‘la ovqat. Yaqin orada qish kelib, hamma narsa qor tagida qolib ketadi. Kun kechirish qiyin bo‘lib qoladi. Vaqt g‘animatda qishlik g‘amlamaymizmi? — debdi.

— Bo‘pti, — rozilik bildiribdi mushuk.

— Bilasanmi, — debdi sichqonboy. — Buni men qilgudek bo‘lsam boshimda kaltak sinadi. Sen uyma-uy yurganing ma‘qul. Kuvda yog‘ qilishayotganini ko‘rib miyovlasang, bir bo‘lagini oldingga tashlashadi. Shu alfozda qishga g‘amlab olamiz.

Mushuk bunga ham rozi bo‘libdi. U ancha-muncha yog‘ yig‘ibdi. Sichqonboy bilan mushuk bir xum topishib, yog‘ni unga solishibdi-da, bir bog‘dagi daraxt tagini qazib ko‘mib qo‘yishibdi. Oradan biroz vaqt o‘tib qish ham yaqinlashib qolibdi. Sichqonning sabr-toqati chidamay, mushukni aldabdi.

— Mushuk akajon, — debdi u. — Bugun amakivachchamga ism qo‘yishadi. Meni mehmonga taklif qilishgan edi. Ijizat bersang, borib kelsam.

— Bora qol, lekin tezroq qayt, — debdi mushuk.

Sichqonboy mushuk bilan xayrlashib, uydan chiqibdi. U to'ppa-to'g'ri yog'ni yashirib qo'yishgan joyga borib, yerni kovlabdi-da, yog'dan ozgina yeb, xumning ustini tuproq bilan berkitib, uyga qaytibdi.

— Amakivachchangga qanday nom qo'yishdi?

— «Ozroqqina», — deb javob beribdi sichqonboy.

— Baxtli bo'lsin, juda chiroyli ism ekan, — debdi mushuk. — Lekin uning ma'nosi nima ekan?

— Mushuk akajon, u ismning ma'nosini hali o'zim ham bilmayman. Yaqinda yana ikki amakivachchamga ism qo'yishadi. Shunda hamma ismlar ma'nosini senga aytib beraman.

Oradan bir necha kun o'tibdi. Sichqonboyning yana yog' yegisi kelib qolibdi.

— Mushuk akajon, bugun yana boshqa amakivachchamga ism qo'yishyapti. Bormasam bo'lmaydi — qarindoshlarim xafa bo'lishadi. Ijizat bera qol.

Mushuk sichqonboyga bu safar ham ijizat beribdi. Sichqonboy pildiragancha o'sha daraxt tagiga boribdi-da, yerni kovlab, xumni olibdi. Yog'ni to yarmi qolguncha yeb, xumni yana joyiga ko'mib, uyga qaytibdi.

— Amakivachchangga nima ism qo'yishdi? — so'rabdi mushuk.

— Yarimtaxon, — javob beribdi sichqonboy.

— Qarindoshlaring juda antiqa ismlar qo'yishar ekan, — deya hayratlanibdi mushuk.

Yana bir necha kun o'tibdi. Sichqonboy qarasa, havo sovib, yaqin orada qor yog'ib hammayoqni bosib ketadigan. Shunda u xumni topolmay qolishi mumkinligini o'ylabdi.

— Mushuk akajon, ijozat bersang, uchinchi amaki-vachchamnikiga ham borib kelsam. Qarindosh-urug'ni xafa qilib bo'lmaydi. Oxirgi marta borib kelishga ijozat bera qol, — deb yolvoribdi sichqonboy.

— Ukam sichqonboy, — debdi mushuk. — Hecham qarshi emasman, borsang borib kela qol, faqat kech qolma. Yolg'iz o'zim zerikib qolaman.

Sichqonboy pildirab yana daraxt tagiga boribdi, xumni kovlab olib, qolgan yog'ning hammasini pok-pokiza tushiribdi-da, bo'sh xumni joyiga ko'mib qo'yibdi. Sichqonboy uyga qaytib kelibdi. Mushuk undan chaqaloqqa nima ism qo'yishganini so'rabdi. «Tubboy» deb javob beribdi sichqonboy. Mushuk hayratlanib, iljayibdi.

— Nega jilmayyapsan, mushuk akajon, — so'rabdi sichqonboy, — ism senga yoqmadimi?

— Hamma ismning qandaydir ma'nosi bo'lishini bilardim. Lekin bu ismlarning ma'nosini tushunmayapman, — debdi mushuk.

— Xumni ochib qaraganingda tushunasan, — debdi unga sichqonboy.

— Nimalar deb valdirayapsan, sichqonboy! — xitob qilibdi mushuk. — Xumning bunga nima aloqasi bor? — Shunda xum to'la yog' ko'mib qo'yishgani yodiga tushibdi. — Ukajonim sichqonboy, yaxshi xumni esimga solding. Axir, yashirib qo'ygan bir xum yog'imiz bor edi-ya? Yur, bir xabar olaylik-chi?

— Yo'ldan charchab keldim, mushuk akajon, — uni qaytarmoqchi bo'lib urinibdi sichqonboy, — ertaga boramiz.

Mushuk rozilik bildiribdi. Ular yotib uxlashibdi. Erta bilan turgan mushuk:

— Qani, sichqonboy, tura qol, borib xabar olaylik-chi, yog‘ nima bo‘ldiykin? — debdi.

Sichqon bu safar ham uni yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lgan ekan, lekin mushuk so‘zida turib olibdi. Ular daraxt tagiga borib, xumni qazib olishsa, u bo‘sh emish.

— Ey, mug‘ambir, yog‘ni sen yegansan, — jahl bilan debdi mushuk.

Sichqonboy mushukka, g‘amlab qo‘ygan yog‘imizni sen yegansan, debdi. Keyin ikkovi inkor qila boshlashibdi.

— Shuncha yog‘ni bir o‘zim qanday yeyman? — debdi mushuk.

— Avvaliga ozroqqina, keyin yarmisini, ana undan keyin qolganini tubigacha, — deb tushuntiribdi sichqonboy.

Shunda mushuk hammasiga tushunibdi.

— Bu gaplar menga tanish, — deb xitob qilibdi mushuk. — Amakivachchalaringnikiga nimaga borganingni endi bildim. Yog‘ni sen yegansan. Endi seni men yeyman.

— Axir, do‘stmiz-ku, mushuk akajon, — yalinibdi sichqonboy. — Do‘stlar bir-birini yeyishmaydi.

— Gaping to‘g‘ri, do‘stlarni yeb bo‘lmaydi, — debdi mushuk. — Lekin esingda bo‘lsa, shart qo‘ygan edik. Shunda, agar meni aldasang, o‘g‘irlik qilgudek bo‘lsang, seni yeyman, degan edim. Shu paytga qadar o‘sha bema‘ni yaramas odatlaringdan qutula olmagan ekansan, endi ajaling yetdi. Sen yog‘ni yeding, men seni yeyman.

Mushuk sichqonga sapchib, uni tiriklayin yutib yuborgan ekan.

ARILAR G'AZABI

Bor ekan-da, yo'q ekan, dunyoda bir fil bo'lgan ekan. U tinib-tinchimagan va juda sho'x ekan. Har safar bo'lar-bo'lmasga janjal chiqaraverar ekan. Kunlarning birida o'rmonda u xartumi bilan bir daraxtni o'rab olib, uni silkitaveribdi. Sal bo'lmasa daraxtni il-diz-pildizi bilan yerdan sug'urib olay debdi. Daraxtda o'rmon arilarining ini bor ekan. Filning silkitishidan arilar ini buzilib ketishi mumkin ekan.

— Fil aka, — iltimos qilishibdi arilar. — bizning uyimizni buzma.

— Uylaringning menga nima keragi bor? — javob beribdi fil. — Sho'xlik qilgim kelgan edi-da.

— Voy, fil akajon-ey, — deyishibdi arilar, — biz senga o'ynama deyayotganimiz yo'q. Boshqa daraxtning tagida o'ynay qolgin.

— Shu yerdan boshqa yoqqa ketmayman, — tixirlik qilibdi fil. — Bu vijdotsizlarni qara-ya, o'zlari zing'ircha-yu, yana birovga aql o'rgatishlarini-chi.

— Fil akajon, — uni ogohlantirishibdi arilar, — agar uyimizni buzadigan bo'lsang, seni o'ldiramiz.

— Qo'llaringdan kelganini qilinglar, — deb kulibdi fil. — Sizlardan qo'rqadigan ahmoq yo'q.

Arilar inlariga kirib, kattalar bilan maslahatlashishibdi, fildan yana bir marta iltimos qilib, bordi-yu, shunda ham ko'nmasa, uni to o'lguncha chaqishga qaror qilishibdi. Arilar ancha vaqtgacha filni bu ishdan qaytarishga urinishibdi. Lekin fil ularga e'tibor ham bermabdi.

Shunda arilar filga baravardan yopishishib, boshi, ko'zi, qulog'i, xartumi va butun badaniga ignalarini sanchishaveribdi. Fil birpasda shishib, naq tog'day bo'lib ketibdi. Filning hayqirig'i butun o'rmonni tutib ketibdi. Fil qocha boshlabdi. Ammo arilar uni quvishaveribdi. Nihoyat fil holdan toyib, gumburlab yerga yiqilibdi. Arilar uni o'rab olishib:

— Xo'sh, endi holing qalay, fil akajon? — deyishibdi.

Fil uyalganidan, hatto, boshini ham ko'tara olmabdi.

— Fil akajon, — deyishibdi arilar, — sen haybatingga ishonib, bizni qiynading. Lekin shuni bilginki, kuchsizlarni qiynaganning holi voy bo'ladi.

KABUTARNING QANDAY QILIB IN YASASHNI O'RGANGANI HAQIDA

Bir paytlar kabutar in yasashni bilmas, qorayaloq esa bu ishga juda usta ekan. Uning xas-xashaklardan eshgan iniga hamma qushlarning havasi kelarkan. Bahor kunlarining birida kabutar qorayaloqning oldiga in yasashni o'rganish maqsadida kelibdi. Qarasa qorayaloq endigina o'zining chiroyli uyasini yasay boshlagan ekan.

Avvaliga kabutar qorayaloqning ishini diqqat bilan kuzatibdi, lekin inning tubi bitib, atroflari ko'tarila boshlagach, zerikibdi. U shuncha narsani o'rgandimku, bu yog'ini o'zim ham eplarman, degan qarorga kelib:

— Bu yog‘ini bilaman! Bilaman! — deb qanot siltab uchib ketibdi. Hatto rahmat ham aytmabdi.

Ertasi kuni o‘zi in yasamoqchi bo‘lib, ishga kirishibdi. Inning tubini amallab yasabdi-yu, u yog‘iga qanday davom ettirishga boshi qotibdi.

Kabutar o‘ylay-o‘ylay qorayaloqdan yana bir marta uya qurishni ko‘rsatib berishini so‘rash uchun uning oldiga uchibdi. Lekin qorayaloqning jahli chiqibdi:

— Axir qurishni bilaman deb maqtanib eding, ana endi mensiz ishingni oxiriga yetkazaver, — debdi.

Shunday qilib kabutar in yasashni o‘rganolmay qolgan ekan. Lekin u ba’zida:

— Bilaman! Bilaman! — deb maqtanib qo‘yarkan. Aslida esa haligacha bilmas ekan.

Arman

xalq ertaklari



AFANDI HAQIDA ERTAK

Qadim zamonda bir shoh o'tgan ekan. Uning ovchisi bo'lgan ekan. Ovchi har kuni shoh uchun o'lja otib keltirar ekan. Bir kuni ovchi kaptar tutib, uni uyiga olib kelibdi. Qush katta va chiroyli ekan. U kaptarni shohga olib bormay, uyida qoldiribdi. Ovchining onasi bor ekan. U onasiga:

— Nani, kaptaringa qarab turing, — deb o'zi shoh huzuriga boribdi. Shoh undan:

— Bugun o'ljasiz keldingmi, ovchi? — deb so'rabdi.

— O'ljasiz, shohim, bugun hech nima uchramadi.

Ovchining onasi bir kuni mehmonga boribdi. Qaytib kelib qarasa, uylar yig'ishtirilgan, joy solingan, tandirga olov yoqilib, non yopilgan, ovqat tayyor emish.

— Uyda mendan bo'lak hech kim yo'q edi, bu ishlarni kim qildi ekan? — deb hayratlanibdi ona.

Boshqa kuni kampir yashirinib olib kuzatsa, bu ishlarning hammasini kaptar bajarayotganmish. U qafasdan chiqib, patlarini tashlab, go'zal qizga aylanibdi-da, tandirga olov yoqib, non yopibdi, ovqat pishirib, endi qushga aylanmoqchi bo'lganda, kampir orqasidan kelib ushlab olibdi. Xudo unga kelin yuborganiga benihoya xursand bo'libdi. Shu zahotiyoq kampir o'g'lining oldiga yugurib borib, ro'y bergan voqeani aytibdi-da,

kaptarning qizga aylangani bilan o'g'lini qutlabdi. Ovchi kelib o'z ko'ziga ishonmabdi. Ular turmush qurib, birga hayot kechira boshlashibdi.

Shohning shunday odati bor ekan: fuqaroning biron narsasi yoqib qolsa, qay yo'l bilan bo'lmasin, o'ziniki qilib olarkan. Kunlardan bir kun shoh vaziri bilan shahar aylangani chiqibdi. Ovchining uyi yonidan o'tayotib, shohning ko'zi uning xotiniga tushibdi.

– Anavi qiz senga yoqadimi? – so'rabdi u vazirdan.

Saroyga qaytishgandan keyin shoh vazirini ishga solibdi:

– Borib bilib kel-chi, u kimning xotini ekan?

Vazir bor gapni bilib kelibdi-da:

– Shohim, u ovchimizning xotini ekan, – debdi.

– U uylanmagan edi-ku, uni qayerdan topibdi?

Borib chaqirib kel-chi?

Vazir borib ovchini chaqirib kelibdi. Shoh undan:

– Qachon uylana qolding? – deb so'rabdi.

– Ov qilgan yerimda, shohim.

Shohning jahli chiqib ketibdi.

– Men seni ovga yuborsam, sen birovlarining xotinini o'g'irlab yuribsanmi hali? Gapimni eshit, ovchi: endi allaqayoqqa borib, allanarsani olib kelasan.

Mushkul ahvolga tushgan ovchi, hayron bo'lib uyiga qaytibdi.

– Nega xafasan? – deb so'rabdi xotini undan.

– Shoh meni jazoladi, – deb javob beribdi ovchi.

– Nima uchun?

– Sen tufayli.

– U senga nima dedi?

— U allaqayoqqa borib, allanarsani olib kelishni buyurdi.

— Endi nima qilamiz, — debdi xotin eriga, — qanotlarimni yo‘qotma deb iltimos qilgan edim, shunaqa og‘ir paytlarda kerak bo‘lardi. Mana endi hech qayoqqa uchib ketolmayman. Meni tutib olgan joyingga bor. O‘sha joyda opa-singillarimni uchratasan, ular senga shoh istagan narsani berishadi. Mana sochig‘im, bog‘lab ol: opalarim kuyovlari kelganidan xursand bo‘lishadi. Suv olib kelib, yuvin deyishadi, sochiq bersa, artinma, chunki yuzingni artib ulgurmasingdan qalin arqonga aylanib qolasan, keyin seni odamlarga berib yuborishadi, ular seni kesib mayda-mayda qilib tashlashadi.

«Nega tashrif buyurdilar, kuyov?» — deb so‘rashsa, sen: «Shoh singillaringiz tufayli meni ta‘qib qilyapti», — degin.

Ovchi kaptarni tutib olgan o‘sha joyga — daraxt tagiga borgan ekan, ikki qiz paydo bo‘libdi.

— Mana, bizning ovchi-kuyovimiz keldi, — deyishibdi ular. — Xush kelibsiz, nechuk tashrif buyurdilar?

— Yaxshilikka, qaynagachilarim, — debdi u.

— Yura qoling, kuyov, uyimizga kiraylik.

Qizlar uni uylariga olib kelib, rosa mehmon qilishibdi: yedirib-ichirib uxlatishibdi.

Ertalab tursa, yuvinishga suv olib kelib:

— Yuvin qoling, kuyov, — deyishibdi. Keyin esa sochiq berishibdi.

— Rahmat, — debdi u. — o‘zimning sochig‘im bor.

Ovchi o‘z sochig‘iga artinib bo‘lgandan so‘ng dasturxon atrofiga o‘tirishibdi. Opalar surishtirishga kirishishibdi.

- Nega keldingiz, kuyov?
- Ishim bor sizda, qaynagachilarim.
- Nima ish ekan?
- Singillaringizni deb shoh meni ta'qib qilyapti.
- Nega endi?
- Qayerdan bilay.
- Nima kerak ekan unga?

— U menga allaqayerga borib, allanarsani olib kel, dedi, xolos. Shundan keyin singillaringiz meni shu yoqqa yubordi. Yordam berarsizlar degan umiddaman.

— Siz o'tira turing, kuyov, biz mushkulingizni oson qilishning yo'lini o'ylab ko'ramiz.

Ular uchib ketishibdi, tog'lar va daryolar, o'rmon va dalalar bo'ylab uzoq uchishibdi, lekin hech qayerdan hech narsa topolmay qaytib kelishibdi.

— So'ragan narsangiz yo'q ekan, kuyov.

O'tirib, Kadjon shohga maktub yozib, ovchining qo'liga berishibdi va ovchi to'ppa-to'g'ri shohning huzuriga boribdi. Shoh uni yaxshi qabul qilib, gapini eshitibdi, keyin vazirlarini chaqiribdi.

— Buyoqqa kelinglar, menga mana bu qog'ozni yuborishibdi.

Vazirlar yaqinroq borishibdi.

— O'qinglar, — debdi shoh. Vazirlar o'qishibdi: Allaqayerga borib, allanarsani olib kel.

— Shu narsani topib olib kelinglar, uni go'zal parilarimizning kuyovlariga beramiz.

Vazirlar shoh hukmini bajarishga oshiqishibdi. Hamma tog'lardan oshishibdi, barcha g'orlarni izlashibdi, lekin hech qayerdan topisha olmabdi. Shohga kelib:

— Shafqat qiling, shohim, topolmadik, — deyishibdi.

— Ey, yigit, sen izlagan narsa bizga qarashli joylarda yo‘q, qurbaqalar shohiga borib ko‘r-chi.

Ovchi shohdan:

— Uni qayerdan topaman? — deb so‘rabdi.

— Maktub yozib beraman unga, topasan.

Shoh maktub yozib, otliqlardan hamrohlar beribdi. Ular ovchini qurbaqalar shohi huzuriga kuzatib qo‘yshibdi.

Qurbaqalar shohi maktubni olib, vazirlarini chaqirtiribdi:

— Buyoqqa kelinglar. Kadjon shohi bizga maktub yo‘llabdi. O‘qinlar.

Ular maktubni o‘qib:

— Bu mehmonning so‘ragan narsasini topib ber, shoh, — deyishibdi.

— Borib Delagorni huzurimga olib kelinglar, — debdi shoh.

Delagorni olib kelishgan ekan, shoh unga:

— Yerning tagidan bo‘lsa ham, mana bu yigitning so‘ragan narsasini topib ber, — debdi.

— Kerak bo‘lganda Delagor yaxshi-yu, kerak bo‘lmaganda Delagor quvg‘indami, — debdi shohning iltimosiga javoban Delagor.

— O‘tgan ishga salovat... Xafagarchilikni unutaylik.

— Qani, ketdik, bandayi ojiz, — debdi Delagor.

Uni o‘rmonga olib kelib:

— Sen o‘tirib tur, men u yoq-bu yoqni qarab, tez qaytaman, — debdi Delagor.

Ovchi uni uzoq kutibdi, Delagor esa hadeganda kelavermabdi. O‘rnidan turib qarasa, uzoqda yaltilla-

– Ey, yigit, sen izlagan narsa bizga qarashli joylarda yo‘q, qurbaqalar shohiga borib ko‘r-chi.

Ovchi shohdan:

– Uni qayerdan topaman? – deb so‘rabdi.

– Maktub yozib beraman unga, topasan.

Shoh maktub yozib, otliqlardan hamrohlar beribdi. Ular ovchini qurbaqalar shohi huzuriga kuzatib qo‘yshibdi.

Qurbaqalar shohi maktubni olib, vazirlarini chaqirtiribdi:

– Buyoqqa kelinglar. Kadjon shohi bizga maktub yo‘llabdi. O‘qinlar.

Ular maktubni o‘qib:

– Bu mehmonning so‘ragan narsasini topib ber, shoh, – deyishibdi.

– Borib Delagorni huzurimga olib kelinglar, – debdi shoh.

Delagorni olib kelishgan ekan, shoh unga:

– Yerning tagidan bo‘lsa ham, mana bu yigitning so‘ragan narsasini topib ber, – debdi.

– Kerak bo‘lganda Delagor yaxshi-yu, kerak bo‘lmaganda Delagor quvg‘indami, – debdi shohning iltimosiga javoban Delagor.

– O‘tgan ishga salovat... Xafagarchilikni unutaylik.

– Qani, ketdik, bandayi ojiz, – debdi Delagor.

Uni o‘rmonga olib kelib:

– Sen o‘tirib tur, men u yoq-bu yoqni qarab, tez qaytaman, – debdi Delagor.

Ovchi uni uzoq kutibdi, Delagor esa hadeganda kelavermabdi. O‘rnidan turib qarasa, uzoqda yaltilla-

gan olov ko‘rinibdi. U olov tomonga qarab yuribdi. Yaqinroq borib qarasa, u kichkina chayla ekan. Ovchi salomlashibdi. O‘tirib, u yoq-bu yoqdan gaplashishibdi. Chayla egasi ovchidan so‘rabdi:

— Kimsan, bu yerga nega kelding, bir o‘zingmisan yoki sheriklaring bormi?

— Sherigim bor, ismi Delagor, — deb javob beribdi ovchi.

— Delagor qayerda? — deb so‘rabdi chayla egasi.

— Shu o‘rmonga kirib ketgandi, qaytib chiqmadi.

— Xafa bo‘lma, kim biladi qayoqqa g‘oyib bo‘lganini.

Qorning ochmi?

— Och.

— Afandi, mehmon keldi, non keltir, — debdi chayla egasi. Non kelibdi-yu, lekin ovchi hech kimni ko‘rmabdi.

Ular ovqatlanib bo‘lishibdi. Chayla egasi:

— Afandi, nonni olib ket, — debdi. Ovchi qarasa, non g‘oyib bo‘libdi-yu, yana hech kim ko‘rinmabdi.

— Xizmatkoring yaxshi ekan, — debdi ovchi.

— Sotaman, olasanmi?

— Olaman.

— Evaziga nima berasan?

— Menda hech nima yo‘q.

— Nimangga olmoqchi eding?


— Uni menga sovg‘a qila qol.

— Olgin-da, yo‘lingdan qolma.

Ovchi xizmatkorni chaqirib:

— Afandi, yur men bilan, — debdi.

Ular yo‘lga tushib ketishaveribdi. Bir payt ularga temir hassali kurd uchrabdi. Uning qorni och ekan, ovchidan non so‘rabdi.



— Afandi, kurdga non ber, — debdi ovchi.

Kurdning qarshisida non paydo bo'libdi. Afandi esa ko'rinmabdi. Shunda kurd:

— Xizmatkoringni menga sot, — debdi.

— Sotmayman.

Kurd ketibdi. Shunda Afandi ovchiga:

— Nega sotmading? Meni hassaga alishib ol, yana qaytib kelaman, — debdi.

Ovchi kurdni chaqiribdi.

— Bu yoqqa kel, Afandini sotaman.

— Evaziga nima so'raysan?

— Hassangni berib, Afandini ola qol.

Ular almashishibdi. Ovchi hassani olibdi, kurd esa Afandini. Biroz yo'l bosgach, Afandi ovchiga yetib olibdi. Kurd esa Afandini chaqiribdi. Afandi javob bermabdi.

Afandi bilan ovchi ketayotib, attorni uchratib qolishibdi. U ham ovchidan non so'rabdi. Ovchi yana Afandiga:

— Attorga non keltir, — debdi.

Afandi non berib, o'zi ko'rinmabdi. Attor ovchiga:

— Xizmatkoring yaxshi ekan, — debdi.

— Ha, yaxshi, nolimayman.

— Uni sotmaysanmi?

— Nega sotmay, sotaman.

— Evaziga nima bersam ekan. Mana, bor molimni ola qol.

Ular almashishibdi. Attor Afandini, ovchi esa mollarini olib ketibdi.

Afandi orqasiga qaytib, ovchiga yetib olibdi. Ular shaharga kelishibdi. Ovchi shoh huzuriga boribdi.

- Qani, ovchi, keltirdingmi?
- Yo‘q, shohim, topolmadim.
- Bo‘lmasa kurashamiz, – debdi shoh.
- Bo‘pti.

Shoh bilan ovchi kurasha ketishibdi. Ovchi Afandini yordamga chaqiribdi. U shohni o‘ldiribdi. Ovchi shohning o‘rniga o‘tiribdi. Shahzodalarning jahli chiqib, qo‘shin yig‘ishibdi-da, ovchiga qarshi urush ochishibdi. Ovchi Afandini chaqiribdi.

- Darvozani ochib, qo‘shinni tashqariga chiqar.

Darvoza ochilib, ovchining qo‘shinlari tashqariga chiqibdi-da, dushmani yakson qilishibdi. Afandi esa temir hasa bilan kurashibdi. Hammasini uraveribdi. Dushman tor-mor bo‘libdi. Shahzodalarni quvib yuborishibdi, ovchi shoh taxtiga chiqib, Janob ovchiga aylanibdi. U o‘z niyatiga yetibdi, sizlar ham niyatingizga yetasizlar.

ILON BILAN SHIVAR

Bor ekan, yo‘q ekan, bir podsho bo‘lgan ekan. Kunlarning birida u tush ko‘ribdi. Tushida osmondan yerga tulkilar tushayotgan emish. Podsho qo‘rqib uyg‘onib ketibdi. U yer yuzidagi barcha donishmand-u folbinlarni to‘plab, ularga: «Tushimning ta‘birini qirq kun ichida yechib berasizlar, yecholmasanglar hammangizni kallalaringizni tanangizdan judo qilaman», debdi.

Podsho saroyi joylashgan shahar yaqinida bir qishloq bor ekan. Shu qishloqda bir er-xotin yashar ekan. Ayol podshoning buyrug‘ini eshitib, eriga saroyga borib, podsho tushining ta‘birini aytib bering, debdi.

«Agar tushning ta'birini aytib berolmasa, podsho uni o'limga buyuradi, men esa erimdan qutulib olaman» deb o'ylabdi ayol.

Eri qarasa, xotinining niyati buzuq. Qo'liga tayoq olib, uyidan chiqib, boshi oqqan tomonga qarab ketibdi. U yo'lda ketayotib, bir xarsangtoshning ostidan vishillab chiqqan katta ilonni ko'rib qolibdi.

— Yo'l bo'lsin, Shivar? — deb so'rabdi tilga kirib haligi katta ilon.

— O'zim ham bilmayman, — debdi Shivar.

— Qo'rqma, Shivar, — debdi ilon, — podshoning oldiga shaxdam borib: «Shohim, tushingda osmondan tulkilar tushib kelayotganini ko'ribsan, bu atrofig-ni xushomadgo'y va qalloblar qurshab olgan, degani. Ehtiyot bo'l, shohim, ular seni biron baloga giriftor qilishmasin», degin. Bilib qo'y, Shivar, podsho senga bergan mukofotning yarmi meniki.

Shivar podshoning oldiga borib, ilonning hamma gaplarini aytibdi. Podsho bu gaplarni eshitib, sevinib ketibdi. Vaziriga Shivarga xazinadan to'rt tuya oltin ber, deb buyuribdi.

Shivar tillalarni olgach, niyati buzilibdi. Yana ilon tillalarimning yarmini olib qo'ymasin, deb uyiga boshqa yo'ldan ketibdi.

Xotini tillalarni ko'rib, sevinibdi, eriga mehribonlik qilibdi.

Shunday qilib, oradan bir necha yil o'tibdi.

Bir kuni podsho yana tush ko'ribdi. Tushida osmondan qon yog'ayotgan emish. Podsho yana tushimning ta'birini aytib beringlar, deb saroy a'yonlarini ayttirib kelibdi. Shunda uning yodiga ta'biri Shivar tushib-

di, vazirga tezda uni huzuriga olib kelishni buyuribdi. Choparlar Shivarni topib, unga podshoning buyrug'ini yetkazishibdi. Buni eshitib Shivar sarosimaga tushibdi. «Endi nima qildim? Oldingi safar podsho ko'rgan tush ta'birini topishimga ilon yordam bergan edi. Unga til-lalarning yarmini berishim kerak edi, ochko'zlik qilib bermadim. Endi uning oldiga qay yuz bilan boraman. Yuzim chidamaydi. Endi podsho kallamni oladi... Nima bo'lsa bo'ldi, ilonning oldiga borib, bu safar ham men-ga yordam ber deyishdan boshqa ilojim yo'q!..» Shu-larni o'ylab, Shivar ilonning oldiga boribdi.

Shivar tosh oldiga kelganda ilon xarsangning osti-dan chiqibdi-da, tilga kirib:

— Salom, Shivar uka. Ishlaring qalay? O'tgan sa-far tegishimni olib kelmay, meni aldab ketding. Mayli, bu safar ham men senga yordam beraman. Podsho bu-gun osmondan qon yog'ayotganini ko'rdi. Bu — dush-manlari yurtiga bostirib kirib, qon to'kiladi, degani. Unga borib ayt, askarlari shaylanib tursin. Shunda xavf-xatar uncha qo'rqinchli bo'lmaydi. Yodingda tut, uka, bu gal podsho bergan narsaning yarmini, albatta, menga olib kel, — debdi.

— Xotirjam bo'l, albatta olib kelaman, — deb Shivar ilonga ta'zim qilibdi-da, podshoning saroyiga ravona bo'libdi.

U tezda shahar darvozasiga yetib kelibdi. Vazirlar uni shoh huzuriga olib kirishibdi-yu, Shivar podshoga ta'zim qilib:

— Shohimizning umri uzoq bo'lsin. Bugun qo'r-qinchli tush ko'ribsan. Osmondan qon yog'ayotgan emish. Bu — dushmanlaring seni ta'qib qilayapti,

degani. Askarlarning jangovar holatda tayyor turishsin. Shunda dushmanlarning sening yurtingga hujum qilishga jur'at etisholmaydi, — debdi.

Podsho Shivarining gaplarini eshitib xursand bo'libdi. Unga avvalgisidan ikki barobar ko'p oltin in'om etib, uyiga qaytishga ruxsat beribdi.

Shivar tillalarni tuyaga ortib, boshi gangib qolibdi. Ilon bergan maslahat va o'zining va'dalari yodidan chiqib ketibdi. O'ylab-o'ylab ilonni o'ldirmoqqa ahd qilibdi. «Shunday qilsam, bu mol-dunyo butun avlodimga, nevara-chevaralarimga ham yetib ortadi. Podsho har kuni shunaqa tush ko'rib o'tiribdimi? Bundan buyon ilonning menga keragi yo'q» deb o'ylabdi u.

U tillalarni tualarga ortibdi-da, uyiga jo'nabdi. Karvon xarsangtoshning oldiga kelganida, ro'parasidan ilon chiqibdi. Shivar birpas o'ylanib turibdi-da, yerdan tosh olib, ilonga otibdi. Ilon jon holatda tosh tagiga kirib ketibdi.

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Podsho bir kuni yana tush ko'ribdi. Tushida osmondan yerga bug'doy sepilayotgan emish. Podsho uyg'ongach o'ylab o'tirmay Shivarini aytib kelishga chopar yuboribdi. Chopar Shivarining uyiga kelibdi. Shivar uni ko'rib oyoq-qo'llari bo'shashib ketibdi.

— Xotin, — debdi Shivar zo'r-bazo'r, — endi mening o'lishim aniq. Bu safar meni hech kim qutqarib qololmaydi.

Xotini uning gaplarini eshitib churq etmabdi, faqat ichdan sevinibdi. Shivar o'ylab-o'ylab: «Agar ajalim yetib, paymonam to'lgan bo'lsa, o'sha, men yaxshiligi-

ni bilmagan ilon o'ldirsin», deb ilonning oldiga boshini egib kelibdi.

Ilon tosh ostidan chiqib:

— Salom, tentak ukaginam Shivar! Podsho meni yana chaqirib qoladi, deb o'ylamadingmi, shunda men-siz uning oldiga borolmasliging xayolingga kelmadi-mi? — deb kulib qo'yibdi.

— Oh, opajon, — debdi Shivar, — ayb menda, vijdon-sizlik qildim. Shunga qaramasdan oldingga yuzimni sidirib keldim. Taqdirim qo'lingda. Nima qilsang, ixti-yor senda.

Shunda ilon:

— Yo'q, ukajon, men yomonlikka yaxshilik qaytara-man. Gapimga quloq sol. Podshoga borib ayt: «Shohim, siz tushingizda osmondan yerga bug'doy sepilayotgani-ni ko'ribsiz. Bu mamlakatingizda mo'l-ko'lechilik bo'ladi degani. Siz umringizning oxirigacha g'am-tashvish ni-maligini bilmaysiz», degin. Shunda podsho senga ko'p tilla beradi. Yarmini menga olib kelish yodingdan chiq-masin, — debdi.

— Xotirjam bo'l, — debdi Shivar, — bu safar sening oldingda yuzim yorug' bo'ladi. Vijdonim buyurganini qilaman.

Shivar podshoning oldiga kelib, tushining ta'birini aytib beribdi. Podsho bu safar oldingi safardagilar-dan ikki-uch barobar ko'p tilla beribdi. Shivar tillalar-ni tuyalarga ortib yo'lga tushibdi. U yo'lda o'zicha o'ylabdi: «Ilon menga juda ko'p yaxshilik qildi. Uni bir marta aldadim, keyingi safar o'ldirib qo'yishimga oz-gina qoldi. Endi boshqacha ish tutaman. Mol-dunyoyim

oshib-toshib yotibdi. Bu safar podsho bergan tillalar-ning hammasini unga beraman».

Shivar tosh oldiga kelib ilonni chaqiribdi. Ilon tosh tagidan chiqibdi.

— Opajon, o‘z hissangni ol, mana shu tillalarning hammasi seniki, — debdi Shivar.

— Ukajon, — debdi ilon, — menga hech qanday tilla kerak emas. Men seni shunchaki sinamoqchi bo‘lgan edim. Birinchi marta sen podshoning huzuridan kela-turib, yo‘lingni o‘zgartirib boshqa yo‘ldan ketding. O‘sha yili tulki yili — aldash yili edi, meni aldab ket-ding. Boshqa safar sen menga tosh otib, qonimni to‘kding, bu payt qon yili edi. Shuning uchun podsho qo‘rqinchli tush ko‘rdi. Bu yil esa to‘kin-sochinlik yili. Shuning uchun odamlar xasislik qilmay, saxiylik qila-digan bo‘lishdi. Bu mol-dunyo o‘zingga buyursin.

Shunday deb ilon ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Shivar uyiga qaytib kelib, shod-xurram hayot ke-chirib, murod-maqsadiga yetibdi.

Ammo menga ham, sizga ham hech narsa tegmabdi.

QO‘ZICHOQ UKA

Bor ekan, yo‘q ekan, bir er-xotin bor ekan, ular-ning ikki farzandi bor ekan. Bolalar urning avvalgi xo-tinidan bo‘lib, o‘gay ona ularga hech kun bermas ekan. Xotin har kuni eri bilan mojaro qilib, bolalarini uzoq joyga tashlab kelishini talab etarkan, ammo eri bunga quloq solmas ekan.

Kuz kunlaridan birida er, ertasi kun sepaman, deb urug‘lik don tayyorlab qo‘yibdi, xotini esa kechasi

donni qozonda qovurib, qoplarga solib qo'yibdi. Erta-
si kuni tong sahar payt er o'rnidan turibdi, aravani
qo'shib, donni ortibdi-yu, dalaga jo'nabdi. Xotining
qilgan nayrangini u bechora bilmabdi.

Oradan bir oy o'tibdi, ikki oy o'tibdi, atrof-dala-
lardagi ekinlar ko'karib chiqibdi-yu, uning ekini
ko'karmabdi.

— Hoy, xotin, — debdi er, — o'zi nima gap, hamma
dalalar ko'm-ko'k bo'lib, ekinlar bir qarich o'sib yotib-
di-yu, nimaga bizning ekinimiz o'smadi-a? Endi nima
qilamiz?

— Men bir chorasini topdim, agar shuni bajarsang,
ekining o'sib chiqadi, bo'lmasa, bu yil bug'doysiz qola-
miz. Bolalaringni olib chiq-da, birini dalaning bu chek-
kasida, ikkinchisini narigi chekkasida so'y, shunda
dalamiz ko'm-ko'k bo'ladi.

— E, sen qanaqa yaramas, berahm xotinsan, o'z
farzandlarimni men qanday qilib so'yaman! Bor-e, dala
ham, ekin ham qurib ketsin, bolalarimga qo'l tegiz-
mayman!

— Men bor gapni aytdim, bilganingni qil. Don-dun-
siz och qoladigan sen, menga nima!

Bechora er ikki o't orasida qolibdi: bolalarini
o'ldiray desa, ko'zi qiymaydi, o'ldirmasa — ochlikdan
o'ladi. Nihoyat u bolalarini o'ldirmaslikka, ammo uzoq
dalaga olib borib tashlab kelishga qaror qilibdi.

U niyatini amalga oshiribdi. Bolalarini bir dala joy-
ga olib borib ularga:

— Shu yerda o'tirib turinglar, men hozir kela-
man, — debdi.

Shunday deb ularni aldabdi-da, o'zi boshqa yo'l bilan uyiga qaytibdi.

Opa-uka, «ana otamiz keladi, mana otamiz keladi», deb ko'p kutishibdi, biroq otadan darak bo'lmabdi. Qiz ukasidan ancha katta ekan, u otasi tashlab ketganini fahmlabdi. Ukasining qo'lidan ushlaganicha opa-uka boshi oqqan tomonga qarab jo'nashibdi.

Ular bir necha kun yo'l yurishibdi, ammo na biron-ta buloqni, na biron ariqni uchratishibdi. Juda tash-na bo'lishibdi. Opasi bir amallab sabr qilibdi-yu, biroq ukasi juda azob chekibdi, tashnalikdan tili tanglayiga yopishay debdi.

Ular yurib-yurib, bir joyga yetibdilar. Birdan bo-laning ko'zi mol tuyog'i iziga tushibdi. U suv bilan to'lib turgan emish.

— Opajon, shu suvni ichsam maylimi, juda chanqa-dim.

— Yo'q-yo'q, ichma bu suvni, ukajon, sigirga ayla-nib qolasan! Sabr qil, hozir buloqqa yetamiz, o'sha yer-da to'yib suv ichib olasan.

Yana biroz yurib bolaning ko'zi tuya iziga tushibdi. U ham suv bilan to'la emish. Ukasi ichaman degan ekan, opasi, tuya bo'lib qolasan, deb ichirmabdi. Ular yana yo'lga ravona bo'libdilar. Ko'p o'tmay ko'lmak suv bilan to'la ot tuyog'ining izi ko'rinibdi. Yana bola-ning suv ichgisi kelibdi, opasi esa:

— Ot bo'lib qolasan, — deb ichkizmabdi.

Xullasi kalom, qayerda bolaning suv ichgisi kelma-sin, opasi ruxsat bermabdi.

Bolaning tashnalikdan tomog'i qurib qolibdi. Opa-sidan yashirib qo'zichoq izidan suv ichgan ekan, shu

zahoti qo'zichoqqa aylanib qolibdi. Bir vaqt opasi orqasiga o'girilib qarasa, ukasining o'rnida oppoqqina bir chiroyli qo'zichoq chopib kelayotgan emish. Opasi xunibiyron yig'labdi, ko'p qayg'uribdi, ammo iloji qancha, bo'lar ish bo'lgan!

Ular yurib-yurib juda holdan ketishibdi, qorinlari ochibdi. Shu payt yo'l ustida bir buloq ko'rinibdi, uning yonida katta bir chinor o'sib turgan emish. Ular to'ygularicha suv ichishibdi, qiz uxlamoqchi bo'lib chinorga chiqibdi, qo'zichoq ukasi esa buloq bo'yida o'tlab yuribdi.

O'sha kuni kechki payt podsho xizmatkorlari buloq bo'yiga otlarini sug'organi olib kelgan ekanlar. Ammo ular qanchalik urinishmasin, otlar nimadandir hurkib suv ichmabdi. Gap shundaki, buloq suviga daraxtda o'tirgan qizning sharpasi tushib, otlar o'shandan hurkigan ekan.

Podsho xizmatkorlari o'ng tomonga qarashibdi, chap tomonga qarashibdi, biroq hech narsa ko'rinmabdi. Bir vaqt boshlarini ko'tarib daraxtga qarashsa, daraxtda paridek bir sohibjamol qiz o'tirgan emish.

— Hoy, kimsan, insonmisan, hayvonmisan yoki jiniblismisan? — deb qichqirishibdi ular. — Qani yerga tush, seni yaxshiroq ko'rib olaylik!

Ammo, qancha zo'rlashmasin qiz yerga tushmabdi. Xizmatkorlar borib podshoga arz qilishibdi:

— Ey podshohi olam, umringiz uzoq bo'lsin. Bir og'iz gapimiz bor, quloq soling. Otlarni buloqqa sug'organi olib borgan edik, ular hurkib hech suvga yaqinlashmadi. Bunday yuqoriga qarasak, daraxtda bir paripaykar

o'tiribdi. Biz qanchalik baqirmaylik, u pastga tushmadi. Daraxt ostida esa bir oq qo'zichoq o'tlab yuribdi.

Podsho xizmatkorlariga, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham qizni va qo'zichoqni saroyga olib kelishni buyuribdi. Xizmatkorlar yana o'sha chinor tagiga borib: «Kimsan o'zing, insonmisan, hayvonmisan yoki jinmisan, qani, pastga tush!» deb shovqin solishibdi. Ammo qiz bu safar ham daraxtdan tushmabdi.

— Tushmasa tushmasin. Hech bo'lmasa podshoga mana bu qo'zichoqni olib boramiz, — deyishibdi xizmatkorlar. Ular endi qo'zichoqni tutmoqchi bo'lgan ekanlar, qiz daraxtdan tushibdi. U shunaqangi chiroylimishki, yuzining nuri oyni xira qilarmish, qarab odamning ko'zi to'ymasmish. Xizmatkorlar ikkovini ham podsho huzuriga olib kelishibdi.

Podsho qizdan so'rabdi:

— O'zing kimsan, yolg'iz nima qilib yuribsan?

Qiz boshidan kechirgan voqealarni aytib beribdi. Podsho hali uylanmagan ekan, yetti kecha-yu yetti kunduz to'y qilib qizga uylanibdi.

Podsho saroyida bir xizmatkor kampir bor ekan. To'ydan so'ng u bir kun podshoga:

— Podshohim, ijozat bersangiz, malikani bir dengizda cho'miltirib kelsam, — dedi.

Kampir qizni olib, dengiz bo'yiga jo'nabdi, orqalaridan qo'zichoq ham yugurib boraveribdi. Kampir qizni yechintiribdi-da, dengizga itarib yuboribdi.

Ammo, buni qarangki, kampir qancha urinmasin qo'zichoqni tutolmabdi. U dengiz bo'yida u yoqdan bu yoqqa yugurib yig'lar emish. Kampir qo'zichoqni zo'rg'a saroyga olib kelibdi.

Kampir malikaning kiyimlarini ham uyiga olib kelibdi. Uning bir xunuk qop-qora qizi bor ekan. Qiziga o'sha kiyimlarni kiydiribdi-da, podsho saroyiga olib boribdi.

— Podshohi olam, umringiz uzoq bo'lsin, mana, xotiningizni cho'miltirib keldim, — debdi.

Bu xotini emasligini podsho qayerdan bilsin!

Oradan bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi, xullas, kunlardan bir kun kampirning qizi o'zini kasallikka solibdi. Podsho undan so'rabdi:

— Xotin, ko'ngling nimani istasa ayt, darrov muhayyo qilishadi.

— O'sha qo'zichoq go'shtidan bir burda berishsin, — debdi qiz.

— Iye, axir u mening ukam degan eding-ku, qanday qilib uning go'shtidan yeysan?

— Nima qilay, tug'ishgan ukam bo'lsa ham jonim undan aziz, ko'nglim faqat uning go'shtini tilaydi.

Biroq, kampirning qizi qanchalik zo'rlamasin, podsho oppoq momiqdek chiroyli qo'zichoqni, buning ustiga xotinining jonajon ukasini so'yishga ijozat bermabdi.

Endi qo'zichoq saroyda tursin, gapni uning opasidan eshiting.

Kampir qizni dengizga itarib yuborgan zamoni bir oq baliq uni yutib yuboribdi. Qo'zichoq ukasini so'yishmoqchi bo'lganlari unga baliq qornida turgan joyida ayon bo'libdi.

Shu-shu bir baliqchi har kuni dengizdan: «Hoy odamlar, podshoga borib aytinglar, mening qo'zichoq ukamni o'ldirmasin!» degan ovozni eshitadigan bo'libdi.

Dengizdan ketma-ket uch kecha shunday ovoz kelibdi.

Baliqchi hayron bo'libdi-da, borib podshoga:

— Umringiz uzoq bo'lsin podshohim, bir og'iz gapim bor, quloq soling. Dengizdan uch marta: «Borib podshoga aytinglar, mening qo'zichoq ukamni o'ldirmasin!» degan ovozni eshitdim. Hayronman, nima gap o'zi? — debdi.

— Ajabo, — debdi podsho, — mayli, kechasi kel, birga borib qanday ovoz ekanligini aniqlaymiz.

Kech bo'lishi bilan podsho va baliqchi dengiz bo'yiga borishibdi, dengizdan yana o'sha ovoz eshutilibdi:

— Hoy baliqchi, borib podshoga ayt, mening qo'zichoq ukamni o'ldirmasin!

Ertasi kuni podsho mamlakatdagi barcha baliqchilarni to'plashga buyruq beribdi. Mamlakatning hamma baliqchilari to'planib, dengizga o'z to'rlarini tashlashibdi va o'sha oq baliqni tutib olishibdi. Baliqni qirg'oqqa chiqarib qornini yorishgan ekan, ichidan podshoning xotini chiqibdi.

Qo'zichoq opasini ko'rishi bilan uning quchog'iga tashlanibdi. Shu zahoti odamga aylanib qolibdi.

Podsho yalmog'iz kampir bilan qizini xachirning dumiga bog'lab, tog'-u toshlarga haydab yuborishga buyruq beribdi. Ular tosh-tikanlarga ilinib, go'shtlari bir parchadan, mayda-mayda bo'lib ketsin, debdi.

Xotinini esa saroyga olib ketibdi.

Shunday qilib, ular o'z baxtini topibdilar. Siz ham murod-maqsadigingizga yeting.

HURI-PARI QUSHI

Bor ekan, yo‘q ekan, bir podsho o‘tgan ekan. Uning uch o‘g‘li bor ekan. Kunlardan bir kuni podshoning ko‘zi ko‘r bo‘lib qolibdi. Tabib-u parixonlar davolamoqchi bo‘lib ko‘p urinishibdi, ammo foyda bermabdi. Shundan so‘ng podsho to‘ng‘ich o‘g‘lini chaqirib:

– Bor, o‘g‘lim, safarga otlan, ko‘zinga bir dori topib kel, – debdi.

– Ey, ota, dorini qayerdan topaman?

– Sen shunday bir mamlakatga borginki, uning tuprog‘iga bironta ot qadam bosmagan bo‘lsin. Ana o‘sha mamlakatning, hatto tuprog‘i ham menga shifo bo‘ladi.

To‘ng‘ich o‘g‘il otga minibdi-da, yo‘lga chiqibdi.

Yigit olti oy tinmay yo‘l yuribdi, nihoyat bir sahroga yetibdi. Qarasa, bir buloqdan suv oqib yotganmish, buloq boshida esa qurigan daraxt o‘sib turganmish.

– Ajabo, – debdi o‘zicha shahzoda, – daraxt suv bo‘yida-yu, qurib qolibdi. Biroz orom olgani soya ham yo‘q.

U daraxtga burkasini ilib, uning soyasida uyquga ketibdi.

Bir vaqt uyg‘onib tepasiga qarasa, daraxt barg chiqarib, ko‘karib qolganmish, shoxlarida katta-katta olmalar osilib turgan emish.

Shahzoda olmalar bilan xurjunini to‘ldiribdi, buloq suvidan ham olibdi-da, o‘ziga: «Olmani otamga olib boraman, zora unga shifo bo‘lsa, bu yerlarga hech kim qadam bosmagan bo‘lsa kerak», deb orqaga qaytibdi.

Shahzoda qaytib kelganini podshoga xabar qilgan-

larida u bir uh tortib: «Kelganidan nima foyda, quruq borib, quruq qaytib keldi», debdi o'zicha.

O'g'li huzuriga kirganda, podsho undan so'rabdi:

— O'g'lim, qayergacha bording?

— Ota, men hech qachon odamzod qadam bosmagan joyga borib qaytdim.

— Qayerda bo'lding?

— Ko'p yo'l yurib, axiri bir buloqqa yetdim...

— E, bo'ldi-bo'ldi, bilaman, — deb shahzodaning gapini bo'libdi otasi, — u yerda bir qurib qolgan daraxt bor, sen uning ostida uxlagansan, uyg'onib qara-ganingda daraxt barg chiqargan, olmalar pishib, osilib turgan, shundaymi?

— Ha, ota, xuddi shunday.

— Men yoshligimda erta bilan jo'nardim-da, u yerda choy ichib, kechqurun qaytardim.

Podsho o'rtancha o'g'lini chaqirib, safarga otlanishni buyuribdi.

— Ota, akam hech narsa topolmay quruq qaytibdi-yu, menga yo'l bo'lsin! — debdi.

— Yo'q, albatta sen borishing kerak! — debdi otasi cho'rt kesib.

O'rtancha o'g'il otga minibdi-da, oziq-ovqat olib, yo'lga ravona bo'libdi. Oradan olti oy chamasi o'tgach, o'sha akasi borgan buloqqa yetibdi. Shundan so'ng yana uch oy yo'l yuribdi-da, bir tepalikka yetib boribdi. Tepalik olmos va boshqa qimmatbaho toshlar bilan qoplangan emish.

«Bu yerga chindan ham odam qadami yetmagan bo'lsa kerak», deb shahzoda xurjunining ikki ko'zini asl toshlar bilan to'ldirib saroyga qaytibdi.

— Ota, — debdi shahzoda, — men shunday bir mamlakatda bo'ldimki, u yerga na o'zingiz, na ota-bobolaringiz borgansizlar. Yurib-yurib, bir tepalikka yetdim...

— O'sha yerdan menga dur-inju, zumrad va olmos keltirding-a, shundaymi, o'g'lim? — debdi podsho o'g'lining gapini kesib. — Qani, xurjuningni olib kel!

Xizmatkorlar xujrunni olib kelishibdi. Ochib qarashsa, xurjun to'la shisha sinig'i emish.

— Bor, o'g'lim, ukangni chaqirib yubor.

— Qani endi sen yo'lga o'tlan, — debdi podsho kenja o'g'liga.

— Otajon, men hali yoshman, hech qayerni ko'rganim yo'q, ko'zingizga dorini qanday topa olaman?

Shahzoda boshi qotib tashqariga chiqibdi-da, saroydagi hovuz labiga kelib yonboshlabdi, ko'p o'tmay g'aflat bosib, uxlab qolibdi. Bir tush ko'ribdi. Tushida kimdir: «Sen nega bu yerda uxlab yotibsan?» — deb so'rabdi. Shahzoda bo'lsa: «Otam meni ko'ziga dori topib kelishga yuboryapti, men esa qaysi tomonga yo'l olishni bilmayapman», deb javob beribdi. «E, hechqisi yo'q, borib otangga: «Qo'lingizdagi uzugingiz, belingizdagi qilichingiz va otingizni bering, men o'shanda nima kerak bo'lsa topib kelaman degin», — debdi o'sha tushidagi kimsa.

Shu payt shahzoda uyg'onibdi-da, yugurib otasi-ning oldiga kiribdi:

— Otajon, menga otingizni, uzugingizni va qilichingizni bering, xohlagan narsangizni topib kelaman! — debdi.

Podsho benihoya xursand bo'libdi-da, o'g'lini bag'riga bosib o'pibdi:

— Botir o'g'lonim, topib kelishingga ishonaman!

Ertasi kun erta bilan podsho kenja o'g'liga uzugi va qilichini beribdi, otini egarlashni buyuribdi. Shundan so'ng shahzoda yo'lga tushibdi. Tush payti buloqqa yetibdi, suv bo'yida tamaddi qilibdi-da, yana yo'lga ravona bo'libdi. Kechga yaqin tepalikdan o'tib ketibdi.

Shahzoda yo'lda ketayotib uzoqda ikki quyoshni ko'ribdi, biri osmonda, biri yerda emish.

«Ajabo, qanday mamlakatga kelib qoldim?» deb hayron bo'libdi, keyin quyoshning yaqiniga borsa, yerda bir dona pat yaltirab yotgan emish.

Shahzoda otdan tushib, patni olibdi-yu, telpagiga qadabdi.

Shu payt ot tilga kirib:

— Patni tashla! — debdi.

— Nima uchun?

— U boshingga ko'p kulfat soladi.

— E, bekor gap, shunday kichkina pat-a? Uning bergan zarari nima bo'lardi?

Ot shu gapini uch marta takrorlabdi, ammo shahzoda unga quloq solmabdi va yana yo'lga tushibdi. Nihojat bir podsholikka yetibdi.

O'sha mamlakat podshosiga, qandaydir bir yigitcha ketyapti-yu, telpagida bir narsa quyoshdek yonib turibdi, deb xabar qilishibdi.

— Uni olib kelinglar! — buyuribdi podsho.

Shahzoda kelgandan so'ng undan so'rabdi:

— Sen kimsan?

— Men bir musofir sayyohman, mamlakatingizni ko'rgani keldim.

— Telpagingda quyoshdek yarqirab turgan nima?

– Bu bir pat, yoʻldan topib oldim.

– Menga ber, boʻlmasa... – Shahzoda patni olib podshoga beribdi. Podsho xursand boʻlganidan naq aqlidan ozay debdi.

– Rahmat senga, yigitcha, endi ketaver, – debdi podsho va patni devorga sanchib qoʻyibdi.

Shu kundan boshlab podsho faqat patni tomosha qilib oʻtiradigan boʻlib qolibdi. «Vaqtim yoʻq» deb, hech kimni qabul qilmay qoʻyibdi.

Kunlardan bir kun bir kampir joʻjasini oʻgʻirlatibdi-yu, podshoga arzga kelibdi.

– Bor joʻna, kampir, vaqtim yoʻq hozir!

Shunda kampir:

– Bir patni koʻrib, shunchalik es-hushingdan ket-sang, oʻsha patni yoʻqotgan qushni koʻrganingda nima qilasan? – debdi.

Podsho yalt etib kampirga qarabdi:

– Voy, buvijon, oʻsha qushni topib kelishga kim yordam beradi?

– Patni kim topgan boʻlsa, qushni ham oʻsha topadi-da, bolam!

Podsho musofir-shahzodani chaqirtirib kelibdi-da, unga:

– Shu patni yoʻqotgan qushni topib kelish uchun joʻnaysan, – debdi.

– Podshohi olam, men u qushni qayerdan topaman, axir men musofir boʻlsam, bu yerlarga birinchi keli-shim boʻlsa, – debdi.

– Bor, joʻna, – debdi podsho, – agar qushni topib kelmasang, kallangni olaman!

Shahzoda g'am-alamga to'lib, ko'ziga jiq yosh olib, otining yoniga kelibdi.

— Ajab bo'ldi, patni olma, yomon bo'ladi, deb ayt-mabmidim. Gapimga quloq solmading! Hali bunisi hol-va, shoshma, ko'p falokatlarga uchraysan.

— Ey jonivor, otginam, yordam ber, shu balodan qutqar meni!

— Mayli, xafa bo'lma, yotib uxla.

Ammo shahzodaning uyqusi qochibdi. Ertasi tong yorishishi bilan otiga minib yo'lga chiqibdi.

— Qaysi tomonga qarab yo'l olaylik, otginam?

— Jilovimni qo'yib yuboraver, qaysi tomonga qarab yurishni o'zim bilaman.

Shahzoda ko'p yo'l bosibdi, nihoyat uzoqda bir o'rmon ko'rinibdi. Ot shahzodadan:

— O'rmondagi chinorni ko'ryapsanmi? — deb so'-rabdi.

— Ha, ko'rib turibman.

— Chinor ostida marmar hovuz bor. Hovuz yonidan bir chuqur qazigin-da, o'shanga tushib, yashirib yot. Har juma kuni hovuzga Huri-Pari qushi kelib cho'miladi. Bugun juma, qush kelib patlarini tashlaydi-da, hovuz labiga qo'yib, o'zi suvga tushadi. Patini yana ustiga kiyayotganida tegma, patini kiyib qanotlarini qoqqanida borib mahkam oyoqlaridan ushlab ol.

Xuddi ot aytganidek bo'libdi. Qush uchib kelib cho'milibdi, keyin shahzoda uni tutib olibdi.

— Hoy, yigitcha, meni qo'yib yubor, bo'lmasa yomon bo'ladi, — debdi qush.

— Ey jonivor qush, — deb javob beribdi shahzoda, — agar seni qo'yib yuborsam, podsho kallamni oladi.



— O‘zing bilasan, ammo keyin pushaymon qilma!
Shahzoda qushni olib otiga minibdi-da, podsho saroyiga jo‘nabdi.

Podsho qushni qafasga solib, deraza ustiga osib qo‘yibdi. Qush esa hech sayramabdi, podsho ko‘p xafa bo‘libdi, qushdan hadeb sayrashini talab qilaveribdi.

Nihoyat kunlardan bir kun qush tilga kirib:

— Men qush emas, go‘zal bir qizman, olamda mendan sohibjamol qiz yo‘q. Agar mening istagan narsamni topa olsang men patimni tashlayman, senga xotin bo‘laman, shunda hammaning senga havasi keladi, — debdi.

— Ey aziz qushim, tila tilagingni!

— Tilagim shuki, bu yerga mening kanizagimni keltirishsin. U Qora va Oq dengiz o‘rtasida Qizil devning makonida yashaydi. Agar uni olib kelishsa, men senga xotin bo‘laman.

— Uni kim olib kela oladi?

— Meni kim olib kelgan bo‘lsa, kanizagimni ham o‘sha olib keladi-da.

Podsho yana shahzodaga odam yuboribdi. U saroyga ma‘yus kirib kelibdi-da, podshoga ta‘zim qilibdi.

— Sen, — debdi podsho, — hozir jo‘naysan-u, Qora va Oq dengiz o‘rtasida, Qizil dev makonida turadigan bir qizni olib kelasan.

— Podshohi olam, — debdi shahzoda, — men bu ishni qanday uddalayman?

— Agar bajo etmasang, kallangni olaman!
Shahzoda xo‘rligi kelib yig‘labdi.

— Nimaga yig‘layapsan, — deb so‘rabdi ot.

— Ey mehribon otginam, men yig‘lamay kim yig‘lasin. Podsho Qora dengiz bilan Oq dengiz o‘rtasida, Qizil dev qo‘lida yashovchi bir qizni olib kelishni talab qilyapti.

— Mayli, xafa bo‘lma, hozir yotib uxla.

Bu kecha shahzoda birozgina uxlabdi-da, tong-saharda turib, otga minibdi:

— Endi qaysi tomonga jo‘naymiz, otginam?

— Jilovimni qo‘yib yubor, men o‘zim bilaman yo‘lni. Bir dengiz qirg‘og‘iga yetganda ot yana:

— Bu Qora dengiz. Sen undan qanday o‘tishni bilasanmi? — debdi.

— Yo‘q, otginam, bilmayman.

— Bo‘lmasa quloq sol. Belingdagi otangning qilichi yashindan yasalgan. Qilichni qinidan chiqarib, sopini peshonangga, uchini esa dengizga qaratib ko‘tarasan. Ko‘z oldingda bir yo‘l paydo bo‘ladi. Dengizning narigi sohiliga yetganingda bir g‘or ko‘rinadi, uning ustidan ilondek ingichka tutun chiqib turadi. G‘orning eshigi oldida turib: «Hoy dev, chiq bu yoqqa, kuch sinashamiz!» deysan. U bo‘lsa senga: «Avval g‘orga kir, biroz tamaddi qilib olaylik», — deydi. Sen g‘orga kirma. Agar sen uch marta: «Qani dev, chiq» desang u chiqadi. Shunda qilich bilan bir ursang, devning kalasi uzilib tushadi-yu, yerga kirib ketadi. Sen g‘orga kirib qizni olib chiqasan-da, otga mindirib olasan. Yana qilich uchini dengizga qaratib ko‘tarsang, yo‘l paydo bo‘ladi. Undan o‘tamiz, qizni podshoga yetkazamiz.

Shahzoda xuddi ot aytganini qilibdi, qizni podshoga olib kelibdi.

Podsho qushga qarab debdi:

— Azizim, mana sen istagan qiz, endi patlaringni tashla.

— Agar patlarimni tashlasam, — deb javob beribdi qush, — sen xursandlikdan yuraging yorilib o'lasan.

— Bo'lmasa nima qilay? — deb so'rabdi podsho.

— Buning yo'li oson. Qizil dengizda qirqta biya yashaydi. Ularni ushlab kelasan-da, sog'ib sutiga cho'milasan. Shunda sen ham Huri-Pariga aylanasan. Ana shundan so'ng birga yashayveramiz. Bolalarimiz ham Huri-Pari bo'lishadi.

— Biyalarni kim olib keladi?

— Meni va kanizagimni kim olib kelgan bo'lsa, biyalarni ham o'sha keltiradi-da!

Podsho yana shahzodaga odam yuboribdi.

— Qizil dengizga borib, qirq biyani olib kelasan!


Shahzoda «yo'q» demoqchi bo'lib gap boshlagan ekan, podsho, kallangni olaman deb po'pisa qilibdi.

Shahzoda xunibiyron yig'lab, otining oldiga qaytibdi. Ot unga qarab:

— Mayli, xafa bo'lma. Senga-ku, hech narsa, bu safar menga qiyin bo'ladi. Borib podshoga ayt, dengiz bo'yiga qirq toy jun, qirq toy kigiz va qirq toy charm yuborsin.

Shahzoda bu gapni podshoga aytibdi. Ertasi kuni podsho Qizil dengiz bo'yiga jun, kigiz va charm yuborishga farmon beribdi. Ularning ketidan shahzoda ham jo'nabdi. Yo'lda ot shahzodaga shunday deb o'rgatibdi:

— Dengizda, shahzoda, qirqta emas, o'ttiz to'qqizta biya bor. Ulardan biri mening onam, qolganlari opalarim. Men onamning yolg'iz-yagona o'g'li edim, bir kun onam bilan xafalashib qoldim-u, otangning qo'liga



tushdim. Shundan beri oradan o'ttiz yil o'tdi. O'shanda onam, qo'limga tushsang go'shtingni burda-burda qilaman, degan edi. Dengiz labiga yetganimizda men yerga yotaman. Sen ustimga avval junni yopasan, ustiga kigizlarni tashlaysan, uning ustiga charm yopasan. Shundan so'ng men asta kishnayman, dengizda qattiq to'fon ko'tariladi, ammo sen qo'rqma. Ko'p o'tmay onam va opalarim paydo bo'ladi. Onam mening oldimga chopib keladi, opalarim bo'lsa yig'i-sig'i boshlaydi. Onam ustimdan charmlarni olib tashlaydi — sen indamay turaver, so'ngra kigizlarni olib tashlaydi — unda ham jim tur. Ustimdagi junning yarmini olib tashlaganda onam charchaydi-da, bir uzanadi. Ana shunda sen yugurib borasan-u, uzangiga oyog'ingni qo'yib sakrab minib olasan. Ammo hushyor bo'l, mahkam o'tirib ol, onamning g'azabi kelib, seni osmon-u falakka ko'taradi, sen esa qornining ostiga o'tib ol. Keyin u o'zini yerga tashlaydi, sen yana ustiga minib ol. Egariga o'tirib olganingdan so'ng uni yaxshilab qamchila. Shundan so'ng unga: «Men sening xo'jayiningman», deysan. Ana shundagina u senga bo'ysunadi va aytgan tomoningga yuradi. Uning ketidan opalarim ham boradi.

Shahzoda ot aytganlarini qilibdi, biyalarni podsho saroyiga keltiribdi.

— Biyalarni sog'dirib, sutga cho'milib kel, — debdi qush podshoga.

— Ularni kim sog'adi?

— Albatta, ushlab kelgan odam sog'adi-da.

Podsho yana shahzodani chaqirtiribdi. Ot shahzodaga debdi:

— Shahzoda, meni birga olib ket. Biyalarni sog'a boshlashdan avval uzugingni ipga bog'la-da, qozonga solib qo'y. Shundan so'ng biyalarni birma-bir olib kelib sog'aver. Keyin sutga cho'milgin-u, uzugingni olib yana barmog'ingga taqib ol va podshoga odam yubor. Podsho kelganda: «Mana, hamma narsa tayyor», deysan. Sut qozonda qaynaydi, podsho esa unga tushib kuyib o'ladi. Shundan so'ng podsho kiyimini kiyib, uning taxtiga o'tirasan.

Shahzoda xuddi ot aytganday qilibdi. Podshoning o'lgani shu zahoti qushga ayon bo'libdi. U ustidagi patlarini tashlab, go'zal qizga aylanibdi.

— Bu ishlarni faqat sening uchun qildim. Endi sen podsho, men esa malikaman.

Xaloyiq bo'lsa saroyda ro'y bergan voqeadan bexabar ekan.

Oradan bir necha oy o'tgach, shahzoda otasini eslab, ko'ziga yosh olibdi.

— Nimaga yig'layapsan, uyat emasmi? O'zing podsho bo'lsang, mendek go'zal xotining bo'lsa, yana yig'lasang-a!

— Oh malika, ko'zi ojiz bechora otam esimga tushib qoldi. U meni doriga yuborgan edi, men esa podsho bo'lib, taxtga o'tirib oldim-u, uning o'lik-tirikligidan xabar olmadim.

Shunda malika qah-qah urib kulib yuboribdi:

— Otang meni muttasil o'n yil quvlab, ushlay olmay, ko'r bo'lib qolgan. Men uni ko'rishim bilan barmog'imni biroz tilaman-da, qonimni ko'ziga surtaman. Shu zahoti uning ko'zi ochiladi. Qani hozirlik ko'r, otangning oldiga jo'naymiz.

Shahzoda mamlakat xalqini to'plab, katta ziyofat beribdi va xalqqa qarab:

— Endi boshqa podsho saylab olinglar. Men ketyapman, ehtimol butunlay qaytib kelmasman, — debdi.

Xalq mamlakatga boshqa podsho saylabdi. Shahzoda esa xotini bilan oddiy kiyimlarni kiyib, oziq-ovqat olib, o'ttiz to'qqiz biyani yetaklab yo'lga chiqibdi.

Shahzoda katta biyani minibdi, malika esa shahzodaning otini minibdi.

Otasining mamlakatiga yetib borgandan so'ng shahzoda yo'lda ro'para kelgan bir cho'ponga:

— Bor, podshodan o'g'lingiz keldi deb suyunchi ol, — debdi.

Cho'pon podshoga bu xabarni yetkazganda u so'rabdi:

— O'g'lim bilan yana kim bor?

— O'ttiz to'qqizta biya-yu, bir oyjamol qiz bor.

— Xudoga shukur! — debdi podsho va cho'ponga bir xalta tilla beribdi.

Shahzoda saroyga kirib kelibdi, otasi uni bag'riga bosib o'pibdi. Shahzodaning xotini barmog'ini andak tilib, qonini podshoning ko'ziga surtgan ekan, shu zahoti podshoning ko'zi yarq etib ochilibdi. U go'zal qizni peshonasidan o'pibdi-da, boshidagi tojini o'g'liga kiydiribdi.

— Endi sen podsho bo'lishing kerak!

Shunday qilib shahzoda podsho bo'libdi.

DIJIKO


Dijiko kambag'al va baxtsiz ekan. Uning bor boyligi ikkita echki-yu bitta sog'in sigirdan iborat ekan. Dijikoning xotini juda zahar ayol ekan. U hadeganda erining joniga tegib:

— Boshqa yurtlarga borib pul topgin, — deyaverar ekan, — menga pul, kiyim keltirib ber. Buqa, qo'y, otlar sotib ol.

Kunlarning birida Dijiko: «Shu xotindan qutulish uchunoq ketay», — deb o'rnidan turibdi-da, tayog'ini qo'lga olib, sigirini haydab uydan chiqib ketibdi. Xotiniga xuddi shu kerak ekan. Yo'lda sigirini sog'ib sutini ichibdi. Charchagan paytlarida tayog'ini yelkasi-ga olib sigirga minar ekan-da, qo'rqqanidan dag'-dag' titrab boraverar ekan. Lekin, sho'rlikning boshqa iloji ham yo'q ekan-da: xotinining dag'dag'asini eshitgandan ko'ra yovuz odamlar yoki yirtqich hayvonlarga yemish bo'lishni afzal ko'ribdi.


Kunlarning birida sigir yaqin-atrofda o'tlab yurgan, Dijiko esa uxlab yotgan ekan. Uning yuziga pashsha qo'nibdi. Dijiko uyqusirab xotinini so'kibdi va qo'lini bir siltagan ekan, bir necha pashshani tutib olibdi-da, jahl bilan ularni ezib tashlabdi. Keyin bunday sanab ko'rsa, bir harakat bilan yettita pashshani o'ldirganmish. U dadillashibdi. Dijiko yana yo'lga tushib, kechga yaqin bir qishloqqa kirib boribdi.

Bu yerdagi bir darveshga iltimos qilib: «Men — Dijiko bir urishda yettitasini bejon qilganman» deb yozdirib olibdi-da, shu qog'ozni sigirning shoxlari orasiga ilib qo'yibdi.



U yo'lida davom etib, bir tomonida baland qo'rg'on qad ko'targan yaylovga yetibdi. Shu yerda u yotib uxlabdi. Qal'ada yetti aka-uka xizmat qilishar ekan. Ulardan biri bu yaylovga jur'at qilib kelgan odam kim ekan deb, o'sha tomonga ot choptirib ketibdi. Lekin sigir shoxlari orasiga ilib qo'yilgan xatni o'qib, o'ziga-o'zi:


— Bu odam bir qo'li bilan yettitasini bejon qilibdi. U shunday dovyurak bo'lmaganda, bizning joylarga qadam qo'ymasdi, bu yerda bemalol uxlab yotmasdi. Haqiqatan ham u pahlavon ekan: qurolsiz, yakka-yolg'iz, otsiz yuribdi! — debdi.



Yigit orqasiga qaytib boribdi-da, aka-ukalariga ko'rganlarini gapirib beribdi. Shunda ularning hammalari Dijikoni ko'rgani kelishibdi. Ularni ko'rgan sigir cho'chib ketib, dikirlab sakrab mo'rab yuboribdi. Sigirning mo'rashidan uyg'onib ketgan Dijiko, aka-ukalarga ko'zi tushibdi-yu, dag'-dag' titray boshlabdi. Aka-ukalar bo'lsa, u hozir bir urishdayoq bizni kunpayakun qilib yuborsa kerak, deb o'ylashib, unga yalinib-yolvorishibdi. Ular yetti og'a-ini ekanlari, mardlikda dong taratganlari, bordi-yu, u rozi bo'lib, bularga boshchilik qilgudek bo'lsa boshlari ko'kka yetishini, uning xizmatida bo'lishlarini, butun mol-mulkларini unga topshirishga rozi ekanliklarini aytishibdi. Dijiko o'zini bosib olib:

— Mayli, sizlar aytgancha bo'la qolsin, — debdi.

Aka-ukalar uni uylariga olib borishibdi-da, hurmatini bajo keltirib uyning to'riga o'tqazishibdi. Yigitni yaxshilab mehmon qilib, yettovlon qo'llarini qo-



vushtirib, uning har bir istagini ado etishga tayyor turishibdi. Dijiko xayolga cho'mib, aka-ukalar yana aslida qandayligimni sezib, ta'zirimni bermaslari-dan, biror chorasini topish kerak, deb o'ylabdi. Aka-ukalar esa, o'z navbatida: «Ajabo, u juda qalbi pok odam ekan, hatto bizga tik qarab biron so'z ham aytmayapti», degan xayolga borishibdi. Aka-ukalar uning e'tiborini tortib, o'tirishga ijozat olish niyatida yo'talishibdi. Ular joylashib olishgandan keyin, biroz dadillanib so'rashibdi:

— Og'a, qurolingiz, otingiz, xizmatkorlaringiz qayerda? Agar ijozat bersangiz, borib bu yerga olib keldik.

— Qurol bilan ot qo'rqoqlarda bo'ladi. Men juda katta janglardagina ulardan foydalanaman. Xizmatkorlarga kelganda, ularning menga nima keragi bor? Butun dunyo menga xizmat qiladi. Ko'rib turibsizlarki, men bitta to'qmoq bilan sigir haydab, shu joylarga yetib keldim. Mening ismim Dijiko, bir urishda yetti-tasini bejon qilaman.

Kunlar o'tishi bilan aka-ukalar Dijikoning ishlari-dan hayratlanishib, nihoyat yakka-yu yagona go'zal singillarini unga nikohlab berishga qaror qilishibdi. Dijiko, albatta unga munosib emasligini bilsa ham, bo'lak chora topolmay:

— Mayli, sizlar aytgancha bo'la qolsin, sizlarga bo'lgan hurmat-e'tiborim tufayli roziman, — debdi.

Dijikoning to'kin-sochin o'tgan nikoh to'yi haqidagi xabar har tomonga tarqalgach, allaqachonlardan

beri qizni olish niyatida bo'lib, rad javobini olgan to'rt poshsho¹ aka-ukalar urush e'lon qilishibdi.

Dijiko qo'rqqanidan oyog'i titrar, sichqonni ini ming tanga bo'lib, qochib ketishni o'ylar, lekin qochishining iloji yo'q ekan. Shunday qilib, u qochib ketishni o'ylab turganda aka-ukalar uning yoniga kelib:

— Dushmanlar yaqinlashib kelishyapti. Nima deysiz: avval biz kurashib ko'raylikmi yoki o'zingiz kurasha-verasizmi? — deyishibdi.

Qo'rqqanidan Dijikoning tishlari shaqillab ketibdi, lekin aka-ukalarga u tishini g'ijirlatgandek tuyulibdi. Uning juda jahli chiqqandek, dushmanni bir hamlada-yoq yo'q qilib yuboradigandek tuyulibdi.

— Avval sizlar kuch sinashib ko'ringlar! — debdi u.

Yetti aka-ukaning mardligi atrofga yoyilgan ekan. Dushmanlar ulardan qo'rqarkan. Endi aka-ukalarning bir urganda yettitasini bejon qiladigan kuyovlari ham borligini bilishib, battarroq vahimaga tushishibdi. Lekin jang paytida dushmanlarning ustun kelayotganini sezib, aka-ukalar eng yaxshi saman otni minib, eng yaxshi qurolni olib, Dijiko yordamga kelsin deb odam yuborishibdi.

Dijiko qotib qolibdi: «Kel, o'lsam, dushman qo'lida o'lib qo'ya qolay, sharmandalikdan qutulaman» deb o'ylabdi u.

Dijiko mingan ot xo'jayinining tajribasizligini sezib, yuganni qattiq tortayotganiga qaramay, o'qdek uchib ketaveribdi. Chetdan qaraganda go'yo aka-uka-

¹ *Poshsho* — turk saltanatida generallar, a'yonlarning oliy unvoni va shu unvonga sazovor bo'lgan kishi.

larga yordam bergani shoshilayotganga o'xsharkan. Aka-ukalar yonida uning paydo bo'lishi dushmanni esankiratib qo'yibdi. Dijikoning yuragi qo'rqqanidan, naq tariqdek bo'lib qolibdi. Uning omadi kelib, chirib yotgan bir daraxtning butog'iga ilinib qolgan ekan, daraxt yiqilib, ot esa uning ostidan sirg'alib chiqib ketibdi. Dijiko yerga yiqilgan paytda chetdan qaraganda, xuddi u daraxtni ildiz-pildizi bilan sug'urib olgandek tuyulibdi. Buni ko'rgan dushman, bir qo'li bilan daraxtni tag-tomiri bilan sug'urib olgan bahodirni yengib bo'lmasa kerak, degan qarorga kelib, qocha boshlabdi.


Aka-ukalar chopgancha Dijikoning yoniga borib qahramonning oyoqlariga yiqilib, katta hurmat va ehtirom bilan uyga olib borishibdi.

Dushmanlar Dijiko bizga qasd bo'lib qolmasmikin, degan xayolga borishibdi. Poshsholar mingtalab qo'y, o'nlab yilqilar va boshqa ko'plab sovg'alar olishib, Dijikoning huzuriga borishibdi-yu, uning qaroli bo'lishga va'da berishibdi.

UCH OG'A-INI


Bir podsho bo'lgan ekan. Uning mamlakatida esi past ayol yashagan ekan. Ayolning uch o'g'li bor ekan: biri dehqon, biri bog'bon, yana biri esa to'quvchi ekan.

O'sha mamlakatda shunday dahshatli ocharchilik bo'libdiki, bunday ocharchilikni, bunday baxtsizlikni olam olam bo'lganidan beri ko'rmagan ekan. Bunday kulfatni odam, hatto dushmaniga ham ravo ko'rmas ekan.



Xalq bir burda non uchun bir-birini g‘ajib tashlashga tayyor ekan. Kunlardan bir kun podshoning tuyasi adashib qolibdi. Tuyani esi past xotinning o‘g‘illari ko‘rib qolishibdi. Fursatni boy bermay tuyani uyga haydab kelishibdi. Ular onasining esi pastligini va u tuyani ko‘rib, podshoning oldiga yugurib borib hammasini aytib qo‘yishini juda yaxshi bilisharkan. Shuning uchun ular onasiga kelinchak liboslarini kiydiribdilar, yuzini oq harir ro‘mol bilan berkitibdilar-da, o‘zlarining urf-odatlarini bo‘yicha uni bir burchakka oborib qo‘yishibdi.

— Onajon, — deyishibdi ular, — siz yana yangitdan kelin bo‘lasiz. Bu tuyani esa sizning to‘yingizga boq-yapmiz. Mehmonlar kelishsa uni so‘yib ziyofat qilamiz.



Aka-ukalar tuyani so‘yishib, terisini shilishibdi. Go‘shetni qovurib xurmachalarga, ko‘zachalarga solib, hech kim ko‘rmaydigan joyga berkitishibdi. Chunki podshoning odamlari bilib qolsa ularni uzoq o‘lkalarga badarg‘a qilishini aka-ukalar juda yaxshi bilishar ekan. Mo‘ljallangan ishni bajarib bo‘lishgandan keyin aka-ukalarning har biri o‘z ishi bilan ovora bo‘lib ketibdi.

Podsho bu paytda odamlariga yo‘qolgan tuyani topib kelinglar, deb buyuribdi. Podshoning xizmatkorlari to‘rt tomonga tuyani qidirib ketibdilar. Bormagan eshiklari, kirmagan teshiklari qolmabdi. Biroq tuyani hech qayerdan topa olmabdilar. Nihoyat xizmatkorlar esi past ayolning o‘g‘illaridan so‘rashga qaror qilishibdi. Boshlab ular dalaga, dehqon o‘g‘ilning oldiga borishibdi.

— Ey, uka, — debdi podshoning xizmatkori, — mabodo bir tuyaga ko'zing tushmadimi?

— Ko'rmayapsizlarmi, axir, men yer haydayapman, — deb javob qilibdi katta o'g'il o'zini ovsarlikka solib.

— Biz sendan tuyaga ko'zing tushmadimi, deb so'rayapmiz. Sen bo'lsang yer haydayapman deysan. Ko'rib turibmiz yer haydayotganingni. Xo'sh, tuyani ko'rdingmi, ko'rmadingmi?

— Bu omadga bog'liq. Bir xil payt ko'p haydaysan, boshqa payt oz haydaysan.

— E, biz sendan qiyshiq bo'yin, ikki quloqli, to'rt oyoqli tuyani ko'rmadingmi, deb so'rayapmiz?

— Avval haydaymiz, keyin don sepamiz, undan so'ng boronalaymiz, so'ngra sug'oradigan vaqt kelganda unib chiqqan maysalar qurib qolmasligi uchun suv quyamiz...

Bu bilan gaplashib o'tirgandan foyda yo'q, bundan hech narsa chiqmaydi. Undan ko'ra boshqa ukasining oldiga boraylik, balki undan biror gap chiqib qolar, deb xizmatkorlar bog'bon o'g'il tomonga jo'nashibdi.

Ular bog'bon o'g'ilning yoniga borishibdi. Bog'bon o'g'il yong'oqni silkitib, yerga tushganini terayotgan ekan.

— Ukajon, — deyishibdi ular, — podshoning tuyasi yo'qolib qolibdi. Mabodo shunga ko'zing tushmadimi?

— Nima balo, ko'r-po'r emasmisizlar? Ko'rmayapsizlarmi, men yong'oq teryapman! — deb o'rtancha o'g'il ham o'zini ovsarlikka solibdi.

— Biz senga tuya ko'rmadingmi deyapmiz, gap tuya to'g'risida boryapti! Biror narsa bilsang — gapir, bilmasang — xayr.

— Bu, bilasizlarmi, omadga bog‘liq. Bir yil mingta yong‘oqni bir so‘lkavoyga sotaman, boshqa yili esa ikki so‘lkavoyga sotaman. Yildan yilning farqi bor.

— Senga biz tuya deyapmiz! Qulog‘ing karmi?

— Bu yong‘oqzordagi yong‘oqlar hali kichkina. Katta yong‘oq daraxtlari huv anovi yerda o‘sib yotibdi. Yaqinda gal ularga ham keladi. Undan ham terib olamiz.

Podshoning xizmatkorlari bunisi ham kattasidan qolishmaydigan jinni ekan, undan ko‘ra eng kichigining oldiga boraylik-chi, balki u biror narsani bilar, deb yo‘lga ravona bo‘lishibdi.

Ko‘p o‘tmay to‘quvchining yoniga kelishibdi.

— Ukajon, — deyishibdi ular, — podshoning tuyasi yo‘qolib qoldi. Mabodo shunga ko‘zing tushmadimi? Agarda bizga yordam bersang, biz seni xursand qilamiz.

— Ey, ko‘zlaringizni kattaroq ochsangizlar-chi! Sholcha to‘qiyotganimni ko‘rmayapsizlarmi? — deb o‘shqiribdi kichik o‘g‘il ham o‘zini ovsarlikka solib.

— Biz senga tuya ko‘rdingmi deyapmiz. Biz bog‘dan kelsak, sen tog‘dan kelasan.

— Bu omadga bog‘liq. Bir xil kuni kuniga bitta sholcha to‘qiyman, bir xil kun — yarimta ham to‘qiy olmayman. Kundan kunning farqi bor.

— Sen, uka, miyang joyidami o‘zi? Biz senga tuya ko‘rmadingmi deyapmiz, sen bo‘lsang gapni boshqa yoqqa burib yuboryapsan.

— Bir xil paytda bitta sholchaga bir so‘lkavoy berishadi, boshqa payt bir yarim, hatto ikki so‘lkavoy ham berishadi.

Podshoning xizmatkorlari «dod» deb yuboray debdilar: bunisi ham akalaridan qolishmas ekan. Onasi-ning oldiga borib koʻraylik-chi, balki undan biror narsa bilib olarmiz, deb joʻnab qolibdilar.

Ular esi past ayolning oldiga kelishibdi-da, mabodo yoʻqolgan tuyani koʻrmadingmi, deb soʻrashibdi.

— Koʻrdim, — debdi esi past ayol, — qanaqasiga koʻrmayin! Uni oʻgʻillarim soʻyishdi. Goʻshtlarini maydalab qovurishdi. Keyin xurmachalar va koʻzachalarga solib berkitib qoʻyishdi.

— Qachon shunday qilishdi?

— Men kelinchaklik paytimda, oʻshanda nikohga borayotgandim.

Podshoning xizmatkorlari qarashsa, ona oʻgʻillaridan ham oshib tushibdi. Ular hafsalalari pir boʻlib, hech nima qilolmay kelgan yoʻllariga qaytib ketishibdi. Podshoga borib: «Biz tuyani koʻp va xoʻp istadik, lekin uni hech qayerdan topolmadik. Yerdan ham yoʻq, koʻkda ham yoʻq», — deyishibdi.

DANGASA

Bor ekan, yoʻq ekan, bir qishloqda bir dehqon yashagan ekan. Uning bitta oʻgʻli boʻlgan ekan. Oʻgʻli shunchalik dangasa ekanki, oʻtirgan joyidan bir qadam siljish u yoqda tursin, chanqasa hatto suv ichishga ham erinar ekan.

Bir kuni shu dangasa bola uyda oʻtirsan, koʻchadan oʻtib ketayotgan hoʻkiz tuyogʻining ovozi eshitib qolibdi. Kechqurun otasi uyga kelganda:

— Ertalab ho‘kizlarni qayerga haydab ketishadi? — deb so‘rabdi u.

— Dalaga urug‘ sepib, yer haydagani.

— Ertaga meni ho‘kizga mindirib, o‘sha yoqqa olib boring, ularning nima qilayotganini ko‘raman. Lekin aytib qo‘yay, ho‘kizingizni haydamayman.

— Mayli, o‘g‘lim, — debdi otasi, — haydamasang haydamay qo‘ya qol.

Ota o‘g‘lini ertalab ho‘kizga mindirib dalaga boribdi. Choshgohgacha yer haydabdi. Ho‘kiz ustidan tushmagan o‘g‘li bir payt:

— Qornim ochdi, — deb qolibdi.

— Unday bo‘lsa ho‘kizdan tush, u o‘tlasin, men borib ovqat olib kelaman.

— Yo‘q, — debdi o‘g‘li, — tushmayman!

Otasi ovqat olib kelgani ketibdi. Dangasa o‘g‘il u yoq-bu yoqqa qarasa, hech kim ko‘rinmabdi. «Qani, ho‘kizlar menga bo‘ysunarmikin yo yo‘qmi?» deb o‘ylabdi. Shunday xayol bilan ho‘kizlarni niqtab haydabdi.

Ho‘kizlar o‘n qadamcha yurib, shartta to‘xtab qolibdi. Dangasa rosa savalabdi, lekin ular bir qadam ham yurishmabdi. Omoch nimagadir ilinib qolibdi. Dangasa qarasa, hech kim ko‘rinmabdi. Qani ko‘raylik-chi, omoch nimaga ilindiykin, debdi-da, ho‘kizdan tushibdi.

U qo‘li bilan yerni kovlabdi. Kovlasa, ichi tillaga to‘la xum chiqibdi. Eng ustida yana to‘rt bo‘lak yombi yotganmish.

Dangasa topib olgan xazinasini tomosha qilib o‘tirsas, yugurdagi bilan kelayotgan oqsoqolga ko‘zi tushibdi. Shunda u: «Tillalarni otamga bersam, u qo‘y, ech-

ki, sigir sotib oladi. Unda menga tinchlik bo'lmaydi. Yaxshisi, oqsoqolni chaqiraman-da, tillalarni unga beraman» deb o'ylabdi.

— Hoy, oqsoqol, bu yoqqa keling!

Buni eshitib, oqsoqolning yugurdagi:

— Yuring, borib ko'raylik-chi, dangasa bizni nega chaqiryaptiyn, — debdi.

— Qo'ysang-chi, — debdi oqsoqol, — bekor ovora bo'lamiz.

Dangasa yana baqiribdi:

— Hoy, oqsoqol, bu yoqqa keling, kelsangiz-chi!

Oqsoqol uning oldiga kelganda, birdan dangasa: «Nima qilyapman, — deb o'ylanib qolibdi. — Nega men tillalarni hech narsadan hech narsa yo'q unga berarkanman?» Oqsoqol oldiga kelganda dangasa:

— Oqsoqol, siz qishlog'imizda eng aqlli odamsiz, ayting-chi, qora buqa bilan qizil buqa bir-biriga qarindoshmi? — deb so'rabdi.

Oqsoqolning fig'oni chiqib ketibdi-da, dangasaning qulog'i tagiga sharaqlatib tushirib, jo'nab qolibdi.

«Men, — deb o'ylabdi dangasa, — qachon bu tillalarni sanab bo'laman, yaxshisi oqsoqolga bera qolay».

Shunday deb u oqsoqolni yana chaqiribdi.

— Oqsoqol, bu yoqqa keling, kela qoling!

Oqsoqol «bor-e» deb ketayotgan ekan, yugurdagi:

— Yuring, boraylik-chi, bekorga baqirmayotgandir, — debdi.

Ular qaytib kelishibdi, shu payt dangasa: «Qaysi ahmoq qo'lidagi pulini bekordan bekorga birovga beradi?» deb o'ylabdi.

Oqsoqol kelib:

— Nima deysan, badbaxt to'nka, — deb do'q uribdi.

Dangasa esa:

— Siz oqsoqol bo'lsangiz ham, bosh deb qovoqni ko'tarib yurgan ekansiz. Qora buqa bilan qizil buqa amakivachcha bo'ladi-da, — debdi.

Oqsoqolning joni hiqildog'iga kelibdi. Dangasani xumordan chiqquncha do'pposlabdi-da, otiga minib jo'nab qolibdi.

Dangasa qarasa otasi kelayotgan emish, asta ko'z yoshini artibdi.

— Bu yoqqa kel, o'g'lim, yonboshlab ovqatlanamiz, — debdi otasi yetib kelib.

— Bormayman, o'zingiz bu yoqqa keling, — to'ng'illabdi dangasa.

— U yer loy, kela qolsang-chi!

— Mayli, loy bo'lsa ham turgan yerimdan qimirlamayman.

Ota qarasa, dangasa o'g'li turgan joyidan jilmaydigan. U dasturxonni o'g'li o'tirgan joyga yozibdi. Ota-bola ovqatlanishibdi.

— Endi, o'g'lim, tur, yer haydaylik, — debdi otasi tushlik qilib bo'lishgach.

— Bo'pti, — debdi o'g'il, — siz haydayvering.

Hash-pash deguncha kech ham bo'lib qolibdi.

— O'g'lim, tur o'rningdan, qosh qorayib qoldi, uyga ketaylik, — debdi ota o'g'liga.

— Siz ketavering, men shu yerda qolaman.

— Qanaqa odamsan o'zi? Bo'riga yem bo'lmoqchimisan?

– Shohim, men sizga sovg'a olib keldim.

Shunda podsho vaziriga:

– Qani, vazir janoblari, ochib boqing-chi, bu tentak bizga nima olib keldiykin? – debdi.

Vazir tugunni yechsa, ichidan to'rtta sopol bo'lagi chiqibdi.

– Buning nimasi, bizga nima olib kelding? – o'shqiribdi podsho.

– Men ertaga bozorda sabzi sotmoqchiman. Tarozi toshim yo'q. Shuning uchun sopolni bir qadoq, yarim qadoqli qilib belgilab bering, deb olib kelgandim.

Podshoning jon-poni chiqib:

– Buni zindonga tashlanglar! – deb buyuribdi.

Dangasani zindonga tashlashibdi.

«Bu yerda bir gap bor. Birov u bilan hazillashgan. U zindonda nima qilayotganiykin, ko'raylik-chi» deb o'ylabdi o'zicha podsho.

Podsho vazir-u nozirlari bilan zindonga dangasani ko'rgani kelishibdi. Qarashsa, dangasa qo'li bilan bir nimalarni o'lchab, mo'ljallayotganmish.

Podsho:

– Uni mening oldimga keltiringlar! – deb buyuribdi.

Dangasani podsho huzuriga olib kelishibdi.

– Qani, ayt-chi, zindonda qo'llaring bilan nimalarni o'lchab ko'rayotgan eding?

Dangasa «senga sovg'a qilmoqchi bo'layotgan yombilarim mana shunaqa edi», demoqchi bo'libdi-yu, birdan aynib qolibdi.

— Shohimizning umrlari uzoq bo'lsin. Men sizga ham, onangizga ham hayronman. Kallangizning kattaligini qarang. Sizni onangiz qanday qilib tug'ganiga aqlim yetmay turibdi.

— Nimalar deyapsan, ahmoq! — deb baqiribdi podsho, — uni omborga qamab, ustidan o't qo'yib yuboringlar, shunda mening kimligimni biladi.

Dangasani omborga qamab, yoqib yuborishibdi. Uning nafasi qisib, baqiribdi:

— Shohim! — deb baqiribdi dangasa, — Shohim! Meni bu yerdan chiqaring, sizga to'g'risini aytaman.

Dangasaga podshoning rahmi kelib, uni ombordan chiqaribdi.

— Qani, — debdi podsho, — endi to'g'risini ayt-chi!

Dangasa yana o'ylanib qolib:

— Shohimizning umrlari uzoq bo'lsin, men u yerda dimiqib o'lib qolay dedim, minba'd bunday bema'ni ish qilmang, deb aytmoqchi edim, — debdi.

Podsho yana darg'azab bo'libdi. Shunda vazirlar podshoga:

— Bu ahmoq bilan pachakilashib o'tirasizmi? Gunohga botmay, uni saroydan quvib yuboring, — deyishibdi.

Podshoga ham vazirlarining gapi ma'qul bo'libdi.

— Qani, tentak, uyingga jo'nab qol-chi, — debdi podsho.

Dangasa uyiga jo'nabdi. Yo'lda birdan aqli joyiga kelib qolibdi. Uyga kelib, otasiga:

— Otajon, mana anchagina tillamiz bor, keling, uyjoy quraylik, sigir-buzoq olaylik, — debdi.

Otasi o'g'lining aqlli bo'lib qolganini sezib, to'y-tomosha qilib uylantiribdi.

Ular murod-maqсадlariga yetishibdi. Sizlar ham murod-maqсадlaringizga yeting.

Osmondan uchta olma tushibdi: biri ertak aytgan-ga, ikkitasi ertak eshitganga tegibdi.



Ossetin

xalq ertaklari



QASHSHOQ BILAN DEV

I

Yetti tog'ning orqasidagi Qora darada bir kambag'al yashar ekan.

Boshqa tog'liklarning savatlari non ko'pligidan singudek bo'lganda, kambag'alning uyida bir siqim ham don topilmas ekan.

Boshqa tog'liklarning hovlisida echki va qo'chqorlar ma'rab, tovuq-xo'rozlarining hisobiga yetib bo'lmaganda, kambag'al bechoraning hovlisida hammasi bo'lib bir echki, bir xo'roz va bir tovuqqina bo'lguvchi ekan.

Kambag'al bechora o'rmondan olma va yong'oq terib yeb, ariqdan suv ichib kun kechirar ekan.

Echkisi bo'lsa tog'ning toshli qoyalarida onda-sonda uchragan o't-o'lanlarni chimdib yer ekan.

Tovuq bilan xo'roz bechora bo'lsa kun bo'yi tumshuqlari bilan yer kovlab ovqatga chuvalchang yoki qo'ng'iz topishar ekan.

Bir gal qashshoq so'qmoq yo'ldan keta turib, yetti dona no'xat topib olibdi. U juda sevinib ketibdi: «Bu no'xatlarni uy oldiga ekib, har kuni sug'oraman. No'xat pishganda o'zim to'q bo'laman, tovuq, xo'rozni ham no'xat bilan boqaman. Echkiga esa no'xatpoya beraman» deb o'ylabdi.

Qashshoq no'xatlarni kaftida mahkam siqqanicha uyiga jo'nabdi. U eski uy yonidan tayoqcha bilan yet-

tita chuqurcha kovlabdi. Har bir chuqurga bittadan no'xat tashlab, ustiga mayin tuproq solibdi.

Keyin yog'och chelakda buloqdan suv keltirib quyibdi.

Qashshoq bir kun suv quyibdi, ikki kun quyibdi, uch kun quyibdi. To'rtinchi kun bir chelak suv ko'tarib kelib, ko'zlariga ishonmay qolibdi. Qarasa, no'xatpoya o'sib, osmoni falakka yetganmish. Undagi dukkaklar shunchalik ko'pmishki, bir qashshoqnigina emas, yer yuzidagi barcha odamlarni boqishga yetarmish.

Qashshoq juda sevinibdi: «Bir donini ham nobud qilmay, hamma no'xatni terib olaman, qish bo'yi to'q yashayman, tovuq bilan xo'roz ham, echki ham to'q bo'ladi» deb o'ylabdi.

Qashshoq eski chakmonini yechib, xarsang ustiga tashlabdi-da, kamzulda no'xat poyasiga tirmashib chiqib ketibdi. U birin-ketin dukkaklarni terib qo'yniga sola boshlabdi.


Shunday qilib, dukkaklarni tera-tera no'xatpoyadan yuqoriga chiqib ketaveribdi. U tog'lardan va barcha bulutlardan ham yuqoriga ko'tarilganda, qo'lidan bitta dukkak tushib ketibdi. Dukkak bulutlarni yorib o'tib, eski uy yoniga tushibdi.

Uy yoniga no'xat dukkagi tushganini ko'rgan xo'roz bo'ynini cho'zib, qanotlarini yoyib, dukkakka yuguribdi. U dukkakni cho'qib baland ovoz bilan tovuqqa:

— Kudt-kudt-kudt, — debdi.

Xo'roz chaqirayotganini eshitgan tovuq ham yugurib qolib, tovuqlar tilida:

— Qudt-qudt, — deb no'xatni cho'qiy boshlabdi. — Eh, qanday yaxshi bo'ldi, a! Osmondan bizga no'xat dukkagi tushdi, qudt-qudt!



Bu payt echki eski uy yonida, uzun tili bilan ozg'in biqinini yalab yotgan ekan. U xo'roz bilan tovuqning no'xat cho'qiyotganini ko'rib, biqinini yalashdan to'xtabdi: «Ular barcha no'xatni yeb, menga hech narsa qoldirishmaydiganga o'xshaydi. Hozir boramanda, no'xatni tortib olib, to'ygunimcha yeyman» deb o'ylabdi. Shunday qilib, echki bir pishqiribdi, soqolini likillatibdi, keyin xo'roz bilan tovuq oldiga yugurib borib, ularga echkichasiga aytibdi:

— No'xatni menga beringlar-da, o'zlaring yo'qolinglar. Bo'lmasa ishlaring yomon bo'ladi. Ikkalangni suzib o'ldiraman.

Tovuq echkining so'zini eshitib, eski uy tomon qochibdi. Xo'roz bo'lsa, bo'ynini cho'zib, echkiga g'azab bilan qarabdi-da, butun dara eshitadigan qilib qichqiribdi:

— Mendek botir xo'rozga qichqirishga qanday haqqing bor? Bu yerdan ketmayman, no'xatni bermayman.

Echki achchig'lanib xo'rozga:

— Shoshmay tur, bunday qo'pol so'zlaring uchun adabingni berib qo'yaman! —debdi.

U shu ondayoq orqa oyoqlarida tik turibdi-da, bir sakrab, xo'rozning qizil tojisiga shox uribdi.

Xo'rozning tojisidan charsillab uchqun sachrab ketibdi, bir uchqun no'xat poyasiga tushibdi. No'xatpoya yonib, o't yuqoriga ko'tarila boshlabdi. Tutuni esa osmon-u falakka chiqibdi.

Qashshoq no'xatpoyaning eng tepasida o'tirib, dukaklarni terib, qo'yniga solaveribdi. Bir mahal dimog'iga tutun kirib, nafasi qayta boshlabdi.

«Osmon-falakka tutun qayerdan keldi? — deb o‘ylabdi qashshoq. — Umrin bino bo‘lib bulut yonganini eshitmagan edim».

Keyin qashshoq yerga qarasa, xo‘roz devorga qo‘nib olib, qo‘rqqanidan shunday qichqirayotganmishki, ovozi butun daraga yetarmish, tovuq esa burchakka qisilib olganmish. Sersoqol echki qo‘rquvdan anhor yonida titrab turganmish.

O‘t eng yuqoriga yetib qolibdi. Shundagina qashshoq yonayotgan bulut bo‘lmay, balki u ustida turgan no‘xatpoya ekanligini payqab, baland ovoz bilan qichqirib yuboribdi:

— Ey xudo, qaysi gunohlarim uchun men bechoraning boshiga bunday kulfat yubording?!

Shu payt poya sinib, baland tog‘ tepasiga tushgudek har tomonga tebranibdi.

«Kunim bitganga o‘xshaydi» deb o‘ylabdi qashshoq.

Shu vaqt allaqayoqdan burgut uchib kelibdi-da, o‘tkir tirnoqlarini bilan qashshoqni changallaganicha juda yuqoriga ko‘tarib ketibdi.

— Ey odam, seni yeyman, boshingni esa burgutchalarga beraman, — debdi u.

Qashshoq bu gapni eshitgach, burgut panjasida titrab-qaqshabdi, ko‘zini yumganicha bir so‘z aytolmabdi.

Tog‘ burguti quyuq o‘rmonlardan, chuqur qorong‘i jarliklardan, Oq tog‘dan oshib o‘tibdi. U Qora tog‘ ustida uchib ketayotganida birdan devning o‘tkir o‘q-yoyi uning yuragiga sanchilibdi. Qudratli burgut tipirchilab, Qora tog‘ ustiga yiqilibdi, ammo panjasidan qashshoqni chiqarmabdi.

«Men o‘lganga o‘xshayman» deb o‘ylabdi qashshoq.



U boshini ushlab ko'rsa, boshi butunmish, oyog'ini silab ko'rsa, oyog'i bormish. Keyin ko'zlarini ishqalab qarasa, baland tog'da, tog' burguti changalida yotganmish. Bu yerdan hech qachon o'z uyimga yetolmasam kerak, deb o'ylabdi. Keyin tog' burgutiga qarabdi. U dev o'q-yoyi sanchilgancha xarsanglar ustida yotganmish.

Shu payt tog' burguti birdan odamga o'xshab gapiribdi:

— Ey inson, meni o'limdan qutqar, yaxshiligingni unutmayman.

— Seni qutqarishga qurbim yetmaydi, — javob beribdi unga qashshoq. — Bu kulfatdan qanday qutulishni o'zim ham bilmayman.

Shunda tog' burguti yana gapiribdi:

— Agar istasang, hayotimni saqlab qola olasan. Uncha uzoq bo'lmagan yerdagi g'orda bir dev yashaydi. G'orga yetmasdan ajoyib buloq bor, o'sha suvdan keltirib, yaramni yuvsang, yaram tuzaladi-yu, men yana parvoz qilaman.

Qashshoqning tog' burgutiga rahmi kelibdi. U endi burgutdan dev bulog'i qayerda ekanini so'ramoqchi bo'lib turgan ekan, birdan tog' xuddi belanchakdek tebranibdi, qoyalardan xarsanglar uzilib qorong'i jarliklarga dumalabdi, bo'ron ko'tarilib, qashshoqning yonida dahshatli dev paydo bo'libdi. U bir qo'lida tarang tortilgan kamalak, ikkinchi qo'lida po'lat o'q-yoy ushlab turganmish.

Dahshatli dev engashibdi-da, qashshoqni kamzulidan ushlab, ko'zlari oldiga keltiribdi.

— Qalaysan, qo'lga tushdingmi! Seni tog' burgutiga yem bo'lishdan saqladim, endi o'zim yeyman. — Dev

shunday debdi-da, qashshoqqa o'zining chaqchaygan ko'zlari bilan tikilibdi. Uzoq tikilgach, boshini liqilatib shunday debdi:

— Seni hozir yerdim-u, lekin suyaklaring tomog'im-ga qadalib qolishidan qo'rqaman, juda ozg'in ekansan. Yaxshisi, seni g'orimga olib borib boqaman. Semirganingdan so'ng, qovurib yeyman.

Dev shunday debdi-da, qashshoqni chakmonining cho'ntagiga solib, g'orga yo'l olibdi. U yerda qashshoqni tosh taxtaga o'tqazib, yarasini buloq suvi bilan yuvgan ekan, yarasi shu ondayoq tuzalibdi, keyin go'sht, non solingan katta yog'och tog'ora keltirib, qashshoqning oldiga qo'yibdi.

— Non-u go'shtdan xohlaganingcha ye! Tag'in qochib ketishni o'ylama, ishing chatoq bo'ladi.

Keyin dev kamalak va o'q-yoyni olib, ov qilish uchun Oq tog'ga jo'nabdi. Qashshoqni esa g'orda qoldiribdi.

II

Qashshoqning qorni juda och ekan. U ovqatga och bo'ri semiz qo'yga tashlangandek tashlanibdi. Sevinchidan, hatto dahshatli devni ham, tog' burgutini ham unutibdi, atrofiga ham qaramabdi. Qashshoq go'sht bilan nondan xo'p tushiribdi. Shundan keyin tosh taxtadan turib, atrofga nazar tashlabdi-da, hayron qolibdi: «Shuncha yil tog'da yashab bunday g'orni tushimda ham, o'ngimda ham ko'rmagandim» deb o'ylabdi u.

Bu g'or chindan ham yer yuzida yagona ekan. G'or devorlarida qimmatbaho gilamlar osilgan, kumush tokchalarda ipak gazlamalar taxlangan, mis sandiqlarda

limmo-lim oltin va olmoslar turgan emish. G'orning bir burchagida oltin xanjar bilan kamalak va o'tkir o'q-yoylar taxlanib yotganmish, ikkinchi burchakda esa, xum-xum sariyog' hamda bochka-bochka qo'y pishlog'i turganmish. O'rtada esa juda ulkan mis bochkada chuqur ko'l suvidan ham ko'p suv turganmish.

Qashshoq ularni ko'rib, ko'zlariga ishonmabdi, hatto boshiga tushgan baxtsizlikni ham unutibdi.

Qashshoq devorlarga, tokchalarga ko'p qarabdimi, oz qarabdimi, bilmayman, ammo bir vaqt tog' burgutining ovozi eshitilibdi:

— Ey qashshoq, tezroq meni o'limdan qutqar, tezroq!

Qashshoq g'ordan yugurib chiqibdi, buloqdan bir kosa suv olib, kuchining boricha burgut tomonga yuguribdi. U tog' burgutining yuragidagi o'q-yoyni sug'urib olib, yarani buloq suvi bilan yuvibdi. Burgut qanot qoqib osmon-u falakka ko'tarilibdi va u yerdan qashshoqqa qichqiribdi:

— Ey yaxshi inson! Baxtli bo'li! Mana senga bitta patim. Uni saqlab qo'y! Boshingga bir kulfat tushgudek bo'lsa, patni gulxanda yondir. Men qayerda bo'lmay, bir zumda yetib kelib, seni kulfatdan qutqaraman.

Tog' burguti shunday debdi-da, tumshug'i bilan o'ng qanotidan bir patni yulib, qashshoqqa tashlabdi, o'zi esa bulutlar tepasida g'oyib bo'libdi.

Qashshoq burgut patini olib, kamzulining cho'ntagiga bekitibdi. Keyin yana g'orga qaytibdi. U mis kosani kumush tokchaga qo'yib, go'sht va non solingan tog'orani olibdi, yana go'sht bilan non yeya boshlabdi. Shu vaqt burchakdan bir sichqon yugurib chiqibdi.

Sichqon orqa oyog'ida tik turib, odamchasiga gapira boshlabdi:

— Bir oydan beri og'zimga na bir non ushoq va na jindek go'sht olganim yo'q. Yeyishga johil devdan qo'rqaman. Agar qornimni to'ydirsang, umr bo'yi unutmasedim.

Qashshoq sichqonning gapirayotganidan hayron qolib, uning oldiga bir tishlam go'sht bilan ozgina non tashlabdi.

— Mana non, mana go'sht. Qancha xohlasang, shuncha ye!

Sichqon go'sht bilan nonni yeya boshlabdi, qorni to'ygach, panjasi bilan tishi va mo'ylovlarini tozalabdi-da, qashshoqqa:

— Meni ochlik o'limidan saqlaganing evaziga devni yengishda senga yordam beraman, faqat mening so'zimni yaxshilab eshitib, aytganlarimga amal qil, — debdi.

Qashshoq kulib:

— Hoy kichkintoy sichqon, o'zing devdan qo'rqqaningdan uning g'orida na yeyolmasang, na icholmasang-u, qanday qilib menga devni yengishga yordam bera olasan?! — debdi.

Shu vaqt sichqon bir sakrab qashshoqning yelkasiga chiqibdi-da, uning qulog'iga pichirlay boshlabdi:

— Ey yaxshi inson, kulma, qanday qilib yordam berganimni o'zing ko'rasan, — debdi.

— Yaxshi, — debdi qashshoq muruvvatli sichqonga, — agar devni yengishimga yordam bersang, seni uyimga olib ketaman va o'la-o'lguncha boqaman.

III

Quyosh baland tog' orqasiga yashiringanda dev kamalagini yelkasiga osib, o'q-yoylarini o'qdonga solib, so'qmoq yo'l bilan g'orga qaytibdi. U bir oyog'ini qo'yganda hamma tog'lar titrabdi, ikkinchi qadam tashlaganda yana shunday bo'libdi. Uning qadamlaridan g'or larzaga kelibdi, devorlardagi kumush xanjarlar, po'lat o'q-yoylar jiringlabdi, mis bochka esa lapanglab, ichidagi suv u yoqdan bu yoqqa chayqalib to'lg'in ko'tarilibdi.

Qashshoq qo'rqibdi: «Bu yerdan tirik ketolmaydigan o'xshayman» deb o'ylabdi.

Kichkintoy sichqon uning qulog'iga shivirlabdi.

— Johil dev ovdan qaytyapti. Darrov burchakdan taka shoxini ol-da, devga: «Ey qo'rqq dev, men bilan kuch sinashishni istaysanmi!» deb baqir. Qolganini keyin aytaman.

Qashshoq burchakdagi taka shoxini olib, og'ziga keltiribdi-da, butun dara eshitadigan qilib qichqiribdi:

— Hoy qo'rqq dev, men bilan kuch sinashmaysanmi?

Dev bunday baland ovozni eshitib, hayratda to'xtab qolibdi. Keyin taka shoxi ushlab turgan qashshoqni ko'rib shunday qah-qah uribdiki, kulgisidan g'or va tog'-toshlar avvalgidan ham qattiqroq larzaga kelibdi.

— Sen chivindek narsa mendek ulkan dev bilan qanday olisharding! — debdi dev qashshoqqa. — Avval men bir ko'ray-chi, senda kuch bormikin. Ana shundan keyin sen olishishga arzish-arzimasligingni aytaman.

— Yaxshi. Sen istaganingcha bo‘la qolsin! — debdi qashshoq. O‘zi esa qo‘rquvdan titrab, kichkina sichqonga qararmish.

Shu payt dev qo‘liga xarsangtosh olib, kaftida bir siqqan ekan, toshdan suv tomchilabdi.

— Qani endi sen ham siqib ko‘r-chi! — deb qichqiribdi dev. — Ana shunda sening nimjon emasligingga ishonaman.

Qashshoq devga qanday javob qilishni bilmay esankirab qolibdi.

Shunda sichqon qashshoqning qulog‘iga shivirlabdi:

— G‘or burchagida yog‘ to‘la xumcha turibdi. O‘shani ol-da, bir-ikki siq, keyin xumchani aylantir-sang, yog‘i to‘kilib toshlar ustidan oqib ketadi.

Qashshoq yog‘ to‘la xumchani olib bir-ikki siqibdi, keyin yog‘ini to‘kibdi, xumni esa toshga urib chil-chil qilibdi.

Dev qashshoqning xarsangtosh emas, balki yog‘ to‘la xumchani siqqanini bilmay: «Eh-a, aftidan, bu oddiy tog‘lik chinakam pahlavonga o‘xshaydi» deb o‘ylabdi. U qashshoqqa yana qichqiribdi:

— Hoy olchoq, elburutdan suyunma, agar anavi qoyadan bir bo‘lagini sindirib olsang, shundagina sening chinakam pahlavon ekanligingga ishonaman.

Keyin dev oyog‘ini yerga tirab, qo‘li bilan qoyaning yarmini sindirib olibdi-da, jarlikka uloqtiribdi.

Buni ko‘rgan qashshoq yana battaroq qo‘rqibdi. Sichqon esa uning qulog‘iga shivirlabdi:

— Bochkadan kattakon qo‘y pishlog‘ini ol-da, sindirib og‘zingga sol. Dev bu tosh yeyapti, deb o‘ylaydi-da, qo‘rqib ketadi.

Qashshoq bochkadan kattakon pishloq keltirib, devga qichqiribdi:

— Qoyani bola ham sindira oladi. Sen mana buni — oq tosh yeyishimni ko‘r!

Qashshoq bir bo‘lak pishloqni yebdi, keyin ikkinchi bo‘lakni sindirib og‘ziga solibdi. Shunday qilib, ketma-ket hamma pishloqni tamom qilibdi. Dev tog‘lik qo‘lidagi oq pishloqni ko‘rib, uni chinakam oq tosh deb o‘ylabdi. Qashshoq barcha pishloqni yeb lablarini artgach, dev qo‘rquvdan titrabdi va: «O‘z boshimga o‘zim ajal olib kelgan ekanman, axir hech vaqt odam bolasi oq toshni xuddi qo‘y pishlog‘i singari yeganmi?» deb o‘ylabdi.

Keyin kuchi boricha:

— Hoy tog‘lik, endi men nima qilsam, sen ham shuni qil, — deb baqiribdi va xarsangtoshni bir tepib, undek maydalab yuboribdi.

Tog‘lik qo‘rquvdan shunday titrabdiki, hatto, yelkasidagi kichkintoy sichqon yerga yiqilib tushibdi. Lekin sichqon yana uning yelkasiga chiqib olib, qulog‘iga shivirlabdi.

— G‘orga kiraverishda kultepa bor, oyog‘ing bilan bir tepsang, johil dev toshni kulga aylantirdi, deb o‘ylaydi.

Qashshoq quvonib ketibdi. Taka shoxini olib avvalgidan ham qattiqroq qichqiribdi.

— Xarsangtoshni kichkina bola ham unga aylantira oladi, ammo xarsangtoshni yondirib yuborish esa dunyoda mendan boshqa hech kimning qo‘lidan kelmaydi! — Qashshoq borib kultepani tepibdi. Butun tog‘- u toshlarni, o‘rmon- u daralarni kul to‘zoni bosib-

di. Devning koʻz-burniga ham kirib ketibdi, uni yoʻtal tutibdi, aksa uribdi va «oʻz boshimni eson-omon saqlab qolsam, boʻlgani» deb oʻylabdi. Shunday debdi-yu, jar tomon qochib qolibdi.

U yugurib borar ekan, aksa urarmish va yoʻl-yoʻlakay:

— Tezroq, tezroq bu yoqqa kelinglar, qari otangizga yordam beringlar, meni togʻlikdan qutqaringlar! — deb oʻgʻillarini chaqirarmish.

Qashshoq esa sichqonga:

— Agar sen boʻlmaganingda oʻlimim muqarrar edi, sen togʻlardagi eng yaxshi sichqon ekansan, — debdi.

— Kichkintoy sichqonni maqtashingga vaqt erta. Chunki hali keksa dev tirik. Uning ikki oʻgʻli ham bor, — debdi sichqon qashshoqqa. — Yaxshisi, bu yerdan tezroq joʻnab qol. Boʻlmasa, hademay u oʻgʻillari bilan kelib seni halok qiladi.

IV

Bechora togʻlik saxiy sichqonning soʻzlarini eshitgach, dagʻ-dagʻ titrabdi, soch-soqollari esa oqarib ketibdi. U hozir gʻordan qochishi kerakligini tushunibdi-yu, lekin yoʻl topolmabdi.

Baland qoyalar chuqur, qorongʻi jarliklar bilan oʻralganmish. Bu yerdan ketish uchun qashshoq u yoqda tursin, sichqonga ham yoʻl topilmasmish.

Birdan uning esiga burgut pati tushib qolibdi. Kamzulining choʻntagidan patni chiqarib, gulxanga tashlabdi-da:

— Ey burgut, menga yordam ber! — deb nola qilibdi.

Qashshoq shunday deyishi bilanoq tog' burguti dev g'origa uchib kelibdi, yerga qo'nib qashshoqqa:

— Barcha olmos, barcha tilla, kumush va ipaklarni darrov katta gilamga o'ra, — debdi.

Qashshoq katta gilamni yerga yoyib, unga devning barcha olmoslari, kumush-u oltinlari va ipak gazlamalarini o'rabdi.

— Endi gilamni pishiq arqon bilan bog'la, — debdi yana burgut.

Qashshoq burgutning aytganidek qilibdi.

— Endi, — debdi tog' burguti qashshoqqa, — o'zing yelkamga min-da, bo'ynimdan qattiq quchoqlab ol!

Qashshoq tog' burgutining yelkasiga minib, qo'li bilan mahkam ushlabdi, shu payt uning esiga kichkin-toy sichqon tushib qolibdi:

— Ey yaxshi burgut, muruvvatli sichqonni ham olib ketmaysanmi? U meni bir necha bor o'limdan saqlab qoldi, — debdi qashshoq burgutga.

— Olib ketaman, — debdi tog' burguti. — Faqat uchib ketayotganimda, u gilamni kemirmasa bo'lgani. Agar kemirsa o'ziga yomon bo'ladi: gilam teshiladi-da, u yiqilib, chil-parchin bo'ladi.

Sichqon bu gapni eshitib:

— Men og'zimni ochmayman, hatto mo'ylovimni ham silkitmayman. Ishqilib, meni bu yerda qoldirmanglar, — debdi.

Keyin sichqon tugunga yashirinib olibdi, tog' burguti oltin-kumushlar, olmos va ipaklar hamda saxiy sichqon tugilgan gilamni tumshug'i bilan tishlab, qanotlarini yoyibdi. U endigina dev g'oridan uchib ketay deb turganida har tomondan tosh yog'ilibdi, g'or lar-

zaga kelibdi. Dev bilan uning ikki o'g'li kelib qolibdi. Ular:

— Hoy, tog'lik ko'ppak, sen bizdan qochib qutulmaysan! Biz seni kulga aylantirib, kulingni tog'-u toshlarga sochamiz! — deyishibdi.

Shu payt tog' burguti qudratli qanotlarini silkitgan ekan, g'or ichida shunday bo'ron ko'tarilibdiki, devlar oyoqda turolmabdi. Keksa devni shamol jarga, katta o'g'lini Og' tog'ga, kichigini esa Qora tog'ga uchirib yuboribdi.

Tog' burguti qanotini yanada kuchliroq silkib Oq va Qora tog'lardan, bulutlardan ham baland ko'tarilib, osmongacha yetibdi.

Qashshoq burgutga minib o'tirgan joyidan kekxa dev va uning o'g'illariga qarab qichqiribdi:

— Hoy, tog' shaytonlari, oddiy tog'lik kishi sizlarni qanday laqillatganini ko'rib qo'ying. Jaholatdan, g'azabdan ko'zlaringiz teshilsin. Qo'l-oyog'ingizdan mador ketsin, tog' burgutlari ko'ksingizdan yuragingizni yulib olsin!

Qashshoqning so'zidan devlarning qoni qozondagi suvdek qaynabdi, g'azabdan ko'zlari xiralashib, na'ra tortishibdi, ammo burgut va qashshoqqa hech narsa qilisholmabdi. Ular shunday g'azablanishibdiki, hatto g'azablariga chidolmay, paq-paq yorilib ketishibdi.

Bu payt burgut uchishda davom etib, uzoq-uzoqlarga yetibdi. Nihoyat, bir darada eski uyni ko'rib qolibdi, keyin ana shu uy yonidagi katta toshga qo'nib, qashshoqqa:

— Oldin sen meni o'limdan qutqazding, endi men seni qutqazdim, — debdi.

— Xudo umringni uzun qilsin! — debdi unga qashshoq.

Shundan keyin tog' burguti qudratli qanotini yoyibdi-da, xo'roz kabi hovlini aylanib yuguribdi va qanot qoqib, tog'-u toshlardan, bulutlardan baland ko'tarilib ketibdi. Qashshoq uning orqasidan tikilib:

— Xudo umringni uzun qilsin! — deb qolibdi.

Burgut bulutlar orqasida ko'zdan g'oyib bo'lgach, qashshoq katta gilamni yechib, saxiy sichqonni qo'yib yuboribdi, o'zi esa kumush-u oltinlarni, olmos va shohi gazlamalarni uyga tashiy boshlabdi.

Qashshoq hamma boyligini uyga tashigach, eshikni qulflab, tashqariga chiqibdi. Qarasa, hovli bo'm-bo'sh emish. Sersoqol echki ham, xo'roz ham, tovuq ham ko'rinmasmish. «Ular qayerdaykin» deb o'ylabdi qashshoq.

Kichkintoy sichqon uydan yugurib chiqibdi-da, ikki oyog'ida tik turib, qashshoqqa:

— Echki, xo'roz va tovuqning qayerga yashirinishganini men bilaman, — debdi.

— Tezroq ayt, qayerga yashirinishgan? — so'rabdi qashshoq.

— No'xatpoya uchqundan yona boshlaganda xo'roz, echki hamda tovuq qo'rqib har tomonga qochib ketishgan: tovuq eski uyning burchagiga yashiringan, xo'roz devorda toshdek qotib turibdi, echki esa daryo bo'yida.

Qashshoq yugurganicha uyga kirib qarasa, chindan ham tovuq burchakda turganmish, uni olib hovliga chiqibdi, keyin devordan xo'rozni tushiribdi, undan so'ng daryoga yugurib, titroq bosgan echkini ham keltiribdi. Qashshoq xo'rozg ham, tovuqqa ham, ser-

soqol echkiga ham hech narsa demabdi. No‘xat berib, buloq suvi ichiribdi.

O‘shandan beri qancha kun-u tunlar o‘tganini, oltin quyosh tog‘ orqasidan necha bor chiqib, necha bor yashiringanini, jarlardan qancha suv oqib o‘tganini bilmayman.

Lekin uzoq o‘tmishda qashshoqning eski uyi turgan, echki o‘t qidirgan joyda endi yangi uy paydo bo‘libdi. Bu uy oddiy emas, metindan qurilibdi.

Bu uy don-u nonga, yog‘- u vinoga to‘libdi.

Bu uyda hozir kekxa tog‘lik kishi, sersoqol echki, qari sichqon va qari xo‘roz o‘zining tovug‘i bilan farog‘atda yashasharmish.

BALAND QOYA MINORASINING GO‘ZALI

Qadim o‘tgan zamonda katta tog‘da, Baland Qoya minorasida er-xotin yashar ekan. Ularning bir qizi bor ekanki, oy desang — oy, kun desang — kun ekan. Bunday go‘zal hech qayerda yo‘q ekan. U oydan tiniqroq, oltin quyoshdan go‘zalroq ekan, uning ismi Ruxsibon bo‘lsa ham, ota-onasidan bo‘lak uni hech kim bu nom bilan atamas ekan. Qizni hamma Baland Qoya minorasining go‘zali deb atar ekan.

Vaqt kelib, kuni bitib ota-ona vafot etibdi. Yetim qiz bo‘m-bo‘sh minorada yakka o‘zi qolibdi.

Go‘zal qiz hech qayerga bormas, unikiga ham hech kim kelmas ekan. Qo‘liga hech vaqt fandir¹ olmas ekan.

¹ *Fandir* — osetinlarning o‘n ikki torli qadimgi musiqa asbobi. Arfaning bir turi.

U bazmlarga bormas, yuzini hech kimga ko'rsatmasa ham, hamma yoqda uning go'zalligi haqida so'z yurar ekan. Axir oltin quyoshni yashirib bo'lmaganday, go'zalikni ham yashirish qiyin. Hech kim, hech qachon uning chehrasini ko'rmagan bo'lsa ham, hamma unga bir qarashni orzu qilarkan. «Bundan ko'ra go'zalroq qiz dunyoda bo'lmasa kerak. Bundan keyin ham tug'ilishi gumon» deb o'ylasharkan.

Qizga uylanish uchun butun daralardan, barcha qirlardan dong chiqargan jangchilar, kibrli aldar¹lar kelisharkan. Faqat yigitlarga emas, hatto chollar ham tilla naqshlar bilan bezalgan yaroq-aslahalarini taqib, eng yaxshi otlarga minib, qizga bir nazar tashlash uchun Baland Qoya minorasiga kelishar ekan. Har kim qiz menga bir jilmaymasmikin, menga tegmasmikin, deb o'ylarkan.

Kelisharkan, ketisharkan. Ketisharkan va kelisharkan. Ruxsibon go'zal esa hamma vaqt minorada o'tirar, kuyovlarga biron marta nazar tashlamas ekan.

Bir gal xuddi kelishib olganday Baland Qoya qishlog'iga shunchalik ko'p xalq to'planibdiki, ularni sanash u yoqda tursin, oxirigacha ko'rib ham bo'lmas ekan. Baland Qoya qishlog'i xuddi asalari uyasiday g'uvullab ketibdi.

Ruxsibon qiz haqidagi shov-shuv hatto Ali degan mamlakatga ham yetibdi. O'sha mamlakatning Sar degan qishlog'ida bir qashshoq yigit yashar ekan. U go'zal qiz haqida ko'p eshitgan ekan. «Malika menga tegmasligini bilaman, ammo uni bir ko'rsam, dunyoda armonim qolmasdi» deb o'ylabdi yigit.

¹ Aldar — hukmdor, janob.

Oradan ko'p o'tibdimi, kam o'tibdimi, bir kuni Sarqishloqlik yigit ham Baland Qoya minorasiga kelibdi. Yigit ustiga yengsiz qora chakmon, boshiga tirishib ketgan qo'y teri qalpoq, oyog'iga xom teridan tikilgan choriq kiyib, beliga namatdan qilingan belbog' bog'lab olibdi. Qo'yingki, tog'lik desang — tog'lik, kambag'al desang — kambag'al ekan.

— Hoy, yaxshi odamlar, ana unga qaranglar, qatorimizga yana bir kuyov qo'shildi! — deb a'yonlar va maqtanchoq boylar uning ustidan kulishibdi. — Beriroq kel, faqat sen kamlik qilayotgan eding.

Boshqalar esa yigitning chorig'ini ko'rsatib kulishibdi va:

— Uchqur otingdan tush! — deb qichqirishibdi.

Qashshoq yigit go'yo mansabdorlarning va boylarning so'zini eshitmaganday, ularga javob qaytarmabdi.

Mana, kuyovlar Baland Qoya qishlog'ida yoyilib o'tirishibdi, o'tirishibdi-yu, qanday qilib minora go'zalini bir qaratishni o'ylashibdi. Ular bir-birlariga: «Biz har birimiz, go'zal qiz boshqaga emas, albatta menga tegsin, deymiz. Qiz esa qaysi birimiz yaxshi ekanimizni bilmaydi. Biz o'z kuchimiz va chaqqonligimizni sinab ko'rishimiz kerak. Shunda u minora derazasizdan qarab eng yaxshimizni tanlab oladi», deyishibdi. Shunday qilib, hammalari o'z kuchlari va chaqqonliklarini sinab ko'rishadigan bo'lishibdi.

Musobaqa raqs tushishdan boshlanibdi.

Baland Qoya minorasi tagidagi tekis maydonlarni qora bulut qoplabdi. Bu bulut emas, raqs tushayotgan kuyovlar ko'tarayotgan chang-to'zon ekan. Ularning

tapir-tupuridan tog'lar tebranibdi, daraxtlardan olmalar duv to'kilibdi.

Hammalari o'yin tushib bo'lgach, Sardan kelgan qashshoq yigitga:

— Endi sen o'yna! — deyishibdi.

— Xo'p bo'ladi, — debdi yigit, — men ham bilganimni ko'rsatishga tayyorman.

Sar qishloqlik yigit o'ynay boshlabdi, oyog'ida raqs tushish uchun noqulay choriq bo'lishiga qaramay, u shunday o'ynabdiki, butun olamda hech kim bunday o'ynolmas emish. Takabbur hukmdorlar, dong taratgan kuyovlar avvaliga kambag'al yigitga uzoqdan qarashibdi, ba'zilari esa nazar tashlab ham qo'yishmabdi, keyin yaqinroq kelishibdi. Nihoyat, kambag'alning o'yinini ko'rish uchun orqada turganlar oldinda turganlarning yelkalariga chiqa boshlashibdi. Yaqin qishloqlarning barcha aholilari sarlik mehmon o'yinini ko'rish uchun yugurib kelishibdi.

— Butun dunyoda hech kim bundan yaxshiroq raqs tusholmaydi, — deyishibdi Baland Qoya qishlog'ining odamlari.

— To'g'ri, o'yinda bu yigit hammamizdan o'zib ketdi, — deyishibdi dimog'dor mansabdorlar.

Keyin ular kim yaxshi qo'shiq aytish uchun musobaqa boshlashibdi.

Dongdor mansabdorlar qo'shiq aytishibdi, hamma qulog'ini ding qilib eshitibdi. Mashhur jangchilar shunday qo'shiq aytishibdiki, ularning ovozi qirlarga yetibdi. Hammalari aytib bo'lgach, sarlik qashshoq yigitga:

— Endi sen ayt, — deyishibdi.

— Xo‘p, — debdi Sar qishloqlik yigit, — men ham aytib ko‘raman.

Shunday qilib, qora chakmonli yigit qo‘shiq aytadigan bo‘libdi. Avval sekin, keyin qattiqroq, undan so‘ng yana balandroq ayta boshlabdi. Tekislikka yig‘ilgan odamlar churq etmay quloq solishibdi. Barcha jonivorlar ham jim bo‘lib qolibdi, ular asta nafas olib, qo‘shiqqa quloq solibdi. O‘rmondagi hayvonlar, osmondagi qushlar, hatto keksa tog‘lar ham quloq solibdi. Ular bunday ajoyib qo‘shiqni hech mahal eshitmagan ekanlar. Kambag‘al yigitning qo‘shig‘i qishloqlar, qirlar, o‘rmonlar ustidan uchib o‘tibdi. Uning ovozi osilib turgan qoyalarga, muzliklarga urilibdi, undan qaytib boshqa qoyalarga, muzliklarga shunday urilibdiki, butun dara kambag‘alning qo‘shig‘iga to‘lib ketibdi.

Sar qishloqlik yigitning qo‘shig‘ini eshitgan hamma bir og‘izdan:

— Dunyoda hech kim bundan yaxshi qo‘shiq aytolmaydi, — debdi.

— U qo‘shiqda ham bizni yengdi, — deyishibdi chor-nochor takabbur mansabdorlar.

Shundan keyin chiroyli nutq so‘zlash bo‘yicha musobaqa qilishmoqchi bo‘lishibdi.

Chollar yuqoriroqqa — xarsanglarga, undan yoshroqlar — egarlarga o‘tirishibdi. Yoshlar esa maysaga cho‘kishibdi. Notqlik va tortishuvlar, savol va javoblar boshlanibdi. Shuncha yig‘ilganlar orasida so‘zamollar yo‘q, deb o‘ylaysizmi? Yig‘ilganlarning ko‘piga «Mana bu kishi dunyoda eng yaxshi notiq!» deb aytish mumkin ekan.

Lekin mashhur amaldor va dong taratgan jangchilar gapirib bo'lishibdi. Keyin ular tog'lik yigitga:

— Qani, endi sen vaqilla! — deyishibdi.

— Xo'p bo'ladi, — debdi qashshoq yigit, — endi men ham o'z san'atimni ko'rsatishga tayyorman. Endi men ham so'zlab ko'raman. Men bittaman. Sizlar mingtasiz. Olishuvda bir o'zim bir tomon, sizlar hammangiz ikkinchi tomon bo'lasiz.

Mag'rur amaldorlar va boylar rozi bo'lishibdi. «Bu noshud tog'likning nimasidan qo'rqamiz» deb o'ylashibdi ular.

Namat belbog' bog'lagan kambag'al yigit o'rnidan turibdi va nutq boshlabdi. U aldarlar va boylar bilan munozara qilibdi. Sar qishloqlik shunday yaxshi so'zlabdiki, Baland Qoya maydonidagi barcha kishilar indamay qolishibdi. Ular shunday jim bo'lishibdiki, hatto yetti tog'ning orqasidagi yovvoyi tovuqning o'z jo'jalarini chaqirgan ovozi, yetti qavat yer ostida chumolilarning o'zaro suhbatlari eshitilibdi. Odamlar biror so'zini qoldirmay eshitishga urinishibdi. Hatto o'rmondagi hayvonlar, suvdagi baliqlar ham qimir etmabdi. Ular nafas olmay, Sar qishlog'idan kelgan yigitning so'ziga quloq solishibdi.

Qashshoq so'zini tamom qilganda, hamma bir kishiday:

— Dunyoda hech kim bundan chiroyli gapirolmaydi! — deyishibdi.

— Bu qashshoq go'zal nutq so'zlashda ham yengib chiqdi, — deyishibdi chor-nochor takabbur aldarlar va maqtanchoq boylar.

Shundan keyin, kambagal oldiga uch aka-ukani keltirishibdi. Aka-ukalar unga:

— Biz uch aka-ukamiz. Otamiz vafot etayotganda bizga bir qopchiq oltin, yilqi va po‘lat bolta meros qoldirgan. Biz bu molni bo‘lish uchun ko‘p urindik. Lekin bo‘lolmadik. Agar shu merosni bizga bo‘lib bersang, umr bo‘yi seni esdan chiqarmasdik, — deyishibdi.

Sar qishloqlik yigit o‘ylab-o‘ylab eng katta akasidan so‘rabdi:

— Qani, ayt-chi, o‘rtancha ukangga nima beray-u, kichigiga nima beray?

— Menga tillani ber, o‘rtancha ukamga yilqini, kichinasiga esa po‘lat boltani ber, — debdi aka.

Shundan keyin, Sar qishlog‘ining yigiti o‘rtanchasidan so‘rabdi:

— Ayt-chi, akangga nima beray-u, ukangga nima beray?

O‘rtancha javob qilibdi:

— Menga oltinni ber, ukamga yilqini ber, akamga esa boltani bera qol.

Oxiri Sar qishloqlik yigit eng kichigidan so‘rabdi:

— Qani, menga ayt-chi, otangdan qolgan merosni sizlarga qanday bo‘lay? Katta akangga nima beray, o‘rtanchasiga nima beray, senga nima beray?

Shunda eng kichigi:

— Katta akamga qopchiqdagi oltinni ber, u shuni istayapti, o‘rtanchasiga yilqini ber, u shuni xohlaganga o‘xshaydi, menga esa po‘lat boltani qoldir.

Kenja so‘zini tamom qilganda katta va o‘rtancha akalar sevinib ketishibdi. Mashhur aldarlar ham, boy-lar ham kulibdi. Sar qishloqlik yigit esa shunday debdi:

— Ey kenjatoy, sen juda aqlli gap qilding. Po‘lat bolta — bu eng yaxshi mukofot. Dunyoda eng katta boylik — mehnat. Sen mehnat qilib boyib ketasan. Qopchiqdagi tilla ham, yilqi ham ko‘p o‘tmay tamom bo‘ladi.

— Dunyoda bundan oqilona hal qilish bo‘lmaydi, — debdi xalq.

Takabbur aldarlar bir so‘z aytishga ulgurmayoq minoraning derazasi ochilib, u yerdan go‘zal Ruxsibonning ovozi eshutilibdi:

— Qani, mehmonimiz, minora mehmonxonasiga kir, mening non-tuzimdan tatib ko‘r. Horigan oyoqlaringga dam ber. Sen qishlog‘imizga uzoq yerdan kelganingni bilaman.

Sar qishloqlik yigit qiz aytganday qilibdi. Minora go‘zalining bir boqishini ko‘p vaqtdan beri kutib yotgan ming-ming kishilar, mashhur aldarlar, dong taratgan odamlar va ko‘pni ko‘rgan jangchilar bekorga kutganliklarini bilishibdi. Ularning hammasini har jihatdan Sar qishloqlik qashshoq o‘g‘lon yutib chiqibdi. Odamlar kelgan joylariga qaytib ketishibdi.

Baland Qoya minorasining go‘zali va Sar qishloqlik yigit to‘y qilishibdi. Bu to‘yda Baland Qoya qishlog‘ining odamlari kambag‘al qiz bilan qashshoq yigitga baxt tilashib, o‘yin-kulgu qilishibdi. O‘shandan beri yigit va qiz bir-birlariga katta muhabbat qo‘yib, Baland Qoya minorasida yashay boshlashibdi.

Ular ozmi-ko‘pmi yashagandan keyin, minora go‘zali birdan qattiq betob bo‘lib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib qolibdi. Na qo‘li, na boshini ko‘tarolmabdi. Yigit qattiq g‘am chekibdi. Ko‘zidan uyqu qochibdi. Boshiga falokat tushib, xotini o‘lib qolishidan juda qo‘rqibdi.

Shu haqda o'ylagudek bo'lsa, uni xuddi terak bargidek qaltiroq bosibdi.

Shu tarzda kunlar, haftalar o'tibdi. Tunlar tunlarni quvibdi. Bir mahal pichan o'rish payti ham yetib kelibdi. Barcha qishloq ahli Donarsning baland tog'larida pichan o'rimiga tayyorlanibdi. Donars pichanzorlarida ipak o't o'sar ekan, jarchi Baland Qoya qishlog'ining ko'chalarida aylanib, hamma eshitsin uchun baland ovoz bilan: «Ey yaxshi odamlar, eshitmadim demanglar! Erta-sahar osmondan Bonvarnon tong yulduzi ko'rinishi bilanoq har oila Donarsga bitadan o'roqchi chiqarishi kerak. Majlislar Maydoniga yig'ilib, o'shandan jo'naymiz. Bitta ham o'roqchi chiqarmagan oilaga chora ko'riladi, ya'ni qishloq ziyo-fati uchun shu oilaning buqasi so'yiladi. Yana mening gapimni eshitmadim, deb yurmanglar!» — debdi. Jarchi keyingi burchakka borib, yana xuddi shu so'zlarni aytib qichqiribdi. Majlislar Maydoniga uch yuz hovlidan bir kam ming kishi yig'ilibdi. Bir kam ming o'roqchi yig'ilib, osmonda Bonvarnon tong yulduzi ko'ringanda ipak o't o'rish uchun Donars o'tloqlariga jo'nabdi. Har kim hol-qudratiga qarab, o'zi bilan yetti kun va yetti tunga yetadigan ovqat olibdi.

Bechora yigit nima qilarini bilmabdi. O'rimga bo-ray desa, xotining ahvoli og'irlashib qolishidan, uyga qaytib kelguncha katta musibat ro'y berishidan qo'rqibdi. O'rimga bormay desa, undan ham battarroq: uyatga qoladi va buqasi so'yiladi. Yigit shular haqida o'ylab, g'am chekib hovlining u yoq-bu yog'iga yuribdi. Xotiniga esa hech narsa demabdi.

Bemor xotin eriga qarab shunday debdi:

— Qishloqning hamma erkaklari pichan o‘rish uchun Donarsga ketganini bilaman, biznikidan boshqa o‘tloqqa o‘roqchi yubormagan bitta ham hovli yo‘q, boshqalar pichan o‘rayotganda sizning uyda o‘tirishingiz yaxshi bo‘lmas. Buqamizni so‘yishsa-ku undan nari, ammo qishloq aholisi nima deydi: hamma erkaklar borgan joyga bormadimi, demak, Sar qishloqlik yigit bundan keyin erkak emas, deyishadi, ana shunisi dahshat.

Ruxsibon yana so‘zida davom etibdi:

— Men haqimda o‘ylamang, o‘limdan hech kim qochib qutulolmaydi.

Kambag‘al yigit xotiniga hech narsa demabdi. Charm xaltasiga arpa non, yarimta pishloq solibdi. O‘ng yelkasiga o‘tkir chalg‘i va buloq suvi to‘ldirilgan meshni tashlabdi, pishloq va non solingan xaltani esa, chap yelkasiga tashlab, xushbo‘y ipak o‘t o‘rish uchun Donars o‘tlog‘iga jo‘nabdi.

Ko‘p yuribdimi, kam yuribdimi, bilmadim, lekin oy Oq tog‘ orqasidan mo‘ralaganda Donars o‘tloqlariga yetib boribdi. Qarasa, o‘tloqning yarmisi o‘rilgan, horigan o‘roqchilar dong qotib uxlab yotganmish. Yigitning kelganini hech kim sezmabdi.

Yigit ipak o‘t o‘sib yotgan poyonsiz o‘tloqqa ko‘z tashlab bir qarorga kelibdi. Yelkasidan chalg‘ini olibdi-da, qumtosh bilan charxlabdi, keyin meshdagi suvdan bir qultum yutib, yarimta non va bir bo‘lak pishloq yebdi. Undan so‘ng ko‘kragini to‘ldirib tog‘ havosidan nafas olibdi-da, o‘rishga tushibdi.

O‘raveribdi, o‘raveribdi. Shunday o‘ribdiki, hatto chalg‘isi hushtak chalib yuboribdi. Go‘yo chalg‘i emas, go‘zal qizning qo‘lida fandir kuy taratayotgandek

bo'libdi. Yigit o'raveribdi, Donars o'tlari esa qator-qator bo'lib yiqilaveribdi.

To'lin oy sharqdagi Oq tog'dan, g'arbdagi Qora tog'gacha o'z yo'lini bosib o'tibdi. Qora o'rmon orqasiga yashirinibdi. Ko'p o'tmay Bonvarnon oqara boshlabdi. Undan keyin quyosh tog' cho'qqilariga zar sochibdi. Ana shunda yigit hamma o'tni o'rib tamomlabdi. Poyonsiz Donars o'tloqlarida hatto bir dona ham tikkaygan o't qolmabdi. Yigit chalg'i dastasini yerga sanchib qo'yibdi. Qolgan noni va pishlog'ini yebdi, meshdagi hamma suvni ichib, o'rilgan o'tga yotibdi-da, ustidan qora chakmonini yopibdi. Oltin quyosh o'tloqni yoritganda o'roqchilar birin-ketin uyg'onishibdi. Uyg'onishibdi-yu, o'rilgan o'tloqqa qarab hayron bo'lib qolishibdi. «Tushimizmi, o'ngimizmi?» deb o'ylashibdi ular. Keyin ko'zlarini ishqalab, yana qarashibdi, yana ko'zlariga ishonishmabdi: «Bu tushmi yoki tog' alvastilari aqldan ozdirdimi meni?» deb o'ylabdi har bir o'roqchi. Keyin ular yerga sanchilgan chalg'ini hamda uning yonida qotib uxlayotgan bir odamni ko'rishibdi. Ular qora chakmonning bir uchini ochib qarashibdi. Qarashsa, Sar qishloqlik qashshoq yigit yotganmish. O'roqchilar unga shunday deyishibdi:

— Bir o'zing bizdan ikki hissa ko'p pichan o'ribsan. Biz kam emasmiz: bir kam mingtamiz! Biz dunyoda sendan ko'ra ustaroq o'yinchi yo'qligini, sendan ko'ra yaxshiroq qo'shiqchi yo'qligini, sendan ko'ra o'tkirroq notiq yo'qligini, sendan ko'ra donoroq kishi yo'qligini bilardik. Endi biz sendan ko'ra tezkor, kuchli o'roqchi yo'qligini ham bilamiz. Faqat shunisi yomonki, sen bemor xotiningni yolg'iz, qarovsiz qoldirib kelibsan.

Pichanni o'zimiz yig'ishtirib olamiz, o'zimiz g'aramlaymiz. Sen uyingga, bemor xotining yoniga bor.

Qashshoq yigit o'roqchilarning so'zlarini eshitibdi-yu, ularga: «Ishlaringiz unumli bo'lsin», — debdi, keyin bo'shagan meshni charm xaltaga tiqibdi, chalg'ini yelkasiga tashlab, Baland Qoya qishlog'iga ravona bo'libdi.

U ko'p yuribdimi, oz yuribdimi, bilmadim. Dara darvozasiga yetib kelganida, buzoq boqib yurgan bolalardan so'rabdi:

— Baland Qoya minorasining bemor go'zali haqida xabaringlar yo'qmi?

Bolalar:

— Minora go'zali dunyodan o'tdi, — deyishibdi-da, yig'lab yuborishibdi.

Qashshoq yigit Baland Qoya qishlog'iga kelar ekan, og'ir judolikdan bag'ri ezilibdi.

U go'zal xotini qoshida muk tushib o'tirganicha tinmay yig'labdi. Kun yig'labdi, tun yig'labdi. Uchinchi kuni qarasa, ko'z yoshlari yerni xuddi parmadek teshib yuboribdi. Bu yoshlar shunchalik qaynoq ekan. Teshilgan yerdan esa bir ilon chiqibdi. Ilon oq munchoq tishlab olganmish. Sar qishloqlik yigit bu oq munchoqda bir sir borligini bilar ekan. U munchoqni olib, uni xotining yuziga bir surtibdi, ikki surtibdi. Shundan so'ng, Baland Qoya minorasining go'zali boshini ko'tarib, ko'zlarini ishqalabdi, atrofga alanglab, erini ko'rib qolibdi-da, undan:

— Nega bunchalik uzoq uxladim ekan? — deb so'rabdi.

— Sen oxirat uyquusi bilan uxladim, — debdi eri.

Shundan keyin Baland Qoya minorasining go'zali ro'y bergan barcha voqealarni darrov eslabdi. Tuzalganiga juda sevinib ketibdi. Eri ham o'zida yo'q quvonibdi.

Qishloq aholisi minora go'zalining tirilganini eshitib, juda sevinib ketishibdi. Ular er-xotinni ko'rish uchun yugurishib Baland Qoya minorasining hovlisiga kelishibdi. Hovlida Baland Qoya minorasining go'zali va uning eri — Sar qishloqlik kambag'al yigit sharafiga katta ziyofat berishibdi.

Hamma ish yaxshi bo'libdi. Biroq, bir narsagina yomon bo'libdi. Yigit ajoyib munchoqni yo'qotib qo'yibdi. Ko'p qidiribdi, ammo uni topolmabdi. Munchoqni qishloq kishilari ham qidirishibdi, ular ham topisholmabdi. Istaklarni amalga oshiradigan bu ajoyib munchoqni qidirmagan kishi qolmabdi. Nihoyat, aldar munchoq haqida eshitib, o'z lashkarlarini yuboribdi. Ularga: «Munchoqsiz qaytib kelmanglar!» — deb buyruq beribdi.

Aldarning jangchilari munchoqni ko'p qidirishibdi, hatto tuproqni g'alvirdan o'tkazishibdi, baribir topisholmabdi. Aldarning jangchilari shuncha ko'p tuproq elashibdiki, hatto xiyolgina pastroq tepalik hosil bo'libdi. Bu tepalikni hozir ham «Elangan tepa» deb atasharkan.

Baland Qoya minorasining go'zali bilan Sar qishloqlik kambag'al yigit ana shunday ajoyib ekan.

POP VA ZONDABI

Bir kambag'al er-xotin yolg'izgina o'g'li bilan bir qishloqda yashashar ekan.

O'g'lining bo'yi cho'zilib katta bo'lib qolganda onasi vafot etibdi. Chol bilan bolaning turmushi ilgarigidan ham nochorlashib qolibdi. Shunda bolaning otasi baddavlat popnikiga borib ish so'rabdi.

Pop unga shart qo'yib, debdi:

— Sen bilan o'g'lingni boqaman, ikkovingga kiyimbosh beraman. Mabodo mendan xafa bo'lsang, bir yilgacha haq olmay ishlaysan, yana bir hovuch kumush ham berasan.

— Mayli, — debdi kambag'al.

Uning rozi bo'lishdan boshqa iloji ham yo'q ekan. Popga kechani kecha, kunduzni kunduz demay xizmat qilibdi.

Kunlardan bir kun kambag'al popning yeriga chopiqqa chiqibdi. U ertadan qora kechgacha yer chopibdi. Pop bo'lsa unga na ovqat va na suv beribdi. Kambag'al shunday charchabdiki, oyoqda turishga holi qolmabdi.

U ishni tugatib qishloqqa qaytibdi. Pop qo'lida bir ko'za suv bilan kambag'alning yo'lini to'sib chiqibdi. U ochiqqan, holdan toygan kambag'alni ko'rishi bilan mazax qilib, kula boshlabdi:

— Kun bo'yi yog'liq ovqatlar yeb chanqagandirsan deb, senga suv olib chiqdim.

Kambag'al o'zini tutib turolmabdi, jahli chiqib ko'zlariga qon quyilibdi. U xo'jayinga tashlanib, uni do'pposlabdi. Popga qancha og'ir bo'lmasin, kaltak zarbaga chidabdi, hatto kulibdi ham:

— Shartni buzding. Shuncha do‘pposlasang ham mening jahlim chiqqani yo‘q, seniki chiqdi. Endi bir yil bekorga ishlab, yana bir hovuch kumush ham berasan.

Nima ham qilsin, kambag‘al eski uyi va unda nimaiki narsasi bo‘lsa sotibdi. Amallab bir hovuch kumushni topib kelib popga beribdi.

Agar kambag‘alning o‘g‘li Zondabi otasiga: «Qo‘rq-mang, biz hamma vaqt bir burda arpa nonni har yerdan bo‘lsa ham topib yeymiz. Siz qarib qoldingiz. Endi popning xizmatini qilishga kuchingiz yetmaydi. Uyda o‘tiring. Men borib popda ishlay», — demaganida hamma ish bosdi-bosdi bo‘lib ketar ekan.

— Rost aytasan, — debdi kambag‘al. — Qaridim, kuchdan qoldim, na oyog‘imda va na qo‘limda quvvatim bor. Ustiga-ustak, uyimiz ham yo‘q. Xayriyatki, bostirmamiz bor. Men bostirmada o‘tiray, sen borib popda ishlagin.

Ertasiga ertalab Zondabi popning oldiga borib:

— Senga ishchi kerakmi? — debdi.

— Kerak.

— Xizmat haqiga nima berasan?

— Xohlaganingcha yeb-ichasan, yana burka, bir qop arpa beraman. Odam xolis, mendan jahling chiqqudek bo‘lsa, bir yil bekorga ishlab berasan, yana bir hovuch oltin ham berasan. Agar sendan jahlim chiqsa, unda men senga bir hovuch oltin beraman. Shunga rozimi-san?

— Roziman.

Zondabi badavlat popning uyida ishlay boshlabdi. Bir kun to‘rt ho‘kiz bilan popning yerini haydashga

ketibdi. Biroz ishlab qarasa, na ovqatdan va na suvdan darak bormish. Ho'kizlarni bog'lab dam olibdi, keyin ulardan birini bir hovuch oltin va uchta katta nonga sotibdi. Ikkinchisini so'yib o'ziga va butun dalada ishlayotganlarga yetib ortadigan kabob pishiribdi. Qolgan ikki ho'kizni o'tloqqa qo'yib yuborib, o'zi kech kirguncha to'yib uxlabdi. Kechqurun Zondabi uyg'onib tushlikdan qolgan ovqatni yebdi-da, ho'kizlarni aravaga qo'shib, ashulani vang qo'yib qishloqqa qaytibdi.

Qo'lida suv to'la ko'za ko'targan pop bolaning oldidan chiqib, unga qarab kulibdi:

— Bugun yog'li ovqatlarni yeding, biroq suving yo'q edi, mana, bir ko'za suv olib chiqyapman.

Zondabi xursand bo'lib aravadan o'zini yerga tashlabdi, ko'zadagi suvni qatra qo'ymay ichibdi. Keyin popga debdi:

— Rost aytasan, ho'kizlaring juda semiz ekan, turgan-bitgani yog'-a. Kuni bilan go'sht yeb shunday suvsadimki, asti qo'yaver. Yaxshi, o'zing bilib ko'zada suv olib chiqibsan.

Popning joni chiqib, turgan yerida qotib qolibdi.

— Ikkita ho'kiz qani? Ularni yedingmi? — debdi pop g'azabidan titrab.

— Sening ovqat olib kelishinggacha sabrim chidamadi. Xo'jayin ho'kizni so'yish xizmatchimning esiga kelar degandir deb, uni so'ydim-qo'ydim. Go'shti muncha yog'li bo'lmasa?! Hanuzgacha tashnaligim qonmaydi, yana bir ko'za suv olib kel.

— Ho'kizning yana boshqasi qani?

— Ho'kizning boshqasi deysanmi? Ha, uni sotdim, axir go'shtni nonsiz quruq yeb bo'ladimi?

Pop bu javobdan itdek quturibdi, lekin urishga qoʻrqibdi, ogʻziga kelgan soʻz bilan soʻka ketibdi. Zondabi kulib yuboribdi.

— Ana, shartni yutqazding! Jahling chiqdi, bir hovuch oltinni toʻla.

Pop xizmatchisi Zondabiga bir hovuch oltin beribdi. Shart shart-da, uni buzib boʻlmaydi. Lekin, pop unga debdi:

— Bir hoʻkizimni soʻyib, ikkinchisini sotganingni jazosiga umr boʻyi menga ishlab berasan.

Zondabi yana popda kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlay boshlabdi.

Kunlardan bir kun pop xotini bilan mehmonga bormoqchi boʻlibdi.

Pop joʻnashdan oldin Zondabiga shunday deb tayinlabdi:

— Kechasi qaytamiz. Uylarga qarab tur, ovqat pishirib qoʻy, yana koʻprik ustini yoritgin, qorongʻida daryoga qulab ketmaylik.

U shunday debdi-yu, xotini bilan aravaga tushib joʻnab ketibdi.

Zondabi ishga kirishib ketibdi: hoʻkiz soʻyib, qozon bilan bitta goʻsht qaynatibdi, dunyoning kabobini pishiribdi, soʻng popning sandigʻidan nima topgan boʻlsa — oltinmi, kumushmi, boshqa qimmatbaho narsalarni olib katta tugunga tugibdi, sigʻmaganlarini hovliga olib chiqibdi. Qishloqqa eshittirib, bor ovozi bilan qichqiribdi:

— Ey yaxshilar, popning qoʻliga tushganlar, popnikiga kelaveringlar, nima xohlasalaring olaveringlar!

Soʻng uyga oʻt qoʻyib turib debdi:

— Pop bilan xotiniga yorug‘ bo‘lsin, qorong‘ida daryoga toyib ketishmasin. Shunday deb, o‘zlari tayinlab ketishdi-ku... — Zondabi oltin-kumush va qimmatbaho narsalar tugilgan tugunni yelkasiga ortibdi-da, bostirmada o‘tirgan chol otasi tomon ravona bo‘libdi.

Popning hovlisidagi qolgan-qutgan narsalarini boshqalar olib ketishibdi.

Pop qaytib kelib, kuyib kul bo‘lgan uyini ko‘ribdi-yu, gurs etib yig‘ilib, jon beribdi. Popning xotiniga nima bo‘lgani noma‘lum.

HUKMDORNING KELINI

Bor ekan, yo‘q ekan, bir mamlakatning bir hukmdori bo‘lib, o‘z yurtini so‘rab yotar ekan.

U qo‘shni podshoga qarshi ekan. Podshoning askari-cha askari bo‘lmaganidan uni qanday qilib yengib bo‘ladi, deb yurar ekan. Oxiri, o‘ylab, uni hiyla bilan yengmoqchi bo‘libdi.

Hukmdor o‘ylab-o‘ylab, debdi:

— Menga shunday odam kerakki, aytgan jumboqlarimni hech kim tushunmasa ham, u darhol tushunib, mag‘zini chaqib bersin va u odam oilamga a‘zo bo‘lib kirsin.

Hukmdorning xotini va bir o‘g‘li bo‘lib, ular hukmdor aytgan jumboqni umrlarida bir marta ham topisha olmagan ekan. «Qani, bir baxtimni sinab ko‘ray... o‘g‘limga qo‘shnim aldarning qizini so‘rataman. Ajab emas, u ko‘nglimdagidek odam chiqib qolsa».

Hukmdor bitta-yu bitta o‘g‘liga badavlat aldarning qizini olib beribdi. To‘y marosimidan keyin yetti kun

o'tgach, hukmdor: «Kelinimni sinab ko'radigan fursat ham yetdi» deb o'ylabdi va o'g'lini yoniga chaqirib, debdi:

— Yo'l hozirligini ko'r, otlar qoq yarim tunga shay bo'lsin, xo'roz qichqirmasdan safarga jo'naymiz.

— Xo'p, — debdi o'g'li.

Yarim tunda xo'rozlar chaqirmasdan, hukmdorning o'g'li o'rnidan turibdi, otlarni egarlabdi, shundan so'ng ota-bola uzoq safarga jo'nashibdi.

Biroz yurishgach otasi unga debdi:

— O'g'lim, yo'limizni qisqaroq qil.

— Yo'l arg'amchi emas-ku, qanday qilib uni qisqartira olaman?! — deb javob beribdi o'g'li.

Otasi o'g'lini qamchi bilan qarsillatib tushiribdi-da, otining boshini uyi tomon buribdi.

Kun botib, kech kiribdi. El yotganda hukmdorning oilasi ham uxlashga yotibdi.

Hukmdor sekin o'rnidan turib, kishi bilmas o'g'li bilan kelini yotadigan xona yaqiniga borib, ularning gaplariga quloq solibdi.

— Sizlar bu tun bir haftalik safarga ketuvdilaring-ku? — deb so'rabdi kelini, — nega endi darrov qaytib keldilaring?

Shunda yigit otasining qamchi bilan urib, uyi tomon jo'nab qolganini aytib beribdi.

— Aslida safarga chiqish otamning xayolida yo'q edi, atay meni urmoqchi bo'lib qilgan, — debdi u xotiniga.

— Ota uylangan o'g'lini ursin degan bema'ni qiliq qayerdan chiqdi? Yana bitta-yu bitta o'g'lini-ya? — jahli chiqibdi kelinning.

Ertalab tong otishi bilan hukmdor xotiniga:

— Kelingni otasinikiga jo'nat! Bu kecha u bu uyda yotmasin, — debdi.

— Senga nima yomonlik qildi? — so'rabdi xotini. — Yo husndan kammi?

— Bugun u mening uyimda yotmasin, gap tamom, — debdi yana hukmdor.

Nachora! Qaynana kelinining yuk-taqini yig'ishtirib, otasinikiga jo'natib yuboribdi.

Oradan bir necha kun o'tibdi, hukmdor yana o'g'lini uylantiribdi. Axir, uni shuning uchun ham hukmdor deb qo'yibdi-da.

Yana yetti kun o'tibdi, qaynana kelinni, kelin esa qaynanani yoqtirib qolibdi.

Hukmdor o'g'lini chaqirib, debdi:

— Yarim tunda otlar egarlog'liq bo'lsin, bir haftalik safarga jo'naymiz.

Yana ota-bola yo'lga tushishibdi. Qishloqdan chiqishgandan keyin ko'p yurishibdimi, oz yurishibdimi, bunisi noma'lum, hukmdor ot boshini tortib to'xtatibdi-da, o'g'liga debdi:

— Qani, o'g'lim, suvsiz qozonni qaynatib yubor-chi?

— Suvi yo'q qozonni qanday qaynatib bo'ladi? — debdi hayron bo'lib o'g'li.

Hukmdor qamchi bilan o'g'lining yelkasiga zarb bilan bir tushiribdi-da, ot boshini burib yana uyiga jo'nab ketibdi.

Kechasi hamma uxlaganda yana qari hukmdor o'g'lining derazasi yonida bekinib, o'g'li va kelinining gaplariga quloq solibdi:

— Nega tez qaytdilaring? — so‘rabdi kelin, — bir haftaga ketib edinglar, shekilli?

Yigit otasining qamchi bilan urib, uyiga jo‘nab qolganini aytib beribdi.

— U meni aldagan, safarga borish xayolida ham yo‘q. Bu meni qamchilash uchun bir bahona, xolos, — debdi o‘g‘li.

— Uylangan o‘g‘lini urishga qanday qo‘li bordiykin?! — debdi hayron bo‘lib kelin.

Ertasi ertalab hukmdor xotiniga debdi:

— Keliningni otasinikiga jo‘nat, mening uyimda qorasini ko‘rsatmasin!

— Nimaga kelinimni xafa qilasan? Ota-onasi ranjiydi-ku! Odamlar nima deydi? Birinchisini haydashdi, endi ikkinchisini ham shunday qilibdi deyishmaydimi? Yumushlarni noppa-nozanday qilyapti, bitta kelin bo‘lsa shunchalik bo‘ladi-da.

— Jo‘nat, gap tamom! — buyuribdi hukmdor.

Nachora! Xotini bu kelinini ham bor-yo‘g‘ini yig‘ishtirib, otasinikiga jo‘natib yuboribdi.

Oradan bir necha kun o‘tibdi. Hukmdor yana o‘g‘lini chaqirib debdi:

— Podadan bir qo‘y ol, mamlakatning qishloqlaridan olib o‘tib sotaman degin, lekin uni shunday shart bilan sot: qo‘yni so‘ygan kishi terisini shilsin-da, ikki nimta qilib qo‘lingga bersin. Yo‘lga ovqat olib yurma, hamma seni taniydi, mehmon qilaveradi.

Hukmdorning o‘g‘li qishloqma-qishloq yurib, otasi aytgan shart bilan qo‘yni sotmoqchi bo‘libdi. Biroq, qo‘yga xaridor chiqmabdi.

Hukmdorning o'g'li bir yilgacha mamlakatdagi butun qishloqlarni kezib chiqibdi. Oxiri uyiga qaytmoqchi bo'libdi. Yo'li kichik bir qishloqdan o'tibdi. U ko'chadan charchagan qo'yni oldiga solib o'tib borarkan, qizi bilan ketayotgan bir kambag'al kampir duch kelibdi.

— Kuningiz xayrli bo'lsin, — debdi hukmdorning o'g'li ularga.

— Baxting yor bo'lsin, yaxshi yigit, — deb javob qilibdi kampir.

— Shu qo'yimni sotib olmay sizlarmi, faqat bir shartim bor: so'yasizlar, terisini shilasizlar, so'ng ikki nimta qilib menga berasizlar.

— Men-ku, kambag'al bir ayolman, agar shu sharting bo'lsa, katta boy ham olmaydi, — debdi kampir va o'z yo'lida davom etibdi.

Qizi bo'lsa, unga:

— Oyi, olavermaysanmi? Axir butun boshli bir qo'yni xudo yetkazdi bizga, — debdi.

— Yashshamagur! — jahli chiqibdi kampirning, — shu yosh yigitga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lyapsan-a?

— Ona, to'g'risini aytyapman sizga, qo'lga pul berib o'tirmaymiz.

Oxiri kampir qizining gapiga ko'nibdi, hukmdor o'g'lini kulbai vayronalariga taklif qilishibdi. Qiz yigitga debdi:

— Marhamatli mehmon, qo'y so'yishga bizning uyda erkak kishi yo'q. Ke, erinma, o'zing so'y, terisini shil, men senga qarashib yuboray. Ertaga qo'yingning to'lovini to'lab, kuzatib qo'yamiz.

Hukmdorning o'g'li chor-nochor bu taklifga ko'nibdi, axir shuncha yurib qo'yiga arang xaridor topibdi-da! Yigit qo'yni so'yibdi, kampir bilan qizi go'shtlarni saranjomlabdi. So'ng, mo'l qilib yog'li-yog'li go'shtlardan pishirishibdi. Mehmon va mezbonlar obdan miriqib go'shtxo'rlik qilishibdi.

Ertalab qiz ikki bo'lingan qo'yning kallasini ro'molga tugib yigitga berib:

— Mana qo'yingning evazi, olib borib otangga ber, — debdi.

Yigit uyiga borib tugunchani onasining qo'liga beribdi. U ro'molni ochib qarab juda xafa bo'libdi:

— Xudo urgani shu-da, bizni! Buni qanday qilib otangga ko'rsataman. Butun bir qo'yning o'rniga-ya!

Otasi o'g'lidan so'rabdi:

— Qo'yni qanchaga sotding? Qani uning puli?

— Onamga berdim, — javob qilibdi o'g'li.

Hukmdor xotinidan so'rabdi:

— Qani qo'yimizning puli?

Xotin nima qilishini bilmabdi: «O'g'limni ilgarigidan ham battar ursa-ya», deb qo'rqibdi.

— Dunyoda nima ko'p, muttaham ko'p, kimdir o'g'limizni aldabdi, oltin, kumush o'rniga qo'liga qo'y kallasini ikkiga bo'lib tutqizvoribdi. Shuning uchun ham uni senga ko'rsatishga qo'rqdim, — shunday debdi-yu, uyga kirib bo'lingan kallani olib chiqibdi. O'zi qo'rquvdan titrab-qaqshab: «Buni ko'radi-yu, yakka-yu yagona o'g'limni o'ldiradi. Albatta, sog' qo'ymaydi» deb o'ylabdi.

Hukmdor ro‘molni ochibdi. Qarasa, ikkiga bo‘lingan qo‘yning kallasi¹. Hukmdor buni ko‘rib sevinib ketibdi. Hatto, xursand bo‘lib, kulib qo‘yibdi ham.

Xotiniga iljayib debdi:

— Mana, endi o‘g‘linga yaxshi kelin topdim. — Keyin o‘g‘lini chaqirib debdi:

— Ertaga ertalab otlar egarlog‘liq bo‘lsin, o‘sha sen qo‘y sotgan qishloqqa jo‘naymiz.

Ertasiga ertalab hukmdor o‘g‘li bilan qiz yashaydigan qishloqqa yo‘l olibdi.

Kampir hukmdor bilan o‘g‘lini bo‘rdoqining go‘shiti va buloq suvi bilan siylabdi.

Shunda hukmdor kampirga debdi:

— Sen bilan qarindosh bo‘lish niyatida keldim. Qizingni o‘g‘linga bersang.

Kampir hukmdorning bu gapini eshitib, u meni va qizimni mazax qilyapti deb tushunibdi. Hatto, uning gapiga quloq solgisi ham kelmabdi.

— Bunday bo‘lishi mumkin emas, katta bir mamlatatning hukmdorisan, biz esa beva-bechoramiz. Bizni o‘z holimizga qo‘y. Sen yaxshisi, o‘z tengingni top. Men ham qizimga o‘zimizga o‘xshagan bir kambag‘alni topay. Seni kutib oldik, borimizni oldingga qo‘yib siyladik. Meni bunchalik xafa qilasan deb aslo o‘ylamagan edim.

— Qizingni bizning xonadonda hech kim kamsitmaydi. Uni qizimizdan ham ziyoda sevib, hurmat qilamiz.

¹ Osetinlarda eski urf-odatga ko‘ra, xotinlar kalla go‘shiti, miya yemaganlar. U qariyalarning tegishi hisoblangan.

Hukmdor kampirni juda qiyinchilik bilan ko'ndiribdi, to'y-tomoshalar bilan uning qizini uyiga olib kelibdi.

Oz ham emas, ko'p ham emas, to'ydan so'ng, yetti kun o'tibdi. Shunda hukmdor o'g'liga debdi:

— Bir haftalik safarga jo'naymiz. Tun yarim bo'lganda otlar egarlog'liq bo'lsin.

Otasining bu gapidan o'g'lining yuragi taka-puka bo'lib ketibdi. Lekin, otasining so'zini rad qilishga botina olmabdi.

Yarim kechada hukmdorning kelini o'rnidan turib, otlarni egarlabdi-da, kelib erini uyg'otibdi.

— Otlar tayyor. Otangni uyg'ot. Safarlaring bexatar bo'lsin.

Hukmdor o'g'li bilan jo'nab ketibdi.

Qishloqdan chiqqanlaridan keyin otasi o'g'liga debdi:

— O'g'lim, otlarimizni semirtir!

— Otlar oriqlik emas-ku, nega endi semirtirish kerak bo'lib qoldi. Qanday qilib darrov semirtirib bo'ladi ularni? — O'g'lining bu gapi uchun hukmdor uni qamchi bilan yana qattiqroq tushiribdi va ot boshini uyi tomon buribdi.

Kechasi yana hukmdor o'g'li bilan kelinining gapiga quloq solibdi.

— Nega darrov qaytib keldilaring? Nega xafa ko'rinasan? — so'rabdi xotini eridan. — Xo'sh, nega indamaysan?

— Mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda, xafa bo'lib o'tirmasdan o'zini bir balo qilardi. — Otam bilan onamning sharmanda bo'lishlaridan qo'rqaman, xolos. Mana shu bilan uch marta safarga boramiz deb otlar-

tirdi. Qishloqdan chiqishimiz hamon meni qamchi bilan urib orqasiga qaytadi.

— Nega uradi seni? — so‘rabdi xotini.


— Shu ham ish bo‘ptimi? Mana eshit: bugun qishloqdan chiqishimiz bilan «Otlarimizni semirtirchi», — dedi. Men unga «Otlarimiz shunday ham semiz, yana uni semirtirib, yog‘ini ko‘paytirishga nima hojat. Qanday qilib birpasda ularni semirtiraman?» dedim.

— Avvalgi ikki safar nega urdi? — so‘rabdi yana xotini.

— Birinchi safar u: «O‘g‘lim, yo‘limizni qisqart», — dedi. Men unga: «Yo‘l axir arqon emas-ku, uni qisqartirsam?» — dedim. Ikkinchi safar: «O‘g‘lim, suvsiz qozonni qaynat», — dedi. Bunday gapni faqat aqldan ozganlargina aytadi deb o‘yladim.

Hukmdor bitta-yu bitta o‘g‘lining bu gapini eshitib, g‘azabga kelibdi-da, damini ichiga yutib kelinining so‘zini kutibdi.

— Otangda hech qanday gunoh yo‘q. Hayronman, qanday qilib bunga chidabdi, yaxshiyamki o‘ldirib qo‘ymabdi. Hamma illat otangning gapiga tushunmaganligingda. Buni anglash uncha qiyin emas-ku. Yo‘lni qisqart deganda, sen unga qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilib berishing, ashula aytishing kerak edi. Shunda yo‘l ham qisqarardi, otang ham xursand bo‘lardi. Suvi yo‘q qozonni qaynat deganda esa, belbog‘idan trubkasini olishing, tozalab tamaki solishing, keyin unga o‘t qo‘yishing kerak edi, ana shunda qozon suvsiz qaynardi. Oxirgi marta, senga otlarni semirtir deganida esa, ot-dan tushib otangni suwab tushirishing, keyin otlarning yuganini chiqarib, oyog‘iga tushov solib o‘tloqqa qo‘yib



yuborishing kerak edi. So'ng, po'stiningni solib, egarni boshiga yostiq qilib joy hozirlab, otangni yotqizishing lozim edi. Shunda otlaring ham, o'zlaring ham hordiq chiqarib, yana yo'lga ravona bo'lgan bo'lardinglar.

Hukmdor bu gaplarni eshitib xursand bo'lib ketibdi va xotirjam bo'lib uxlagani uyiga kirib ketibdi.

Ertalab hukmdor xotiniga debdi:

– Yolg'iz o'zim uzoq safarga jo'namoqchiman. Kerakli narsalarni to'g'rilab ber! – Xotini unga kerakli narsalarni hozirlab beribdi. Qayoqqa, nima maqsadda ketayotganini u ham aytma bdi, xotini ham har safar-gidek so'rab o'tirmabdi.

Kunlar o'tibdi, kunlarni quvlab haftalar, haftalar-ni quvlab oylar o'tibdi, hukmdordan darak bo'lmabdi. U qo'shni podshoning qancha kuchi borligini bilib kelishga ketayotganini na o'g'liga, na xotiniga aytgandi.

Keliniga esa, albatta, aytmas edi. Chunki u vaqtlarda qaynataning kelini bilan gaplashishi, kelinning qaynata yuziga tik qarashi or-nomus hisoblanar edi.

Dushmanlar hukmdorni tutib olib, qurolsizlantiribdi va oyoq-qo'lini bog'lab chohga tashlabdi, uni ko'p oltin-kumush evaziga sotmoqchi bo'lishibdi.

Oyoq-qo'li bog'liq hukmdor chohda o'tirarkan, o'y o'ylayverib boshi qotibdi. «Dushmanimning qancha kuchi borligini bilishga bilib oldim-u, ammo uni yo'q qilib tashlashga ulgurmadim. Endi ular meni yo'q qilib tashlaydi, sharmandalarcha o'ldiradi».

Hukmdor: «Qanday qilsam chohdan chiqaman, qanday qilsam dushmani kuchsizlantiraman va qanday qilsam uyimga tirik qaytaman» deb rosa o'ylabdi.

O'ylab-o'ylab oxiri yo'lini topibdi: podsho va uning yaqinlarini yoniga chaqirishlarini so'rabdi. Kelishganda ularga debdi:

— Sizlar bunaqada o'ljalaringdan yaxshi foyda ko'rolmaysizlar. Boshimni eng yuqori bahoda baholay olasizmi yoki yo'qmi deb, zindonda na kunduzlari o'tira olaman, na kechalari uxlay olaman. Bir savobli ish qilinglar, o'z boshimni o'zim baholay, taslim bo'lgan dushmanlaringga bir marhamat ko'rsatinglar, o'tinib so'rayman.

— Mayli, gaping yerda qolmasin, — deyishibdi podsho va uning yaqinlari.

— Mana boshimning bahosi: o'n sakkiz marta o'n sakkiz bir shoxli novvos, o'n sakkiz marta o'n sakkiz ikki shoxli novvos. Devordagi pichoqni olib eshik orasidagi qayroqqa charxlashsin. Uyimizda uchta oltin ustun bor, shu uchta ustundan ikkitasini uyning o'rtasida yorib maydalashsin, uchinchisini esa ehtiyot qilib olishsin-da, shundayligicha bu yerga olib kelishsin, novvoslarni ham haydab kelaverishsin. Urug'laringizdagi oqsoqollardan uchtasini mening qishlog'imga yuboring. Ular mening bu istagimni uyimdagilarga borib aytishsin.

Podsho va uning yaqinlari dushmanlarining bu gapidan mamnun bo'lishibdi va uning mamlakatiga uchta elchi yuborishibdi.

Elchilar qishloqqa, hukmdorning uyiga yetib kelib, uning xotini, o'g'li va qarindosh, yaqin-uzoqlarini chaqirib cholning gapini aytishibdi. Qancha o'ylashsa ham ular cholning maqsadini anglasholmabdi. Oxiri

kelinlari bo'lmish kambag'al kampirning qiziga odam yuborib, uni oila kengashiga chaqirib kelishibdi.

— Aql yoshda emas, boshda, — deyishibdi kattalar, — biz hukmdorning jumboqli amrini o'ylab topa olmadik. Zora sen topsang.

— Hali dunyoda oz yashadim, oz ko'rdim, shuning uchun ko'p narsani bilmayman. Sizdek ko'pni ko'rgan qariyalar bilmagan narsani qanday qilib men bilay? — debdi kelin, — mayli, so'zlaringiz yerda qolmasin, o'z fikrimni ayta qolay.

— Bir shoxli novvoslar bu — nayzabardorlar, ikki shoxli novvoslar bu — qilich va qalqon taqqan askarlar, devordagi pichoqlar bu — sizlar, sizning aqlingiz. Eshik yonidagi qayroqtosh bu — men. Qaynatam aytib yuborgan jumboqning ma'nisi shu, mendan so'rashingizga ishora qilgan. Men uni aytib berdim.

— Nima uchun ikki ustunni yoringlar debdi, — so'rashibdi ular yana.

— Sizlar qaynatam aytgancha askar yig'sanglar, elchilar ularni o'z mamlakatlariga boshlab borishdan bosh tortadilar. Ulardan ikkitasini o'ldiringlar, shunda uchinchisi indamay yo'l ko'rsatadi degani. Agar sizlar aytilganlarni bexato bajarsalaring, unda dushman-dan qo'llaring baland keladi, aks holda, hukmdor halok bo'ladi.

— Yosh bo'lsa ham balo ekan bizning kelin. Hukmdorimiz nima degan bo'lsa, shuni qilamiz, — deyishibdi hukmdorning yaqinlari.

Ular o'n sakkiz marta o'n sakkiz nayzabardor askarlarni, o'n sakkiz marta o'n sakkiz qilich-qalqonli

askarlarni saf torttirib dushman mamlakati tomon yo'l olishibdi.

Elchilar buni ko'rib deyishibdi:

– Biz o'z mamlakatimizga boradigan yo'lni ko'rsatmaymiz.

Shu zahoti ikki elchining kallasini tanidan judo qilishibdi. Buni ko'rgan uchinchi elchi bo'lsa indamay yo'l boshlabdi. Ular podsho va uning yaqinlarini o'ldirib, o'z hukmdorlarini ozod qilishibdi. Podshoning xazinasida bor oltin-kumushlarni olib o'z mamlakatlarga qaytib ketishibdi.

Shu bo'libdi-yu, kambag'al kampirning qizi aqlli va ziyrakligidan butun dunyoga mashhur bo'libdi.

XON VA KAMBAG'AL DEHQON

Bor ekan, yo'q ekan, qadim zamonda bir xon o'tgan ekan. U nihoyatda badavlat bo'lib, sharq tomonda yashar ekan.

O'sha davrda bir kambag'al dehqon ham bo'lgan ekan. U g'arb tomonda yashar ekan.

Xonning muhtasham qasri, kambag'alning esa faqirona kulbasi bor ekan.

Xonning qanchadan qancha semiz otlari bo'lsa, kambag'alning qirchang'i biyasi bor ekan.

Xonning otlari sharqdagi tog' yonbag'irlarida, ko'm-ko'k yaylovlarda o'tlasa, kambag'alning biyasi g'arbdagi tog'larning giyoh unmaydigan yap-yalang qiyaliklarida o'tlar ekan.

Xullasi kalom, ular shunday yashar ekanlar, xon mol-u mulk va boylikka cho'mib, kambag'al esa niho-yatda muhtojlik bilan umr kechirarkan.

Oradan oylar va yillar o'tibdi.

Kunlardan bir kun kambag'alning biyasi bir qulun tug'ibdi. Kambag'al: «Endi o'tim ikkita bo'ladi, ikki ot qo'shib ishlab, farovon umr kechiraman» deb o'ylab juda quvonibdi.

Kambag'alning biyasi toychoq tug'ganini xon eshitib-di-da, ko'ngliga tugibdi: «Kambag'alning toychog'ini olish kerak. Agar tortib olmasam, u katta bo'ladi, kambag'al bo'lsa ikki o'tni ishlatib boyib ketadi, boyib ketgandan so'ng esa soliq to'lamay qo'yadi».

Xon o'ylab-o'ylab mirshablarini chaqiribdi-da, ular-ga:

— Borib kambag'alga: «Sharqda xonning ayg'ir oti o'tlab yurgan ekan, g'arbda esa sening biyang. Xon-ning ayg'iri bir kishnagan ekan, sening biyang qulun tug'ibdi. Xon o'sha qulunni olib kelgani yubordi» denglar, — debdi.

Xonning mirshablari yo'l hozirligini ko'rishib, ot-larga minishib g'arbga jo'nashibdi.

Mirshablar yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib, g'arb tog'lariga yetib kelib, kambag'alning kulbasi ol-dida otdan tushishibdi.

— Horma, ey dehqon, ertang xayrli bo'lsin! — deyishibdi.

— Xudo yor bo'lsin! — deb javob beribdi kambag'al, ammo o'zicha: «Xonga soliqni to'lagan edim, bular yana nimaga keldi ekan» deb o'ylab, so'rabdi:

— Mening eski kulbamga qanday shamol uchirdi sizlarni?

— Biz xonning qulunini olib ketgani keldik, — deb javob beribdi mirshablar.

— Iye, menda xonning quluni nima qilsin, — debdi kambag'al, — mening bitta qulunim bor, uni ham bo'lsa o'zimning biyam tug'gan.

— Bu sening quluning emas, xonniki. Ulug' xon bizga shunday dedi: «Borib kambag'alga aytinglar, sharqda xonning ayg'iri o'tlab yurgan ekan, g'arbda esa sening biyang. Xonning ayg'iri bir kishnaganda, sening biyang qulun tug'ibdi». Endi sen adi-badi qilib o'tirmasdan toychoqni xonga berishing kerak.

— E, xoning yolg'onchi ekan-ku! — debdi kambag'al. Shunday qilib, toychoqni bermabdi, xonning mirshablari esa quruq qaytib, xonga:

— Kambag'al toychoqni bermadi, buning ustiga «xon yolg'onchi» dedi, — deyishibdi.

Xon mirshablaridan juda g'azablanibdi, ularni tutib olib uribdi. Shundan keyin kambag'alning qulunini tortib olish vasvasasiga tushib qolibdi.

Shu-shu bo'libdi-yu, xonning uyquasi qochibdi, ishtahasi bo'g'ilibdi, kecha-yu kunduz qanday qilib kambag'alning toychog'ini tortib olishni o'ylabdi.

O'ylab-o'ylab bir kun choparini chaqiribdi-da, unga debdi:

— Bor, g'arbdagi tog'da yashovchi kambag'alnikiga yugur. Unga shunday deb tayinla: «Xon o'z qasrida o'tiradi. Agar kambag'al hiyla bilan uni aldab qasridan chiqarolsa, mayli, toychoq o'zida qolsin. Buning ustiga egar-jabdug'i bilan bir ot va qizimni ham to'y qilib

beraman. Agar u meni qasrdan chiqarolmasa, toy-choqni ham, unga qo'shib biyasini ham olaman».

Chopar tog'-u toshlarni, daryo-yu daralarni oshib g'arbga boribdi-da, kambag'alga xonning gapini yetkazibdi.

Kambag'al o'zicha: «Kambag'alning xonga qarshi chiqishi juda qiyin» deb o'ylabdi-da, choparga debdi:

— Mayli, xonning aytgani bo'lsin.

Chopar qaytib ketgandan so'ng, kambag'al qanday hiyla bilan xonni qasrdan chiqarishni o'ylabdi. O'ylab-o'ylab hech o'yiga yetmay, oxiri: «Bor-e, xonning o'n ikkita ovuliga boraman-u, uning g'arazli niyatini xalqqa aytib beraman. Ehtimol, biror kimsa xonni qasrdan qanday chiqarishni o'rgatib qo'yar», deb ahd qilibdi.

Ishni cho'zmay, aytganini qilibdi. Ertasi kuni xonning o'n ikki ovulidan barcha odamlarni chaqiribdi. Hamma ovullardan katta-yu kichik to'planibdi. Kambag'al ularga bo'lgan voqeani aytib beribdi va xonni qasrdan aldab chiqarishga yordam so'rabdi.

Xonga tobe odamlar ko'p o'ylashibdi, oxiri bir yo'l topib kambag'alga:

— Ulug' xonga ovullarning soliq to'laydigan fursati keldi. Qani, hammamiz xonning qoshiga boramiz-da, qasrdan chiqishini so'raymiz, — deyishibdi.

Hamma ovulning odami xon qasri oldiga boribdi, oralaridan o'n ikkita obro'li chollarni xon huzuriga yuborishibdi. O'sha o'n ikkita chol xonga:

— Ey ulug' xon! Fuqarolaring oldiga chiq. O'n ikki ovuldan qanchadan qancha xiroj-u, qanchadan qancha sovg'a-salomlar keltirdik, — deyishibdi.

Bunga javoban xon baqiribdi:

— Xirojni mirshablarga, sovg'alarni choparinga, salomlaringni esa itlarimga beringlar, o'zlaring tezda bu yerdan yo'qolinglar!

Bunday xo'rlikdan chollarning qalblari ranj-alamga to'libdi, boshlarini quyi solib, qasrdan chiqishibdi-da, kambag'alga va xaloyiqqa qarab:

— Takabbur xon bizning gapimizga quloq ham solmadi, — deyishibdi.

Shunda Quyosh degan ovuldan kelgan bir chol debdi:

— Ovulimizda bir bola bor. Agar xonni o'sha aldab, qasrdan chiqarmasa, boshqa hech kim chiqarolmaydi.

Kambag'al to'g'ri o'sha Quyosh degan ovulga, o'sha bolaning oldiga yugurib ketibdi. Ovulga kirib qarasa, bir uyum go'ng ustida bir bola arpa non yeb o'tirgan emish.

— Umring uzoq bo'lsin, hoy yaxshi bola! — debdi unga kambag'al.

— Salom sizga g'arb tog'lik amaki! — deb javob beribdi bola.

— Nima uchun arpa noningni go'ng ustida yeyapsan?

— Mog'or bosgan nonning hidini sezmaslik uchun, amaki.

— Otang qayerda, o'g'lim?

— Uch o'lchov arpaga janjal sotib olgani ketdi.

— Iye, nima uchun uch o'lchov arpaga janjal sotib olmoqchi? — hayron bo'lib so'rabdi kambag'al.

— Chunki, — debdi bola, — bizning yerimiz yo'q. Barcha yerlar xonniki. Shu sababli otam uch yo'lning o'rtasiga arpa ekkan. Har kuni o'sha yerga boradi-da,

ekinni payhon qilmanglar deb yo'lovchilar bilan uri-shadi.

— Onang qayerda bo'lmasa?

— Qo'shnimiznikida nasiyaga yig'layapti.

— Iye, nima uchun nasiyaga yig'layapti?

— Bugun u begona o'liklar ustida yig'layapti, er-taga biz ochimizdan o'lsak, qo'shnilar kelib bizga aza tutishadi, — debdi bola.

Bolaning dono gaplari kambag'alga juda yoqib qolibdi-da, unga xonning nayrangini, uni hiyla bilan qasrdan chiqarish zarurligini aytibdi.

Shunda bola debdi:

— Xonning o'n ikki ovulidan o'n ikkita botir yigit-ni toping, o'n ikkita ot, bitta soqoli o'sgan serka, bit-ta ikki o'rkachli tuyay topib bering. Ana o'shanda men ayyor xonni qasrdan aldab chiqaraman.

Bolaga o'n ikki ovuldan o'n ikkita azamat yigitni hamroh qilibdilar. Yana o'n ikkita ot, soqolli serka va ikki o'rkachli tuyay ham beribdilar.

Bola o'n ikki azamatga cho'ntaklarini toshlar bi-lan to'ldirib, o'n ikki otga minishlarini aytibdi, keyin ularga:

— Hozir xonning qasriga boramiz. Qasrda xonning o'n ikkita ovchi iti sizlarga tashlanganda har birlaring qamchi bilan bittadan itni uringlar, — deb uqtiribdi.

O'n ikki azamat suvoriylar xon qasriga yo'l olibdi-lar. Oldinda bola ham piyoda jo'nabdi. Bolaning bir to-monida qari serka soqolini silkitib, ikkinchi tomonida esa ikki o'rkachli tuyay lablarini shapillatib borar emish.

Mana, ulug' xonning qasriga ham yetib kelishib-di. Yigitlarning qarshisidan xonning o'n ikkita ovchi

iti yugurib kelibdi. O'n ikki azamat o'n ikki itni qamchi bilan savalabdi. Xonning itlari angillab huriy boshlabdi. Xon itlarining angillaganini eshitib, benihoya g'azablanibdi-yu, ammo qasrdan chiqmabdi.

Shunda bola xonga qarab qichqiribdi:

— Qani, xon, bu yoqqa chiq! Mening savollarimga javob ber!

Xon derazadan kichkina bolani ko'rib, unga javoban baqiribdi:

— Ulug' xon qarshingga chiqib esini yegani yo'q! Xon sendaqa kichkina bolalarning oldiga chiqmaydi!

Shundan so'ng, bola ikki o'rkachli tuyani bir urib xonning qasriga kiritib yuboribdi-da, yana qichqiribdi:

— Mana, qoshingga kattani yubordim, endi qasrdan chiq!

— Xon soqolsizlar oldiga chiqmaydi! — deb baqiribdi xon yana.

Shunda bola serkani bir urib qasrga haydabdi-da, yana qichqiribdi:

— Mana, soqollikni ham yubordim, endi chiqmay ko'r-chi!

Xon: «Boshqa iloj yo'q, chiqmasam bo'lmaydi» deb o'ylarmish-u, ammo qimir etmas emish. «Ehtimol bu bolani mot qilarman» deb o'ylabdi-da, yana bolaga baqiribdi:

— Agar toshdan menga po'stin tikib bersang chiqaman, — debdi.

Bola unga javoban:

— O'n ikki azamatlarimning cho'ntaklari to'la tosh. Agar shu toshlardan ip yigirib bersang, o'shanda senga toshdan po'stin tikib beraman, — debdi.

Xon qarasaki, bolani hiyla bilan yenga olmaydi. Noiloj qasrdan chiqishga majbur bo'libdi.

Xon qasrdan chiqibdi-yu, uni shu kichkina bola yengganini ko'rib g'azabi kelibdi va bolaga o'shqiribdi:

— Ovchi itlarimni urishga qanday jur'at etding?

— Men o'n ikki bahodir yigitlarim bilan g'arb tomonda ov qilayotuvdim, sharq tomonda itlaring vovillab bir poda serkalarni hurkitib yubordi. Shu sababli itlaringni urdik, — javob beribdi bola.

— Gaping yolg'on, hoy bola! Qanday qilib itning vovillashi sharqdan g'arbgaga eshitarlarkan! U yoqqa, hatto burgut ham uchib yetolmaydi-ku, — debdi g'azab bilan xon.

— Agar burgut ham uchib yetolmasa, qanday qilib sharq tomondagi tog'da o'tlab yurgan ayg'irning kish-nashidan g'arb tog'laridagi biya qulunlaydi? — deb so'rabdi bola.

Shunda barcha xaloyiq shovqin ko'taribdi:

— Juda to'g'ri!

— To'g'ri!

— Rost gapni aytyapsan!

Xon qarasaki, ish chatoq, kichkina bola uni yengdi, qasrdan chiqishga majbur etdi. Shundan so'ng u bolaga qarab debdi:

— Keksa xonni yengding, bola. Mayli, o'sib voyaga yetganingda qizim senga kuyovga chiqsin. Yana yil-qimdan egar-jabug'i bilan bir otni ham ol. G'arbdagi kambag'al esa toychoq o'zida qolgani uchun senga rahmat aytsin.

Bola xonning otiga minibdi-da, o'z ovuliga, otasi-ning kulbasiga jo'nabdi. O'sib voyaga yetganda esa

xonning qiziga uylanibdi. Xon kuyoviga qanchadan qancha oltin va yilqi beribdi. Yigit qaylig'i bilan baxtli umr kechiribdi.

SOVCHI TULKI

Bor ekan, yo'q ekan. Oq tog'ning orqasida, ikki qoya o'rtasida eski kulba bor ekan. Unda bir kambag'al odam yashar ekanki, dunyoda undan qashshoq odam yo'q ekan. O'rmondagi har bir hayvon, tog'dagi har bir quzg'un undan boy ekan.

Kambag'alning eski kulbasida na ho'kiz, na ot, na eshak, na echki bor ekan. Uning bisotida bor-yo'g'i yettita semiz tovug'i bor ekan. Shuning uchun hech qanday ayol unga tegishni xohlamas, hech kim uning kulbasiga qadam qo'ymas ekan.

Shunday qilib, bechora kambag'al eski kulbasida so'qqabosh umr kechirar, tovuqlarini boqib qarilikni kutib o'tirar ekan.

Agar ayyor tulki bo'lmasa, kambag'alning umri shu eski kulbada o'tib ketar ekan.

Kunlardan bir kun tulki kambag'alning semiz tovuqlari borligining isini bilib qolibdi-yu, maza qilib tovuq go'shti yegisi kelibdi. «Agar kambag'alning tovuqlarini yemasam, otamning qizi emasman», deb ahd qilibdi-da, to'g'ri so'qmoqdan kambag'alning kulbasiga kelibdi. Momiqdek dumini jilpanglatib, tumshug'i bilan u yoq-bu yoqni iskab, kambag'alga tilyog'lamalik qilibdi:

— Salom, og'a!

— Salomat bo'l, tulkijon!

— Meni cho'pon qilib olmaysanmi?

— Ey tulkijon, esingni o'rmonda qoldirganga o'xshaysan, — debdi kambag'al. — Mening na otim, na tuyam, na qo'yim, na echkim bo'lmasa, atigi yettita tovug'im bor, nahotki shuni boqsang?

— Mayli, men roziman, o'sha tovuqlaringni boqa qolay, — debdi tulki kambag'alga.

Kambag'al hayron bo'lib, o'ylanib qolibdi. Keyin tulkidan so'rabdi:

— Ayt-chi, tulkijon, echkini polizda karam qo'riqlagani qo'ysa bo'ladimi?

— Yo'q, bo'lmaydi qo'shni, — debdi tulki. — Echki hamma karamni yeb qo'yadi.

— Bo'ri qo'y podasiga cho'pon bo'lganini eshitganmisan?

— Yo'q, eshitmaganman.

— Bo'lmasa, tulki tovuq boqqanini ko'rganmisan?

— Yo'q, ko'rganim yo'q. Tulki barcha tovuqlarni yeb qo'yadi.

— Uni qara-ya, shunday bo'lgach, seni tovuq boqqani olamanmi? Axir, barcha tovuqlarimni yeb qo'ysan-ku!

— Yo'g'-e, yaxshi qo'shni, — deb javob beribdi tulki, — men boshqa tulkilarga o'xshagan emasman. Men peshona ter to'kib nonimni halol yeyman.

— E, ishonmayman senga! — deb baqirib beribdi kambag'al. — Agar sen tulki bo'lsang, men tulkinging dumiman. Tulki dumi esa hamma vaqt tulkidan ayyor bo'ladi. Qani, joning borida qochib qol!

— Meni quvma, — deb iltimos qilibdi tulki. — Agar meni tovuqboqar qilib olsang, rohat qilasan. Senga bir go‘zal qayliq topib beraman.

— Meni laqillatmagin tag‘in, tulkijon, — debdi kambag‘al.

— Yo‘q, otam hurmati, rost aytyapman.

— Xo‘p, mayli, tulkijon. Men seni tovuqboqar qilib olaman. Ammo, xizimatingga nima beraman?

— Har kuni bitta tovuq bersang bo‘ladi, — debdi tulki.

Kambag‘al tovuqlariga achinsa ham, «ilojim qancha, uylanishim kerak-ku, xotinsiz uy — sovuq go‘r» debdi-da, chor-nochor tulkinining shartiga ko‘nibdi va unga:


— Yaxshi, — debdi. — Ammo esingda bo‘lsin, go‘zal qayliq topib bermasang, teringni shilib olib qalpoq tikaman.

— Mayli, aytganing bo‘lsin, — debdi tulki kambag‘alga.

Shu kundan boshlab tulki kambag‘alning uyida tovuqboqarlik qilibdi.

Tulki kambag‘alnikida juda yaxshi hayot kechiribdi, issiq uy, yumshoq poxoldan to‘shak, har kuni bit-tadan semiz tovuq!..

Tong otib yulduzlar g‘oyib bo‘lganda, tulki o‘rnidan turib, mayin yungli po‘stinini silkitib, tili bilan tumshug‘ini yuvib, oq mo‘ylovlarini silab tovuqlarni uyg‘otar ekan. Keyin ularni tog‘ning maysazor joyiga haydar ekan. Tovுqlar don-dun terib yeb yurarkan, tulki esa, o‘tda o‘mbaloq oshib, olazarak bo‘lib yotar-kan.




Daradan quyon chiqib qolgudek bo'lsa, tulkini ko'rishi bilanoq orqasiga qochar ekan. Tovuqlardan birini mo'ljallab yurgan kalxat ham tulkini ko'rgan zahoti tog'ning narigi tomoniga uchib ketar ekan. Hatto, chumchuqlar ham tulkini ko'rib tumtaraqay qochishar ekan.

Tulki bo'lsa o'tda yonboshlab, oq mo'ylovlarini silab yotar ekan.

Kech bo'lishi bilan tulki tovuqlarini to'plab uyga qaytar ekan. Keyin kulbaning o'rtasida gulxan yoqib tovuqlardan birining kallasini shartta uzar ekan-da, mis qozonda sho'rva qaynatar ekan. Sho'rva pishgandan so'ng kambag'alga:

— Sen sho'rvasini ich, men go'shtini yeyman, — der ekan.

Shunday qilib, tovuqni tulki yer, hatto, suyaklarini qoldirmas ekan. Qornini to'ydirib olib, yana oppoq mo'ylovlarini silab o'tirar ekan.



Kambag'al tovuqlariga achinsa ham, chor-nochor sabr qilarkan.

Oradan bir kun, ikki kun o'tibdi, oxiri yetti kun ham o'tibdi.

Sakkizinchi kuni kambag'al qarasa, kulbasida bitta ham tovuq qolmabdi. Buning ustiga, tulki va'da qilgan qayliq ham yo'q emish. «Ish chatoq, — deb o'ylabdi kambag'al, — bu ayyor tulki meni aldadi!» Kambag'alning jahli chiqibdi, qo'lga tayoq olibdi-da, tulkini quvlabdi:

— Tovuqlarimni paqqos yeb bitirding, lekin menga qayliq topmading! Hozir sen ayyor tulkini o'ldiraman!

Tulkining joni halqumiga kelibdi. Qo'rqqanidan dumini qisib olibdi, biroq sir boy bermay kambag'alga tilyog'lamalik qilibdi:

— Hoy qo'shni, o'ldirma meni. O'ldirsang, tovuqlaring zoye ketadi. O'ldirmasang, oradan uch kecha-yu uch kunduz o'tmay chiroyli qayliq topib beraman.

Kambag'al tulkinining gapiga ishonib tayoqni tashlabdi.

— Mayli, yetti kun sabr qildim, yana uch kun ham kutay-chi.

Tulki bo'lsa tirik qolganiga shukur qilib, dumini jilpanglatibdi-yu, kambag'alga chiroyli qayliq axtarib ketibdi.

Tulki yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri bir ovulga kelib, aldarning qasri oldida to'xtabdi. O'sha aldarning bir chiroyli qizi bor ekan. Ko'zlari tunde qora, yuzlari shirmondek, sochlari yerga tushar emish-u, kokillari ostida oy bilan yulduzlar o'ynar emish. Aldarning qizi kulib boqsa, go'yo quyosh zar kokillarini yozgandek bo'larmish, agar kipriklarini tushirsa qorong'i tun boshlanarmish. Tulki aldardan gap olmoqchi bo'libdi:

— Tog'lar osmonga qad ko'targan mamlakatda bir boy yigit bor. Uning qo'y-yilqilari, tuyalari son-sanoqsiz. Qasri esa Qora tog'dan ham baland. O'zi sher kabi botir, qaddi-qomati kelishgan, qalbi esa pok. U uylanmoqchi bo'ldi-yu, go'zal qayliq istab har tomonga chopar yubordi.

Keksa aldar tulkinining gapiga laqqa tushibdi. «Shu yigitga qizimni bersam ajoyib ish bo'lardi» deb o'ylabdi va tulkiga:

— Tezda borib xo‘jayining aldar yigitga ayt, qayliq tayyor. Keksa aldar o‘zining go‘zal qizini bermoqchi, degin, — debdi.

Aldar shu gapni tulkiga aytibdi-yu, xizmatkorlarini chaqiribdi:

— Uch kecha-yu uch kunduz o‘tgandan keyin daradan bir bahodir yigit keladi. O‘sha yigit qizimga kuyov bo‘ladi. Sizlar esa ota-bobolarimiz odati bo‘yicha katta to‘y hozirligini ko‘ringlar. Qani, yetti xizmatkor yetti daraga borib to‘yga mehmon aytsin.

Shunda yetti chaqqon xizmatkor yettita shamoldek tezuchar otlarga minib, yetti daradan aldar qizining to‘yiga mehmon aytgani jo‘nabdi.

Ayyor tulki bo‘lsa dumini jilpanglatib kambag‘alning kulbasiga jo‘nabdi.

Tulki uzoq yurib, oxiri kambag‘alning kulbasiga yetib kelibdi.

— Hoy, kambag‘al! — deb qichqiribdi tulki, — xushxabar. Senga bir chiroyli qayliq topdim. U senga o‘xshagan kambag‘al emas, juda boy bir aldarning qizi. Umrimda bunaqa go‘zal qizni ko‘rganim yo‘q, ko‘zlari tun kabi qora, yuzlari shirmondek, sochlari yergacha tushadi, o‘sha kokillarida yulduzlar bilan oy o‘ynaydi.

Bu gapni eshitib kambag‘al kulbasidan chiqibdi-da, quvonganidan echkidek sakrabdi:

— Mendan qaytmasa, xudodan qaytsin, yaxshiligini hech qachon unutmayman.

Kambag‘al juda xursand bo‘libdi. Biroq shu payt u dunyoda eng kambag‘al odam ekanligi, kiyimi tugul, hatto boshiga kiyadigan qalpog‘i ham yo‘qligi esiga tushib, aldarning qasriga, qaylig‘i yoniga nima kiyib

boraman deb qayg'uribdi. Nima qilishini bilmay, tulki-
ga murojaat etibdi:

— Tuzukroq kiyimim bo'lmasa, qanday qilib aldarning uyiga kiraman-u, kelinga qanday ko'rinish bera-man? Ust-boshim qirq yamoq bo'lsa, oyog'imda na chuvagim bor, na belimda xanjarim.

— Tashvish qilma, — debdi tulki kambag'alga. — Mening aytganimni qilsang zarbof kiyiming ham, oltin xanjaring ham bo'ladi. Saxtiyondan chuvak ham kiya-san.

Ertasi kuni kambag'al bilan tulki uzoq yo'lga — aldarning ovuliga jo'nashibdi.

Ular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri aldar turadigan ovulga yaqin yerdagi daryoga yetishibdi. Qarasalar, suvi qaynab turgan tog' daryosi ustidan omonatgina bir ko'prik tashlangan emish.

Shu payt tulki kambag'alga debdi:

— Men seni ko'prikdan daryoga itarib yuboraman. Sen qo'rqmasdan cherkaskang bilan beshmatingni yechib daryoga oqizib yuboraver. O'zing suvdan chiq-da, daryo labida meni kutib o'tir. Senga tilla o'qdonli yangi cherkaska olib kelaman.

— Xo'p, — debdi kambag'al.

Ular ko'prikka qadam qo'yishlari bilan tulki kambag'alni suvga itarib yuboribdi. U ham o'ylab o'tirmay cherkaskasini, beshmatini yechib suvga oqizib yuboribdi, keyin suvdan chiqib ko'prik oldidagi toshda tulkini kutib o'tiribdi.

Ayyor tulki aldarning qasriga yugurib boribdi-yu, aldarga:

— Ey saxiy aldar! Aziz kuyoving ko‘prikka qadam bosgan edi, ko‘prik sinib ketib, u daryoga ag‘anadi. Uning jun cherkaskasi, ipak beshmati, saxtiyon chuva-gi, oltin xanjari-yu qorako‘ldan tikilgan telpagi suvga oqib ketdi, — debdi.

Keksa aldar: «Bu kuyovdan ham ajralding shekilli, qizim» deb o‘ylab qo‘rqib ketibdi-da, tulkidan so‘rabdi:

— Kuyovning o‘zi qani?

— Ko‘prik oldida ust-bosh olib borishimni kutib o‘tiribdi.

— Hoy xizmatkorlar! — deb qichqiribdi aldar.

Xizmatkorlar «Labbay» deb yugurib kelgach, aldar tulkiga kuyovi uchun tuya junidan cherkaska, ipak beshmat, buxor telpak, oltin xanjar, zar bilan tikilgan kamar, saxtiyon chuvak olib chiqishni buyuribdi.

Tulki bu kiyimlarni quchoqlab olib daryo labiga kelib kambag‘alni kiyintiribdi. Bu kiyimlarni kiygan-dan so‘ng kambag‘al sherdek botir, burgutdek mag‘rur, tog‘ kiyigidek go‘zal bir yigitga aylanibdiki, yer yuzida undan xushro‘y, undan botir kishi yo‘q emish.

Shundan so‘ng, kambag‘al bilan tulki aldarning qasriga kirib borishibdi.

— Salom, hurmatli aldar!

— Salomat bo‘linglar, aziz mehmonlar!

Ular qasrga kirishibdi. Bir vaqt aldarning go‘zal qizi ularning qarshisiga chiqibdi. Kambag‘al aldarning go‘zal qizini ko‘rib mahliyo bo‘lib, undan hech ko‘zini uzolmas emish, quvonganidan yuragi gursillab urarmish.

Shunda aldar kambag‘alga qarab:

— Ko‘zimning oq-u qorasi qizimga sendan yaxshi kuyov topolmasman. Mana, qizimni ixtiyoringga ol, qo‘sha qaringlar! — debdi.

Shunday qilib, aldarning go'zal qizi kambag'alga qayliq bo'libdi.

Aldarning qasrida yetti kecha-yu yetti kunduz to'y-tomosha bo'libdi. To'yga barcha daralardan, katta-yu kichik ovullardan mehmonlar kelibdi.

To'y juda katta bo'libdi. Aldar qirqta mol-u qirqta qo'y so'yibdi. Qirqta katta tog'orada arpadan pivo pishiribdi. Yana yetti bochka vino bilan yetti bochka bo'za keltiribdi. Mehmonlarga qirqta tog'orada shirin kulcha tortilibdi, qirqta xizmatkor kabob yetkazib turibdi.

Mehmonlar yetti kecha-yu yetti kunduz ziyofatda bo'libdilar. Aldar turgan ovuldan kabob hidi tog'-u toshlar, dara-yu o'rmonlardan oshib boshqa ovullarga ham yetib boribdi, aldar qasriga yangidan yangi mehmonlar kelibdi.

Kambag'al bilan tulki yetti kecha-yu yetti kunduz ziyofatda bo'lishibdi. Sakkizinchi kuni kambag'al al-darga:

— Ona yurtimga qaytish fursati keldi, — debdi.

— Yaxshi, — debdi aldar va qizi bilan xayrlashibdi. Juda ko'p tilla-yu kumush hamda ipak mollar berib:

— Safaringiz bexatar bo'lsin, — deb fotiha beribdi.

Shundan so'ng, kambag'al go'zal xotini va ayyor tulki bilan o'z kulbasiga qarab yo'l olibdi.

Kambag'al xotinini olib tulkini ergashtirgancha ko'p yo'l yuribdi, tog'-u toshlarni, dara-yu vodiylarni oshib o'tibdi. Uch kun yo'l yuribdi, kambag'alni g'am bosibdi. Xotini undan so'rabdi:

— Ha, aziz kuyovim, xafa ko'rinasiz?

Kambag'al xotiniga javob bermay, yo'lida davom etibdi, keyin sekigina yoniga tulkini chaqirib, qulog'iga shivirlabdi:

— Qo'shnijon, tezda mening kulbamga borib u yerni supurib tozala, go'zal xotanim oldida uyalib qolmay yana!

— Ey qo'shni, — debdi tulki ham astagina, kulbangni yetti kecha-yu yetti kunduzda ham tozalab bo'lmaydi. Yaxshisi, senga boshqa shunday bir joy topayki, unda sen boy aldar kabi umr kechirgin. Xizmatim uchun esa meni tovuqboqar etib ol.

— Yaxshi, — debdi kambag'al va boy aldar kabi sa-royga ega bo'lishini bilib juda xursand bo'lib ketibdi.

Shunda tulki jo'rttaga baland ovoz bilan:

— Ey bahodir yigit! Men oldinroq borib xizmatkorlaringga seni go'zal xotining bilan kelayotganingni xabar qilay, — debdi.

Tulki tog'dagi so'qmoq yo'ldan jo'nabdi. Yurib-yurib, aka-uka devlar turadigan bir qasrga kelibdi. U qasr yo'l ustidagi bir qoyada joylashgan ekan. Qasrning tomi oltindan ekan, qasr atrofidagi o'tloqlarda poda-poda qo'y va echkilar, mol-u ho'kizlar, son-sanoqsiz yilqilar o'tlab, g'ozlar-u tovuqlar donlab yurarkan.

Tulki bu ajoyib chiroyli qasr oldida to'xtab, ovozi boricha qichqiribdi:

— Voydod, yordam beringlar! Tezroq meni bir joyga yashiringlar!

Aka-uka devlar qasrdan yugurib chiqib tulkidan so'rabdilar:

— Hoy tulki, nimaga bu yerda shovqin solyapsan? Yer yorilib tog'lar cho'kdimi yoki toshlar yonib oyog'ing kuydimi?

— Yo‘q, yer yorilgani ham yo‘q, tog‘lar o‘pirilib tushgani ham yo‘q, oyoqlarim ostida toshlar ham yongani yo‘q. Ammo, dengizning narigi tomonidan bu yerga bahaybat polvon devlar kelyapti. Ular bir urganda tog‘ni tolqon qilib yuboradi, qasrlar-u ovullarga, hovli-joylarga o‘t qo‘yib kulini ko‘kka sovuradi. Ular shunday devlarki, toshlarni kemirib, yirtqich hayvonlarni yeydilar, odamlarni-yu devlarni tiriklay yutadilar! Qani, tezroq meni bir joyga yashiringlar!

Aka-uka devlar juda qo‘rqib ketishibdi.

— Ey tulki, sen bilan nima ishimiz bor! Avval o‘zimizning g‘amimizni yeylik! O‘zimiz qayerga yashirinsak, jonimiz omon qoladi? — deb sarosimaga tushishibdi.

Xullasi kalom, aka-uka devlar qo‘rqanlaridan qasrlarini tashlab qochishibdi. Devlarning kattasi bir tomonga, kichigi ikkinchi tomonga qarab yuguribdi. Katta dev vahima bosganidan ko‘zi xiralashib na yo‘lga, na daryoga-yu, na o‘rmonga qarabdi. Tog‘da bir jarlik bor ekan, ko‘rmadan o‘shanga tushib ketibdi-da, til tortmay o‘libdi. Kichik dev bo‘lsa tog‘- u toshlardan, cho‘l-u biyobonlardan o‘tib, juda baland bir qoya ostidagi qorong‘i, zimiston g‘orga yashirinibdi.

Devlarning qochib ketganini ko‘rib, tulki: «O‘lgudek charchadim-da, o‘zim ham. Qani endi semiz bir tovuq bo‘lsa-yu, maza qilib yeb olib, dam olsam» deb o‘ylabdi.

Shunday deb o‘ylabdi-yu, hovliga kiribdi, u yoq-bu yoqqa qarabdi-da, to‘g‘ri tovuqxonaga yuguribdi.

Tovuqxonaga kirib semiz bir tovuqni ushlabdi-yu, shartta tomog‘idan bo‘g‘ib suyaklarigacha qoldirmay paqqos tushiribdi, keyin bir jo‘jaxo‘rozni tutib yeb-

di, undan so'ng, bir o'rdakni ham yeb olibdi. Qornini to'yg'azib, buloqdan suv ichib olgandan so'ng tili bilan oq mo'ylovlarini yalab darvoza oldiga chiqibdi-da, bir tosh ustida kambag'al bilan uning xotinini kutib o'tiribdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgandan so'ng yo'lda kambag'al bilan uning go'zal xotini ko'rinibdi. Ular bunday qarasalar, yo'l bo'yida, baland qoya ustida chiroyli bir qasr turganmish. Qasrga yaqinlashganlarida tulki yo'lga chiqib ularni kulib qarshi olibdi va muloym ovoz bilan:

— Ey botir yigit! Qasringda hamma narsa tayyor. Qani, marhamat, go'zal xotining bilan o'z uyingga kir, baxtli umr kechir! — debdi.

— Ey tulki, baxt doimo senga yor bo'lsin! — debdi kambag'al. — Menga halol xizmat qilganing uchun seni tovuqboqar qilib olaman.

Tulki juda quvonib ketibdi va o'zicha: «Endi men tovuq, g'oz va kurkalarni istaganimcha yeyman. Dunyoda mendan baxtli tulki yo'q» deb o'ylabdi.

Shundan so'ng kambag'al bilan uning go'zal xotinini chiroyli qasrga boshlab kiribdi.

Kambag'al xotini bilan shu ajoyib qasrda xuddi boy aldardek yashay boshlabdi.

Tulki bo'lsa tovuqboqarlik qilib, o'rdag-u g'ozlarni, kurkalarni qo'riqlar emish, har kecha semiz tovuqlardan birini yeb, qornini to'ydirib, yumshoq poxolda yotarmish.

Tulki tovuqboqar bo'lgandan so'ng kunlar, oylar o'tibdi. Bir kun kambag'al qarasa, tovuq va g'ozlar juda kamayib qolgan emish. Shunda u tulkiga:

— Hoy tulki, tovuqlarimizga yaxshi qara, — debdi.

— Xo‘p bo‘ladi, — debdi tulki, — tovuq, o‘rdaklaringni ko‘zimning qorachig‘idek saqlayman.

O‘zi esa xudoning bergan kuni yo tovuq, yo o‘rdak, yo g‘ozni g‘ippa bo‘g‘ib yer emish.

Xullasi kalom, oradan yana bir qancha vaqt o‘tgandan keyin qasrda na birorta tovuq, na o‘rdag-u, na g‘oz qolibdi. Ochko‘z tulki hammasini yeb tamom qilibdi.

Kambag‘al buni ko‘rib jahli chiqibdi, qo‘liga tayoq olib tulkini quvibdi:

— Ko‘zimdan yo‘qol! Sen ayyor tulkiga tovuqlarni yeyishni ko‘rsatib qo‘yaman!

Tulki qarasa, ish chatoq, kambag‘alning g‘azabi oshgan.

Shunda:

— Hoy qo‘shni, meni urma, bo‘lmasa aka-uka devlarni chaqirib kelaman, ular o‘zingni ham, go‘zal xotiningni ham tiriklay yutadi! — debdi.

Kambag‘al tulkining gapiga quloq solmay, uni tutib olib o‘lgudek uribdi.

Tulki zo‘rg‘a qochibdi-yu, tog‘- u toshlardan, dar-yo-yu ko‘llardan o‘tib, to‘g‘ri kichik dev yashirib yotgan qorong‘i g‘orga boribdi.

— Hoy dev, — debdi unga tulki, — sening qasringda dengizning narigi tomonidan kelgan bahaybat dev emas, oddiy bir kambag‘al yashaydi. U qip-yalang‘och, hech narsasi yo‘q, quyondek qo‘rqoq, eshakdek ahmoq...

O‘rmondagi barcha hayvonlarning ichida tulkidan ayyor maxluq yo‘qligini bilgan dev uning gapiga ishonmabdi.



— Agar gaping rost bo'lsa, qani, men bilan o'sha aldamchi kambag'alning oldiga yur, — debdi dev.

Tulki esa u yerga borib kambag'aldan kaltak yeyishdan qo'rqibdi.

— Jon-dilim bilan birga aldamchi kambag'alnikiga borar edim-u, ammo hayvonlar homiysi Afsati meni ziyofatga chaqirgan, — deb bahona qilibdi.

Tulkining ayyorlik qilayotganini sezib dev uni dumidan tutib olibdi-da, oyog'iga qayish bilan bog'lab qasr tomon yo'l olibdi. Dev tog'-u toshlardan, daryo-yu daralardan tulkini yerda sudrab ketibdi.

Bir vaqt kambag'al bilan xotini qarasalar, uzoqdan bir dev kelayotgan emish, uning oyog'iga esa, ayyor tulki bog'langan emish.

— Hoy, xotin, hozir dev kelib bizni yeydi! — debdi.

— Qo'rqma, — debdi unga xotini. — Men hozir devni ham, tulkini ham haydab yuboraman.

Aldarning go'zal qizi yugurib minoraga chiqibdi-da, tulkiga qarab qichqiribdi:

— Hoy, ahmoq tulki! Senga eng katta devni keltir degandim-ku. Bu erimning nonushtasiga bir six kabob ham bo'lmaydi-ku!

Dev qo'rqib ketibdi. «Agar bitta dev unga bir six kabob bo'lmasa, kim biladi, u bir o'tirganda qancha devni yer ekan» deb o'ylabdi-yu, yana tog'-u toshlarni, daryo-yu daralarni oshib qochibdi, tulki bo'lsa devning oyog'ida osilgancha hadeb chinqirar emish.

Dev yeldek tez qochib borib, daradagi o'sha qorong'i g'orga yashirinibdi. Bir payt qarasa, oyog'ida o'lik tulki osilib yotgan emish.

«Meni aldading-a, ayyor tulki» deb o'ylabdi dev va tulkini yechib bir otgan ekan, tog'lar-u dovonlar, daryo-yu ko'llar ustidan uchib kambag'alning qasriga tushibdi.

Tulkining o'ligini ko'rib kambag'al juda quvonibdi va xotiniga:

— Mana buni qara, xotin! Tulki bizni halok etmoqchi bo'lgani uchun tog'dagi ajinalar adabini beribdi! — debdi-da, borib tulkining terisini shilib olibdi. Tulki terisidan xotini kambag'alga telpak tikib beribdi.

Shundan so'ng, kambag'al bilan uning go'zal xotini o'sha qasrda uzoq umr kechirishibdi, yegani oldida, yemagani ketida bo'lib, murod-maqсадlariga yetishibdi.

SEHRLI QALPOQ

Qora tog'da kambag'al er-u xotin yashar ekan. Eri ni Xarzaftid, ya'ni qashshoq deb chaqirisharkan, xotini ning nomi Aminat ekan.

Ularning na qo'yi, na echkisi, na ho'kizi, na oti, na aravasi va na boltasi bor ekan. Uyda faqat bitta-yu bitta Dugal-Dugal degan kurkasi bor ekan, xolos.

Ular bunday kambag'alchilikka ko'p chidashibdi. Nihoyat, sabr kosasi to'lib, er xotiniga shunday debdi:

— Xotinjon, otangnikiga borib ot-arava so'ra, kun-u tun ishlab pul topaman. Tushgan pulga ikkita ho'kiz sotib olamiz. Keyin ot-aravani otangga qaytarib beramiz.

Ertasi kuni Aminat barvaqt turibdi, non yopibdi, kurkani oyog'idan yog'och qoziqqa bog'lab qo'yibdi-da, o'zi ota-onasi yashaydigan boshqa ovulga jo'nabdi.

U otasining uyiga kelgach, kambag'alligidan ach-chiq-achchiq yig'lab, otasiga:

— Ota, bizga ot-aravangizni berib turing. Xarzaftid kun-u tun ishlaydi. Tushgan pulga biz ikkita ho'kiz sotib olamiz. Keyin ot-aravani qaytarib beramiz, — debdi.

Chol bechora qizi va qashshoq kuyoviga achinib, ot-arava beribdi.

Kun o'tibdi, hafta o'tibdi. Xarzaftid kun-u tun mehnat qilibdi. Sakkiz kunda bir ho'kizga yetadigan pul topibdi-da, bir ho'kiz olibdi.

Bundan ular juda quvonishibdi.

— Ovozi tinmas kurkani va shoxdor ho'kizni yaxshilab boqaman, — debdi Aminat eriga, — sen tinmay ishlayver.

Xarzaftid yana kun demay, tun demay ishlayveribdi. Quruq cho'ntak Xarzaftid ikkinchi ho'kizni olish harakatiga tushibdi.

O'sha o'lkalarning tog', jar va o'rmonlarida uch qaroqchi-abrek kezib yurar ekan. Ular Xarzaftidning bozorda ho'kiz sotib olganini ko'rib qolishibdi. Uning hovlisidagi ot-aravani ham ko'rishibdi. Qaroqchi-abreklar bu ot bilan ho'kizni o'g'irlamoqchi bo'lishibdi.

Bir gal Xarzaftid aravani qo'shib o'tin terish uchun o'rmonga boribdi. Shunda qaroqchi-abreklar yugurib kelib:

— Ot bizga, arava senga, — deyishibdi Xarzaftidga.

Xarzaftid qo'rqqanidan otni qaroqchi-abreklarga tashlab qochibdi. Aravani ham qoldiribdi. Uyga kelib, xotini Aminatga:

— Xotin! Sho'rimiz quridi! Otni qaroqchi-abreklar tortib olishdi. Aravani ham qoldirdim, — debdi.

Bechora er-xotin qayg'ura-qayg'ura: «Ho'kizni ovuldagi bozorda sotamiz. Aravamiz bo'lmagandan keyin ho'kizning nima keragi bor?» degan qarorga keli-shibdi.

Ertasi kuni Xarzaftid ho'kizini uzoq ovul bo-zoriga haydabdi. Yo'lda ketayotib: «Darhaqiqat endi ho'kizning nima keragi bor bizga?» deb o'ylabdi.

Xarzaftid jarlik yo'ldan ketayotganida uch qaroq-chi-abreklarning biri shu yerdagi oq qoyada, ikkinchisi nariroqda, qora qoyada, uchinchisi esa undan narida, kulrang qoyada o'tirib uni kutib turishgan ekan.

Xarzaftid oq qoyaga yetishi bilan bir kishi:

– Omading kelsin, Xarzaftid! – deb qichqiribdi.

– Sening ham omading kelsin! – javob qilibdi Xar-zaftid.

– Kurkangga necha pul so'raysan? – deb so'rabdi qaroqchi-abrek.

– Qanaqa kurkaga, xudo ko'zingni ko'r qilgur! – debdi Xarzaftid achchiqlanib, – bu kurkamas, ho'kiz! Yoki ko'rmayapsanmi?

Xarzaftid yo'lida davom etibdi. Ko'pmi, ozmi yurib, qora qoyaga yetibdi. Qarasa, u yerda ham bir kishi o'tirganmish. Bu ikkinchi qaroqchi-abrek ekan.

– Xudo yor bo'lsin, – debdi abrek Xarzaftidga.

– Senga ham! – javob qilibdi Xarzaftid.

– Kurkangga qancha so'raysan?

Xarzaftidning jahli chiqib, qichqirib yuboribdi:

– Sen qayerda tog'day keladigan kurka ko'rgansan? Yoki buning ho'kizligini ko'rmayapsanmi? Xudo so'qir qilgur!

Qaroqchi-abrek ayyorona kulibdi-da, Xarzaftidga:

— Yaxshisi, ko‘zingni yaxshiroq ochib qara. Shunda bozorga ho‘kiz emas, kattakon kurka haydab ketayotganingni ko‘rasan! — debdi.

Xarzaftid unga bir nima demay, yo‘lida davom etibdi. Yo‘lda ketaturib: «Rostdanam ho‘kiz deb kurka haydab kelayotgan bo‘lsam-a?» deb o‘ylabdi.

Xarzaftid ko‘zini ishqalab, ho‘kiziga tikilibdi: oyog‘ida tuyog‘i, boshida shoxi bor. Orqasida esa dumi likillab kelyapti. Ho‘kizga o‘xshaydi. Anavi ikkitasi bo‘lsa, kurka, dedi. «Tavba, tog‘ iblisi meni ham ko‘zdan qoldirganga, ham aqldan ozdirganga o‘xshaydi» deb o‘ylabdi.

Bechora Xarzaftid yo‘ldagilar oddiy yo‘lovchi bo‘lmay, ko‘ngli qora qaroqchilar ekanini bilmas va aldov yo‘li bilan shoxdor ho‘kizini olib qo‘ymoqchi ekanlaridan bexabar edi.

Xarzaftid yana yo‘lida davom etibdi.

U ko‘pmi, ozmi yurgach, nihoyat, kulrang qoyaga yetibdi. Qarasa, bir tog‘lik qoyada o‘tirib olib, xuddi tirishib ishlayotgan kishiday, xanjari bilan tosh kesa-yotganmish.

— Hoy, Xarzaftid, yo‘l bo‘lsin! — deb qichqiribdi u kishi ham.

— Ovulga, bozorga, — debdi Xarzaftid.

— Kurkangni sotmaysanmi?

«Xudo meni ko‘zdan ham, aqldan ham judo qilibdi, — deb o‘ylabdi Xarzaftid. — Bozorga shoxdor ho‘kiz emas, kurka olib ketayotgan ekanman».

Nihoyat, u:

— Ovulga hali ancha yo‘l bor. Agar durust to‘lasang, kurkani senga sotib ketaman, — debdi tog‘lik kishiga.

Shunday qilib, Xarzaftid shoxdor ho'kizini kurka bahosida sotibdi. Keyin orqaga — qishlog'iga qaytibdi. Kelib qarasa, qizil boshini liqillatib, dumlarini yoyib kurkasi Dugal-Dugal hovlida yurganmish. Xarzaftid ko'zini ishqalab, katta ochganicha xotini Aminatdan so'rabdi:

— Xotin, men bozorga ho'kizni olib ketdimmi, kurkanimi?

— Albatta, ho'kizni-da, — javob qilibdi xotini.

Shundan keyingina Xarzaftid uchraganlar oddiy yo'lovchi bo'lmay, balki uch qaroqchi-abrek ekanini payqabdi.

Qaroqchi-abreklar esa, o'rmondagi sayhon yerga to'planishibdi va: «Xarzaftidga qaynatasi bergan otni tortib oldik, katta shoxdor ho'kizini esa suv tekinga sotib oldik», — deb rosa kulishibdi. Keyin ho'kizni ovuldagi bozorda sotib, pulini taqsimlab olishibdi.

Xarzaftid bilan xotini yana qashshoqligicha qolaveribdi. Yo'qchilikka bir kun chidashibdi, bir yil chidashibdi. Hovlida faqat Dugal-Dugal qolibdi.

Xarzaftid qashshoqlikdan qutulish yo'lini ko'p o'ylabdi, o'ylab topgach, xotini Aminatga:

— Xotin, otangni yoniga borib, bir qopchiq tilla bilan bitta qo'y teri so'ra, — debdi.

Ertasi kuni Aminat barvaqt turib otasinikiga boribdi.

— Dada! — debdi u otasiga, — aravadan ham, otdan ham ajralib qoldik. Ularni qaroqchi-abreklar tortib olishdi. Aravamiz esa, o'rmonda qolib chirib ketdi. Bizga bir qopchiq tilla bilan Xarzaftidga qalpoq tikish uchun bir qo'y teri berib turing.

Otasi qizi va kuyovi Xarzaftidga bir qopchiq tilla bilan bitta qo'y teri beribdi.

Aminat uyga qaytgach, Xarzaftid unga:

— Qaroqchi-abreklar otimizni, shoxdor ho'kizimizni tortib olishdi. O'shalar deb kunlab, yillab yo'qchilikda qiynaldik. Endi ularni men aldamoqchiman. Hamma narsani ko'proq qilib qaytarib olib, baxtli va badavlat yashamoqchiman, — debdi.

Xarzaftid o'sha qo'y teridan o'ziga qalpoq tikibdi, ikki cho'ntagini tillaga to'ldirib, xotiniga:

— Endi men bozorga boraman. Bu chaldevorimizga yetti kecha-yu yetti kunduz deganda qaytaman. Agar kelmasam, meni ham aravamiz, otimiz, shoxdor ho'kizimiz singari yo'q bo'ldi deyaver, — debdi.

Shunday qilib, Xarzaftid uzoq yo'lga, ovuldagi bozorga jo'nabdi.

U jarlikdan ketayotgan ekan, yana o'sha uch qaroqchi-abreklar uchrabdi.

— Yo'l bo'lsin, qashshoq? — deb so'rashibdi ular.

— Ovulga, bozorga ketyapman, — debdi Xarzaftid.

— Quruq cho'ntak Xarzaftid, bozorda nima qilasan?

— Yeyman-ichaman! Ichaman-yeyman!

— Esi bor tog'lik uchun oshna-og'aynisiz, bir o'zi yeb-ichish uyat.

— Rost aytasizlar! — debdi Xarzaftid. — Mening otam tirikligida non-u tuzini nafaqat do'stlaridan, hatto dushmanlaridan ham ayamasdi, — debdi Xarzaftid.

— Sen chindan ham ota o'g'li bo'lsang, bizni mehmon qil! — deyishibdi qaroqchi-abreklar qashshoqqa.

Lekin, o'zlari esa uni masxara qilib sekin kulib qo'yishibdi.

— Otamning arvohi haqqi, ont ichaman, men sizlarni shunday mehmon qilayki, uni to o'lguncha esdan chiqarmaysizlar! — debdi Xarzaftid. — Tong otganda meni ovuldagi bozorda kutinglar.

Xarzaftid yo'lida davom etib, nihoyat ovul bozoriga yetibdi. U yerda ichgulik, yegulik sotadigan boyni-ning uyiga kiribdi.

Xarzaftid boyga bir siqim tilla berib:

— Ertaga uyingga uchta mehmon bilan kelaman, — debdi. — Bizga istaganimizcha yegulik va ichgulik berasan. Ziyofat tugaganda men qalpog'imni chapga, o'ngga buraman-da, «Qalpoqjonim, qo'y teri qalpog'im!» deyman. Shunda sen yaxshi to'lov uchun minnatdorchilik bildirib, hurmat bilan darvozagacha kuzatib qo'yasan, — debdi.

— Xo'p, sening aytganingcha bo'laqolsin! — debdi boy Xarzaftidga.

Keyin Xarzaftid ikkinchi boynikiga boribdi. Unga ham tilla berib, birinchi boyga aytgan gaplarini aytibdi.

Ertasi kuni Xarzaftid barvaqt bozorga yo'l olibdi. Bozorda oltin xanjarlarni, o'q-yoylarni, uloqchi otlarni, xachir va tuyalarni tomosha qilibdi. Bir mahal qarasa, qaroqchi-abrek-klar ham bozor aylanib yurganmish.

— Salom! — debdi Xarzaftid ularga.

— Salomat bo'li! — javob qilishibdi qaroqchi-abrek-klar.

— Mening otam non-tuzini tanish va do'stlaridan, hatto notanish va dushmanlaridan ham ayamagan.

Men ota o'g'liman. Yuringlar, boynikida hammangizni mehmon qilaman, — debdi.

— Quruq cho'ntak, ziyofatga ancha pul kerak, sen qayerdan olasan uni? — so'rashibdi qaroqchilar.

— Menga pulning keragi yo'q! — debdi Xarzaftid. — Mening qalpog'im bor: «Qalpoqjonim, qo'y teri qalpog'im!» desam bo'ldi. Bir tiyin ham to'lamay ketaveraman. Uy egasi esa yana ko'p to'lading, deb rahmat aytadi. Hatto darvozagacha hurmat bilan kuzatib chiqadi.

Qaroqchi-abreklar bu so'zga ishonmasalar ham Xarzaftidning orqasida boraverishibdi.

Shunday qilib, Xarzaftid boyning uyiga kirib:

— Hammamizga to'ygunimizcha yegulik va ichgulik keltir!

Boy ko'katlar, sopol ko'zachalarda vino, kumush laganlarda go'sht keltirib qo'yibdi. Idish-tovoqlarning og'irligidan uch oyoqli stollar qayishib ketibdi.

Boy to'rt kishi oldiga butun ovulga yetadigan somsa qo'yibdi.

Qashshoq bilan qaroqchi-abreklar yeyishibdi, ichishibdi. Xarzaftid kamroq ichibdi, uch qaroqchi-abrek bo'lsa, o'lgudek ichishibdi. Vino, pivo va bo'zadan ularning ko'zlari yumilay deb qolibdi. Shunday bo'lsa ham ichishaveribdi. Nihoyat, qorinlari meshday shishib ketgach, Xarzaftid qo'y teri qalpog'ini boshiga kiyib, o'ng tarafga, keyin chap tarafga buribdi-da:

— Qalpoqjonim, qo'y teri qalpog'im! — deb qo'yibdi.

— Shunchalik ko'p pul to'laganing uchun senga katta rahmat! Xudo madadkor bo'lsin senga! — debdi boy unga va mehmonlarni darvozagacha kuzatib qo'yibdi.

Qaroqchi-abreklar hayron qolishibdi. Ular: «Tavba, shunday katta ziyofat qilib, bir tiyin ham to‘lamadi, faqat, qo‘y teri qalpog‘ini burdi, xolos, yana xo‘jayin-ning tashakkur aytganini qarang» deb o‘ylashibdi. Keyin ular Xarzaftidga:

— Xarzaftid, ajoyib qalpog‘ingni bizga sot! — deyishibdi.

— Agar qalpog‘imni sizlarga sotsam, do‘stlarimni qanday mehmon qilaman? — debdi-da, Xarzaftid qalpog‘ini sotmabdi.

Xarzaftid bilan uch qaroqchi abreklar yana bozor aylanishibdi. Ular qora chakmonlar, Buxoro telpaklari, Eron matolari va gilamlarini tomosha qilishibdi. Bozor aylanib charchagach:

— Uni qaranglar, kun ham tushdan og‘ibdi. Katta ziyofatga boradigan vaqt ham bo‘libdi. Yuringlar, endi boshqa boynikiga kiramiz, — debdi Xarzaftid qaroqchilarga.

Shunday qilib, hammalari ikkinchi boyning uyiga kirishibdi. Boy ularga katta bochkada vino keltiribdi va har biriga butun qo‘ydan pishirilgan kabob qo‘yibdi.

Qaroqchilar qorinlari to‘yguncha yeyishibdi-ichishibdi.

Kabobni yeb, barcha vino, barcha pivoni ichib tugatishibdi, shoxlarni, kumush laganchalarni polga uloqtirishibdi. Shundan keyin Xarzaftid qo‘y teri qalpog‘ini kiyibdi-da, bir o‘ngga, bir chapga burib:

— Qalpoqjonim, qo‘y teri qalpog‘im! — debdi.

Uy egasi esa:

— Hech kim, hech qachon menga bunchalik ko‘p pul to‘lamagan edi. Bu saxiyliging uchun xudo senga

yor bo'lsin. Yo'ling hamma vaqt yorug' bo'lsin! — debdi unga.

Xarzaftid bilan uch qaroqchi bozorga chiqishibdi. Qaroqchi-abreklar Xarzaftidga yopishib olishibdi:

— Qalpog'ingni sot, istaganingcha tilla, kumush ol! — deyishibdi.

— Bunday qalpoq dunyoda yo'q, — debdi Xarzaftid. — Boynikida yeysan, ichasan. Tilla ham, kumush ham to'lamay ketaverasan. Faqat qalpoqni kiyib, bir o'ngga, bir chapga burib: «Qalpoqjonim, qo'y teri qalpog'im!» deb qo'ysang bas. Xo'jayin senga tashakkur aytadi.

Qaroqchi-abreklar qalpoqni juda yaxshi ko'rib qolishibdi va:

— Qancha oltin-u qancha kumush so'raysan? Sendan hech narsa ayamaymiz, — deyishibdi.

— Menga ko'p narsa kerakmas: bir qop oltin, ikkita shoxdor ho'kiz va aravaga qo'shilgan ot bersalaringiz kifoya, — debdi Xarzaftid.

Qaroqchi-abreklar: «Qashshoqni uchinchi marta laqillatdik» deb o'ylab, juda quvonishibdi. Keyin Xarzaftidga ikkita shoxdor ho'kiz, ot-arava sotib olishibdi, yoniga bir qop oltin qo'shib berishibdi.

— Seni o'la-o'lguncha unutmaymiz, yaxshi bor! — deb uzatib qolishibdi ular.

Xarzaftid oltinni aravaga ortibdi, ho'kizlarni orqasiga bog'labdi, keyin aravaga o'tiribdi-da, xirgoyi qilib ovuliga jo'nabdi.

Qaroqchi-abreklar shu ondayoq bozordagi eng badavlat kishining uyiga yugurishibdi. Ular sehrli qalpoqni sinab ko'rmoqchi bo'lishibdi. Ular kela solib:

— Hammamizga yegulik ham ichgulik keltir! — deb qichqirishibdi boyga.

Ular bir bochka vino ichishibdi, uchta qo'y, uch bog' piyoz, uning ustidan uch tog'ora somsa yeb, yorilgudek bo'lishibdi. Yeya olmagan narsalarini yerga uloqtirib, icholmagan vinolarini to'kib, qayta-qayta yangi yegulik va ichgulik chaqirishibdi.

Bir vaqt abreklerden bittasi qo'y teri qalpoqni kiyib, o'ngga, chapga buribdi-da:

— Qalpoqjonim, qo'y teri qalpog'im! — debdi.

Keyin qaroqchi-abrekler ketmoqchi bo'lishibdi. Boy esa qo'lga gavron olib ularga tashlanibdi.

— Ziyofat uchun, ovqat uchun, uyni iflos qilganlaring uchun, sindirilgan idishlar uchun pul to'lalaring, — debdi boy ularga.

Qaroqchi-abrekler hayron bo'lishib, boyga baqirishibdi.

Boy esa ularning gapiga quloq solishni ham istamabdi, gavron bilan savalay boshlabdi:

— To'la! To'la deganda to'la!

Qaroqchi-abrekler noiloj qolishibdi. Hammalari cho'ntaklarini kovlashtirib, topgan-tutganlarini boyga berishibdi.

Keyin qaroqchi-abrekler boshqa boynikiga yo'l olishibdi.

«Sekin gapirilsa, boy qalpoqning sehrli ekaniga ishonmaydi. Shuning uchun qattiqroq so'zlash kerak» deb o'ylashibdi ular.

Shunday qilib, boshqa boynikida ham yeb-ichishibdi. U boy qo'y emas, buqa so'yib beribdi. Vinolar xuddi tog'dan tushayotgan daryoday oqib kelibdi. Qaroqchi-

lar qorinlariga sig'magan noz-u ne'matlarni yerga sochishibdi, to'kishibdi, idishlarni chil-chil qilishibdi. Keyin ikkinchi abrek qalpoqni kiyib:

— Qalpoqjonim, qo'y teri qalpog'im! — deb baqiribdi.

Shundan so'ng qaroqchilar keta boshlashibdi. Boy esa qo'lida gavron o'ynatib:

— Ovqat uchun, pivo uchun, vino uchun, iflos qilganlaring uchun, sindirilgan idishlar uchun oltindan cho'zib qo'ylaring, — deb qichqiribdi.

Biroq qaroqchi-abreklarda hech qanday oltin qolmagan, birinchi boy ularning bor-yo'g'ini olib qo'ygan ekan.

Shunday qilib, uy egasi:

— Eh, muttaham abrek! Mana senlarga qo'y teri qalpoq! Mana senlarga ovqat bilan vino! Mana senlarga to'kib-sochish, mana idish sindirish! — deb ularni sava-lay boshlabdi.

Qaroqchi-abrek! zo'rg'a qochib qutulishibdi.

— Qalpoqni olamiz deb kim aytdi?

— O'zing aytding!

— Men emas, o'zing!

Qaroqchi-abrek! bir-birini shunday do'pposlashibdiki, oxiri holdan toyib yiqilishibdi. Ular hali-hali o'rnidan turolmay o'sha joyda yotgan emish.

Xarzaftid ko'p yuribdimi, oz yuribdimi, kim bilsin, nihoyat, uyiga yetib kelibdi. U qaroqchi-abreklarni qanday aldaganini xotini Aminatga hikoya qilib beribdi.

Keyin Aminatga:

— Ot bilan oltinni otangga beramiz. Ikkita shoxdor ho'kiz bilan aravani o'zimiz olamiz, — debdi.

Xarzaftid ho'kizlarni aravaga qo'shib, kun-u tun ishlay boshlabdi. Oradan kunlar, yillar o'tib, Xarzaftid qashshoqlikdan qutulibdi.

Shundan beri er-u xotin to'q yashashar ekan.

Lekin endi odamlar Xarzaftidni «Xarzaftid» deb emas, «Qalpoq» deb chaqirishadigan bo'lishibdi.

TUYA AHMOQLIGIDAN O'Z BOSHIGA YETGANI

Bor ekan, yo'q ekan, beshta do'st: ayiqpolvon, bo'ri, tulki, bo'rsiq va tuya bo'lgan ekan. Qirchillama sovuq boshlanganda ularning yegani ovqatlari qolmabdi.

Bir kuni tulki ayiqpolvon bilan bo'riga debdi:

— Kelinglar, tuyani so'yamiz, uning go'shti bilan butun qishni chiqarib olamiz.

Ayiqpolvon bundan quvonib ketibdi va debdi:

— Shunday qilinsa, yomon bo'lmas edi-yu, ammo bunga tuya rozi bo'larmikin?

— Bu yog'idan xavotir olma, — debdi tulki, — o'zim to'g'rilayman. Tuyaga: «Bahor kelib o't-o'lanlar ko'karishi bilanoq, seni tiriltiramiz», deb aytaman. U shunday ahmoqki, bu gapga laqqa tushib ishonadi-qo'yadi.

Tulkining bu taklifiga ayiqpolvon bilan bo'ri rozi bo'lshibdi:

— Seningcha bo'lsin. Bor, uni ko'ndir, so'yish bo'lsa, o'zimiz boplaymiz.

Tulki tuyani chaqirib avray boshlabdi:

— Tuya, ho tuya! Sen bilan chin yurakdan gaplashmoqchiydim, lekin mening gapimga ishonmaysan, yana

xafa bo'lib qolasanmi deb qo'rqaman. Senga o'zi to'g'ri gapni aytsa ham egri deb tushunasan.

— Bo'l, intiq qilmay ayta qol, xafa bo'lmayman. Nima demoqchisan o'zi?

Shunda tulki kulib qo'yibdi-da, uni avrashga tushibdi.

— Tuya, kel endi, biz seni so'ya qolaylik, erta bahorda maysalar ko'karganda yana tiriltiramiz. So'yishni uddasidan chiqqanimizdan keyin, tiriltirish ham qo'limizdan keladi. Mabodo, o'z ajaling bilan o'lib-netib qolsang, u vaqtda seni tiriltirib bo'lmaydi.

Tuya tulkining gapiga ishonib, rozilik beribdi.

Tulki tuyani ayiqpolvon bilan bo'ri oldiga boshlab kelibdi, ular uni so'yishibdi. Tulki bilan bo'rsiq tuyaning kalla-pochasini anhorga yuvgani olib borishibdi. Yuvishibdi, tozalashibdi, shunda tulki tuyaning yuragini kabob qilib yeb qo'yibdi, bo'rsiqqa esa undan bir tishlamginasini beribdi.

Bo'rsiqning bundan jahli chiqib, tulkiga debdi:

— Qorningizni to'ydirishga siz to'ydirdingiz-u, javobgarligi bizga ekan-da. Bo'ri bilan ayiqpolvonga nima javob qilamiz?

Tulki uni yupatgan bo'lib, debdi:

— Xijolat bo'lma, sendan so'rab qolishsa, g'ing demay ko'zingni lo'q qilib menga qarab turaver.

Tulki bilan bo'rsiq kalla-pochani ko'tarishib, ayiqpolvon bilan bo'rining oldiga borishibdi.

Qarasalar, tuyaning yuragi yo'q emish, ular bor ovozlari bilan baqirib yuborishibdi:

— Yurak qani, aytinglar, bo'lmasa, jazolaringni beraman.

Bo'rsiq ko'zini baqraytirib tulkiga qarabdi.

Shunda tulki bo'rsiqqa qarab debdi:

— Buni qaranglar-a, butun boshli yurakni yeganda menga qiyo boqmagan edi, endi bo'lsa o'qrayib qaraydi-ya.

Ayiqpolvon bilan bo'ri bo'rsiqqa yopishib ketishibdi:

— Bu safarcha kechiramiz, bilib qo'y, yana bu noma'qulchilikni qilsang, ayab o'tirmaymiz.

Bo'ri bilan ayiqpolvon tuyaning kallasini bo'rsiqqa berib:

— Bor, buni kuydirib kel! — deyishibdi.

Bo'rsiq chor-nochor kallani kuydiribdi.

Tulki shu payt bo'rsiqning ketidan bekinib borib, astagina miyani sug'urib olib yebdi-da, kallani keltirib ayiqpolvon bilan bo'rining oldiga qo'yibdi.

Ular qarashsa, miya yo'q emish.

Tulkidan so'rashibdi:

— Miya qani?

— Ayiq bilan bo'rini aqlli deganning o'zi ahmoq: miyani qidirypisizlarmi hali? Agar tuyada miya bo'l-ganda o'zini o'zi so'ydirib o'tirarmidi?

Ayiq bilan bo'ri tulkining gapiga ishonishibdi.

Aldamchi tulki, sening hiylalaringni kim bilmaydi?..



MUNDARIJA

GRUZIN XALQ ERTAKLARI

Mehnat bilan topilgan tanga	4
Ovchi	6
Uch opa-singil	11
Baxt	19
G'aroyib qalpoq	21
Shayton yugani	31
Zangori gilam	34
Podachi Bichia	44
Shaytonni yenggan ayol	48
Pulini saqlash uchun boyga berib qo'ygan kambag'al haqida	54
Yolg'onni qanday tuzatish mumkin	56
Ikki shapaloq	59
Yo'lbars – mushuk homiysi	61
Arslon bilan quyon	63

OZARBAYJON XALQ ERTAKLARI


Sariq qovun	68
Uch usta	72
Mard bilan Nomard	79
O'rgatilgan mushuk	87
Podsho bilan bog'bon	89
Dangasa haqida ertak	95
Aqli bola	101
Kambag'al yigit va ilon	108
Sichqon bilan mushuk	113
Arilar g'azabi	118
Kabutarning qanday qilib in yasashni o'rgangani haqida	119

ARMAN XALQ ERTAKLARI

Afandi haqida ertak.....	122
Ilon bilan Shivar	130
Qo'zichoq uka	135
Huri-pari qushi	142
Dijiko	155
Uch og'a-ini.....	159
Dangasa	163

OSETIN XALQ ERTAKLARI

Qashshoq bilan dev.....	172
Baland Qoya minorasining go'zali.....	188
Pop va Zondabi	201
Hukmdorning kelini.....	205
Xon va kambag'al dehqon.....	217
Sovchi tulki.....	225
Sehrli qalpoq	240
Tuya ahmoqligidan o'z boshiga yetgani	252



«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-28-729-7



9 789943 287297